

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY TA’LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI**

**TOSHKENT DAVLAT
TIBBIYOT UNIVERSITETI**
**huzuridagi pedagog kadrlarni qayta tayyorlash va
ularning malakasini oshirish tarmoq markazi**

**TOSHBKOVA MOHIRA XASANOVNA
ORZIQULOV BAXROM XOLMURADOVICH
ORZIQULOVA GULBAHOR USMONOVNA**

DINSHUNOSLIK

O‘QUV QO‘LLANMA

Toshkent – 2026

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY TA’LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI**

**TOSHKENT DAVLAT
TIBBIYOT UNIVERSITETI
huzuridagi pedagog kadrlarni qayta
tayyorlash va ularning malakasini oshirish
tarmoq markazi**

**TOSHBKOVA MOHIRA XASANOVNA
ORZIQULOV BAXROM XOLMURADOVICH
ORZIQULOVA GULBAHOR USMONOVNA**

DINSHUNOSLIK

O‘QUV QO‘LLANMA

Toshkent – 2026

Dinshunoslik. O'quv qo'llanma. M.X.TOSHBKOVA, B.X.ORZIQULOV.
G.U.ORZIQULOVA, T.: 2026, –188 bet.

Dinshunoslik fani bo'yicha o'quv qo'llanma universitet Ilmiy Kengashining «10» iyun 2026 yilda bo'lib o'tgan №10- sonli majlisida ko'rib chiqildi va chop etishga tavsiya etildi.

O'quv qo'llanma 1-bosqich bakalavriat talabalari uchun “Dinshunoslik” fanidan dinning mohiyati, uning falsafiy-ijtimoiy talqinlari, unga berilgan turli ta'riflar, ko'hna va zamonaviy diniy ta'limotlar haqida atroflicha ma'lumotga ega bo'lishlari uchun mo'ljallangan. Shuningdek mazkur qo'llanmada yaqin yillar davomida dinshunoslik sohasida to'plangan qator ilg'or tajribalar natijasi sifatida vujudga kelgan risola va qo'llanmalar hamda xorijiy tillarida yozilgan tadqiqot natijalaridan samarali foydalanilgan.

Mualliflar:

M.X.Toshbekova: ToshDavTU huzuridagi pedagog kadrlarni qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish tarmoq markazi

B.X.Orziqulov: Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti, Falsafa kafedrası
F.f.f.d (PhD)

G.U.Orziqulova: Jizzax davlat pedagogika universiteti akademik litseyi,
Ijtimoiy-gumanitar fanlar kafedrası Oliy toifali tarix fani
o'qituvchisi

Taqrizchilar:

O'.G'.Tilavov: O'zbekiston milliy universiteti huzuridagi pedagog kadrlarni qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish tarmoq (mintaqaviy) markazi Direktori, professor

S.D.Narkulov: Toshkent davlat tibbiyot universiteti Xalqaro fakultet Ijtimoiy fanlar kafedrası mudiri, f.f.d., professor

KIRISH

Insoniyat tarixining qaysi bosqichini ko'zdan kechirmaylik, din har doim jamiyat hayotining ajralmas qismi, uning ma'naviy-axloqiy asosi va madaniyatining muhim bo'lagi bo'lib kelgan. Bugungi globalashuv davrida dinning ijtimoiy-siyosiy jarayonlardagi o'rnini anglash, turli e'tiqodlarning mohiyatini ilmiy asosda o'rganish har qachongidan ham dolzarb ahamiyat kasb etmoqda.

Mazkur o'quv qo'llanma Dinshunoslik fanining predmeti, vazifalari va metodologiyasini tizimli ravishda yoritib berishga qaratilgan. Ushbu fan faqatgina diniy ta'limotlarni o'rganish bilan cheklanmay, balki: dinning kelib chiqishi va tarixiy shakllanish bosqichlarini, jahon dinlari va milliy dinlarning o'ziga xos xususiyatlarini, dinning jamiyat, madaniyat va shaxs kamolotiga ta'sirini, zamonaviy dunyodagi diniy jarayonlar va konfessiyalararo muloqot masalalarini qamrab oladi.

Ushbu qo'llanma sirtqi ta'lim yo'nalishi 2-bosqich talabalari uchun mo'ljallangan bo'lib, ularda dunyoviy va diniy bilimlarning uyg'unligini, konfessiyalararo bag'rikenglik (tolerantlik) madaniyatini hamda yot g'oyalarga qarshi mafkuraviy immunitetni shakllantirishni maqsad qilgan. Sirtqi ta'limning o'ziga xosligini hisobga olgan holda, mavzular sodda, tushunarli va mustaqil o'rganish uchun qulay tarzda bayon etilgan. OTM talabalari dinshunoslikning asosiy tushunchalari va terminologiyasini mukammal egallaydilar, turli diniy oqimlar va ularning jamiyatlardagi rolini xolis baholashni o'rganadilar, O'zbekistonda vijdon erkinligi borasidagi islohotlar va diniy bag'rikenglik tamoyillarini hayotga tatbiq etish yo'llarini tushunadilar.

«Dinshunoslik — bu nafaqat o'tmish saboqlari, balki bugungi kunning murakkab ijtimoiy manzaralarini to'g'ri tushunish va kelajak uchun ma'naviy ko'priq qurish san'atidir.»

Ushbu qo'llanma bo'lajak mutaxassislarning dunyoqarashini kengaytirishda va ularning professional faoliyatida nazariy poydevor bo'lib xizmat qilishiga ishonamiz. Mamlakatimizdagi ko'p konfessiyalilik sharoitida turli millat, elat va din vakillari orasidagi totuvlikni ta'minlash, jahonda tinchlik va barqarorlikni mustahkamlash ishiga munosib hissa qo'shish har bir fuqaroning muqaddas burchidir. Respublikamiz Prezidenti Sh.Mirziyoyev tomonidan ta'kidlanganidek,

«Jamiyatimizda diniy konfessiyalar o'rtasida hamjihatlik va fuqarolar totuvligini mustahkamlashni biz bundan buyon eng dolzarb va ezgu vazifamiz deb bilamiz».

Dunyo miqyosida millatlararo va konfessiyalararo hamkorlik, hamjihatlikni mustahkamlash ko'p jihatdan jamiyat hayotiga bag'rikenglik tamoyillarining samaraliy joriy etilishiga bog'liq. Jahondagi murakkab va ziddiyatli kechayotgan jarayonlar turli din vakillari o'rtasida o'zaro hurmat, hamkorlik va hamjihatlik ruhidagi

aloqalarni mustahkamlash tarixiy zaruriyat ekanini ko'rsatmoqda.

Oliy ta'limning bakalavr bosqichi talabalari dinning mohiyati, uning falsafiy talqinlari, unga berilgan turli ta'riflar haqida atroflicha ma'lumotga ega bo'lishlari lozim. Shuning uchun ham ushbu qo'llanmada dinni o'rganishdagi yondoshuvlar, dinshunoslik maktablari, asosiy namoyondalari, yirik dinlarning e'tiqodiy yo'nalishlari, bugungi kundagi holati haqida etarlicha ma'lumot berilgan. O'zbekistonda davlat va din masalalarini bilish jamiyatimizning har bir ilg'or fuqarosining burchidir. Davlat va din o'zaro munosabatlarini tartibga solish bo'yicha respublikamizda mustaqillik yillarida amalga oshirilgan ishlar hatto butun jahon miqyosida ham e'tiborga loyiq. Mazkur qo'llanmada yaqin yillar davomida dinshunoslik sohasida to'plangan tajribalar natijasi sifatida vujudga kelgan risola va qo'llanmalar hamda chet tillarida yozilgan tadqiqotlardan samaraliy foydalanilgan. Davlat va din munosabatlariga oid taqdim etilgan ma'lumotlar kelgusida mamlakatimiz rivojiga o'z hissasini qo'shish niyatida bo'lgan Toshkent temir yo'l muhandislari instituti talabalarining amaliy faoliyatida dasturul amal bo'lib xizmat qiladi, deb umid qilib qolamiz.

Ushbu o'quv qo'llanmada O'zbekiston Respublikasining zamonaviy taraqqiyot bosqichida diniy sohaga bo'lgan munosabati alohida o'rin egallaydi. Xususan, so'nggi yillarda mamlakatimizda "Jaholatga qarshi ma'rifat" tamoyili asosida amalga oshirilayotgan keng ko'lamli islohotlar talabalar tomonidan chuqur o'rganilishi maqsadga muvofiqdir. O'zbekiston hududida asrlar davomida turli din vakillari ahil-inoq yashab kelganligi va bugungi kunda bu an'ana davlat siyosatining muhim yo'nalishiga aylangani, ajdodlarimiz, xususan, Imom Buxoriy, Imom Termiziy, Moturidiy kabi buyuk mutafakkirlarning boy ilmiy merosini qayta tiklash va uni yoshlar ongiga singdirish, vijdon erkinligi kafolatlari, yangilangan Konstitutsiyamiz va qonunchiligimizda har bir shaxsning e'tiqod erkinligi huquqi qat'iy belgilab qo'yilganligi. Ushbu bo'lim talabalarga yurtimizdagi tinchlik va barqarorlikning asosi bo'lgan konfessiyalararo muloqot va diniy bag'rikenglik madaniyatini asrab-avaylash mas'uliyatini his qilishga yordam beradi.

1-mavzu. Dinshunoslik fanining predmeti, maqsadi va vazifalari

Reja:

1. Dinshunoslik fanining yuzaga kelishi va tarixiy taraqqiyoti
2. Din va dinshunoslik atamalarining ta'rifi.
3. Dinning jamiyatdagi o'rni va vazifasi.
4. Dinlarni tasniflash.

Tayanch tushunchalar: *Din, e'tiqod, diniy tashkilot, diniy ong, religiya, «religio», transsendent, immanent, kult, dinshunoslik, transsendent hodisa, topinish obyekti, mutloq ruh, «al-Firaq», «ar-Radd», «ad-Diyonot», «al-Milal», din fenomenologiyasi, din sotsiologiyasi, din psixologiyasi va din falsafasi.*

Mavzu o'quv maqsadi: Talabalarda dinning mohiyati, dinshunoslik fanining yuzaga kelishi tarixi, dinshunoslik fani sohalari, dinning jamiyatdagi funksiyalari, dinlarning tasnifi haqida tushuncha va tasavvurlarni shakllantirish.

1. **Dinshunoslik fanining yuzaga kelishi va tarixiy taraqqiyoti.** Dinlarni o'rganish uzoq tarixga ega. Bu boradagi ilk ma'lumotlarni Qadimgi Gretsiya va Rim yozuvchilari asarlarida ko'rishimiz mumkin. Ulardan eng mashhuri «tarix otasi» nomini olgan Gerodot (mil. avv. V asr) o'zi tadqiq qilgan xalqlarning dinlari haqida ma'lumotlar keltirgan. Bu qiziqish O'rta asr Yevropasida ham mavjud bo'lgan. Lekin boshqa dinlar haqida ma'lumot beruvchi shaxslar, xristian dinining hukmron mafkurasi ta'siri ostida bir tomonlama va yuzaki fikr bildirganlar.

Islom olamida ham dinlarni o'rganish bo'yicha tadqiqotlar uzoq tarixga borib taqaladi. Milodiy VII-VIII asrlardayoq diniy tortishuv(munozara)larni o'z ichiga olgan «maqola»lar (keyinchalik «maqolot»), VIII -IX asrlardan e'tiboran esa boshqa dinlarga «raddiya»lar yozila boshlangan. Keyingi asrlardan esa «al-Firaq» (Firqalar), «ar-Radd» (Raddiya), «ad-Diyonot» (Dinlar) va «al-Milal» (Xalqlar) yo'nalishidagi adabiyotlar vujudga kelgan.

«Ad-Diyonot» (Dinlar) yo'nalishida yozilgan ilk asar Hasan ibn Muso an-Navbaxtiyning (vaf. 910) «al-Aro vad-diyonot» (E'tiqodlar va dinlar) kitobi hisoblanadi. Keyinchalik Mas'udiy (957) o'zining «ad-Diyonot» (Dinlar), Masbihiy (1029) «Darkul bug'yati fiy vasfid diyonoti val ibodoti» (Dinlar va e'tiqodlar vasfida maqsad me'yori) kitoblarini yozganlar. Shuningdek Beruniyning (973-1048) «Tahqiqun ma lilhind min maqulatin, maqbulatin fil-aqli av marzulatin» (Aqlga maqbul yoki noma'qul bo'lgan Hindistonga oid izlanishlardan) nomli kitobi ham shular sirasiga kiradi.

«Al-Firaq» (Firqalar) yo'nalishida yozilgan kitoblarga Abu Mansur Abdulqodir al-Bag'dodiyning (vaf. 1038) «al-Farq baynal-firaq» (Firqalar orasidagi farq) asari

hamda Abul-Maoliy Muhammad ibn Ubaydullohning (vaf. 1092) «Baynal-adyon» (Dinlar orasida) asarlarini kiritish mumkin.

«Al-Milal» yoʻnalishida Qozi Abu Bakr Baqilloniyni (vaf. 1012) «al- Milal van-nihal» (Dinlar va xalqlar), Abu Muhammad Ali Ibn Hazmning (vaf. 1064) «Kitobul-fasl fil-milal val-ahvoi van-nihal» (Dinlar, havo va xalqlar haqida ajraluvchi kitob), Abul-Fath Muhammad ibn Abdulkarim ash-Shahristoniyni (vaf. 1183) «al-Milal van-nihal» asarlarini sanash mumkin.

«Ar-Radd» (Raddiya) yoʻnalishida ham koʻplab asarlar dunyo yuzini koʻrgan. Ularga Imom Gʻazzoliyni (vaf. 1111) «ar-Raddul jamil» (Goʻzal raddiya), Ibn Kalbiyni (vaf. 819-821) «Kitobul-asnam» (Butlar kitobi) nomli asarlarini alohida qayd etish lozim.

Darhaqiqat, Musulmon Sharqi oʻlkalarida bu sohada koʻplab asarlar yaratilgan boʻlib, keyinchalik ular «Dinshunoslik» fanining taraqqiyoti uchun fundamental manba boʻlib xizmat qilgan. Jumladan, Abu Rayhon Beruniyni «al- Osor al-boqiya an al-qurun al-xoliya» («Oʻtmish xalqlardan qolgan yodgorliklar»),

«Hindiston», Muhammad ibn Abdulkarim Shahristoniyni «al-Milal van-nihal» («Dinlar va oqimlar»), Ibn Hazm Andalusiyni «al-Fasl fil-milal val-ahvo van- nihal» («Dinlar, adashgan firqalar va mazhabni ajratish») kabi asarlari, shuningdek, Ibn Nadim (987-988) va Abul Hasan Omiriy kabilarning tadqiqot ishlari koʻplab Yevropa tillariga tarjima qilingan. Bu esa, islomiy va arab ilmlarini oʻrganuvchi Gʻarb mutaxassislarining dinlar tarixiga oid islomiy tadqiqot ishlaridan asosiy manba sifatida foydalanishlari uchun qulay imkon yaratdi. Bunday asarlarda mualliflar tarixiy voqeʻlikni toʻgʻri va xolis yoritganlar. Ular oʻzlari musulmon boʻla turib, boshqa din va eʼtiqodlar haqida maʼlumot berish yoki ularni tavsif qilishda noxolislikka olib kelishi mumkin boʻlgan har qanday shaxsiy hissiyotlarni suisteʼmol qilmaganlar. Buni Shahristoniyni quyidagi soʻzlari tasdiqlaydi: *«Men har bir firqani (din yoki diniy yoʻnalishlarning hech birini) yoqlamay, kamsitmay, ularning kitoblarida qanday boʻlsa, shundayligicha, undagi xatolarni ajratib koʻrsatmay bayon qilishga ahd qildim»*.

Beruniy oʻzining «Hindiston» asari haqida shunday yozadi: *«Bu kitob bahs-munozara kitobi emas, tarix kitobidir. Hindlarning dinlarini ularning oʻzlaridan oʻrganib, fikrlarini tanqid qilmay bayon qilaman»*. Bu Beruniy asarlarining butun dunyoga mashhur boʻlishiga sabab boʻldi.

Ibn Nadim esa: *«Dinshunoslik fani hijriy IV-V asrlarga kelib mustaqil fan sifatida shakllandi.»*, deb yozadi. Bu milodiy X-XI asrlarga toʻgʻri kelib, aynan shu davrda Beruniy oʻzining «Hindiston» asarini yozgan.

Yevropada XVII asrga kelib cherkov ta'siridan holi ravishda din haqida dastlabki noodatiy fikrlar bildirila boshlandi. Fransuz ma'rifatparvarlari (Volter, Didro, Golbax) din insonlarning yolg'oni va jaholatining natijasi, din insonlar hayotidan yiroqlashgani sari taraqqiyotga yo'l ochiladi, deb hisoblagan. Tabiiyki, bu kabi yondoshuvlar biryoqlama hamda yuzaki bo'lib chiqdi.

Olmon faylasufi I.Kant dinga transsendent hodisa sifatida baho berib, uni eksperimental va nazariy tadqiqot chegaralaridan tashqaridagi, xudoga bo'lgan ishonchga asoslangan holda ruhning mavjudligi va abadiyligi to'g'risidagi maslak sifatida talqin qildi.

Gegelning "din falsafasi bo'yicha ma'ruzalar"i falsafiy nuqtai-nazardan talqin qilingan bo'lib, juda abstrakt shaklda ta'riflagan. Uning fikriga ko'ra din uchta bir-biriga bog'liq elementlarni o'z ichiga qamrab oladi:

- inson ruhiyatining mutloq ruh bilan suhbat natijasi o'laroq diniy tasavvur (g'oyalar) yuzaga kelishi;

- mazkur g'oyalar diniy his-tuyg'u va tajribalarni yaratishi;

- diniy g'oya va diniy his-tuyog'ular sintezi sifatida marosimlarni paydo bo'lishi;

Umuman, Hegelning dinga bergan ta'rifidagi dinning tuzilishi haqidagi qarashlari ilmiy jamoatchilik orasida e'tirofqa erishdi.

XIX asrga kelib K.Marksning dinga nisbatan keskin tanqidiy ruhdagi ta'rifi paydo bo'ldi. U din haqida "yolg'on dunyoning yanglish dunyoqarashi", "shavqatsiz dunyoning yuragi" va nihoyat, "din xalq uchun afyundir" kabi bir qancha g'oyalarni o'z asarlarida keltirib o'tar ekan, "din kishilik jamiyatining nomutanosibligi, ijtimoiy-adolatsizlik va zulm oqibatida yuzaga kelgan soxta tasavvur sifatida jamiyatda kompensatorlik(tasalli beruvchilik) vazifasini bajaradi. Shunday ekan, adolat o'rnatilgan kommunistik jamiyatda din o'z-o'zidan yo'qoladi" deya baholadi.

Rus mutafakkir va faylasuflari (Dostoyevskiy, Solovyev, Berdyayev va boshqalar) din madaniyatning negizi bo'lishi bilan birga uning tashkiliy g'oyasini axloqning asosi sifatida e'tibor qaratishdi. Ular hozirda mavjud barcha madaniyat va sivilizatsiyalar diniy poydevor ustiga qurilganini birinchilardan bo'lib aytishgan. Bundan tashqari, ular kelajakda ham dinsiz madaniyat paydo bo'lishi imkonsiz ekani haqidagi qarashlarini bayon qilidi.

Ehtimol, din haqidagi turli ta'riflar sintezi uning mohiyatini to'laroq anglash imkoniyatini berishi mumkin. Biroq, yuqorida dinga berilgan ta'riflarning hech biri dinning mohiyatini to'la ravishda ochib berdi, deb ayta olmaymiz.

Zamonaviy Dinshunoslik esa qariyb bir yarim asr avval paydo bo'ldi. G'arbda,

zamonaviy ma'nodagi dinlar tadqiqotlari Maks Myuller (1823-1900) tomonidan boshlab berilgan. Olim 1856 yilda «Qiyosiy mifologiya» va 1870 yilda nashrdan chiqqan «Dinlarning asosi va shakllanishiga oid dars baholari» nomli asarlari bilan boshqa dinlarni tadqiq qilishga yo'l ochgan va kattagina e'tibor qozongan. U Angliyadagi mashhur Oksford universitetida dinlar tarixidan ma'ruzalar o'qigan. O'zining «Sharqning muqaddas kitoblari tarjima silsilasi» asarida u ilk bora «religious studies» (dinshunoslik) so'zini qo'llagan.

Shunday qilib davrlar o'tishi bilan Parij, Bryussel va Rim kabi markazlarda dinshunoslik universitetlar ta'lim dasturlaridan joy olgan.

XIX asrning ikkinchi yarmidan boshlab dinshunoslik sohasida olib borilgan izlanishlar shakllangan. Bu davrda turli mintaqalarda zikr qilingan sohada bir qancha mutaxassislar yetishib chiqqan. Ulardan Van der Lyu, R.Otto, G.Menshing, J.Vax, F.Xeiler, G.Dumezil, E.G.Parrinder, S.G.F.Brandon, Erik F.Sharp, Ninian Smart, M.Kitagava, V.Kantvell Smit, Ake V.Strom, Xans J.Shoyps va Mixayel Paylar nomini zikr qilishimiz mumkin.

2. Din va dinshunoslik atamalarining ta'rifi.

Din so'zi arab tilidan olingan bo'lib, uning lug'aviy ma'nosi «ishonch, e'tiqod»dir. Istilohiy ma'nosi lotin tilidagi «religion» so'zi bilan mos keladi.

O'zbek tili lug'at adabiyotlarida «din» - ishonch, ishonmoq, e'tiqod, mulk, hukm, hisob, jazo, tadbir, bo'ysunish, itoat qilish, ibodat, parhez, yo'l tutish, odat qilish, e'tiqod qilish ma'nolarini bildirishi keltirib o'tiladi.

Islomdan avval turkiy xalqlarning din tushunchasini ifodalash uchun turli davrlarda «darm», «nom» va «den» kabi so'zlarni ishlatganlari ma'lum.

O'zbek tilidagi «din» ma'nosini beruvchi atamalar barcha tillarda mavjud. Jumladan, zardushtiylarning manbasi «Avesto»da «din» sifatida «daena», qadimgi fors pahlaviy tilida «den», «din», «dena», «daena» so'zi ishlatilib, «yo'l»,

«mazhab», «marosim», «uslub», «tarz» kabi ma'nolarni bildirgan. Ibroniylar tilida istifoda qilinadigan «dath» so'zi «din» tushunchasini ifodalash uchun umumiy termin bo'lib, «hukm», «amr» va «qonun» ma'nolarini anglatgan.

Rus tilida din ma'nosini anglatadigan «religiya» so'zining kelib chiqishi borasida lug'atlarda bir qancha yondashuvlar keltirib o'tilgan. Ulardan ba'zilariga ko'ra mazkur atama lotincha «religio» so'zidan kelib chiqib, «diyonat, dindorlik, taqvodorlik, xudojo'ylik, mo'minlik, taqvo, muqaddas narsa yoki joy, qadamjo, ziyoratgoh, ibodat-topinish-sig'inish va u bilan bog'liq diniy marosimlar» degan ma'nolarni anglatadi.

Ikkinchi guruh tilshunoslar «religio» soʻzi semantik, maʼno va morfologik jihatdan «relegere» soʻzi bilan bogʻliq boʻlib, «yangidan toʻplamoq, yangidan tanlashga kirishmoq, qayta ishlab chiqish uchun oldingi sintezga qaytish» kabi maʼnolarni anglatadi, deb taʼkidlaydilar.

Din tabiat, jamiyat, inson va uning ongi, yashashdan maqsadi hamda taqdiri insoniyatning bevosita qurshab olgan atrof-muhitdan tashqarida boʻlgan, uni yaratgan, ayni zamonda insonlarga toʻgʻri, haqiqiy, odil hayot yoʻlini koʻrsatadigan va oʻrgatadigan ilohiy qudratga ishonch va ishonishni ifoda etadigan maslak, qarash, taʼlimotdir.

Din muayyan taʼlimotlar, his-tuygʻular, toat-ibodatlar va diniy tashkilotlarning faoliyatlari orqali namoyon boʻladi. U olam, hayot yaratilishini tasavvur qilishning alohida tariqasi, uni idrok etish usuli, olamda insoniyat paydo boʻlgandan toʻ bizgacha oʻtgan davrlarni ilohiy tasavvurda aks etishidir. Din

insonni tarbiyalashda asosiy tarbiyalovchi qudratga ega boʻlgan maʼnaviy-axloqiy kuchdir.

Din asli nima ekanligi turlicha izohlansa-da, umumiy nuqtai nazar shuki, din ishonmoq tuygʻusidir. Ishonmoq tuygʻusi insoniyatning eng teran va ruhiy- maʼnaviy ehtiyojlaridandir. Din tushunchasiga olimlar tomonidan yuzlab taʼriflar berilgan. Bunda, turli soha va dunyoqarash egalari, oʻz sohalari va qarashlaridan kelib chiqib dinga taʼrif berishgan.

Umuman olganda, olimlar muayyan eʼtiqod din deb atalishi uchun **uch** asosiy xususiyatga ega boʻlishi lozimligini taʼkidlaydilar. Bulardan ***birinchisi***, gʻayritabiiy iloh (yoki ilohlar) haqidagi tasavvurning mavjudligi. Har bir dinda topinish obyekti - Xudo boʻlishi shart hisoblanadi.

Mavjud dinlardagi Xudo haqidagi tasavvurlarni shartli ravishda ikkiga - *transsendent* va *immanent* ilohlarga boʻlish mumkin. Transsendent ilohlarga insonlar olamidan tashqarida, insonlarga hech qanday aloqasi boʻlmagan, qusur va nuqsonlardan xoli Xudolar kiradi. Bunga misol sifatida tom maʼnoda islom dinidagi Alloh taolo va qisman xristianlikdagi Ota Xudo, yahudiylikdagi Yaxvelarni keltirish mumkin.

Immanent ilohlar deganda esa tabiatning bir boʻlagi sifatida tasavvur qilingan, insonlarga oʻxshab ketadigan, biroq gʻayrioddiy yaratuvchilik, buzgʻunchilik, rizqlantiruvchilik kabi kuchlarga ega boʻlgan Xudolar kiradi. Bunday turdagi ilohlar koʻpincha yo antropomorf (inson qiyofasida) yo zooantropomorf (yarim odam yarim hayvon) yoki zoomorf (hayvon) shaklda tasavvur qilinadi. Bunga misol sifatida Qadimgi Misr, Yunon, Rim sivilizatsiyalari, zamonaviy Hindiston, Xitoy, Yaponiya

dinlarini sanash mumkin.

Ikkinchisi, Xudo bilan insonlarni bog‘lab turuvchi kult yoki kultlar majmuasi. Yuqorida aytilganidek har bir dinda topinish obyekti - Xudo bo‘lishi lozim. Yaratuvchi bilan insonni bog‘lab turadigan ibodat va marosimlar majmui (qurbonlik, ro‘za, bayramlar) kult deb ataladi. Kultlar kundalik yoki mavsumiy, yakka tartibdagi yoki jamoaviy kabi ko‘rinishlarda bo‘lishi mumkin. Jumladan, islom dinida «Namoz mo‘minning me‘roji» (ya’ni Alloh taoloning huzuriga ko‘tarilishi) hisoblansa xristianlikdagi «sirli marosimlar»da Muqaddas Ruhning o‘zi ishtirok etadi, deb hisoblanadi. Shu tariqa, mavjud barcha dinlarda kultlar vositasida e‘tiqodchilar o‘z ilohlari bilan bog‘lanadilar.

Uchinchisi esa e‘tiqodchilarni o‘zida jamlaydigan diniy tashkilotlarning mavjudligi. Diniy tashkilot, bu bir din izdoshlarining jamoaviy ravishda o‘z diniy rasm-rusum, ibodat marosimlarini o‘tkazadigan, diniy ta’lim oladigan muassasalaridir. Islomda - masjid, madrasa, xristianlikda - cherkov, seminariya, yahudiylikda - sinagoga va hokazo.

Dinlar tarixi, ular bilan bog‘liq jarayonlar, dinning inson hayotining turli jabhalari bilan o‘zaro ta’sirlashuvini o‘rganuvchi fan «Dinshunoslik» deb ataladi.

Dinshunoslik barcha ijtimoiy fanlar qatori ham o‘zining o‘rganish obyektiga ega. U dinning paydo bo‘lishi, ijtimoiy mohiyati va jamiyatdagi rolini tadqiq qilish bilan birga diniy e‘tiqodlarning paydo bo‘lishi va rivojlanishi, ularning jamiyat taraqqiyotidagi evolyutsiyasini ilmiy jihatdan o‘rganadi.

3. Dinning jamiyatdagi o‘rni va vazifasi

Dinni yopiq va izolatsiya qilingan tizim sifatida o‘rganish muki emas. U kishilarning ma’naviy hayotining o‘ziga xos shakli bo‘lib, kishilik jamiyatini turli davrlarida har-xil mavqega ega bo‘lgan holda ijtimoiy tizimning boshqa elementlari bilan chambarchas bog‘langan va o‘zaro aloqadorlik kasb etgan. Mazkur aloqadorlik ijtimoiy ongda diniy g‘oyalar qay darajada o‘rin egallashiga, diniy faoliyat va diniy munosabatlar bilan bevosita bog‘liq.

Dinning jamiyat hayotidagi o‘rni quyidagicha namoyon bo‘ladi:

-ijtimoiy g‘oya, me‘yor, munosabat, guruh va institutlarni muqaddaslashtiradi;

-diniy guruhlar axloqiy mushtaraklikni ta’minlaydi. Diniy faoliyat ijtimoiy faoliyatning ajralmas qismi hisoblanadi. Sotsial institutar o‘z ichida diniy va dunyoviy hokimiyatni birlashtiradi;

-dunyovilik tushunchasi diniy ong bilan bir safda mavjud bo‘lishi.

-diniy ongini jamoa dunyoqarashidan keyin, boshqa tizimlarni ustun sanab, uni ikkinchi darajali deb qarash. Diniy guruhlarini etnik jamoalardan farqlanishi va hukumat bilan nomuvofiqlik mavjudligi, diniy hamda dunyoviy hokimiyatning turli institutlarga tegishli ekanligi;

-dinning hech qanday o'zini bo'lmagan jamiyat;

Dinning «funksiya» va «rol» tushunchasini farqlash lozim, ular bir biri bilan bog'liq, lekin o'xshash emas. Funksiya - bu dinning jamiyatdagi harakat usuli bo'lsa, rol - bu funksiyani bajarish natijalarining jami yig'indisidir. Dinning funksiyalari quydagilardan iborat:

Dunyoqarashni shakllantirish funksiyasi dinda inson, jamiyat, tabiatga nisbatan aniq bir qarashlarning turlari mavjudligi tufayli amalga oshiriladi. Din hayotni (mavjudotni) ma'lum nuqtai nazardan tushunish (dunyoni to'la va undagi ayrim hodisa va jarayonlarni alohida tushuntirish), dunyoni kuzatish (his qilish va idrok etish orqali dunyoni aks ettirish), dunyoni his qilish (hissiy qabul qilish yoki rad etish), dunyoviy munosabat (baho berish) va hokazolarni o'z ichiga oladi. Diniy dunyoqarash yaratganga nisbatan eng oliy tuyg'u va mezonlarni belgilaydi. Bunda mavjud borliqqa tushuncha berish, dinga ishonganlar uchun turli cheklashlar doirasidan chiqish imkonini beradi. Yorqin kelajak, huzur-halovatga erishish uchun umid, azob-uqubat, baxtsizlik, yolg'izlik, tushkunlikdan ozod bo'lishni qo'llab-quvvatlaydi.

Kompensator funksiya ham odamlarning ongini qayta shakllanishini, ham turmushning obyektiv shart-sharoitlarini o'zgartirishdagi cheklanish, qaram bo'lish va o'qizlikni to'ldiradi. Ruhiy erkinlik orqali real jabr-zulm bartaraf etiladi; ijtimoiy guruhlar gunohga botish va azob chekish borasida teng huquqlik bo'ladi; diniy tashkilotlar tomonidan beriladigan xayr-ehsonlar, mehr-shafqat, tarbiya, daromadlarni qayta taqsimlash mazlumlarining musibatini yengillashtiradi va h.z. Umuman olganda, ruhiy zarbalarni bartaraf etish, tasalli berish, katarsis va ma'naviy ozuqa olish kabi kompensatsiyaning psixologik aspektlari muhim ahamiyatga egadir.

Kommunikativ funksiya muloqotni ta'minlaydi. U ham diniy, ham diniy bo'lmagan faoliyat va munosabatlarda vujudga keladi, axborot almashish, o'zaro ta'sir ko'rsatish, insonni inson tomonidan idrok etish jarayonlarini o'z ichiga oladi. Diniy ong ikki xil muloqotni belgilaydi: dindorlarning o'zaro bir-birlari bilan muloqoti va dindorlarning ibodat, namoz, meditatsiya, maxfiy qarashlar paytidagi mediator va vositachilari tomonidan gipostazir jonzotlar (xudo, farishta, o'lganlarning ruhi, avliyolar va b.) bilan muloqoti.

Regulyativ funksiya ma'lum bir g'oyalar, qadriyatlar, yo'l-yo'riqlar, stereotip qoliplar, fikrlar, an'analar, rusumlar, institutlar orqali individ, guruh va jamoalarning

faoliyati, munosabatlari, ongi va axloqini boshqarishdan iborat. Ayniqsa, me'yorlar tizimi (diniy huquq, axloq va h.z.), namunalar (taqlid uchun ko'psonli misollar), nazorat (qoidalar bajarilishini kuzatish), rag'batlantirish va jazo berish (haqiqiy va o'limdan keyin taqdirlanishiga va'da berish) muhim ahamiyatga ega.

Integratsion-dezintegratsion funksiyasi individ, guruh va institutlarni bir tomondan birlashtiradi, boshqa tomondan ularni ajratadi. Integratsiya shaxslar, ayrim ijtimoiy guruhlar, tashkilotlar, bir butun jamiyatdagi barqarorlik va chidamlilikni saqlasa, dezintegratsiya uni zaiflashishiga olib keladi. Integratsion funktsiya ma'lum bir ma'noda yagona diniy e'tiqod mavjud bo'lganda amalga oshiriladi. Agar shaxslarning diniy ongi va xulq-atvorida bir-biriga muvofiq bo'lmagan g'oyalar, ijtimoiy guruh va jamiyatda bir-biriga qarama-qarshi konfessiyalar paydo bo'lsa, dinning funksiyasi dezintegratsion bo'ladi.

Madaniyatni targ'ib qilish funksiyasi oldin madaniyatning ma'lum bir qatlamlari - yozuv, kitob bosish, san'atning umuman rivojlanishiga yordam bergan bo'lsa, hozirda ba'zi madaniy fenomenlarni rag'batlantirib, ba'zilarini inkor etgan holda diniy, madaniy qadriyatlarni saqlash va ko'paytirish, ilmiy-ma'naviy merosni nasldan naslga qoldirish vazifalarini bajaradi.

Legitimlashtirish-legitimlarni olib tashlash funksiyasi ba'zi jamoat tartiblari, institutlar, munosabatlar, me'yorlar, namunalarni majburiyat sifatida qonuniy qilish yoki ularning ba'zilarini qonundan chiqarish vazifalarini amalga oshiradi.

Din ma'lum huquqiy talab va majburiyatlarni ilgari suradi. Uning asosida ba'zi ko'rinishlarga ma'lum munosabatni shakllantirgan holda baho beradi. Bunda majburiy va e'tiroz qilib bo'lmaydigan xarakter muhim ahamiyat kasb etadi.

Yuqoridagilardan qisqa xulosa qilib aytganda, din insoniyat tarixida, *birinchidan*, umuminsoniy axloq me'yorlarini o'ziga singdirib olib, ularni hamma uchun majburiy hulk-atvor qoidalariga aylantirgan; *ikkinchidan*, odamlarning bahamjihat yashashiga ko'malashgan; *uchinchidan*, odamlarda ishonch hissini mustahkamlagan hamda hayot sinovlari, muammo va qiyinchiliklarni yengib o'tishlarida kuch bag'ishlagan; *to'rtinchidan*, umuminsoniy va ma'naviy qadriyatlarni saqlab qolish hamda avloddan-avlodga yetkazishga yordam bergan va shu yo'l bilan madaniyat rivojiga katta ta'sir ko'rsatgan.

Dinlarni tasniflash. Dinshunoslar turli ilm-fan soha vakillari bo'lib, dinlarni o'zlari xos bo'lgan ilm yo'nalishi nuqtai nazaridan o'rganib, turlicha yondashganlar. Shuning uchun ular o'rtasida ba'zi ixtiloflar bo'lishi tabiiydir. Masalan, din tarixi bilan shug'ullanuvchi olimlar dinlarning yuzaga kelish tarixiga ko'ra davriy jihatdan yondashib tadqiq etganlar. Boshqa bir guruh olimlar dinlarni paydo bo'lgan va

tarqalgan mintaqalariga ko'ra tadqiq etganlar. Ayrim dinshunoslar diniy nuqtai nazardan yondashib, dinlarni o'rganganlar. Jumladan, Yoakim Vax (Joachim Wach), dinlarni «asoschisi bor dinlar», «an'anaviy (rasm-rusumli) dinlar»ga, Gustav Menshing esa «milliy dinlar», «jahon dinlari» ko'rinishida ikkiga bo'ladi. Annemari Shimmel esa dinlarni - ilk- qabilaviy, milliy, jahon dinlari, deb uchga bo'ladi. Shu bilan birga ba'zi tadqiqotchilar quyidagi tasnifni keltiradilar:

1. Sakramental (diniy marosim va rasm-rusumlarga tayanuvchi) din,
2. Profetik (Payg'ambarlarga tayanuvchi) din,
3. Mistik (ruhiy olamga yo'naltirilgan) din.

Islom ulamolari dinlarni, «haq» va «botil» yoki vahiyga tayanuvchi ilohiy dinlar, vahiyga tayanmaydigan tabiiy dinlar kabi ikkiga bo'lishgan. Ibn Hazm (vaf. 456/1064) va Shahrisoniy (vaf. 548/1183) kabi musulmon tadqiqotchilari, haq dinlar uchun «**milal**», botil dinlar uchun esa «**nihal**» so'zlarini ishlatishni ma'qul deb topishgan.

Dinlarni tasniflashda mintaqaviy yondashuvdan ham keng foydalanilib, uning o'ziga xos jihati shundaki, mintaqadagi aynan bir dinni ikkinchi dinga ta'siri va o'zaro qorishuvi yoki turli mintaqada dinlarini o'zaro o'xshash jihatlari yoki farqli tomonlarini o'rganishdan iborat. Dinlarni quyidagi omillar asosida tasnifga bo'lish mumkin: Qit'alarda tarqalishiga ko'ra Afrika, Osiyo, Yevropa, Amerika va Avstraliya dinlari tarzida tasniflash. Biroq bu unchalik munosib tasnif emas. Chunki, shunday dinlar ham borki, ular bir necha qit'alarga tarqalgan. Xususan, islom va xristianlik deyarli barcha qit'alarda mavjud. Shuningdek, ba'zi qit'alarda ozchilikni tashkil etuvchi boshqa dinlar vakillari ham bo'lishi bilan birga deyarli aksar aholi bir dinga e'tiqod qiladi. Masalan, Yevropada asosan xristianlik ko'p tarqalgan, islom dini Amerikaga nisbatan Afrikada ko'proq tarqalgan. Osiyo qit'asida islom, hinduiylik, buddaviylik, konfutsiylik, sintoiylik dinlari aralash tarqalgan. Ba'zan bir qit'ada paydo bo'lgan din boshqa qit'ada keng yoyilgan. Masalan, xristianlik Falastinda vujudga kelgan bo'lsa-da, asosan Osiyo qit'asidan tashqarida tarqaldi.

Jo'g'rofiy mintaqasiga ko'ra Sharq dinlari va G'arb dinlari tarzida tasniflash. Bu dunyoning qutblarga bo'linishiga monand siyosiy va madaniy tafovutni aks ettiruvchi keng jo'g'rofiy tasnifdir. Sharq dinlariga hinduiylik, buddaviylik, konfutsiylik, sintoiylik, daolik va boshqa Uzoq Sharq dinlari kiritiladi. G'arb dinlariga yahudiylilik, xristianlik va islom dinlari kiritiladi. Aslida islom dinini G'arb yoki Sharq dini deb bo'lmaydi. U jo'g'rofiy jihatdan Sharqda yuzaga kelib, G'arb mamlakatlarida ham keng tarqalgan. Yahudiylilik va xristianlik ham aslida Sharq dinlari bo'lib, Yaqin Sharqda vujudga kelgan va G'arb mamlakatlarida keng yoyilgan.

Qadimgi dinlar siyosiy mintaqalarga ko'ra Mesopotamiya dinlari, Suriya mintaqasi dinlari, Kichik Osiyo yoki Onado'li dinlari, Fors dinlari tarzida tasniflanadi.

Dinlarning mamlakatlar hududlariga ko'ra Falastin dinlari, Arabiston yarim oroli dinlari, Meksika dinlari, Hind dinlari, Xitoy dinlari, Yapon dinlari tarzida tasniflanadi. Uzoq Sharq dinlari kabi ba'zi mintaqa dinlarini diniy mavzusiga ko'ra aniq belgilash imkoni bo'lmagan ko'p hollarda jo'g'rofiy tasnif qulay ilmiy tasnifdir. Masalan, yahudiylik, xristianlik va islom dinlarini tavhid (yakkaxudolik, monoteizm) asosida umumlashtirilsa, Uzoq Sharq dinlarini yagona diniy tushuncha asosida umumlashtirib bo'lmaydi. Bunday holatda muammoning yechimi sifatida jo'g'rofiy tasnifga murojaat qilish mumkin. Dinlar unga e'tiqod qiluvchilarning soni, miqyosi, o'zining ma'lum millat yoki xalqqa xosligi yoxud millat tanlamasligiga ko'ra turli guruhlariga bo'linadi. Bu guruhlar son jihatdan qancha bo'lishidan yoki nazariy jihatdan qanchalik yetuk bo'lishidan qat'iy nazar, ularni mutlaqlashtirib bo'lmaydi. Chunki, har qanday tasnif ma'lum bir jihatga e'tibor berib, boshqa qirralarni qamrab ololmaydi. Hozirgi kunda din tipologiyasida dinlarning quyidagi tasniflari mavjud:

- tarixiy-geografik jihatga ko'ra;
- etnik jihatga ko'ra;
- e'tiqod qiluvchilarining soniga ko'ra;
- hozirgi davrda mavjudligi jihatidan (tirik va o'lik diniy tizimlar) va h.k.

Bugungi kunda, dinshunoslikka bag'ishlangan adabiyotlarda asosan quyidagi tasnif keltiriladi:

1) primitiv diniy tasavvurlar (urug'-qabila dinlari) - totemistik, animistik tasavvurlarga asoslangan, o'z urug'idan chiqqan sehrgar, shaman yoki qabila boshliqlariga sig'inuvchi dinlar. Ular millat dinlari va jahon dinlari ichiga singib ketgan bo'lib, hozirda Avstraliya, Janubiy Amerika va Afrikadagi ba'zi qabilalarda saqlanib qolgan;

2) millat dinlari - ma'lum millatga xos bo'lib, boshqa millat vakillari o'ziga qabul qilmaydigan dinlar. Ularga yahudiylik (yahudiy millatiga xos), hinduiylik (hindlarga xos), konfutsiylik (xitoy millatiga xos), sintoiylik (yaponlarga xos) kiradi;

3) jahon dinlari - dunyoda eng ko'p tarqalgan, kishilarning millati va irqidan qat'iy nazar unga e'tiqod qilishlari mumkin bo'lgan dinlar. Ular safiga odatda buddaviylik, xristianlik va islom dinlarini kiritadilar.

Bundan tashqari dinlar ta'limotiga ko'ra monoteistik - yakkaxudolik (yahudiylik, islom) va politeistik - ko'pxudolik (hinduiylik, konfutsiychilik) dinlari va h.k.ga bo'linadi. Dinshunoslikka oid zamonaviy tadqiqotlarda yahudiylik, xristianlik va islom dinlarini Ibrohimiy dinlar (Avraamicheskiye religii) yoki samoviy dinlar deb atash ham kuzatilmoqda.

Mavzu bo'yicha savollar

1. Dinshunoslik fanini o'qitishdan maqsad nima?

2. Dinshunoslik fanining rivojlanish bosqichlari haqida nimalarni bilasiz?
3. Dinshunoslik alohida fan sifatida qachon shakllangan?
4. Yevropalik ilk dinshunoslardan kimlarni bilasiz?
5. Dinshunoslikning qanday sohalari mavjud?
6. Dinga qanday ta'riflar berilgan?
7. Dinni o'rganishda qanday yondashuv turlarini bilasiz?
8. Din jamiyatda qanday vazifalarni bajaradi?
9. Dinning regulyatorlik vazifasi deganda nimani tushunasiz?
10. Dinning kompensatorlik vazifasi nimalardan iborat?
11. Dinning integratorlik vazifasiga nimalar kiradi?
12. Dinshunoslik fani nimani o'rganadi? Uning obyekti va predmetining o'zaro farqini tushuntirib bering.
13. Dinshunoslik fanining asosiy maqsadi nima? Nima uchun ushbu fanni o'rganish jamiyatda dinlararo bag'rikenglikni shakllantirishda muhim hisoblanadi?
14. Dinshunoslik qanday tarkibiy qismlardan iborat? (Din sotsiologiyasi, din psixologiyasi, din falsafasi va din tarixi haqida qisqacha ma'lumot bering).
15. Dinshunoslik fanining asosiy vazifalariga nimalar kiradi? Ushbu fan diniy jarayonlarni o'rganishda qanday ilmiy xulosalar chiqaradi?
16. Dinshunoslik fani qaysi ijtimoiy-gumanitar fanlar bilan chambarchas bog'liq? Tarix, falsafa va huquqshunoslik fanlari bilan aloqasini asoslang.
17. «Dinshunoslik» va «Ilohiyot» (Teologiya) fanlarining bir-biridan farqi nimada? Ularning dinga yondashuvidagi asosiy metodologik farqlarni ko'rsating.
18. Dinshunoslikda xolislik (obyektivlik) tamoyili deganda nima tushuniladi? Tadqiqotchi o'z shaxsiy diniy qarashlarini fandan qanday ajratishi kerak?
19. Diniy manbalarni o'rganishda dinshunoslik fani qanday metodlardan foydalanadi? (Masalan: qiyosiy-tarixiy metod).
20. O'zbekistonda dinshunoslik fanini o'qitishning ijtimoiy-siyosiy ahamiyati nimada? Dunyoviy davlat qurishda bu fan qanday rol o'ynaydi?
21. Dinshunoslik fanining vazifalaridan biri bo'lgan «ekspertlik» vazifasi nima? Diniy adabiyotlar va faoliyatni ekspertizadan o'tkazish nima uchun zarur?

Mustaqil ish topshiriqlari

1. Dinshunoslik fanining yuzaga kelishi haqida so'zlab bering.
2. Dinshunoslik fanining maqsad va vazifalari haqida so'zlab bering.
3. Turli olimlar tomonidan dinga berilgan ta'riflar haqida ko'rgazmali slayd tayyorlang (MS Power Point).

2-MAVZU. MILLIY DINLAR

Reja:

1. **Markaziy Osiyo xalqlari qadimgi diniy e'tiqodlari: shomonlik, tangrichilik.**
2. **Zardushtiylikning teologik tizimi.**
3. **Buxoro yahudiylari jamoasi tarixi.**
4. **Markaziy Osiyoda buddaviylik tarixi.**
5. **Xristianlik ta'limotining tarqalishi.**

Tayanch tushunchalar: *Shomonlik, Tangri, Erlik, Umay, Jumay, Olqish, Axuramazda, Axriman, Zardusht, Avesto, Fravashi, Yasna, Yasht, Videvdat, Visperad, stupa, buxoro yahudiylari, kosher qoidalari, xristianlar, nestorianlar.*

Mavzu o'quv maqsadi: Markaziy Osiyo xalqlari qadimgi diniy e'tiqodlari, shomonlik, Tangrichilik, Zardushtiylik va Moniylik dinlarining kelib chiqishi, asoschisi, Markaziy Osiyoda buddaviylik tarixi, xristianlik ta'limotining tarqalishi, dinlarning muqaddas manbalari, ularning paydo bo'lishidagi tarixiy jarayonlar haqida talabalarda keng tasavvur hosil qilish.

1. **Markaziy Osiyo xalqlari qadimgi diniy e'tiqodlari: shomonlik, tangrichilik, zardushtiylik, moniylik.** Markaziy Osiyo o'zining geografik va geosiyosiy joylashuvi tufayli turli madaniyatlar va sivilizatsiyalarning to'qnashuv nuqtasiga aylandi. Osiyo qit'asining Kaspiy dengizi va Orol-Irtish suv havzalaridan to hozirgi Pokiston va Hindistongacha bo'lgan katta qismini egallagan mintaq - Markaziy Osiyo xalqlarining tarixiy ildizlari uzoq o'tmishga borib taqaladi. Ushbu xalqlar haqidagi yozma ma'lumotlar yunon manbalari va miloddan avvalgi VI-IV asrlarga oid qadimgi eron va xitoy yozuvlarida uchraydi.

Mintaqa Yevroosiyo markazida joylashgan bo'lib, Sharq bilan G'arbni bog'lovchi bo'g'inga, turli xalq va elatlarning, shuningdek, diniy tizim va e'tiqodlarning doimiy aloqa maydoniga aylandi. Bunday etnik va diniy turfaxillik natijasida shunday vaziyat yuzaga keldiki, u ko'plab dinlarning (zardushtiylik, buddaviylik, yahudiylik, xristianlik) yo'qolib ketishiga qaramay, hozirgi paytda mintaqada yashovchi xalqlarning urf-odatlarida saqlanib qoldi.

Shomonlik. Markaziy Osiyo xalqlari qadimgi diniy e'tiqodlaridan biri sifatida shomonlikni qayd etish mumkin. Shomonlik e'tiqod va an'analari inson ongida g'ayritabiiylik to'g'risidagi tasavvurlar to'liq shakllangan vaqtda paydo bo'lgan. Ushbu e'tiqod oddiy insonning dahshatli va tushunarsiz, g'ayritabiiy va sirli holatlarini tushunishi va aql kuchidan ustun turishi bilan bog'liqdir. Shomonlik bu omillar orqali jamoalar hayotining tashqi va ichki ziddiyatlarini qamrab oladi. Shomonlikning turli vazifalariga (ruhlarni haydash, falokatlarining oldini olish, yomg'ir chaqirish, afsun qilish va h.k.) kelsak, ular ushbu e'tiqodning asosiy mohiyatiga qo'shimchadir.

Shomonlikdagi asosiy, hal qiluvchi holat shomon tanasiga ruhlarning joylashishi

to'g'risidagi tasavvurdir. Odamlar shomonning o'ziga xos trans holatini ko'rganlarida uni o'zi chaqirgan ruhlar egallab oldilar, deb o'ylaydilar. Bunda, shomon ko'pincha o'z harakatlarida animistik obraz yoki shu obrazlarni eslatuvchi predmetlarni qo'llaydi. Ruhlarini chaqirish shomonlik harakatlarini ta'sirchan jamoaga yo'naltirib, ulardan o'z manfaatlari yo'lida foydalanishni taqozo etadi.

Shomonlik yovuz va yaxshi ruhlarni tan oladi. Bunda ayrim shomon jamoalari oddiy kishilar ruhi o'ladi, shomon ruhi esa abadiy deb hisoblaydilar. Ruhlar tomonidan o'g'irlanib, shomonlar tomonidan topilib, inson tanasiga qaytarilgan jon haqidagi g'oya faqat shomonlik doirasida tushuntirilishi mumkin. Bu ayniqsa, shomonning davolash usullarida, kasal tanasidan yovuz ruhlarni haydashida yorqin namoyon bo'ladi.

Markaziy Osiyo xalqlarida shomonlik reliktlari turli ko'rinishlarda kuzatiladi. Xalq orasida turli ko'rinishdagi bemorlarni davolash «duoxonlik» bilan boshlanib, kasalni tol navdalari bilan «urish» orqali amalga oshiriladi. Bunda tol novdalari qirqta bo'lishi kerak. Shu kabi marosimning yana bir turi

«kinna», ya'ni bemor tanasidan kasalni haydashning alohida usulidir.

Shomonlik elementlari sifatida kuyovnavkarlik bilan bog'liq bo'lgan odatni - kuyovning kelinning uyiga jo'ralari bilan jo'raboshi boshchiligida qiyqiriqlar bilan bazmga borish marosimini ko'rsatib o'tish mumkin. Jo'raboshi qo'lida tol navdalarini ushlagan holda navkarlar boshi uzra yelpiydi, bunga javoban navkarlar jo'r bo'lishib qiyqirishadi. Bularning barchasi kuyovdan yovuz ruhlarni haydashga qaratilgan. Shu bilan birga, o'zbek, tojik va boshqa xalqlarda biror kimsa uzoq vaqt kasal bo'lsa, u yaqinlari, tanishlari yoki tabiblar maslahatiga ko'ra, sog'ayishning birdan bir yo'li - bu ruhlar bilan aloqa qilish missiyasini bo'yniga olish ekanligiga ishonadi. Bunday holat xalq orasida «odamli» deyiladi, ya'ni uning ketida qandaydir kuchlar bor deb hisoblanadi. Bunday odamlar asta-sekin insonlarni «davolash» bilan shug'ullana boshlaydi.

O'zbeklarda ko'pincha kasalliklar yovuz ruhlar makr-hiylasi tufayli kelib chiqadi deb hisoblanadi. Hali ham o'zbek xalqi orasida ruhlar hokimiyati odamlar taqdirini, tabiat ko'rinishlarini aytib berishiga ishonuvchi kishilar mavjud. Childirma sadosi va marosim aytimlari ba'zi kishilarni kasalliklardan forig' bo'lishiga ishonishga olib kelmoqda. Folbin-baxshilarga asosan ayollar yaqinlari kasal bo'lib yotib qolganda, oilaviy hayotlarida o'zaro kelishmovchiliklar yuz berganda, biror buyumi yoki jonivorlari yo'qolganda, farzandsizlik holatida, umuman, oila turmush tarzida og'ir vaziyatlarda murojaat qiladilar.

Shomonlik, folbin-baxshichilik (yoki azayimxonlik) amallari juda xilma-xil va keng qamrovlidir. Ushbu vazifalarni muvaffaqiyatli amalga oshirishda shu toifadagi

kishilar benihoyat ulkan g'ayritabiiy qobiliyat sohiblari bo'lmog'i lozim deb hisoblashgan. Ular homiy ruhlar yordamida asosan quyidagi to'rtta muhim vazifani bajarganlar. *Birinchi*dan, kasallik sababi va uni davolash yo'llarini bilish. *Ikkinchi*dan, turli-tuman marosimlar asosida bemorlarni davolash. *Uchinchi*dan, kelajak va inson taqdirini oldindan bashorat qilib, shu jumladan, uzoq masofada yashovchi kishilar taqdirini ham oldindan aytib bergan, va nihoyat *to'rtinchi*dan, bedarak ketgan odamlar, yo'qolib qolgan hayvonlar va narsa-buyumlarni qidirib topish. Shuningdek, folbinlar buyumlar kim tomonidan o'g'irlanganligini homiy ruhlar ko'magida aniqlashtirgan holda qidirib topish singari vazifalarni ham bajaradilar.

Folbinlik yoki azayimxonlik vazifalarini ado etish uchun kishilardan maxsus qobiliyatga ega bo'lishlari zarur hisoblangan. Ushbu iqtidor ko'pincha tug'ma bo'lmasdan, ma'lum jiddiy tayyorgarlik natijasidagina egallangan. Buning uchun tanlangan nomzod qirq kun davomida o'z xonadonida tashqi dunyodan ajralgan holda chillada o'tiradi. Bu davr shomonlikning «chilla davri» hisoblanadi. Umuman, xalq tasavvurida insonlarni ins-jinslar ta'siridan eson-omon asrash ularning chilla davri (chilla - forsha «chixil» - qirq degan ma'noni bildiradi) tartib qoidalarga qanchalik rioya qilishlariga bog'liq bo'lgan. Chilla inson hayotidagi xatarli, eng og'ir va eng mas'uliyatli davrni anglatuvchi atama hisoblanadi.

Inson hayotining uch davri bilan bog'liq holda chilla davri urf-odatlaridan, kishilar uchun muhim ahamiyatga ega bo'lgan. Avvalo shuni eslash lozimki, har uch davrdagi chilladan ko'zlangan asosiy maqsad, chillali odam va ushbu xonadonni yovuz kuchlar, yomon ko'zlar hamda turli ins-jinslar ta'siridan himoya qilish bo'lgan. An'anaga ko'ra, har uch chilla davrida, ya'ni tug'ilganda, nikoh to'yi va motam marosimda ham chillali xonadonda qirq kun mobaynida ushbu uy chirog'i o'chirilmaydi va chillali odam yolg'iz qoldirilmaydi. Shuningdek, har uch chillaning ham aynan bir xil kunlari (ko'pincha uchinchi, yettinchi, yigirmanchi, qirqinchi)ga ko'proq e'tibor qaratiladi va bu davrda chillali uyga isiriq tutatib turish doimiy shartlardan biri hisoblangan.

Baxshilarning qarashlariga ko'ra, folbin-baxshilar tomonidan tutiladigan chilla turlicha bo'lib, ular orasida eng og'iri va xavflisi baxshilar tomonidan tutiladigan «qora chilla» hisoblanadi. «Qora chilla»da o'tiradigan kishi 40 kun mobaynida bir uydan tashqariga chiqmagan holda chimildiqning ichida o'tirishi lozim bo'lgan. U bu davrda boshqa odamlar bilan gaplashmasligi va faqat o'z uyida yaqin kishisi tomonidan pishirib berilgan pok ovqatni yeyishi lozim bo'lgan. Bu davrda bo'lg'usi baxshining qabristoniga borishi, o'lik ko'rishi, ariqda oqayotgan suvdan o'tishi qat'iy taqiqlangan. Bu jarayonda bo'lg'usi baxshi doimiy ravishda eng yaqin kishisi yoki ustoz baxshi nazoratida bo'lgan. Agar bo'lg'usi baxshi nazoratsiz qolib, tashqariga chiqib ketsa, ruhiy xastalikka chalinib esdan og'ishi ta'kidlagan.

Vodiyda yashovchi ko'plab o'zbek va tojik folbin-baxshilari (azayimxonlari) esa

kasallik xuruj qilganida uqalash orqali tanani qizdirib, bemorni terlashga majburlaganlar. Ayrim baxshilar ko'kyo'tal, bosh og'rig'i, bepusht ayollarni davolagan bo'lsalar, boshqalari shol, soqov bo'lib qolgan, badaniga turli toshmalar toshgan kishilarni, ruhiy kasallangan kishilarni davolar ekanlar. Baxshi oldiga kelgan bemorning qaysi a'zosi og'riyotganligini bemor tashrifi tufayli uning o'zining ham tanasidagi o'sha a'zo og'rishidan bilib olar ekan. Marosim davomida baxshi bilan birga bemorning yonida o'tirganlar ham ba'zida jazava holatiga tushganlar. Shundan so'ng baxshi bemorni yettita yoki to'qqizta tol va jiyda xivchinlari bilan o'ng tomonidan boshlab urgan va jinlarni go'yo chap tarafdin haydab chiqargan. Odatda, tol xivchinlari yoki mevali daraxt shoxlari kasallik holatiga qarab ishlatilgan. Bemor yengilroq xasta bo'lsa mevali daraxt, og'irroq kasal bo'lsa mevasiz daraxt (tol) xivchinlaridan foydalanilgan. Tol yoxud mevali daraxt xivchinlari ishlatilishiga qarab, go'yoki yovuz ruhlarni kasal tanasidan yakuniy haydash bo'lgan. Ko'chirma kunida baxshi bemor yelkasi, qo'llarini silagan holda uning tanglayini ko'tarib qo'ygan.

Markaziy Osiyo xalqlari hayotidan keltirilgan mazkur misollar shomonlik an'analarining nafaqat qoloq dunyoqarash shakllari sharoitida, balki madaniy- tarixiy rivojlangan jamiyatda ham yashovchanligini yaqqol namoyon etadi. An'analar ko'pincha o'zgaradi, moslashadi, amaldagi rasmiy din talablarining u yoki bu jihatlariga ma'lum darajada birikadi. Chunonchi, islom sharoitida shomonlik harakatlari odatda musulmon an'alariga ko'ra fотиha bilan yakunlanadi, biroq ayrim folbinlar musulmonlikka to'g'ri kelmaydi deb fотиha qilmaydigan hollar ham uchrab turadi.

Tangrichilik. Tangrichilik osmon xudosi «Tangri»ga e'tiqod qilgan qadimiy turkiylarning dini bo'lib, mil.avv. 2-ming yillik oxiri va 1-ming yillikda vujudga kelgan. Ko'pchilik mutaxassislar oliy osmon xudosi shumerlarda – «Dingir», qadim xitoyliklarda - «Tyan» va xunlarda - «Chenli» nomi bilan mavjud bo'lganidan kelib chiqib, ularda aynan bir xudo - Tangri nazarda tutilgan, deb e'tirof etadi. Olimlar mazkur qiyosga tayangan holda tangrichilik eng qadimgi dinlardan biri ekanini ta'kidlaydilar.

Ayrim tadqiqotchilar fikricha, 5-6 ming yillar muqaddam qadimgi Shumerdan Oltoygacha bo'lgan ulkan hududda protooltoy qabilalari yashagan. Qadimgi shumerlar qadimgi turk tiliga yaqin bo'lgan protooltoy tili lahjasida so'zlashganlar. Shu davrda Tangrichilik protooltoy xalqlarining eng qadimgi dini, insoniyat tarixidagi ilk monoteistik dinlardan biri sifatida shakllangan.

Tangrichilik qadim zamonda jahonda eng keng tarqalgan dinlardan biri bo'lgan. Qadimgi oltoy xalqidan kelib chiqqan turkiy, mongol, tungus-manjur, koreys va yapon xalqlarida Tangrichilikning izlari hozirgacha saqlanib qolgan.

Mil. av. 1-ming yillikdan boshlab oltoy xalqlarining turkiy xalqlar guruhi G'arbga qaytish borasida harakatini kuchaytirgan. Hunnlar, sak, massaget, yueyji, kushon, eftaliylar yagona osmon ruhi – Tangriga sajda qilganlar. Diniy qarashlar sodda va tushunarli bo'lgani, diniy marosimlarning qat'iy bajarilgani ularning ming yillar davomida avloddan avlodga o'tib kelishini ta'minlagan. Ba'zi olimlar tangrichilikda «Olqish» («Qo'shiqlar to'plami») yozma manbasi bo'lgani va unda tangrichilik aqidasi, marosimlari va ibodat qilish tartiblari bayon etilganini ta'kidlaydilar.

Tangrichilik ta'limotiga ko'ra, Tangri bu – Moviy Osmon, Buyuk Osmon sohibi ruhi bo'lib, uning doimiy makoni osmon deb hisoblangan. Tangri so'zi turkiy xalqlarda Tengri yoki Tengeri (oltoy), Tengri (qipchoq), Tanri (turk), Tengri (tatar), Tangara (yoqut), Tengiri (kumiq), Teyri (bolqor-qorachoy), Tenger (mo'g'ul), Tura (chuvash) shakli ham ishlatilgan. Tangri butun borliqning yaratuvchisi, cheksiz fazoda faqat uning o'zi hamma narsadan voqif, adolatli va marhamat egasi bo'lgan erkak qiyofadagi yagona xudo sifatida tasavvur qilingan. Butun borliq bo'ysunuvchi Tangri insonlar, xalq va davlatlarning taqdirini belgilaydi deb e'tiqod qilingan.

Milodiy V-VIII asrlarga oid O'rxun-Enasoy yodgorliklari bitiklarida Tangri yagona, azaliy, abadiy, hayot beruvchi, yaratuvchi, o'ldiruvchi, hukm qiluvchi, yordam beruvchi, jazolovchi, bandaning duosini qabul qiluvchi, himoya qiluvchi va mag'firatiga oluvchi, hamma narsani biluvchi, insonlarga ilm beruvchi va yo'l ko'rsatuvchi sifatlar bilan maqtalgan. Shuningdek, bitiklarda u hoqonlarni hokimiyat bergan va mustaqil davlat tuzishlariga ko'maklashgani ham qayd etilgan.

Qadimgi turkiylar e'tiqodiga ko'ra, butun borliq ustidan yagona hukmdor Tangri o'ziga bir qator ko'makchi ma'budlarni ham yaratgan. Jumladan, ushbu panteon Umay (Jumay, ona ma'buda), Erlik (ota ma'bud), Yer, Suv, Olov, Quyosh, Oy, Yulduzlar, Havo, Bulut, Shamol, To'fon, Momoqaldiraq, Chaqmoq, Yomg'ir, Kamalak ma'budlaridan iborat bo'lgan. Tangri Yer va boshqa ruhlar (Yurt egasi, Suv onasi) bilan Yer olami ishlarini hal qilib, barcha jonzotlarning umrini belgilagan.

Yerda hayotning sababchisi bo'lgan Umay (aynan «yo'ldosh») ma'budi ayol qiyofasida va «hayot onasi» deb e'zozlangan. Ushbu ma'buda – xonadon o'chog'i, farzandlar, homiladorlar homiysi hisoblangan. Qadimiy yozuvlarda quyidagilar bitilgan: «Osmon ilohi, Umay va Yer suv bizga zafar olib keldi!». Turkiy xalqlar Umayni hosildorlik ma'budasi sifatida ham e'zozlashgan (ona Yer, ona Tuproq, ona Vatan). VII-VIII asrlarga oid runiy yozuvlarda u haqda qayd etilgan. Ayrim tadqiqotchilar Umay obrazi genetik jihatdan eroniylarning mifologik qushi Humoy bilan bog'liq bo'lganini ta'kidlaydilar. E'tiqodga ko'ra, Humoyning soyasi tushgan inson baxtli bo'lgan. Bir qator turkiy xalqlar mifologiyasida Umayga e'tiqod qilish qoldiqlari saqlanib kelgan.

Erkak jinsidagi Erlik o'lim sababchisi bo'lib, uning makoni Yerosti olami hisoblangan.

Tangrichilikka ko'ra, olam 3 qavatdan iborat. Yuqori olamning hukmdori, bosh ilohi Tangri hisoblangan. O'rta olamni Yer-Suv, Quyi olamni Erlik (Erklig) boshqargan. Tangri samodan turib dunyoni o'z izmiga solgan: insonlarning taqdiri, tabiat hodisalari, xoqonlarga donolik, hokimiyat va b. U o'z xohish istagini so'z bilan ifodalagan, hissiyotlarga ega (antromorfizm), ammo hukmini tabiat orqali bildirgan.

Ko'rinmaydigan Yer osti olami barcha yovuz ruhlarning makoni bo'lib, ularga qudratli Erlik boshchilik qilgan. To'qqiz qatlamlararo ko'chib yurish imkoniga ega Yer olamida hayot va o'limning mavjudligi tufayli u yerda odamlar orasida ma'lum vaqt bo'la oladi xolos. Yer osti olamida Yer olamidan farqli ravishda barcha chegaralar ko'rinib turadi va boshqa hududlarga o'tish o'ziga xos eshiklar yordamida amalga oshadi. Yer osti va suv olami tirik jonzotlari Erlik tasarrufiga kiradi. Inson vafotidan keyin ko'milgach, uning jismi eng quyi qatlamga tushib boradi.

Tangrichilikda Tangri va Yer ikki qutb sifatida qaralsa-da, ular orasida o'zaro hamkorlik mavjud deb e'tiqod qilingan. Inson Yerda tug'ilib, Yerda yashagan. U vafot etganda, Yer uni o'z bag'riga olgan. Yer insonga faqat moddiy bo'lagini bera olgan. Lekin inson boshqa mavjudotlardan farqlanib turishi uchun Tangri unga, ruhiy kuch bo'lgan «qut» (quvvat) va «sur» (ruh)ni ato etgan deb e'tiqod qilingan.

Maqdisiy, turkiy xalqlar «bir Tangri» so'zi bilan qasam ichganliklarini qayd etadi. Uning sharafiga iyun oyining o'rtasida ommaviy bayramlar o'tkazishgan. Olov yoqib, tabiat qo'ynida, otni qurbonlik keltirishgan. Tangriga insonlar qo'llarini yuqoriga ko'targan holda yerga qarab ta'zim qilishgan. Ilohdan omad va salomatlik so'rashgan. Bayram aksariyat holda kamondan o'q otish va mehmondorchilik qilish, qimiz ichish bilan yakunlangan.

Tangrichilikda tabiat va inson o'rtasida chegara daxlsizligini saqlashga alohida e'tibor bilan qaralgan. Agar inson tabiatga me'yordan ortiq zarar yetkazsa, unda tabiat ruhlarining roziligiga erishish uchun qurbonlik keltirish zarur bo'lgan. Qurbonliklar yirik tog'lar yoki daryolar oldida ommaviy ravishda o'tkazilgan. Daraxtlar orqali ma'budlar oziqlanadi, - deb e'tiqod qilingani sababli qurbonlik qonlari daraxtlar ostiga quyilgan. Lekin, odamlar tabiat ruhlarini o'zlariga hamkor sifatida qarashgan, ularni qarindosh yoki ajdodlar ruhlari deb bilishgan.

Umuman olganda, qadimiy turkiylarning dunyoqarashida borliqning cheksizligi, hayotning doimiy harakat va muntazam yangilanishda ekani muhim o'rin egallagan. Ayni paytda Ruhning ko'chib yurishiga ishonganligi bois inson tiriklik chog'ida borliqning bir bo'lagi sifatida barcha diniy marosimlarni to'la ado etishi lozim, aks

holda yovuz ruhlar qatoridan joy oladi, deb e'tiqod qilingan.

Zardushtiylik. Spitama qabilasidan bo'lgan Pourushaspa o'g'li Ashoga Zaratushtra (yunoncha – Zoroastr, pahlaviycha – Zaraxustra «boqiy yulduz» va «chiroyli tuyalarga ega bo'lgan») ushbu dinning asoschisi hisoblanadi. Zardushtiylar e'tiqodiga ko'ra, bu nom unga Axura-Mazda (yunoncha, Ormuzd – «Donishmandlik sohibi») tomonidan berilgan. Zardushtning yashagan davri va joyi haqida turli taxminlar mavjud. Tadqiqotchi M.Boysning ta'kidlashicha, u mil. avv. 1500-1200 yillar orasida yashagan. Uning fikricha, Zardusht o'z da'vatini Gushtasb Luxrasb ismli kayoniylar podshohi davrida boshlagan. Bunga u zamonaviy zardushtiylarning hozirgacha mil.avv. 1738 yil shoh Vishtasp tomonidan qabul qilingan «fasli» kalendaridan foydalanib kelayotganlarini dalil qilib ko'rsatadi.

Zardushtiylikning vatani masalasida ikki xil qarash mavjud. Jumladan, ayrim olimlar zardushtiylik Qadimgi Eron hududida keng tarqalgani, «Avesto»ning sharhlari pahlaviy tilida yozilganidan kelib chiqib, uning vatani Midiya (hozirgi Eron hududi) deb hisoblasalar, ko'pchilik tarixchilar esa «Avesto»da Xorazm Zardushtning vatani, Axura-Mazda bilan aloqa bog'langan va ozarxurra (muqaddas olov) birinchi bor yoqilgan joy ekani qayd qilinganiga asoslanib, Xorazmni e'tirof etadilar.

Zardushtiylikning muqaddas manbasi «Avesto» («Apastak», «Ovisto», «Ovusto», «Abisto», «Avasto» - «joriy qilingan qat'iy qoidalar») sanskrit tiliga yaqin o'ziga xos (avesto tili) tilida yozilgan. Uning «Gat»lar nomli qismi Zardusht qalamiga mansub deb hisoblanadi. Ko'pchilik tadqiqotchilar fikriga ko'ra, Xorazm, Gava (So'g'd), Marg'iyona (Marv), Baqtriya (Balx), Orol dengizi (Vorukasha yoki Vurukasha) va Amudaryo (Daiti) kabi nomlarning tilga olingani «Avesto» O'rta Osiyoda mil. avv. I ming yillikning birinchi yarmida vujudga kelganini tasdiqlaydi. Dastlab «Avesto» matnlari og'zaki ravishda saqlanib kelgan. Uning eng qadimiy qismlari II ming yillik oxiri I ming yillik boshlariga oid bo'lib, keyingi asrlarda uning tarkibi turli diniy urf-odatlar bayoni, axloqiy, huquqiy qonun-qoidalar bilan to'ldirilib borilgan. Milodiy uchinchi asrda qonunlardan iborat Avestoning sharhi «Zend» (parfiyoncha, «sharhlangan matn») yozilgan. Zamonaviy zardushtiylarning fikriga ko'ra, «Avesto»ning to'liq qismi yetib kelmagan bo'lsa-da, uning dastlabki yozma nusxasi 12 ming qora mol terisiga bitilgan edi. Abu Rayhon Beruniy «Podshoh Doro ibn Doro xazinasida (Abistoning) o'n ikki ming qoramol terisiga tillo bilan bitilgan bir nusxasi bor edi. Iskandar (Aleksandr Makedonlik) otashxonalarni vayron qilib, ularda xizmat etuvchilarni o'ldirgan vaqtda uni kuydirib yubordi. Shuning uchun o'sha vaqtda Abistoning beshdan uchi yo'qolib ketdi», deb aytgan so'zlari yuqoridagi fikrni tasdiqlaydi.

«Avesto» mil. avv. I asrda Arshakiylar sulolasi davrida ilk marta oromiy

alifbosida ko‘chirilgan. Shopur II (243-273) va Xusrav I (531-579) zamonlarida uning nusxalari yaratilgan. IX asrda yozilgan «Denkart» («Imon faoliyati», Sosoniylar hukmronligi davrida yozilgan qomusiy lug‘at bo‘lib, u o‘z ichiga badiiy va tarixiy ma‘lumotlarni olgan. Dastavval 9 bo‘limdan iborat bo‘lgan, keyinchalik uning 2 qismi yo‘qotilgan. Abbosiy xalifa al-Ma‘mun ibn Horun ar-Rashid davri(813-833) da Aturfarnbag (Aturfat ibn Hamat) tomonidan to‘plangan) asari

«Avesto»ning 21 qismdan iborat bo‘lganini qayd etadi. Dindorlar kundalik faoliyati uchun uning ixchamlashtirilgan shakli - «Kichik Avesto» («Xurdak Avesto») yaratilgan.

VII asrda Eronga islomning kirib kelishi zardushtiylarni Hindistonga ko‘chib o‘tishga majbur qildi. Ularning avlodlari (forsiyalar) Mumbay shahrida o‘z jamoalarida hozirgacha «Avesto»ning bir nusxasini saqlab keladilar.

«Avesto» - «Videvdat», «Yasna», «Visparad» va «Yasht» nomi bilan yuritiladigan bo‘limlarni o‘z ichiga oladi. 22 bobdan tashkil topgan «Videvdat» - «Avesto»ning saqlanib qolgan bo‘limlari orasida eng mukammali bo‘lib, unda odamlar yashaydigan barcha yurtlar Axura-Mazda tomonidan yaratilgani, kasallik, o‘lim, azob-uqubatlar bo‘lmagan zamon, ya’ni insoniyatning farovon hayoti, Zardusht bilan Axura-Mazdaning savol-javoblari, qasam ichish, va’dada turish, ahdni buzish, tozalik, yuvinish asoslari kabi masalalar yoritilgan. «Yasna» - diniy marosimlarda o‘qiladigan duolar bo‘lib, 72 bobdan tashkil topgan. Zardushtning so‘zlari hisoblanadigan 17 fasl, 338 qit’a, 896 misra va 5560 so‘zdan iborat «Gat»lari ham shu bo‘limdan joy olgan. «Gat»ning har bir she’ri pahlaviy tilida «Gas» deyiladi. Umuman olganda, bu bo‘limda olovning muqaddasligi, zardushtiylik marosimlari orasida olovga e’tiqod qilish, Axura-Mazda nurining Quyoshda namoyonligi va uning Yerdagi zarrasi deb bilinishi, olovning haqni nohaqdan, eng oliy gunoh hisoblanmish yolg‘onni rostdan ajratib berishi, yolg‘onning chin e’tiqodga xiyonat, deb qoralanishi kabi e’tiqodiy tushunchalar o‘z aksini topadi. «Visparad» - 24 bobdan tashkil topgan bo‘lib, ma’budlar sha’niga o‘qiladigan duo va pand-nasihatlardan iborat. 22 bobdan tashkil topgan «Yasht» esa har bir bobi Axura-Mazdadan boshlanib, u tomonidan yaratilgan va uning ma’lum vazifalarini bajaruvchi ma’budlar sha’niga aytilgan madhiyalardan iborat.

Zardushtiylik ta’limotiga ko‘ra, Zardusht o‘ttiz yoshga yetganida unga payg‘ambarlik vazifasi berilgan. U o‘z tarafdorlari bilan birga Aivita suvi qirg‘oqlarida xilvat (yolg‘izlik, chilla)ga chiqib ketgan. Xilvatning 45-kechasi samoga ko‘tarilib, Vohumanah (Bahman) deb nomlangan farishta bir necha farishtalar bilan birga uning ko‘kragini yorib, ruhini poklaganlar. Vohumanah uni jannat, ya’ni Axura-Mazdaning huzuriga olib borgan. O’sha yerda u dinning hukmlari bilan birga

yulduzlar, sayyoralar, jannat, jahannam va boshqa narsalarning ilmini o'rgangan. Shundan so'ng Axura-Mazda unga muqaddas kitob «Avesto»ni in'om etdi. Zardusht ta'limoti ezgulik va yovuzlik o'rtasidagi kurashning azaliy ekaniga asoslangan axloqiy xarakterdagi din bo'lib, unda adolatli bo'lish, oqillik, yaratuvchanlik va mehnatsevarlik bilan yagona xudoga sig'inish targ'ib qilingan. Bu kurashda ezgulik tarafdori Axura-Mazda oxir-oqibat yovuzlik tarafdori bo'lmish Anxra-Maynyu (yunoncha, Axriman - yomonlik, buzg'unchilik ibtidosi) ustidan g'alaba qozonadi. Shuning uchun ko'pchilik dinshunoslar zardushtiylikni assimetrik dualizmga mansubligini qayd qilishgan.

Ta'limotga ko'ra, birinchi inson Govmard (forscha - ho'kiz-odam) bo'lgan. Birinchi shoh Yima (Jamshid) hukmronligi oltin davr hisoblangan. Uning davrida kishilar bekamu-ko'st, baxtiyor yashaganlar. 900 yil o'tgach, shoh Yima g'ururga berilib, man etilgan sigir go'shtini yeydi va yovuzlik ramzi Axriman hukmidagi kuchlar bosh ko'taradi. Oqibatda olamni muzlik qoplaydi. Yima Axura-Mazda amri bilan odamlar va hayvonlarni sovuqdan saqlab qolish uchun qo'rg'on qurib, unga har bir jonzotdan bir juftini joylashtiradi. Insoniyat tarixining ilk oltin davri tugagach, yaxshilik va yomonlik o'rtasidagi kurash davri bo'lgan ikkinchi davr boshlangan. Uchinchi davrda Axura-Mazda g'alaba qilib, ezgulik saltanati qaror topadi, o'lganlar qayta tiriladi.

Zardushtiylik ta'limotiga ko'ra, dunyo sinovlardan emas, balki yovuzlikka qarshi kurashdan iborat, xolos. Ta'limotda insoniyat yashayotgan dunyo muhim hisoblanadi. Shuning uchun unda dunyoviy lazzatlardan oxirat uchun voz kechish masalalari ilgari surilmaydi. Ezgu amallar qilish orqali yovuzlikni yengish mumkin. Har bir zardushtiy hayotini ezgu fikr - xumata, ezgu so'z - xuxta, ezgu amal - xvartsha asosiga qurishi hamda yovuz fikr - dujvartshta, yovuz so'z - dujuxta, yovuz amal - dujmatadan saqlanishi zarur.

Har bir inson vijdon amriga binoan ezgulik va yovuzlik orasidagi farqni topa olishi lozim. Har kim Anxra-Maynyu va uning tarafdorlariga qarshi kurashishi zarur. Jumladan, Anxra-Maynyu yaratgan chayon, ilon va boshqa turli yirtqich hayvonlar xrafstra (jirkanchli) deb atalib, ularni o'ldirish mumkin.

Zardushtiy uchun har doim pok holda bo'lish ahamiyatli hisoblanadi. Inson o'zini pok saqlashi uchun yomon o'y-xayollar, kasallik, o'liklarga yaqinlashmasligi hatto ularga qaramasligi ham zarur. Istisno tariqasida nopok bo'lib qolgan kishi yangidan poklanishi kerak. Inson jasadini olovda yoqish, muqaddas olovni o'chirish va ruhoniylarni o'ldirish eng og'ir gunohlardan sanaladi. Zardushtiylik reinkarnatsiyani rad etadilar.

Zardushtiylikda imon uchta narsaga asoslanadi: fikrlar sofligi, soʻzning sobitligi, amallarning insoniyligi. Zardushtiylik bir yilda har biri besh kundan davom etadigan oltita bayramni belgilaydi. Bu bayramlar orasida goxanvar – har biri oʻttiz kundan iborat boʻlgan 12 oydan keyingi besh kunlik bayrami asosiy oʻrinni egallaydi. Yilning 360 kunidan qolgan kunlari xursandchilik, diniy marosimlar bilan oʻtkaziladi. Shunday qilib yangi yilning – Navroʻzning yaxshi kirib kelishiga umid bildiriladi.

Zardushtiylikda bir kecha-kunduz besh qismga boʻlinadi: ratu (belgilangan ilohiy tartib), xavani (sahardan tushgacha), rapitvina (tushdan soat 3-4 gacha), uzayyarina (oqshomgacha), avistrutrima (yarim tungacha), ushaxina (tun yarmidan sahargacha). Sutkaning bu nomlari ham xudoga oʻxshatilib, har biriga ibodat qilinadi – bir kunda besh marta namoz oʻqiladi.

Koʻpchilik dinshunoslar zardushtiylikni dualizmga oid deb hisoblasalar-da, lekin unda Axura-Mazdadan keyingi darajalarda turuvchi oʻziga xos xudolar panteoni mavjud ekanini taʼkidlash lozim. Ularning eng buyuklari Amesha Spenta (Abadiy muqaddas) – Axura-Mazda yaratgan 7 maxluqdan biri. Boshqa fikrga koʻra, Amesha Spenta – Axura-Mazdaning timsoli, Yazatlar - Axura-Mazda yaratgan quyi ruhlar boʻlib, ular Yerdagi turli hodisa va holatlarga masʼuldirlar. Eng mashhur yazatlar Sraosha, Mitra, Rashnu va Veretragna hisoblanadi. Fravashi Osmonlarda yashovchi va Zardushtga vahiy olib tushuvchi maxluqotlar. Shu bilan birga Spenta-Manyu (yorugʻlik, yaralish ibtidosi), Asha Vaxishta (adolat, haqiqat), Voxu Mana (aql, ezgu fikr, tushunish), Xshatra Vairya (qudrat, qatʼiylilik, hukmronlik), Spenta Armaiti (muhabbat, ishonch, rahm, fidoyilik), Xaurvatat (salomatlik, mukammallik), Ameretat (baxt, abadiylik) ezgulik tarafdorlari hisoblanadi. Anxra-Maynyu, Drudj (yolgʻon), Indra (zoʻrlilik, zulm), Akem Mana (yomon fikr, adashtirish), Shaurva (qoʻrqoqlik, pastkashlik), Taramaiti (takabburlik), Taurvi (kasallik, nuqsonlik), Zaurvi (qarilik, oʻlim) esa yovuzlik tarafdorlari hisoblanadi.

Zardushtiylikda har bir dindor shubhasiz tasdiqlashi zarur boʻlgan muhim aqidalar ishlab chiqilgan. Unga koʻra, oliy mehribon xudo Axura-Mazdaning yagona va mavjud, Gegig (Yer) va Menog (Ruh) olamlari mavjud, Zardusht insoniyat tarixida Axura-Mazdaning ilk paygʻambari, «Avesto»ning barcha qismi ilohiy haqiqat, muqaddas olov Xudoning Yerdagi timsoli, mubadlar Zardushtning birinchi shogirdlari va vahiyning muhofazachilari, poklanish marosimlarini bajaruvchi, muqaddas olovni saqlovchi va taʼlimotning sharhlovchilari, barcha yaxshiliklarning barhayot fravashilari mavjud boʻlib, odamlarning fravashilari yerda yovuzlikka qarshi kurashish yoʻlini tanlaganlar, yakunda ezgulik va yovuzlik kuchlarining uygʻunlashishi, kelajakda Saoshyanta (xaloskor) kelishi va uning yovuz Frasho Kereti ustidan gʻalaba qozonishi, oxiri zamonning sodir boʻlishi, oʻlimdan soʻng hisob-kitobning boʻlishi,

adolatning qaror topishi, yovuzlikka qarshi kurash va poklikni saqlab qolish maqsadida zardushtiylik an'analari va marosimlarga amal qilishning zarurligiga e'tiqod qilish shart qilingan.

Zardushtiylikka ko'ra, inson vafotidan uch kundan so'ng uning ruhi jasadidan ajralib, Osmon (Qo'shiqlar uyi)ga olib boruvchi Chinvat ko'prigi (Ajratish ko'prigi)ga boradi. Chinvadda inson ruhini ezgulik yozatlari Sraosha, Mitra va Rashnu himoya qiladi. Agar inson ruhining ezgu amallari bir tola soch vaznida ham yovuz amallardan og'ir kelsa, qo'shiqlar uyiga boradi. Aks holda

uning ruhini dev Vizaresh do'zaxga tashlaydi. Chinvadda inson o'z Daen (imon)ini uchratadi. Ezgu amal sohibiga imon go'zal qiz qiyofasida ko'rinib, uni ko'prikdan olib o'tishga yordam beradi. Yovuz amal egasini esa, jodugar ayol ko'prikdan do'zaxga yiqitib yuboradi.

Zardushtiylikka ko'ra, dunyoga 3 nafar saoshyanta kelishi lozim. Ular Zardusht ta'limotini qayta tiklaydi, qiyomatga yaqin ularning oxirgisi Anxra- Maynyu bilan jang qilib, barcha yovuzlik kuchlarini mag'lub etadi. Barcha o'lganlar qayta tiriladi va olov orqali hisob-kitob qilinadi. Odamlar erigan metall oqimida barcha gunoh va nuqsonlardan tozalanadi. Yaxshi odamlar uchun olov sut bug'idek tuyuladi, yomon odamlar esa yonib ketadilar. Shundan so'ng olam o'zining asl holatiga abadiy qaytadi.

Zardushtiylikda marosimlar qat'iy belgilangan tartibda o'tkaziladi. Har kim amal qilishi lozim bo'lgan shart amallar bo'lib, ularga ko'ra, barcha marosimlarni diniy malakaga ega erkak kishigina amalga oshirishi mumkin, ishtirokchilar pok holda, Sadre (oq rangli maxsus zardushtiylik ko'ylagi), Kushti (maxsus kamar) va bosh kiyimda bo'lishi, ayollar esa sochlarini ro'mol bilan berkitishi, ishtirokchilar tik turgan holda olovga yuzlanib, ibodatlar avesto yoki pahlaviy tilida olib borilishi ta'minlanadi. Marosimda dinsiz yoki boshqa din vakilining ishtiroki xosiyatsiz hisoblanadi.

Zardushtiylar kunlik Gohi - kunning goh, deb nomlanuvchi vaqtlarida besh mahal - Xavan goh (tongdan peshingacha), Rapitvin goh (peshindan so'ng), Uzarin goh (kun botishdan oldin), Aivisrutrim goh (kun botgandan so'ng), Ushaxin goh (yarim kechadan tonggacha) ibodatni amalga oshirganlar.

Zardushtiylik marosimlari zahirida har qanday nopoklikka qarshi kurash ta'limoti yotadi. Bunda poklanish muqaddas olov yordamida amalga oshadi. Zardushtiylar ibodatxonasida (otashkade) uzluksiz ravishda muqaddas olovning yonib turishi ta'minlanadi. Ba'zi ibodatxonalarda bir necha yuz yillardan beri muqaddas olovlar o'chmasdan kelmoqda. Muqaddas olovlarni o'chib qolmasligini mubod (diniy marosimlarni avloddan avlodga saqlab qolish mas'uliyatini olgan, kohinlar oilasi)lar ta'minlaydi. Mobadlar olovni har qanday holatda ham asrashi zarur bo'lgan. Yangi

olovni yoqish faqatgina istisno vaziyatlarda amalga oshiriladi.

Muqaddas olovlarning Shoh otash Varaxram (oliy darajadagi Shoh Bahrom olovi) maxsus shohona marosimlar, yirik g'alabalarga bag'ishlanib yoqilgan. Uni yoqishda 16 xil olov jamlanib, birlashtirilgan. Ushbu olov bilan bog'liq marosimlarni yuqori martabadagi ruhoniylar amalga oshirishgan. Otash Aduran (o'rta darajadagi aslzodalar olovi) 1000 kishidan kam bo'lmagan aholi turar joylarida Mobadlar tomonidan yoqiladi. Buning uchun jamiyatning ruhoniy, harbiy, dehqon va hunarmandlardan bo'lgan tabaqalari ishtirok etishi lozim bo'ladi. Olov oldida Nozudi (kohin, amaldor va hukmdorlar sharafiga o'tkaziladigan marosim), Gavaxgiran (to'y marosimi), Sadre pushi (Zardushtiy shaxsning maxsus ko'ylak kiyish va kamar taqish marosimi), Gaxanbar (Yazatlar sharafiga o'tkaziladigan yil davomidagi bayramlar) kabi marosimlar o'tkaziladi. Otash Dodgoh (quyi darajadagi olov) mahalliy jamoalarning kundalik diniy ehtiyojlari uchun ishlatilgan. Forslarda bu kabi joylar Dar ba mehr (adolat egasi Mitraning hovlisi) deb atalgan.

Zardushtiylikni qabul qilayotgan shaxs dinning arkonlarini tan olib, Fravan duosini o'qishi, Sadre va Kushtini taqishi lozim. Dinni qabul qilish odatda o'smirlik vaqtidan boshlanadi. Zardushtiylikni qabul qilayotgan vaqtda kishi hushyor va og'ir gunohlarni qilmagan holda bo'lishi lozim. Bu dinni qabul qilmoqchi bo'lgan kishining ba'zi marosimlarni bajarishi kifoya hisoblansa-da, hind zardushtiylarning dasturiga ko'ra, kelib chiqishi eroniy bo'lmagan boshqa din vakillari ehtiromga loyiq emas.

Shunday bo'lsa-da, zardushtiylikka ko'ra, inson vafotidan so'ng uning hukmi diniy mansublikka emas, balki fikri, so'zi va amallariga muvofiq bo'ladi. Boshqa dindan voz kechgan shaxs esa zardushtiy bilan kamida bir yil aloqada bo'lgan va bu vaqt davomida Mobad yoki behdin (ruhoniylar oilasiga mansub bo'lmagan, ammo diniy malakasi yuqori bo'lgan shaxs)lardan ta'lim olgan bo'lishi lozim.

Mobad tomonidan dam solingan insonni ichki va tashqi yovuzlikdan saqlovchi va xudo bilan aloqaga kirishda Sadre va Kushtidan foydalaniladi. Sadre kiyish zardushtiy uchun farz amallardan hisoblanadi. Kushtini muhim marosimlar va har ibodatdan oldin yechib va taqib turish lozim. Ular doimo toza holda saqlanib, yilda ikki marta Navro'z (Ezgulikning yovuzlik ustidan g'alabasiga bag'ishlangan yangi yil bayrami bo'lib, yilning kun va tuni teng 21 martda nishonlanadi) va Mehrjon (Hosil bayrami 23 sentyabr kuni nishonlanadi) bayramlarida almashtiriladi.

It yordamida odamdan devlarni quvish va poklash uchun Sog'did marosimi o'tkaziladi. Marosim xushsiz odamlarni tirik yoki o'lik ekanini aniqlashda ham o'tkazilgan.

Zardushtiylikda dafn marosimi va undan keyingi tadbirlar murakkab bo'lishiga

qaramay o'ziga xos jihatlari bilan ajralib turadi. Dastlab kishi jasadni podyob (o'likni to'liq yuvish) marosimi olib boriladi. Jasadni ko'targan va yuvgan kishilar barashnum (o'likka tegib ketgan va og'ir gunohlar qilgan kishilarni poklash) uzoq vaqt davom etadigan marosim bo'lib, u itlar yordamida amalga oshiriladi. Marosimning o'limdan keyingi hayot uchun foydali ekani uqtirilgan holda, har bir dindorga umri davomida bir marta bo'lsa-da, tavsiya qilinadi. Undan tashqari Yasna (Yasnaning 27 bo'limi o'qilishi) marosimi muqaddas olov oldida mobadlar tomonidan amalga oshirilib, unda dron (maxsus tayyorlangan non) va xum (xaoma, maxsus tayyorlanadigan muqaddas ichimlik) ishtirokchilarga tarqatiladi.

An'anaviy dafn marosimi bo'yicha jasadni daxma (erdan 4–5 metr balandlikda silindr shaklida bo'lgan maxsus joy) ga qo'yilib, unga o'liklar ustma-ust tartib bilan yotqiziladi. Ta'limotga ko'ra, o'lik Axrimanninng vaqtinchalik g'alabasi oqibati bo'lgani bois u nopok hisoblanadi. Shuning uchun yirtqich qush va hayvonlar ixtiyoriga topshirilgan jasaddan qolgan suyaklar terib olinib, novus (maxsus quticha)larga solingandan so'ng daxmaga qo'yiladi. Ammo, 1970-yillar boshlarida Eronda jasadni beton qabrlarga ko'mish amaliyoti boshlangan. Dafn marosimida nasusa (qutiga ko'muvchilar)lar nomli ijtimoiy tabaqa vakillaridan kamida ikki kishi ishtirok etishi lozim. Dafnning bir kishi tomonidan amalga oshirilishi katta gunoh hisoblanadi. Noiloj vaqtda esa itning ko'magidan foydalanish mumkin.

Zardushtiylik diniy tizimida Eron mobadlari kengashi (Anjumani mug'one Iron) faoliyat ko'rsatib, ruhoniylar rutbasidan tashkil topgan. Zardushtiylikning diniy iyerarxiyasi Ratu (zardushtiylikning himoyachisi, mas'um mobad), Mobadan Mobad (mobadlarning mobadi), Sar-Mobad (yoki pahlaviycha, Bozorg dastur, mobadlarning sardori, katta mobad), Dastur (ko'rsatma beruvchi, yetakchi mobad), Mobad (o'rta maqomli mobad), Xirbad (quyi maqomdagi mobad) va Mobadyor (mobad oilasidan bo'lmagan ruhoniylar).

Hozirgi vaqtda zardushtiylarning gebr (Eron) va fors (Hindiston) jamoalari saqlanib qolgan. Jumladan, Hindistonda zardushtiylikka e'tiqod qiluvchi kam sonli parslar bo'lib, ular VII asrda Eronga islomning kirib kelishi oqibatida Hindistonga qochib kelgan fors zardushtiylarining avlodlari hisoblanadi. Forsiylar dastlab Kathiavardagi Diu va Gujarotdagi Senjenda yashaganlar. Keyinchalik Mumbay (Bombey)ga ko'chib o'tgan zardushtiylar soni 100000 kishi atrofida bo'lib, hozirgi kunda Hindiston aholisining 0,007 foizini tashkil qilmoqda. Undan tashqari Avstraliya, Yevropa, Shimoliy va Lotin Amerikasi, Rossiya Federatsiyasi va MDH mamlakatlarida zardushtiy jamoalari mavjud. Hozirgi vaqtda zardushtiylikka e'tiqod qiluvchilar soni 200000 dan oshadi.

2003 yil UNESCO tomonidan zardushtiylikning 3000 yilligi nishonlandi.

2. Yahudiylik. Buxoro yahudiylari jamoasi tarixi. Yahudiylik dunyoda keng tarqalgan monoteistik dinlardan biridir. Eng yirik yahudiy jamoalari Isroilda 5,6 mln., AQSHda 5,6 mln., Kanadada 350 ming, Rossiyada 230 ming, G'arbiy Yevropa davlatlaridan Fransiyada 310 ming, Germaniyada 230 ming, Buyuk Britaniyada 280 ming, Argentinada 200 ming, Avstraliyada 110 ming, Braziliyada 110 ming kishini tashkil qiladi.

Yahudiylik miloddan avvalgi II ming yillikning oxirlarida Falastinda vujudga kelgan yakkaxudolik g'oyasini targ'ib qilgan dindir. Yahudiylik millat dini bo'lib, faqatgina yahudiy xalqiga xos.

Falastin hududidan Rim imperiyasining turli tomonlariga butunlay badarg'a qilinadilar. Shu tariqa, bu davrlarda yahudiy xalqining katta qismi asir qilib olingan yoki bu yerlardan quvg'in qilingan. Aynan mana shu hol yahudiylarning keyinchalik Falastin hududidan tashqariga, jumladan, Markaziy Osiyoga tarqab ketishiga sabab bo'ldi. Mavjud ma'lumotlarga qaraganda, miloddan avvalgi VII asrdayoq yahudiylar Isroilni tark etib, Misr, Eron va boshqa yurtlarda panoizlashgan.

Yahudiylar O'rta Osiyoga qadim zamonlardan ko'chib kelganlar. Ularning bu kelishlari haqida turli xil rivoyatlar mavjud. Miloddan avvalgi 722 yilda Isroil podshohligi Ossuriya tomonidan, miloddan avvalgi 586 yilda esa Bobil davlati tomonidan bosib olingach, yahudiy xalqining bir qismi o'lkadan haydab chiqarildi. Bu esa yahudiylarning Osiyo o'lkalari bo'ylab tarqalib ketishiga sabab bo'ldi. Hatto miloddan avvalgi VIII asrlarda ba'zi yahudiylar Isroilni tark etib, Misr, Eron kabi o'lkalarda boshpana topganliklari haqida ham ma'lumotlar bor. Fors davlati ma'lum muddat O'rta Osiyoni o'z hukmi ostida tutib turgan va xuddi shu davrda yahudiylarning ko'chib kelishi boshlangan. Yahudiylar O'rta Osiyoda So'g'diyona davlati davrida, ya'ni miloddan avvalgi II asrda paydo bo'ldilar. Ular Eron orqali Marvga kelib, so'ng u yerdan Buxoro, Samarqand, Shahrisabz va boshqa shaharlarga tarqaldilar.

Yahudiylarning O'rta Osiyoda paydo bo'lishi tarixi juda murakkabdir. Ko'pchilik tadqiqotchilar ularning bu yerda paydo bo'lishlarini milodning birinchi asrida vujudga kelgan «Buyuk ipak yo'li» faoliyati bilan bog'laydilar. Buyuk ipak yo'li, darhaqiqat, bo'yoqchilik bo'yicha mutaxassis bo'lgan yahudiylarning xom ashyo manbalariga yaqinroq mintaqalarga tarqalishiga sabab bo'lgan. Yahudiylarning Balx shahrida paydo bo'lishlari esa faqatgina milodning IV asriga to'g'ri keladi. Milodiy IX-X asrlarda yahudiy jamoalari ancha ko'psonli va erkin bo'lganlar. Ulardan faqat urushga yaroqli bo'lgan erkaklarga soliq (jizya) to'laganlar. Yig'ilgan soliqlarning faqatgina yarmi davlat xazinasiga topshirilgan. Qolgan qismi esa jamoa boshlig'i ixtiyorida qolgan.

Yahudiylarning O'rta Osiyoda yashaganliklariga guvohlik beruvchi arxeologik topilmalar ilk bor 1954 yili olimlar tomonidan Turkmanistonning Marv va Bayramali shaharlarida aniqlangan. Bular qadimgi sinagoga qoldiqlari, yahudiy yozuvlari va nomalari bitilgan sopol buyumlardir. Topilmalar Yunon- Baqtriya va Parfiya davlatlari hukmronlik qilgan miloddan avvalgi II - milodiy I asrlarga tegishli bo'lgan.

1165 yilda Sharqqa sayohat qilgan Veniamin de Tudelning xabar berishicha, Sharqqa tomon qancha uzoqroq kirib borilsa, yahudiylar soni shuncha ko'payib borgan. O'sha davrda Quddus shahrida hammasi bo'lib 4 ming yahudiy yashagan bo'lsa, Basrada ularning soni 2 ming, Damashqda 3 ming, Isfahonda 15 ming, Samarqandda esa 30 ming kishini tashkil qilgan. Biroq bu sayyoh Sharqda Bag'dodgacha safar qilib, mahalliy yahudiylarning afsonaviy ma'lumotlariga asoslangan.

Arab tarixchilarining ma'lumotlariga ko'ra, Sharqda yahudiylar tomonidan «Yahudiya» deb ataladigan shaharlar qurilgan. Shunday shaharlardan biri Marv shahri yaqinida bo'lgan.

X-XIII asrlar Buxoro yahudiylari uchun ma'naviy-ruhiy jihatdan o'sish davri bo'ldi. Ular Iroq yahudiy markazidan uzoqda, O'rta Osiyo hududlarida yahudiylikka oid qarashlarini rivojlantirdilar va Tora qonunlariga moslashtirdilar.

O'zlarini aslzoda deb hisoblagan Bobil yahudiylari O'rta Osiyo yahudiylarini kashrut qoidasi (ruxsat etilgan ovqatlarnigina yeyish)ni buzish, yerli aholi bilan aralashib ketish va yahudiy dinini bid'atlar bilan buzishda ayblay boshladilar. Albatta, bu ayblovlar asossiz emas edi.

IX-X asrlarda O'rta Osiyoda *karaimlar* deb ataladigan yahudiy sektasi paydo bo'ladi. Bu sekta tarafdorlari faqat Torani tan olar, Talmudni esa inkor qilar edilar. X asr O'rta Osiyo karaimlarining ko'zga ko'ringan rahnamolaridan biri g'aznalik Menexem Talmud tarafdorlariga qarshi o'z fikrlarini isbotlash uchun Iskandariyaga safar qilgan. Karaimlar sektasi namoyandalaridan yana biri Xivi al-Balxiy ko'plab asarlar yozib, ularda Talmudni tanqid qilgan va uning ishonchliligiga shubha bilan qaragan.

XIII asr boshiga kelib, Chingizxon qo'shinlari Movarounnahr shaharlarini birma-bir qo'lga kiritgach, yerli aholini shafqatsiz ravishda qirg'in qildilar. Qadimgi yahudiy jamoalari ham inqirozga uchradi. Saqlanib qolgan kam sonli yahudiylar Buxoro va uning atroflarida yashaganlar. XIII asrda boshlangan yahudiylar inqirozi, ba'zi istisnolardan tashqari, XVIII asrga qadar davom etdi.

Amir Temur va temuriylar davrida Movarounnahr mintaqasiga Erondan ko'pgina yahudiy jamoalari ko'chirib keltirilgan, ularning bir qismi Buxoroda yashagan.

Temuriylar davrida O'rta Osiyodagi xristian jamoalari inqirozga uchragan bo'lsalar-da, lekin yahudiy jamoalari saqlanib qoldi va o'zlarining diniy markazlaridan ajralib va uzoqlashib qolganliklariga qaramay, ular mintaqada o'z mavqelarini uzoq vaqt egallab turdilar.

XVIII asrning boshlarida O'rta Osiyoda yuz bergan siyosiy jarayonlar tufayli yahudiylar Eron, Afg'oniston, Xiva, Qo'qon va Buxoro jamoalariga bo'linib ketdi. XIX asrning ikkinchi yarmida Rossiya imperiyasi tomonidan O'rta Osiyoning bir qismi bosib olinishi yahudiylarning yana Turkiston va Buxoro jamoalariga bo'linib ketishiga olib keldi. O'rta Osiyo yahudiylari Buxoro amirligi hududlarida yashaganliklari tufayli «Buxoro yahudiylari» nomi bilan tanilgan bo'lsalar-da, ularning asosiy qismi ko'proq Samarqandda yashagan.

Yahudiylar yagona millatga xos din bo'lganligi sababli yahudiylar qayerda yashamasin, biri ikkinchisidan qancha uzoqda bo'lmasin, ular o'z diniga va muqaddas kitoblariga e'tiqod qilishni davom ettiraverdilar. XVIII asrda O'rta Osiyo yahudiylari ruhiy tushkunlik davrini boshdan kechirdilar. 1793 yili o'zi G'arbiy Afrikadan bo'lib, Falastinning Sfat shahrida yashovchi Iosif Mamon Mag'ribiy o'z shahri yahudiylari uchun moddiy yordam to'plash maqsadida Buxoroga keladi. U mahalliy yahudiylarning o'z dinlaridan uzoqlasha boshlaganliklarini ko'rib, shu yerda qolishga va millatdoshlariga diniy ta'lim berishga ahd qiladi. Yahudiylar doimo tinch, kam aholili joylarda yashashni afzal ko'rganlar.

XIX asrga kelib yahudiylar O'rta Osiyoning Qarshi, Marv, Xatirchi, Shahrisabz, Kattaqo'rg'on, Karmana, Marg'ilon, Dushanba shaharlarida yashaganlar. Ular odatda bir mavzega jam bo'lib yashar edilar. 1843 yilda mahalliy yahudiylarga Samarqandning sharqiy qismidan 2,5 gektar yerni 10000 kumush tangaga sotish haqida shartnoma tuzildi. Bu shartnomani yahudiylar jamoasining 32 a'zosi imzoladi, davlat uning haqiqiyligini to'rt muhr bilan tasdiqladi. Shunday qilib, yahudiylar o'zlarining birinchi mahallalariga ega bo'ldilar. Jamoa boshlig'i Moshe Kalontar sotib olingan yerda qurilishlar qilish uchun yahudiylardan pul yig'di. Ular yangi joyda birinchi bulib Bani Isroil qabilalari soniga mos 12 ta hovlida uy-joy, maktab, hammom, sinagoga qurdilar.

XIX asrning 80-yillarida buxoro yahudiylaridan 1,5 mingga yaqini, XX asrning 20-30-yillari esa - 4 mingga yaqini yahudiy tilida o'qish uchun Falastinga ko'chib ketgan.

O'rta Osiyoda 1940 yilgacha yahudiylarning ivrit tilidagi maktablari, davriy va maxsus nashrlari mavjud bo'lgan. 1932 yilda Samarqandda yahudiylar teatri tashkil qilingan. Keyinchalik yahudiy tilida o'qitish va madaniy faoliyat yuritish to'xtatilgan.

SSSR parchalanib ketguniga qadar Buxoro yahudiylari asosan (28396 kishi) O'zbekiston hududida istiqomat qilganlar.

Yahudiylarning turmush tarzlari, urf-odatlar qadimiy yahudiy, fors va mahalliy madaniy an'analarning qorishmasidan iborat. Tarixning turli jarayonlarida bu uch madaniyatdan ba'zilarining ta'siri kuchayishi yoki aksincha, susayishi kuzatilgan.

Yahudiylilikda ovqatlanishda qat'iy cheklovlar (kosher qoidalari) mavjud. Iste'molda foydalaniladigan mol, qo'y, echki kabi hayvon go'shtlarini muayyan diniy qoidalar asosida so'yilishi lozim hisoblangan. «Shoxet»lar (qassoblar) hayvonni so'yishdan avval uning terisi, o'pkasi, jigari sog'lom bo'lishi, qorni yorib ko'rilganda uning ichida o'limiga sabab bo'luvchi jismlar (tosh, temir, oynak) bo'lmasligini tekshirib ko'radilar. Shuningdek, so'yilgan hayvon go'shti tarkibidan qoni butunlay chiqarib yuborilishi kerak bo'ladi. Baliq go'shtini tanovul qilganda, uning tangali va suzkichli bo'lishiga e'tibor qaratilgan.

Buxoro yahudiylari orasida islom dinini qabul qilganlar ham bo'lib, bundaylar *chala* deb yuritilgan. Islomni qabul qilgan yahudiylar musulmonlar orasida yashaganlar. Biroq ko'p hollarda ular o'zlarining eski urf-odatlarini yashirincha saqlab qolganlar. Buxoroda Eshoni Pir mavzeida 100 tacha, Chor karvonsaroy mavzeida esa bir nechta mana shunday chala yahudiy oilalari yashagan. Ularning asosiy mashg'uloti hunarmandlik, paxta savdosi bo'lgan. Jamoa oqsoqoli *kalontar* deb atalib, u o'z qavmidan soliq va o'lponlar yiqqan. U jamoaning rasmiy vakili hisoblangan.

1991 yilda O'zbekiston mustaqillikka erishgandan so'ng barcha dinlarga, shu jumladan, yahudiy diniga erkin e'tiqod qilish uchun barcha sharoitlar yaratib berilgan. Hozirda Toshkent, Buxoro va Samarqand shaharlarida Buxoro hamda Yevropa yahudiylarining milliy madaniy markazlari, shuningdek sinagogalari faoliyat ko'rsatib turibdi.

Hozir respublikada jami 8 ta yahudiy jamoasi, shu jumladan, Toshkent shahri (3), Buxoro (2), Samarqand (2) va Farg'ona viloyatlarida (1) faoliyat ko'rsatib kelmoqda. Ulardan biri (Toshkent sh.) Yevropa yahudiylari (ashkinazlar) yo'nalishiga, qolganlari sefardlar (sharqiy yahudiylar)ga mansub.

3. Markaziy Osiyoda buddaviylik tarixi. Umuminsoniy g'oyalarning targ'ib etilishi hamda har bir millatning Budda ta'limotini o'z tilida o'qib- o'rganishi mumkinligi buddaviylikning turli hududlarga tarqalishiga zamin yaratgan. Buddaviylik O'zbekistonning janubiy hududlarida yangi eraning boshlarida paydo bo'ldi. Buddaviylikning Hindistondan Markaziy Osiyoga kirib kelishini odatda kushonlarning hukmronligi bilan bog'laydilar. Imperator Kanishkaning hukmronligi davrida Kushon podshohlari ushbu dinning markazlaridan biriga aylangan. Kanishka

buddaviylikka e'tiqod qilgan. U zarb qildirgan ayrim tangalarda Buddha tasviri ham uchraydi. Milodning birinchi asrlarida Buddha ilohiylashtirilib, xudo darajasiga ko'tariladi va unga sig'iniladi.

Budda bilim orqali azob-uqubatlardan qutulish mumkinligini uqtirgan. Buddaviy donishmandlar fikricha, har bir inson juda ko'p ezgu va yaxshi ishlar qilish orqali Buddaga aylanishi mumkin.

Xitoylik Syuan-Szyan bergan xabarga ko'ra, VII asrning boshlarida Termizda 10 ta budda ibodatxonasi (sangarama) va mingta rohib bo'lgan.

V-VIII asrlarda eftalitlardan keyin buddaviylik Markaziy Osiyoda tanazzulga yuz tuta boshlagan.

Markaziy Osiyo xalqlari, xususan, baqtriyaliklar san'atga o'z madaniy an'analarini olib kirdilar. Buddaviylikda Buddha ta'limoti va hayotining botiniy mohiyatini ifodalovchi ramz-timsollarning butun boshli bir tizimi shakllantirilgan. Ko'proq tarqalgani Buddha va uning ta'limotini anglatuvchi g'ildirak yoki yarqirab turuvchi aylana tasviridir.

Buddaning hayotiy aylanishlari bosqichlarini ifodalovchi ho'kiz, sher, fil, ot ramzlari keng tarqalgan. Shuningdek, Buddha tagida o'zining ilk va'zlarini aytgan muqaddas Bodxi daraxti tasviri ham buddaviylikning badiiy-diniy ramzi hisoblanadi.

XX asrning boshlaridayoq Amudaryoning o'ng qirg'og'ida buddaviylikka oid ko'p sonli tangalar, haykaltaroshlikka oid mayda tasvirlar va boshqa yodgorliklarni topganlar; ular ko'pincha qimmatbaho metallar - oltin yoki kumushdan yasalgan.

1927 yilda arxeologlar qadimiy Termizni o'rganib, u yerda qator yunon-buddaviylik yodgorliklari mavjudligini aniqladi. Termiz arxeologik kompleks ekspeditsiyasining (TAKE) ishlari natijasida Qoratepa va Chingiztepada ikkita yirik budda ibodatxonasi bo'lganligi aniqlandi, yunon-buddaviylik me'morchiligi va haykallarining parchalari topilgan o'nlab joylar qayd etildi.

Termizdan 17 km masofada joylashgan Ayritom shaharchasining sharq tarafida aftidan buddaviylik stupasiga o'xshash minora shaklidagi xom g'ishtdan qurilgan bino vayronalari joylashgan. 1933 yilda arxeolog M.Ye.Masson tomonidan xom g'ishtdan qurilgan bino qoldiqlari, uning ichida esa haykal, tosh karnizlar, me'moriy buyumlar, toshdan yasalgan muqaddas yodgorliklar borligi aniqlangan. Musiqachilar va mutafakkirlar, ehson keltiruvchilarning shakllari tushirilgan haykallarning hoshiyali tosh plitalari topilgan. Bu ibodatxona majmuasiga ibodat joylaridan tashqari rohiblar uchun yotoqxona va qator xizmat xonalari, ya'ni oshxona, omborxonalarni ham o'z ichiga olgan.

Surxondaryodagi Qoratepa nomi bilan mashhur bo'lgan tepalik buddaviylikning eng katta ruhoniylar markazi hisoblangan va u Kushon davridagi Termizning tashqi devori himoyasi ostida shahar tashqarisida joylashgan. Qoratepa binolarining uch qavati qumliklardan topilgan. Stupa maxsus hovliga o'rnatilgan. Qoratepaning g'orlik binolari oqilona tarzda, issiq iqlimni hisobga olgan holda joylashtirilgan. Bunday binolar yozda salqin, qishda esa yopiq eshiklar ortida iliq bo'lgan. Qo'sh alanga qurshovida o'tirgan Buddha tasviri buddaviylik tarqalgan davrda qadimiy e'tiqodlar ta'sirining barqarorligidan guvohlik beradi.

Toshkentlik san'atshunos-arxeolog L.I. Albaum Qoratepa sharqidan sakson metr narida Fayoztepa ibodatxonasi majmuini ochdi. Markazida ibodatxona tasvirlangan janubi-g'arbiy devorda nimba kiyimidagi Buddha chizilgan bo'lib, uning atrofini kichik Buddha haykalchalari o'rab turibdi. Mehrob devorlari ham yozuvlar bilan qoplangan. Devorlardan birida ikkita tik turgan Buddha surati tasvirlangan bo'lib, ularning har ikki tarafida ikki ayol qiyofasi tasvirlangan. Qarama-qarshi devorda sovg'a ulashuvchi erkaklar tasvirlangan. Bundan tashqari boshqa mazmundagi suratlar ham mavjud. Chizmalarining o'ta qimmatbaholigidan tashqari buddalarning bu jonli tasvirlari dunyodagi eng qadimgi yodgorlik hisoblanadi. Ular milodiy I-II asrlarga tegishli. Tadqiqotchilarning fikricha, Qoratepa faqat rohiblar jamoasi uchun emas, balki Termiz va uning atrofida yashayotgan va boshqa shaharlardan kelgan buddaviylar uchun ham ibodatxonasi sifatida xizmat qilgan.

Qoratepa va Fayoztepa ibodatxonalari odatda yer osti va yer usti qismlaridan iborat bo'lgan. Buddha haykalchalari bilan bezatilgan «Zo'rimala» stupasi mahobati bilan ajralib turgan. Stupalar bir necha balandlikda to'rtburchak shaklda bunyod etilgan. Stupa usti gumbazsimon qilib ishlanib, unga yog'och yoki toshdan yasalgan langar o'rnatilgan. Bu langarlarda toshdan yasalgan bir necha soyabon bo'lib, buddaviylar uni «chatra» deb atashgan. «Chatra» muqaddas daraxt timsolidir. Stupa koinot ramzi hisoblangan. Uylarda Buddha haykali qo'yilgan maxsus ibodat qiladigan xonalar bo'lgan. Keyinchalik Buddha haykallari yoniga boddhisattvalarning loydan pishirilgan kichkina haykalchalari qo'shilgan. Ushbu holat ham shahar aholisi hayotida buddaviylik alohida ahamiyat kasb etganini ko'rsatadi.

Kushon podsholigining dastlabki poytaxti Dalvarzintepa (qalinligi 10 metrgacha bo'lgan qudratli mudofaa devori bilan o'rab olingan qal'a shahar) o'rnida bo'lgan. Kushonlar hukmdori Kanishka davrida Dalvarzintepa shahar sifatida shakllanib, savdo-sotiq markazlaridan biriga aylangan. Bu yerda O'rta Osiyo hududlarida birinchi marta Buddaning loydan yasalgan, yaxshi saqlangan tasviri, ko'plab haykalchalar, bezaklar, diniy marosim buyumlari va tangalar topilgan, ular II asr oxiri III asr boshidagi budda ibodatxonasining markaziy binolari ichida saqlangan. Ibodatxonani

tadqiq qilish 1983 yildan boshlangan. Dalvarzintepa majmuasidagi Budda ibodatxonasi va aslzodalar dafn etilgan dahma, shuningdek, oltin xazina to'ldirilgan ikki yarim metrli sopol ko'za buddaviylikning o'sha davr xalqlari ijtimoiy-ma'naviy hayotidagi mavqei va boshqa mahalliy dinlar o'rtasida egallagan o'rnini ko'rsatadi.

Shimoliy Hindiston va Markaziy Osiyo hududlarining Kushonlar saltanati hukmronligi ostida birlashtirilishi natijasida buddaviylik Uzoq Sharqqa ham kirib bordi. Keyinchalik Sharqiy Turkiston, Xitoyga yoyildi. Kanishka, Vima Kadfiz va ulardan keyingi Kushon imperatorlari buddaviylik dini an'alarini amalda rivojlantirish, boshqa xalqlar o'rtasida tarqatish uchun Balx, Marv, Termiz, Samarqand, Buxoro, Shosh, Turkiston, Quva, Koson, O'sh, Bolosog'un, Koshg'ar va boshqa shaharlarda ibodatxonalar qurib, uning muqaddas kitoblari, sutra (sanskritcha - ip, to'plam, bayon, diniy-falsafiy ibora)larni o'rganish, tarjima qilish va sharhlash uchun sharoit yaratdilar.

G'arbda Orol va Kaspiy dengizi bo'ylari, Janubda Hind daryosining quyi oqimi, Sharqda Xo'tan (Xitoy)dan Banoras (Gang daryosi bo'yidagi shahar)gacha cho'zilgan Kushonlar imperiyasining boshqa mamlakatlar bilan iqtisodiy, siyosiy va madaniy aloqalarining yaxshilanishi, savdo-sotiqning rivoji yangi shaharlarning paydo bo'lishiga olib keldi. Kushonlar davrida buddaviylikka katta ahamiyat berilgani, diniy rasm-rusumlarni bajarishga alohida e'tibor bilan qaralgani bois maxsus ibodatxonalar bunyod etilib, buddaviylik xalq turmush tarzining muhim tarkibiy qismiga aylanib bordi, madaniyat rivojiga kuchli ta'sir ko'rsatdi.

Markaziy Osiyo xalqlari qadimgi tarixi va madaniyati rivojida buddaviylik muayyan o'rin egallaydi. Bunga Markaziy Osiyo hududida joylashgan Dalvarzintepa, Quva, Zartepa, Qorovultepa, Ayritom mavzalaridan topilgan arxeologik qazilmalar, jumladan, Shakyamuni sanamlari, haykalchalar, ramziy g'ildiraklar va stupa qoldiqlari, shuningdek, marmardan yasalgan va juda yaxshi saqlangan Budda haykali aniq dalolat beradi. Arxeologik qazilmalar natijasida topilgan yodgorliklar buddaviylikning o'sha davrdagi mavqei haqida xabar beradi.

Shuningdek, ajdodlarimizning yuksak moddiy madaniyati, dini, urf-odati, tafakkur tarzi haqidagi tasavvurimizni boyitishga xizmat qiladi.

Hozirgi davrda buddaviylik Janubiy, Janubiy-sharqiy, Sharqiy Osiyo mamlakatlari Shri Lanka, Hindiston, Tailand, Laos, Mo'g'uliston, Kambodja, Vyetnam, Xitoy, Singapur, Butan, Nepal, Malayziya, Koreya, Yaponiya, qisman Yevropa va Amerika qit'asi, Rossiyaning Tuva, Buryatiya va boshqa hududlarda keng tarqalgan. 700 milliondan ortiq kishi buddaviylikning turli yo'nalishlariga e'tiqod qiladi. Hozirda buddaviylik Yaponiyaning davlat dini hisoblanadi.

4. Xristianlik ta'limotining tarqalishi. Xristianlik ta'limoti tarqalishida xristian jamoalarining Sharq va Janubga harakatlari davrida amalga oshirgan keng missionerlik faoliyati katta rol o'ynadi. Boshqa tarafdin, xristianlikning Markaziy Osiyoga kirib kelishiga Rim imperiyasida xristianlarning beayov tazyiq ostiga olinishi ham sabab bo'ldi. III asrga tegishli bir Suriya manbai O'rta Osiyo ikki daryo oralig'ini o'z ichiga olgan Kushon davlatidagi xristianlar haqida ma'lumot beradi. Ular Eron, O'rta Osiyo aholisini xristianlik bilan tanishtirdilar, Mo'g'uliston cho'llari va hatto Xitoygacha yetib bordilar.

Markaziy Osiyoning janubiy chegaralariga yaqin yerlarda joylashgan jamoalar bu yerda xristianlikning paydo bo'lishida asosiy rol o'ynagan. Ular Vizantiya, Suriya, Falastin va Erondan ushbu mintaqaga ko'chib kelib, bu yerda o'zlari bilan olib kelgan o'z madaniyati, san'ati va diniy ta'limotini tarqatganlar. Umuman olganda, Markaziy Osiyo hududiga xristianlikning kirib kelishi ikki yo'l bilan, ya'ni milodning III asrlaridan to bugungi kunga qadar xristianlikni targ'ib etuvchi missionerlarning targ'ibotchilik harakati hamda mintaqaning Rossiya imperiyasi tomonidan bosib olinishi va xristian diniga e'tiqod qiluvchi aholining ushbu mintaqaga ko'plab ko'chib kelishi orqali amalga oshgan. Zamonaviy O'zbekiston va Qozog'iston hududlarida apostol Andrey Pervozvanniyning diniy faoliyati ilk xristianlik tarixi manbalarida qayd etilgani diqqatga sazovor. Buning dalili sifatida bugunga qadar saqlanib qolgan hind xristianlarining «Foma qaydnomalari» va milodiy II asrda tashkil topgan Markaziy Osiyo cherkovi taraqqiyoti haqidagi tarixiy yozma manbalar xizmat qiladi.

Markaziy Osiyo hududida arxeologik qazilmalar natijasida V - XIV asrlarga mansub deb topilgan ko'plab xristianlik yodgorliklari, jumladan ibodatxona va monastirlarning xarobalari, freskali ikona yozuvlari, matolarga bitilgan ikonalar, Injil qissalari tasvirlangan keramikalar, bo'yinga osiladigan xoch va medallar hamda xristianlik timsoli tushirilgan davlat tangalari, minglab xoch tushirilgan qabr toshlar yoki qabr ustiga qo'yilgan xochlar ahamiyatga molik. Marv xristianlari to'g'risidagi ma'lumotlar eng qadimgi hisoblanadi. Beruniy aytishicha, Marvda Iso Masih tug'ilganidan 200 yil o'tgach, ushbu din rohib Baraxiy tomonidan olib kirilgan. Arxeologik ma'lumotlar esa Marv shahri atrofida xristian ehromining III - IV asrlarda faoliyat ko'rsatgani haqida ma'lumot beradi.

Missionerlar faoliyati natijasida 280 yilda Talos (Marke) cherkovlari qurilib bo'lgan, Samarqandda (310 yildan), Marvda (334 yildan), Hirotda (430 yildan), Xorazmda va Markaziy Osiyoning boshqa shaharlarida yepiskoplik, missiyalar tuzilgan. Xususan, Marvda II asrdan boshlab shaharning g'arbiy devorlari ortida cherkov binolari paydo bo'lgan. Shahar atrofida xristian qabristoni joylashgan. Bu esa xristianlarning soni ko'pligidan dalolat beradi. Xurosonning shimoliy hududlarida

xristianlikning muvaffaqiyatli targ'iboti Marvda taxminan 420 yilda mitropoliya ochilishi bilan yakunlanadi. Bu yerda monastirlik jamoasi paydo bo'ladi. Cherkov buyumlarini tayyorlaydigan ustaxonalar ham vujudga keladi.

Turkmanistondan to Qirg'iziston hududigacha olib borilgan arxeologik tadqiqotlarga ko'ra, yuqoridagi davrlarda cherkovlar, ibodatxonalar ko'payib borgan. Ilk o'rta asrlarda (IV-VIII asr) Sug'd, Ustrushona, Shosh, Xorazmda nestorian xochlari suratlari, Sug'd yozuvi va muqaddas hayvonlar tasviri tushirilgan tangalar zarb etilgan. 431 yilda Vizantiyadagi xristianlarning Efes soborida mojaro yuz berdi - Nestorian oqimining xristianlari, hukmron din aqidalariga xilof ish qilgan deb e'lon qilindi. Nestorianlar -Konstantinopol patriarxi Nestorning izdoshlari bo'lib (V asr boshlarida), ular Iso Masihning ilohiy kelib chiqishi haqida gapirib, uning onasi Mariya Xudoni emas, balki insonni dunyoga keltirib, uning tanasiga Xudo kirib olgan va shuning uchun la'natlangan deb hisoblaydilar. Arab istilosi davrida islom Eron va O'rta Osiyo madaniyati bilan uyg'unlashib ketdi. Nasroniylar xalifat davlatlarida malakali tabiblar bo'lib, yuqori lavozimlarda ishlashgan. Ular orasida faylasuf, diplomatlar ham bo'lgan. Beruniy marvlik nasroniy tabib Ibn Masadan ko'p ta'limotlarni o'rgangan. Ibn Masa dorivor o'simliklar va qo'ziqorinlar o'sadigan joylarni va ularning xosiyatlarini tasvirlab asarlar yozgan.

Somoniylar davrida (IX-X asr) islom davlat dini bo'lgani uchun mafkurada asosiy o'rinni egalladi. Tarixchi Narshaxiy Buxoroda xristian cherkovi o'rnida musulmon masjidi qad rostlagani haqida ma'lumot beradi. 1009 yilda nestorian ruhoniylari Markaziy Osiyo xalqlari orasida mo'g'ul tilida so'zlashuvchi eng yirik va eng madaniy keraitlarni cho'qintirganlar. Manbalarga ko'ra, go'yo cho'lda adashib qolgan Kerait xoni qarshisida avliyo Sergiy paydo bo'lib, unga yo'l ko'rsatgan ekan. Xon o'z xalqi bilan birga cho'qinib, Marguz (Mark) nomini olgan. Taxminan shu paytda ongut xalqi - jangari turklarning avlodlari (hunnlarning so'nggi qoldiqlari) xristianlikni qabul qilishadi. Shu davrda X-XI asrlarda Movarounnahrni zabt etib qoraxoniylar imperiyasini tuzgan qabilalar tarkibiga kiruvchi g'uzlar va qisman chigillar ham cho'qintirilgan. Nestorianlik XII asr boshiga kelib ham rivojlandi.

XI-XII asrlarda Samarqandda nestorianlar mitropoliyasi o'z faoliyatini davom ettirgan. O'rta Osiyo mo'g'ullar tomonidan zabt etilgach, yana nestorianlikning kuchayishi kuzatildi. Marko Polo ham XIII asrning ikkinchi choragida Samarqandda qurilgan Avliyo Ioann Krestitel cherkovini tilga olib o'tgan. Markaziy Osiyoga ilk rus pravoslavlarning kirib kelishi XIX asrning 40- yillaridagi Chor Rossiyasining Turkistonning shimoliy hududlarini egallashi natijasida Turkistonga ruslarning ko'chib kelishi bilan bog'liq. Har bir polkda maxsus ruhoniylar bo'lib, askarlarning diniy ehtiyojlarini qondirish maqsadida ko'chma ibodatxonalar tashkil etilgan edi. 40-yillar oxiriga kelib doimiy ibodatxonalar mahalliy paxsa uslubida qurila boshlaydi va 1850

yili Kopalda birinchi muqim ibodatxona bunyod qilinadi.

Ruslar joylashgan hududlarda kichik diniy qarorgohlar vujudga keladi. Dastlabki qarorgohlar 1850-yillarda Fort №1 (Aralsk shahri, Qoraqalpog‘iston), Perovsk (Qizil-O‘rda, Qozog‘iston), Katta Olma-Ota tumani (Olma-Ota, Qozog‘iston), Sergiopol (Ayaguz), Lepsin (Lepsinsk), 1860-yillarda Toshkent, Jizzax, Samarqand, Chimkent, Avliyoota (Jambul), To‘qmok, Kattaqo‘rg‘onda rus pravoslavlarining diniy qarorgohlari mavjud edi. 1871 yilda Toshkent gospitali huzurida arxiyepiskop Yermogen (Golubev) tomonidan pravoslav qarorgohi ta‘sis etilgan. Bu ibodatxona hozirgi Uspenskiy kafedral sobori o‘rnida bo‘lgan. Dastlab Turkiston Orenburg general-gubernatorligining tarkibida bo‘lganligi bois Tomsk yeparxiyasiga bo‘ysingan. Ko‘p o‘tmay mustaqil arxiyerey kafedraga aylanadi.

1869 yil Turkiston mustaqil yeparxiyasini tashkil qilish to‘g‘risida qaror qabul qilingan. 1871 yil Toshkent va Turkiston yeparxiyasini tashkil etish to‘g‘risida imperator farmoni chiqadi. Biroq mahalliy imperator amaldorlari Toshkentdagi kafedra faoliyati asl siyosiy maqsaddan chalg‘itadi deb qarshilik ko‘rsatgan. Xristianlar bu davrda Toshkent arxiyereyasi kafedraning Toshkentda bo‘lishi uchun kurashganlar. Nihoyat 1916 yil oxirida arxiyepiskop Innokentiy harakatlari tufayli bu masala butunlay ijobiy yakun topgan. Markaziy Osiyoga katolik va protestant yo‘nalishi vakillarining kirib kelishiga 1879 yil 27 martdagi Rossiya imperatorining maxsus qonuniga ko‘ra birinchi jahon urushida asirga olingan nemis, polyak, eston, shved, litva, latish va boshqa yevropalik askarlarning Turkiston o‘lkasiga surgun qilinishi turtki bo‘ldi. Bu o‘z navbatida, yevropalik asirlar orasida diniy jamoalar tuzish hamda cherkovlar paydo bo‘lishiga olib keldi.

Sho‘rolar hukumati davrida O‘rta Osiyo respublikalarida xristian diniy tashkilotlari boshqa diniy konfessiyalar kabi davlat bilan o‘zaro munosabatlarida murakkab davrlarni, ateistik tuzumning ayovsiz ta‘qibi va qatag‘on siyosatini boshidan kechirdi. Mustaqillik yillari O‘zbekistonda diniy erkinliklar qonun bilan kafolatlandi. 2014 yil 1 oktabr holatiga ko‘ra, respublikada xristian yo‘nalishiga mansub 158 ta diniy tashkilot rasman faoliyat ko‘rsatmoqda.

Nazorat savollari

1. Tangrichilik dinining vujudga kelishi haqida nimalarni bilasiz?
2. Tangrichilik qadimiy turkiylar hayotida qanday o‘rin tutgan?
3. Zardushtiylik qachon va qayerda vujudga kelgan?
4. Zardushtiylik muqaddas manbasi qaysi va u haqida nimalarni bilasiz?
5. Buxoro yahudiylari O‘rta Osiyoning asosan qaysi shaharlarida yashaganlar?
6. Yahudiylarning birinchi alohida mahallasi qachon va qayerda vujudga kelgan?

7. Buddaviylik qanday asosiy yodgorliklarini bilasiz?
8. Budda yodgorliklari asosan qaysi hududlardan topilgan?
9. Markaziy Osiyoda qanday xristianlik oqimlari mavjud bo'lgan?
10. Qanday mahalliy xristian cherkovlarini bilasiz?
11. Milliy dinlar va jahon dinlarining asosiy farqi nimada? Ularning tarqalish hududi va etnik tarkibi bo'yicha qiyoslang.
12. Iudaizm (yahudiylik) dinining kelib chiqish tarixi va uning milliy xarakteri nimalarda namoyon bo'ladi?
13. Hindistonning milliy dini bo'lgan Hinduizmning asosiy g'oyalari qaysilar? (Karma, dharma va reinkarnatsiya tushunchalariga to'xtaling).
14. Konfusiylilik (Kunsifuziylilik) dinmi yoki falsafiy-axloqiy ta'limot? Uning Xitoy davlatchiligi va jamiyatidagi o'rnini izohlang.
15. Sintoizm dinining mohiyati va uning yapon xalqi milliy o'zligini shakllantirishdagi ahamiyati qanday?
16. Taoizm (Daoizm) ta'limotidagi «Dao» tushunchasi va tabiat bilan uyg'unlik tamoyillari nimani anglatadi?
17. Hindistondagi kasta (tabaqalanish) tizimi qaysi milliy din bilan chambarchas bog'liq? Ushbu tizimning ijtimoiy hayotga ta'siri qanday?
18. Zardushtiylik dinining vatanini va uning «ezgu fikr, ezgu so'z, ezgu amal» tamoyilini tushuntirib bering. (Ushbu dinni milliy va mintaqaviy din sifatida tahlil qiling).
19. Milliy dinlarning marosimchilik va an'analarga bo'lgan munosabati qanday? Nima uchun ular boshqa xalqlar orasida keng tarqalmagan?
20. Sikhizm va Jainizm dinlarining o'ziga xos xususiyatlari nimada?

3-MAVZU. BUDDAVIYLIK DINI TARIXI VA G'OYALARI

REJA:

- 1. Buddaviylik (Buddizm)ning kelib chiqishi.**
- 2. Muqaddas matnlari. Buddaviylik ta'limoti.**
- 3. Buddaning "to'rt haqiqati". Diniy marosimlari va oqimlari.**
- 4. Markaziy Osiyoda buddaviylik.**

Tayanch tushunchalar:

Budda, to'rt oliy haqiqat, najotning oliyjanob sak- kiz yo'li, "Tipitaka", "Pancha shila", "mahayana", "xinaya- na", "vajrayana", lamaizm, "botthisatva", "sansara", "nirvana", axloq, donolik, mediatatsiya.

Mavzu o'quv maqsadi:

Buddaviylik dinining kelib chiqishi, asoschisi, muqaddas manbasida ilgari surilgan haqiqatlar va ular bilan bog'liq falsafiy g'oyalar, bu dinning paydo

bo'lishidagi tarixiy jarayonlar haqida talabalarga atroflicha ma'lumot berish.

Diniy–falsafiy ta'limot sifatida vujudga kelgan buddaviylik bugungi kunda e'tiqod qiluvchilar soniga ko'ra, xristianlik, islom dinidan keyingi o'rinda turadigan jahon dinlaridan biri hisoblanadi.

Buddaviylik milodning I asrida Xitoyga tarqalgan bo'lsa, IV asrda Koreyaga, VI asrda Yaponiyaga, VII asrda Tibetga yoyildi. Shunday bo'lsa–da, XII–XVI asrlarda Mo'g'ulistonga, XVI–XVII asrlarda Buryatiya va Tuvaga, XIX–XX asrlarda Amerika va Yevropa qit'asiga kirib bordi. XII–XIII asrlarda Hindistonning Shimoliy hududida boburiylar sulolasi xukmronligi o'rnatilishi va islomning tarqalishi, qolgan hududlarda hinduiylik dinining to'la qaror topishi natijasida buddaviylik o'zi paydo bo'lgan Vatani Hindistondan siqib chiqarilganini alohida qayd etish lozim. Buddaviylik miloddan avvalgi VI–V asrlarda Shimoliy Hindistonda vujudga keldi. Bu davrga kelib ko'p xudolikka asoslangan vedachilik, braxmanlik, jayнизм yangi ijtimoiy sharoitga javob bera olmay qolgan edi. Buddaning bo'ysunish va itoatkorlik, azob–uqubatlardan qutulishning asosiy yo'li, aql farmoniga bo'ysunish orqali inson oliy saodatga erishishi mumkinligi haqidagi g'oyalari o'sha davr ijtimoiy–siyosiy va ma'naviy hayotini yorqin aks ettirar edi. Buddaviylikning asoschisi Siddhartha (sanskritcha “ezguliklar keltiruvchi”) Gautama Shak'yamuni (mil. av. 567–488 y.) real tarixiy shaxs bo'lib, Hindiston va Nepal chegarasidagi Kapilavasta viloyatining Shak'ya qabilasi hukmdori oilasida tug'ilgan. Manbalarda uning ot minish, ov qilish, yugurish, kurash, she'r o'qish, husnixat va boshqa sohalarda mahoratli bo'lgani, bilimlarni oson o'zlashtirgani uchun donishmandlar unga saboq berishga o'z qolganlari qayd etiladi.

Azob–uqubat, kasallik, qarilik va o'lim haqidagi haqiqatlardan ogoh bo'lgan Siddhartha umrini inson boshiga tushadigan azob–uqubatlardan sabablarini o'rganish va insoniyatni ulardan xalos qilish uchun bag'ishlashga qaror qilib, 29 yoshida oilasini tark etadi va sayyor darveshlarga qo'shiladi. Olti yil davomida Ganga daryosi qirg'oqlarida rohiblar orasida zohidona hayot kechiradi. Siddhartha bu yo'l uni o'z oldiga qo'ygan maqsad, ya'ni insoniyatni azob–uqubatlardan qutqarish sari olib bormasligi, tana faolligini so'ndirish haqiqat yo'li emasligiga amin bo'lgach, rohiblar jamoasidan ajraladi.

Rivoyat qilinishicha, Siddhartha 35 yoshida meditatsiya (lotincha – fikrlash, o'ylash, diqqatni bir joyga to'plab, ongini oliy haqiqatga erishish g'oyasiga qaratish) uchun bir daraxtning ostida dam olib o'tiradi va haqiqatni topmaguncha u yerdan turmaslikka qaror qiladi. Bu o'tirishning 49 kuni uning qalbidan “Sen haqiqatni topding” degan sado keladi. Uning ko'z oldida butun borliq namoyon bo'ladi. U hech bir joyda osudalik yo'qligini, hamma joyda shoshilish, intilish, harakatni ko'radi. Hayot nihoyasiz uzoqlikni ko'zlab o'tib ketayotgani, yashash, mavjud bo'lish umidi

barchaning tinchini buzib, halok qilayotgani va yana qayta yaratayotganini anglab yetadi. Siddhartha maqsadiga erishib, koinotning barcha sir-asroridan voqif bo'lgach, "Budda" (sanskritcha – xotirjam, nurlangan, oliy haqiqatga erishgan)ga aylangan, deb e'tirof etiladi. Shundan kelib chiqib, Budda soyasida dam olgan daraxt "boddxa" (sanskritcha – nurlangan daraxt) deb ataladi. Budda umrining so'nggi kunlarigacha Hindistonning turli joylarida bo'lib, o'z ta'limotini kishilarga yetkazishga harakat qildi va 80 yoshida dunyodan o'tadi. Buddaning jasi kuydirilib, xoki sakkiz buddaviy jamoaga yuborildi. Uning hoki dafn etilgan joylarda ibodatxona ("stupa" – sanskritcha qabrlar qo'rg'oniga ko'tarilishdagi inshoot turi, murda saqlanadigan joy)lar barpo etildi.

Buddaning hayoti bilan bog'liq ko'plab voqealarga afsonaviy tus berilgan. Xususan, rivoyatlardan birida keltirilishicha, Budda 84 marta ruhoni, 58 marta shoh, 24 marta rohib, 13 marta savdogar, 18 marta maymun, 12 marta tovuq, 8 marta g'oz, 6 marta fil, shuningdek, baliq, qurbaqa, kalamush, quyon qiyofalarida 550 marta qayta tug'ilgan. So'nggi marta xudolar uni insoniyatni to'g'ri yo'lga boshlashi uchun inson qiyofasida yaratganlar.

Hind podsholari Magadxi Bimbisare va Ajatashatru- ning buddaviylikni qabul qilishi, keyinchalik imperator Ashoka va Kanishkaning qo'llab-quvvatlashi natijasida buddaviylik davlat dini darajasiga ko'tarildi. Buddaviy rohiblar jamoasi – "sangha" shakllandi. Ma'lumki, braxmanlik va hinduiylikda kishilar "kasta"larga bo'linib, odamlar "past" va "oliy" tabaqaga ajratilgan. Bundan farqli ravishda Budda "inson kim bo'lishidan qat'i nazar, tug'ilishda teng huquqlidir, biri ikkinchisidan ortiq emas", degan g'oyani ilgari surdi.

Buddaning shogirdlari Yer yuzida birinchi rohiblar, keyinchalik rohibalar jamoasi – "sangha"ni (bungacha ayollar ibodatxonaga jalb etilmagan) tashkil etdilar. Imperator Ashoka davrida "Txeri-gatxa" (sanskritcha – "Rohibalar qo'shig'i") nomli tartib-qoidalar va axloqiy me'yorlar kitobi yozilishi esa bu jarayonni yanada mustahkamladi. Umuminsoniy g'oyalarning targ'ib etilishi hamda har bir millatning Budda ta'limotini o'z tilida o'qib-o'rganishi mumkinligi buddaviylikning turli hududlarga tarqalishiga zamin yaratgan. Milodning birinchi asrlarida buddaviylik butunlay boshqacha tus oladi. Budda ilohiylashtirilib, xudo darajasiga ko'tariladi va unga sig'iniladi. Budda bilim orqali azob-uqubatlardan qutulish mumkinligini uqtirgan. Buddaviy donishmandlar fikricha, har bir inson juda ko'p ezgu va yaxshi ishlar qilish orqali Buddaga aylanishi mumkin.

Budda har bir hikmat va o'gitni shogirdlari qalbiga joy etish va aytgan so'zlarining ma'nosini anglashga o'rgatish maqsadida o'z pand-nasihatlarini yozib olishlariga yo'l qo'ymagan. Shunga ko'ra, Buddaning ta'limoti bir necha asr davomida og'izdan-og'izga o'tib, shogirdlari tilidan bayon etib kelingan. Buddaviylik qoidalari va axloqiy tamoyillarini o'zida mujassam etgan va bugungi kunda din izdoshlari

tomonidan muqaddas, deb e'tirof etiladigan "Tipitaka" (yoki "Tripitaka", sanskritcha – "Uch savat donolik") milodning boshlarida kitob shakliga keltirilgan. Hozirda "Tipitaka"ning ilk qo'lyozma nusxasi Shri Lanka (Seylon) da saqlanadi. "Tipitaka" uchta katta bo'limdan iborat.

Birinchi bo'lim – "Vinaya-pitaka" (sanskritcha – "Axloqiy me'yorlar kitobi") buddaviylar jamoasi "sangha" tarkibiga kirish tartibi, rohiblarning xulq-atvori hamda diniy ko'rsatmalarga rioya qilish qonun-qoidolari va unga amal qilinmagan taqdirda beriladigan jazolar tavsifini o'z ichiga oladi.

Ikkinchi bo'lim – "Sutta-pitaka" (sanskritcha – "Duolar kitobi") hajm jihatdan savatlarning eng kattasi hisoblanadi. Unda asosan "to'rt asl haqiqat" haqida so'z yuritiladi. Buddha ta'limoti shogirdlari tilidan masal, suhbat, nasihat, afsona, hikmatli so'z, dostonlar shaklida bayon etilgan. Shuningdek, ushbu bo'limda Buddha jamoasi ("sangha")ning tuzilishi va uning shogirdlariga oid ma'lumotlar ham keltiriladi. Uchinchi bo'lim – "Abhidharma-pitaka" (sanskritcha – "Diniy-falsafiy masalalar kitobi")da diniy ta'limotning asosiy qoidolari ifodalanib, buddaviylik amaliyotining falsafiy mazmun-mohiyati ochib berilgan. Matn yozilish uslubi va tili murakkabligi uchun buddaviy rohiblar ularni faqat ustozlaridan ta'lim olish yo'li bilan o'zlashtirganlar.

"Tipitaka" matnlariga vaqt o'tishi bilan o'zgartish, tuzatish va qo'shimchalar kiritilgan. Bunday o'zgarishlar buddaviylikda o'ziga xos yo'nalishlar paydo bo'lishiga zamin yaratgan.

"Tipitaka"ning ilk matni sanskrit tilida yozilgan bo'lsa ham, vaqt o'tib asl matnlar yo'qolib ketgani uchun faqat tibet, xitoy va yapon tillariga tarjima qilingan namunalari saqlanib qolgan. Mazmunan "veda" (sanskritcha – muqaddas bilim) va brahmanlik falsafiy qarashlaridan xoli bo'lgan buddaviylik manbalari, o'zining ommabop uslubdagi talqini bilan oddiy xalqqa tushunarli bo'lgan. Masalan, "mahayana" aynan shu xususiyati tufayli buddaviylikni Janubiy va Janubiy Sharqiy Osiyoga yoyilishini ta'minlay olgan. Milodning birinchi asridan boshlab buddaviylik Xitoy, Koreya, Yaponiya Shri Lanka, Birma, Tailand, Vetnam, Kambodja, Laos sarhadlarigacha yetib borgan.

Buddaning 84 mingta nasihati 108 jilddan iborat "Kangyur"da, uning talqin va tafsiri 225 jilddan iborat "Tengyur"da aks etgan. Shuningdek, Buddaning hayotiga bag'ishlangan va milodning II asrida yozilgan "Maxavosu", milodning II–III asrlarida yozilgan "Lalitavistara ("Buddaning hayoti")", buddaviy faylasuf Ashvagxosha tomonidan milodning I–II asrlarida yaratilgan "Buddxacharita", milodning I asrida yozilgan "Abnixishkramansutra" va "Nidanakatxa", "Dhammapada" ("Dharma yo'li", "Buddaning fikr-g'oyalari") kabi asarlar buddaviylikning muhim manbalaridan hisoblanadi.

Buddaviylik qadimiy hind diniy- falsafiy ta'limotlari ta'sirida shakllanganini

alohida qayd etish lozim.

Buddaviylikda o'sha davrda ham ustuvor bo'lgan kasta tizimi va unda ruhoniylarning boshqalardan ustunligi haqidagi qarashlar va amaliyot ham inkor qilingan. Bular Buddaning "O'zingga ozor yetmasin desang, o'zgalarga ozor berma, boshqalarga ozor bersang, o'zing ham ozor chekasan. Hirsu havas barcha baxtsizliklarning sababchisidir. Vaqt o'tishi bilan hamma narsa o'zgaradi, shuning uchun, hech narsaga ortiqcha ko'ngil bog'lama, ko'ngilni toza tut, haqiqat va boqiy saodat izla. Yomonlik qilma, gunohdan saqlan. Hamisha yaxshilik qil. Boshqalarni sevsang, o'zing ham, boshqalar ham baxtli bo'lishadi. O'zgalarning aytganlarini rad etma va qoralama, o'zni baxtli qilish uchun o'zgalarni baxtsiz qilish insofdan emas", degan so'zlarida teran aks etgan.

Buddaviylik ta'limotining o'ziga xos jihatlar barcha jonli narsalarga muhabbat bilan qarashning targ'ib etilishida, aql ko'rsatmalariga qat'iy bo'ysunish va hissiyotga berilmaslikda ham aks etgan.

Buddaviylikda olamlar va ularga xos xususiyatlar haqidagi qarashlar muhim o'rin egallaydi. Budda ta'limo- tiga ko'ra, olam uch bosqichli bo'lib, uning birinchisi – eng yuqori mutlaq osoyishtalik hukm suradigan "nirvana" (sanskritcha – so'lish, o'chish) olamidir. Unda inson barcha tashvishlardan xalos bo'ladi, hech bir istak–xohish, ehtirolarga o'rin qolmaydi. "Nirvana"da ruh – "sansara" (sanskritcha – kezish, ko'chib yurish, o'zgarish) kishanlaridan to'la ozod bo'lib, oliy maqomga erishadi. Donishmandlar "nirvana"ni inson bilimlari doirasidagi sabab–oqibat "dharma" (sanskritcha – qonun, burch, haqiqat, narsa, holat) oqimi to'xtab, ruhning nomunosib va ezgu bo'lmagan amallardan xoli bo'lgan holati, deb izohlaydilar.

Ikkinchi olam – "rupaloka" (sanskritcha – jannat) "boddhisattvalar" (sanskritcha – mohiyati bilim bo'lgan inson) istiqomat qiladigan joy hisoblanadi. Unda jannatning yaratuvchisi, Buddaning biri – Amitabha hukmronlik qiladi. Bu yerda savob ishlari tufayli ruhi gunohdan ozod bo'lgan va "nirvana"ga ko'tarilish huquqiga ega bo'lgan insonlar yashaydi.

Uchinchi olam – "kamaloka" (sanskritcha – do'zah) eng quyi olamdir. Bu yerda odamlar va hayvonlar yashaydi. Olamning bu qismida ruh qafasda yashaydi. Ruh ozod bo'lishi va yuqori olamga ko'tarilishi uchun inson savobli ishlar qilishi lozim bo'ladi. Chunki jon qafasdan qutulishga va yuqori olamda yashashga intilsa ham, gunohlari tufayli ko'tarila olmaydi. Buddaga e'tiqod tufayli insonning joni bir necha marta tug'ilishdan keyin jannatga va undan keyin "nirvana"ga ko'tarilishi mumkin. Yovuz insonning ruhi quyi olamda azoblanaveradi va yuqori olamga ko'tarila olmaydi. Inson qancha yovuz bo'lsa, uning ruhi qayta tug'ilishida yana quyi olamga tushadi, ya'ni buddaviylik ta'limotiga ko'ra, o'lim insonni hayot azob–uqubatlaridan xalos eta olmaydi.

"Nirvana"ga o'tish har bir kishining irodasiga bog'liq bo'lib, buddaviylikka

astoydil e'tiqod qilganlar ikkinchi olamga ko'tarilishlari, gunohkor kishilarning jonlari qafas ichida qolishi, nafsga berilganlar do'zaxga tushishlari mumkin.

“Sansara”ning og'ir azob–uqubatlaridan qayta tug'ilishlardan so'ng “arxat” (sanskritcha – haqiqatni anglash, qalb ko'zining ochilishi, tushunish va sukut saqlash) holatiga erishgan kishilargina xalos bo'lishi mumkin. Kishilar qayta tug'ilishi natijasida turli mavjudot qiyofasi (o'simlik, hayvon, inson)da namoyon bo'lishi mumkin. Chunki buddaviylikka ko'ra, inson o'limidan keyin ham qayta tug'iladi. “Sansara”ni yengib o'tganlar “arxat” holatiga erishib, bu dunyo qiyinchiliklaridan xolos bo'ladilar. “Arxat”ga erishish va undan “nirvana”ga o'tish uchun “najotning olijanob sakkiz yo'li”ni bosib o'tish lozim bo'ladi.

Buddaviylik zaminida “Budda”, “dxarma” va “sangha” (sanskritcha – rohiblar jamoasi, “oliy haqiqat”ga yetishgan avliyolar)ga e'tiqod yotadi. “Budda” oliy haqiqatga yetish timsoli bo'lsa, “dxarma” Siddhartha Gautama qoldirgan “to'rt oliy haqiqat”, “sangha” u asos solgan va hozirgacha faoliyat ko'rsatib kelayotgan rohiblar jamoasi hamda “oliy haqiqat”ga yetishgan avliyolarni anglatadi.

Buddaviylikda Buddaga ergashib, “dxarma” talablarini bajarish va “sangha” jamoasi a'zosi bo'lish talab etiladi. “Sangha” muqaddaslik va qudrat timsoli bo'lib, rohiblar jamoasiga qabul qilingan shaxs ma'lum amallarni bajarishi va belgilangan qat'iy qoidalariga amal qilishi lozim bo'lgan. Jumladan, tirik mavjudotlarni o'ldirmaslik, yolg'on so'zlamaslik, o'g'rilik qilmaslik, zinoga yo'l qo'ymaslik, mast qiluvchi ichimlik ichmaslik, kunning ikkinchi yarmidan to ertangi sahargacha ovqat tanovul qilmaslik, kiyimdan ortiq hech narsa bilan tanani bezamaslik, dunyo lazzatlaridan o'zini tiyish, baland va yumshoq o'rinda yotmaslik, pul ishlatmaslik kabi axloqiy talablarni ado etishga qasamyod qilgan va unga rioya etganlarga rohiblar jamoasiga qabul qilingan. Budda ta'limotining asosida “hayot – bu azob–uqubat” va “najot yo'li mavjud” degan g'oyalar yotadi.

Inson o'ziga xos mavjudot bo'lib, tug'iladi, o'zini–o'zi halok qiladi yoki qutqaradi. Bu g'oyalar Buddaning ilk da'vatida ta'riflangan “to'rt oliy haqiqat” haqidagi qarashlarda o'z ifodasini topgan.

“Azob–uqubat haqidagi haqiqat”. Buddaviylikka ko'ra, har bir tirik jon azob–uqubatni boshidan kechiradi. Shuning uchun ham, har qanday dunyoviy hayot qiynoq, azob– uqubatdir. Tug'ilish – qiynoq, kasallik – azob, o'lim – kulfat, qiyinchilikka duch kelish – mashaqqat, baxtsizlik, umidsizlik – azob, sevmagan kishi bilan yashash – azob, suyukli odamingdan ajralib qolish – g'am, astoydil xohlagan narsangga erisha olmaslik – azob, orzu–havasga yetolmaslik – azob–uqubat.

“Azob–uqubat sabablari haqidagi haqiqat”. Inson moddiy narsalar yoki ma'naviy qadriyatlarni haqiqiy va doimiy, deb hisoblagani uchun ularga ega bo'lishga intiladi. Bu intilish hayot davomiyligiga olib keladi. Yaxshi yoki yomon niyatlardan tuzilgan hayot daryosi orzu va intilishlar sababli kelajak hayot uchun “karma”

hozirlaydi. Inson o'z nafsining xohish–istaklariga asir bo'lgani uchun azob– uqubat girdobida qoladi. Demak, qayta tug'ilish va yangi qiynoqlarga duchor bo'lish davom etadi. Aksariyat buddaviy donishmandlar fikricha, Buddadan boshqalar “nirvana” holatiga erisha olmaganlar.

“Azob–uqubatlardan xalos bo'lish haqidagi haqiqat”. Har qanday o'y–niyat, orzu–havas va intilishlardan butunlay voz kechish “nirvana” holatiga olib boradi. Bu holatda inson qayta tug'ilishdan to'xtaydi. Buddaviylar “nirvana” ruhning oliy holati, deb hisoblaydilar. “Nirvana”da “hayot g'ildiragidan” ajralish ro'y beradi, ya'ni kishi barcha g'am–tashvishlardan xoli bo'ladi, istagi ham, tuyg'usi ham, ehtirolari ham ahamiyatsiz bo'ladi.

“Azob–uqubatlardan qutulishning najot yo'llari haqidagi haqiqat”. Budda “xaloskorlikning ajoyib sakkiz yo'li”ga amal qilish orqali azob–uqubatlardan qutulish mumkinligini ta'kidlagan. Budda ularni quyidagicha talqin etadi:

–to'g'ri maslak (dunyoqarash).

“To'rt oliy haqiqat”ni bilish, idrok etish va unga ishonish;

–to'g'ri maqsad. Ta'magirlik, nafs, hirs, badxulqlik, bag'ritoshlik hislaridan xoli bo'lish, dunyoviy huzur– halovatdan xalos bo'lish, keraksiz fikrlar va boshqalarga zarar yetkazib qo'yishdan saqlanishga intilish;

–to'g'ri so'z. Yolg'on, tuhmat, haqorat, manmanlikdan xoli bo'lish, befoyda gaplardan saqlanish;

–to'g'ri sa'y–harakat. O'lim (qon to'kish), o'g'irlik, zinodan saqlanish, o'ziniki bo'lmagan narsaga ko'z olaytirmaslik, ortiqcha hissiyotga berilmaslik, o'zidagi yomon tuyg'ularni jilovlash hamda ezgu tuyg'ular va harakatlarni rivojlantirish;

–to'g'ri turmush tarzi. Noma'qul hayot tarzidan saqlanish, g'ayriixtiyoriy harakatlarsiz, birovlariga ziyon yetkazmay yashash;

–to'g'ri intilish. Erishilgan muvaffaqiyatlarni rivojlantirish, xaloskorlik yo'lida yig'ilgan tajribani asrashga erishish yo'lida tinmay harakat qilish;

–to'g'ri fikrlash (diqqat–e'tibor). Tanaga, hissiyotga, ong va ruhiy holatlarga diqqat–e'tibor qaratish, ularning mohiyatini aniq belgilash, ehtiros va iztiroblarga chek qo'yish, –to'g'ri mulohaza (o'z fikr–xayollariga cho'mish). Hissiy holatlarni tark etish, ko'tarinki, yuksak bilim va mantiqiy tafakkurga ega bo'lgan birinchi “bilish bosqichiga” qadam qo'yish, kundalik hayot tashvishlaridan qutulib, hayrat, zavq–shavq va quvonch olamida kezish.

–Budda fikricha, inson “Pancha shila” (sanskritcha – besh nasihat)ga amal qilishi, qotillik, o'g'irlik, gumrohlik, yolg'on so'z, mast qiluvchi narsalardan saqlanishi lozim. Buddaviylikka e'tiqod qilgan har bir rohib g'iybat qilmaslik, qo'pol va bekorchi so'zlarni gapirmaslik, o'zgalar mulkiga ko'z olaytirmaslik, birovga nafrat bilan qaramaslik, adolat haqida o'ylash, munosib insonlardan yaxshilikni ayamasklik, axloqiy xatti–harakat qoidalariga amal qilish, o'zida savobli ishlar qilish istagini tarbiyalash,

ota–ona va qariyalarni hurmatlash, ular haqida qayg‘urish, haqiqat, adolatni targ‘ib qilish, o‘z kamchiliklarini bartaraf etish kabi vazifalarni ado etishi lozim.

Buddaviylar har oyda ikki marta “Tiyilish kuni” marosimini o‘tkazadilar. Ibodatdan oldin muattar hid taralib turishi uchun Budda haykali atrofiga gullar qo‘yilib, shamlar yoqilgan. Ibodat Budda haykaliga qarab bajariladi. Buddaviy rohiblar muqaddas kitobdan parchalar o‘qishadi. Marosim tugagach, rohiblar ibodatga kelgan kishilar ustiga, ular o‘z navbatida yerga suv sepadilar. Shu yo‘l bilan rohiblar bilan oddiy kishilar o‘zlaridagi yaxshi hislatlarni o‘zaro baham ko‘rishga intilishlarini namoyish etadilar. Ibodat paytida guldan foydalanishda ham chuqur ramziy ma’no bor. Zero, so‘lib qolgan gul hayotning o‘tkinchiligi, muattar hid esa buddaviylikka e’tiqod qiluvchilarning go‘zal xulq–atvorli bo‘lishi lozimligini eslatadi.

Buddaviylikda ibodatlar xoli (yakka holda) ham amalga oshiriladi. Bu insonning istagan paytda ibodat qilish, o‘z ichki olamiga kirib, ishonch–e’tiqodining mohiyati haqida mushohada yuritishiga imkon yaratadi, deb hisoblanadi. Diniy urf–odat va marosimlarning oddiyligi buddaviylikning jahonning turli mamlakatlarida keng tarqalishiga sabab bo‘lgan. Buddaning tug‘ilgan, nurlangan va vafot etgan kunlarini xotirlash bilan bog‘liq marosimlar mavjud. Xususan, Buddaning tug‘ilgan kuni ommaviy bayram sifatida nishonlanishini alohida qayd etish lozim.

Buddaviylar uchun yangi yilning boshlanishi o‘z axloqiy xatti–harakatlariga baho berish, poklanish va savobli ishlarni bajarish haqida qayg‘urish vaqti bo‘lib hisoblanadi. Aprel oyida 2–Z kun davomida nishonlanadigan “Yangi yil bayrami”da Budda, avliyolar, ajdodlar yodga olinib, suv sepiladi. Suv sepish yomg‘ir chaqirish va xotirjam hayot belgisi hisoblanadi.

Shimoliy Hindiston va Markaziy Osiyo hududlarining Kushonlar saltanati hukmronligi ostida birlashtirilishi natijasida buddaviylik Uzoq Sharqqa ham kirib bordi. Keyinchalik Sharqiy Turkiston, Xitoyga yoyildi. Kanishka, Vima Kadfiz va ulardan keyingi Kushon imperatorlari buddaviylik dini an‘analarini amalda rivojlantirish, boshqa xalqlar o‘rtasida tarqatish uchun Balx, Marv, Termiz, Samarqand, Buxoro, Shosh, Turkiston, Quva, Koson, O‘sh, Bolosog‘un, Koshg‘ar va boshqa shaharlarda ibodatxonalar qurib, uning muqaddas kitoblari, sutra (sanskritcha – ip, to‘plam, bayon, diniy–falsafiy ibora)larni o‘rganish, tarjima qilish va sharhlash uchun sharoit yaratdilar.

Buddaning o‘limidan so‘ng shogirdlari orasida ajralish ro‘y berdi. “Xinayana” (sanskritcha – kichik g‘ildirak) yo‘nalishi an‘anaviy qarashlarga rioya qilishi bilan birga Budda ta’limotiga qat’iy mantiqiy izchillik berishga intildi. “Mahayana” (sanskritcha – katta g‘ildirak) yo‘nalishi Budda ta’limotining barcha tomonlarini isloh qildi. Buddaga ilohiylik tusini berib, diniy marosim va ibodatlarni joriy etdi. Ushbu yo‘nalishlarning mahalliy qadriyatlar va boshqa dinlar bilan sintezlashuvi esa “lamaizm”, “vajrayana”, “dzen (chan) buddizm”, “tyantay”, “dxiana” kabi

yoʻnalishlarning vujudga kelishiga zamin yaratdi.

Buddaviylikning ilk yoʻnalishlaridan biri, najot topishning tor yoʻli boʻlgan “xinayana” miloddan avvalgi I asrda shakllangan boʻlib, uning asosiy qoidalari “Tipitaka”da bayon qilingan. “Xinayana”ni Buddha kichkina qayiq misolida tushuntirgan: kishi yolgʻiz oʻzi unga oʻtirib, tinch–omon daryodan suzib oʻtishi mumkin. Bunday kishi “arxata” deb atalgan. U butun kuch–qudrati va imkoniyatini oliy maqsad sari qaratib, haqiqatni anglaydi. “Arxata” faqat oʻzi haqida qaygʻuradi va har bir kishi “nirvana”ga erishish uchun oʻzi harakat qilishi kerakligi, boshqalarning yordami bilan hech narsaga erishib boʻlmasligini uqtiradi. Rahm–shafqat, achinish, hamdardlik qanchalik yuksak va goʻzal axloqiy meʼyor boʻlmasin, insonni cheklab qoʻyadi. Hamisha kimgadir va nimagadir tayangan kishi oltin zanjirga kishanlangan boʻladi. Vaholanki, temir yoki oltindan boʻlganidan qatʼi nazar, zanjir zanjirligicha qolaveradi. Shuning uchun ham “xinayana”da kishi faqat oʻziga najot berishi, boshqalarning hayotiga aralashishga hech kimning haqqi yoʻqligi, har bir kishining oʻz najot yoʻli boʻlishi eʼtirof etilgan. “Arxata” boshqalarga ustozlik qilish, pand–nasihat qilish, boshqalarga koʻmak berishdan koʻra, sukutni afzal koʻradi. “Arxata” yuksak kamolot va “nirvana”ga erishgan kishi hisoblanadi.

“Xinayana” yoʻnalishi eʼtiqodiga koʻra, kishi rohiblar jamoasiga kirib, yakka–yolgʻizlikda tarkidunyochilik va taqvorodlik bilan hayot kechirish orqali kundalik hayot tashvishlaridan xalos boʻlishi mumkin.

“Xinayana”da “Budda tishiga sigʻinish”, muqaddas joylarni ziyorat qilish kabi dabdabali marosimlar paydo boʻlgan. Buddaviylarning muqaddas joyi Shri Lanka boʻlib, bu yerga turli mamlakatlardan buddaviylikka ibodat qiluvchilar tashrif buyuradilar. Shri Lankaning avvalgi poytaxti boʻlgan Kandi shahrida dunyoda mashhur “Buddaning tishi” ibodatxonasi joylashgan. Bu yerda Buddaning tishi saqlanadi. Rivoyat qilinishicha, Buddha vafotidan soʻng uning jasadi olovda kuydirilgan. Buddaning shogirdlaridan biri oʻsha joydan Buddaning tishini topib olgan va bu tish ibodatxonada saqlangan. “Buddaning tishi” ibodatxonaning yer ostida, kumushdan yasalgan qoʻngʻiroq ichida oltin idishlarda saqlanadi.

Ijtimoiy hayotning oʻzgarib borishi va buddaviylik tartib–qoidalarini unga moslashtirishga intilish natijasida ruhiy kamolot ahdigaga rioya etuvchi, xudoga iltijo qiluvchi, rohiblarga inʼom–ehson beruvchi har qanday dindor najot topishi mumkin, degan qoidaga asoslangan “mahayana” (sanskritcha – najot topishning keng yoʻli) yoʻnalishi vujudga kelishiga zamin yaratilgan.

Xudolarga yetish yoʻllari barcha uchun mumkin boʻlgani sababli “mahayana” yoʻnalishi “katta gʻildirak” nomini olgan, yaʼni hamdardlik va xayrixohlik bilan boshqalarni ham oliy maqsad sari yetaklash, ularga yordam berish va boddhisattva maqomiga erishishlariga koʻmaklashish haqidagi gʻoyalar uning mazmun–mohiyatini tashkil etgan. “Boddhisattva” qarama–qarshilik va ziddiyatda ham haqiqatni koʻra

oladigan, kim bo‘lishidan qat’i nazar, boymi, kambag‘alimi, barchaga o‘z najot yo‘lini taklif qila oladigan kishidir.

“Mahayana”da “xaloskorlikning ajoyib sakkiz yo‘li”ga amal qilish orqali azob–uqubatlardan qutulish mumkinligi inkor etilib, bu yo‘ldan voz kechilgan. Buning o‘rniga boddhisattva – ustozlar va rohiblarga sig‘inish orqali najot topishning yo‘li ko‘rsatilgan.

“Mahayana”da “dunyo bir ro‘yo (yo‘qlik), faqat “nirvana” haqiqatdir, Siddhartha o‘gitlariga amal qiluvchi, xudoga iltijo qiluvchi, rohiblarga moddiy yordam beruvchi, dunyoviy ishlar bilan shug‘ullanuvchi har bir kishi najot topishi mumkin”, deb uqtiriladi. “Adibudda” (sanskritcha – abadiy Budda) – dunyoning oliy qiyofasiz substansiyasi, ya’ni “nirvana” deb hisoblanadi.

“Mahayana”da jannat darajalari haqidagi ta’limot yetakchi o‘rinni egallashini alohida qayd etish lozim. Unga ko‘ra, “Boddhisattva”lar xudoning emanatsiyasi sifatida insonning azob–uqubatlardan xalos bo‘lishiga madadkor bo‘ladilar. Xudoning marhamatiga erishish yo‘li muqaddas “sutra” (diniy–falsafiy adabiyot)larni takrorlash bilan amalga oshishi ta’kidlangan.

“Mahayana”ning asosiy qoidalari “yogochara” hamda “madh’yamika” diniy–falsafiy maktablari tomonidan ishlab chiqilgan. “Yogochara” maktabi vakillari “faqat inson ongini real mavjudlik, deb hisoblaydilar. Ularning fikricha, ong tashqi dunyoning barcha ob’ektlarini vujudga keltira olgani uchun uning faolligini so‘ndirish orqali qayta tug‘ilish zanjiri – “sansara”dan qutulish mumkin”. “Madh’yamika” maktabi vakillari individual ong mavjudligini inkor etib, faqat “shunyot” (“bo‘shliq”) mavjudligi, u muayyan sifatga ega emasligi, uni ta’riflash ham, tajriba yo‘li bilan ham bilib bo‘lmazligi, uni faqat intuitsiya – ichki sezim quvvati (qalb ko‘zi) orqali anglash mumkinligini e’tirof etganlar. Keyinchalik “mahayana” buddaviylikning yangi yo‘nalishlari uchun asos bo‘lib xizmat qildi. “Dzen buddizm” V–VI asrlarda Xitoyda paydo bo‘lgan mahayana yo‘nalishidagi maktablaridan biridir. Uning asoschisi afsonaviy rohib Boddhidharma hisoblanadi. “Dzen” (lotincha – meditatsiya, fikrni jamlash, diqqat bilan mushohada qilish) buddizmning asosiy xususiyatlari sifatida nazariyadan ko‘ra amaliyotga, diniy o‘git va qonun–qoidalarni yodlash o‘rniga mushohada qilishga alohida e’tibor berilishini, irratsionalizm va mistikaga moyillikni qayd etish mumkin.

Dzen buddistlar “yoga” mashqlarini bajarish, jismoniy mehnat qilish, san’at turi bilan shug‘ullanishga katta ahamiyat beradilar. Har qanday aqida va e’tiqod shakllarini (hattoki, Buddani ham) inkor qilish, hech kimga taqlid qilmaslik va ruhiy erkinlikka erishish, “vaqt–abadiylik”, “sub’ekt–ob’ekt”, “hayot–o‘lim”, “haqiqat va yolg‘on”, “yaxshilik va yomonlik” kabi ziddiyatlarni bartaraf etishni kamolotga erishishning oliy yo‘li, deb hisoblaydilar. Dzen buddizmida tashqi olamdan uzilib, abadiy tashvishlardan chetlanish va fikrni bir nuqtaga jamlashga alohida e’tibor beriladi va “satori”

(sanskritcha – yilt etib ko‘rinish)ni targ‘ib qilinadi. Trans holatiga tushgan kishining haqiqatga erishishi dzenning oliy maqsadi, deb bilinadi. “Dzen buddizm” barchani irqi, millati, diniy e‘tiqodidan qat‘i nazar, “hammaga mos jonli amaliy haqiqat” sirlaridan ogoh bo‘lishga chaqiradi. Hozirda dzen buddistlar 10 milliondan ortiq, ularning 85 foizi Yaponiyada yashaydi. Unda ilgari surilgan g‘oyalarning bevosita “dildan–dilga” uzatilishi, insonning o‘z ruhiy mohiyati bilan yaqinligi, belgi va shakllarga qaram bo‘lmaslik, ya‘ni fikrning so‘z va belgilarisiz ifoda etilishi, insonning o‘z ichki dunyosiga murojaat qilishi orqali Budda kabi barkamollikka erishish mumkinligi haqidagi qarashlar ommaviy tus olgan. Hozirda Yaponiyada dzen ibodatxonalari diniy, siyosiy va madaniy markazga aylanib, yoshlar tafakkuri, turmush tarzi, faoliyatiga katta ta‘sir ko‘rsatmoqda. Ayniqsa, dzen san‘ati xitoy va yapon madaniyati an‘analaridan biriga aylangan. Samuraylar dzen buddizm targ‘ibotchilari hisoblanadi. Dzenga “hammaga mos jonli amaliy haqiqat” deb ta‘rif berishgan, ya‘ni inson ichki dunyosi orqali haqiqat va barkamollikka erishishi mumkinligi e‘tirof etilgan holda qat‘iy tartib va maxsus ruhiy mashqlarga amal qilish talab etiladi. Bugungi kunda dzen buddizm G‘arbiy Yevropa mamlakatlari, AQSh va Kanada yoshlari orasida keng tarqalganini qayd etish lozim. Shu asnoda mediatatsiya qonun va talablarini buzib talqin etish, mast qiluvchi ichimlik va narkotik moddalardan foydalanish orqali “nirvana”ga erishish mumkin, degan qarashlar ham keng yoyilib borayotganini ta‘kidlash zarur. Yoshlarning bunday qarashlar ta‘siriga berilishi ularning turmush tarziga salbiy ta‘sir ko‘rsatib, nosog‘lom mayllarning kuchayishi, alkogolizm va narkomaniyaning chuqur ildiz otishiga zamin yaratmoqda.

Lamaizm (tibetcha – eng ulug‘) VII–XIV asrlarda Tibetda mahayana yo‘nalishi ta‘sirida vujudga kelgan. Muqaddas diniy kitoblar “Kang‘yur” va “Teng‘yur”da bayon qilingan barcha qonun–qoida va talablar lamaizm e‘tiqodining asosini tashkil etadi. Lamaizm ta‘limotiga ko‘ra, inson buddaviylik aqidalariga tayanib, faqat lamalar yordamida najot topadi, gunohlardan poklanadi, lamalar yordamisiz oddiy kishilar jannatga tusha olmaydi.

Buddaning Yer yuziga yana qaytishi va dunyoda adolat o‘rnatishiga ishonch lamaizm ta‘limotida muhim o‘rin egallaydi. Xudolarning Yerdagi vakili hisoblangan lamalarga va dunyoviy hokimiyatga so‘zsiz bo‘ysunish, ibodat va rasm–rusumlarni dabdabali o‘tkazish, muqaddas kitoblar talqinini teatrlashtirilgan tomoshalarda aks ettirish, xudolarning g‘azabi, yovuz ruhlar ziyonini qaytarish uchun turli duo va afsunlar o‘qish lamaizmga xos xususiyat hisoblanadi. Odam o‘ldirish, o‘g‘rilik, yolg‘onchilik, tuhmat, g‘iybat, bekorchilik so‘zlash, ochko‘zlik, kek saqlash, zino qilish lamaizmda ham og‘ir gunoh sanaladi. Lamaizm ta‘limotiga ko‘ra, gunoh qilishdan o‘zini tiyish fazilat hisoblanib, insonga “eng yaxshi qayta tug‘ilish”ga yordam beradi.

Lamaizmning oliy diniy rahnamosi Dalay–Lama (tibetcha – “dengizdek ulug‘ lama”) tug‘ilgan mavjudotlarning eng ulug‘i, “boddhisattva”ning Yerdagi ko‘rinishi,

tirik xudo hisoblanadi.

“Lamaizm” tibetliklarning asosiy dini hisoblanadi. Tibetda 3000 dan ortiq buddaviylik ibodatxonalari mavjud. Shuningdek, lamaizm Rossiyaning, Buryatiya, Tuva, Oltoy kabi hududlarida ham keng tarqalgan. Neobuddizm XX asrning 40–50–yillaridan boshlab keng tarqala boshlagan diniy–ideologik oqim bo‘lib, Birma, Tailand, Laos, Vetnam mahalliy ziyolilarining ozodlik va milliy uyg‘onish harakati bilan bog‘liqdir. Uning asosida yangi zamon talabiga javob bera oladigan bunyodkor g‘oyalarni targ‘ib qilish, payg‘ambar va avliyolarni yaratish, taqvodorlik va tarkidunyochilikni rad etish, “karma” kabi masalalar yotadi. Aql–idrokning ahamiyatsizligi, dinning najotkorligi e’tirof etilib, buddaviylik g‘oyalarini tushuntirishda bilish nazariyasi, psixozanaliz usullaridan foydalaniladi. Milliy ozodlik kurashida faol qatnashgan neobuddizm oqimi diniy–islohotchilik harakati kuchayishiga katta ta’sir ko‘rsatgan.

G‘arbda Orol va Kaspiy dengizi bo‘ylari, Janubda Hind daryosining quyi oqimi, Sharqda Xo‘tan (Xitoy)dan Banoras (Gang daryosi bo‘yidagi shahar)gacha cho‘zilgan Kushonlar imperiyasining boshqa mamlakatlar bilan iqtisodiy, siyosiy va madaniy aloqalarining yaxshilanishi, savdo–sotiqning rivoji yangi shaharlarning paydo bo‘lishiga olib keldi. Kushonlar davridabuddaviylikkatta ahamiyat berilgani, diniy rasm–rusumlarni bajarishga alohida e’tibor bilan qaralgani bois maxsus ibodatxonalar bunyod etilib, buddaviylik xalq turmush tarzining muhim tarkibiy qismiga aylanib bordi, madaniyat rivojiga kuchli ta’sir ko‘rsatdi. Buni o‘sha davrda Baqtriya–Toxaristonning eng taraqqiy etgan madaniyat markazlaridan biri bo‘lgan Termizning madaniy–ma’naviy hayotida buddaviylikning o‘rni misolida ko‘rish mumkin.

Miloddan avvalgi 1–asrda Termizda buddaviylik ustuvor mavqega ega bo‘ldi. Bunda shahar zadagonlarining buddaviylikni qabul qilishi va ibodatxonalar qurilishiga homiylik qilishlari muhim ahamiyat kasb etgan. Qoratepa va Fayoztepa ibodatxonalari eng katta sajdagohlardan hisoblangan. Ularda Buddaning loydan yasalgan katta haykali va stupalar bo‘lgan. Ibodatxonalar odatda yer osti va yer usti qismlaridan iborat bo‘lgan. Bu yerda alohida stupalar ham mavjud bo‘lib, ular oq marmardan mahorat bilan ishlangan Budda haykalchalari bilan bezatilgan “Zo‘rmala” stupasi mahobati bilan ajralib turgan. Stupalar bir necha balandlikda to‘rtburchak shaklda bunyod etilgan. Stupa usti gumbazsimon qilib ishlanib, unga yog‘och yoki toshdan yasalgan langar o‘rnatilgan. Bu langarlarda toshdan yasalgan bir necha soyabon bo‘lib, buddaviylar uni “chatra” deb atashgan. “Chatra” muqaddas daraxt timsolidir.

Stupa koinot ramzi hisoblangan. Uylarda Budda haykali qo‘yilgan maxsus ibodat qiladigan xonalar bo‘lgan. Keyinchalik Budda haykallari yoniga boddhisattvalarning loydan pishirilgan kichkina haykalchalari qo‘shilgan. Ushbu holat ham shahar aholisi hayotida buddaviylik alohida ahamiyat kasb etganini ko‘rsatadi. Fayoztepa “vixara” (sanskritcha – kulba, boshpana, buddaviy rohiblarning yomg‘ir mavsumi vaqtida

yashaydigan kulba, hovli va bog‘dan iborat bo‘lgan joyi) uslubidagi ibodatxona bo‘lib, uning markazida diniy marosimlar o‘tkazilgan. Ibodatxona bilan yonma–yon joylashgan stupadan oltin suvi yurgizilgan, sopol va marmardan yasalgan haykallar topilgan. Bu yerdan marmartoshdan nafis ishlov berib yasalgan muqaddas “Boddxa” daraxti ostida o‘tirgan Budda va uning ikki tomonida turgan ikki rohib haykali ham topilgan.

Qoratepa xarobasidan shimoliy Baqtriyadagi eng katta va mahobatli stupa topilganini alohida qayd etish lozim. Bizgacha stupaning asosi hamda zinapoyaning ikki tomonida joylashgan kichik stupalar, o‘sha davrga tegishli yozuv namunalari saqlanib qolgan. Kushon podsholigining dastlabki poytaxti Dalvarzintepa o‘rnida bo‘lgan. Kushonlar hukmdori Kanishka davrida Dalvarzintepa shahar sifatida shakllanib, savdo–sotiq markazlaridan biriga aylangan. Surxondaryo viloyati Sho‘rchi tumanida joylashgan Dalvarzintepa (qalinligi 10 metrgacha bo‘lgan qudratli mudofaa devori bilan o‘rab olingan qal’a shahar) majmuasidan Budda ibodatxonasi va aslzodalar dafn etilgan dahma, shuningdek, oltin xazina to‘ldirilgan ikki yarim metrli sopol ko‘za topilgan. Bular buddaviylikning o‘sha davr xalqlari ijtimoiy–ma’naviy hayotidagi mavqei va boshqa mahalliy dinlar o‘rtasida egallagan o‘rnini ko‘rsatadi.

Markaziy Osiyo xalqlari qadimgi tarixi va madaniyati rivojida buddaviylik muayyan o‘rin egallaydi. Bunga Markaziy Osiyo hududida joylashgan Dalvarzintepa, Quva, Zartepa, Qorovultepa, Ayritom mavzellaridan topilgan arxeologik qazilmalar, jumladan, Shakyamuni sanamlari, haykalchalar, ramziy g‘ildiraklar va stupa qoldiqlari, shuningdek, marmardan yasalgan va juda yaxshi saqlangan Budda haykali aniq dalolat beradi. Qadimgi Termiz xarobalaridan topilgan yirik ibodat majmuasida 25 ta Budda kompleksi (Buddaning tikka turgan, o‘tirgan va yotgan holdagi haykallari 3–4 metrgacha balandlikda loy–ganchdan ishlangan) borligi aniqlangan.

Qoratepada topilgan arxeologik yodgorliklar yer usti va g‘or ichida joylashgan ibodatxona, saroy, rohib (zohid) uchun moslashtirilgan hujralardan iborat bo‘lgan. Arxeologik qazilmalar natijasida topilgan yodgorliklar buddaviylikning o‘sha davrdagi mavqei haqida xabar beradi. Shuningdek, ajdodlarimizning yuksak moddiy madaniyati, dini, urf–odati, tafakkur tarzi haqidagi tasavvurimizni boyitishga xizmat qiladi. Hozirgi davrda buddaviylik Janubiy, Janubiy–sharqiy, Sharqiy Osiyo mamlakatlari Shri Lanka, Hindiston, Birma, Tailand, Laos, Mo‘g‘uliston, Kambodja, V’etnam, Xitoy, Singapur, Butan, Nepal, Malayziya, Koreya, Yaponiya, qisman Yevropa va Amerika qit’asi, Rossiyaning Tuva, Buryatiya, Qalmiqiston kabi hududlarida keng tarqalgan. 700 milliondan ortiq kishi buddaviylikning turli yo‘nalishlariga e’tiqod qiladi. Hozirda buddaviylik Yaponiyaning davlat dini hisoblanadi.

Nazorat savollari

1. Buddaviylik dini qachon paydo bo‘lgan?
2. Siddhartha Gautama haqida nimalarni bilasiz?
3. “Nirvana” nima?
4. Buddaning “najotning oliyjanob sakkiz yo‘li” haqidagi qarashlarining ahamiyati?
5. Buddaviylikning qanday muqaddas kitoblari mavjud?
6. Buddaviylikning kelib chiqishi: Buddaviylik qachon va qayerda vujudga kelgan? Uning paydo bo‘lishiga Hindistonning ijtimoiy-siyosiy ahvoli qanday ta’sir ko‘rsatgan?
7. «Budda» so‘zining ma’nosi nima? Siddharta Gautamaning shohona hayotdan voz kechib, riyozat yo‘lini tanlashiga nima sabab bo‘lgan?
8. To‘rt oliy haqiqat: Buddaviylikning asosi hisoblangan «To‘rt oliy haqiqat» (Ariya-sachchani) nimalardan iborat? Ularning har birini izohlang.
9. Sakkiz bosqichli yo‘l: «O‘rta yo‘l» yoki sakkiz bosqichli najot yo‘li (Ashtangika-marga) qanday qismlarga bo‘linadi?
10. Nirvana tushunchasi: Buddaviylikdagi oliy maqsad — Nirvana nima? Unga erishish inson uchun nimani anglatadi?
11. Dharma va Karma: Buddaviylikda «Dharma» (qonuniyat) va «Karma» (amallar natijasi) tushunchalari qanday talqin qilinadi?
12. Tripitaka (Uch savat): Buddaviylikning muqaddas kitoblar to‘plami — Tripitaka qanday qismlardan iborat va ularning har birida nima haqida gap boradi?
13. Buddaviylikdagi asosiy yo‘nalishlar: Xinayana (Maxayana) va Teravada o‘rtasidagi asosiy farqlar nimada?
14. Vajrayana (Olmosh yo‘li): Tibet buddaviyligining o‘ziga xos xususiyatlari va undagi «Dalay-lama» institutining roli qanday?
15. Sangha — diniy jamoa: Buddaviylikda monaxlik (rohiblik) hayotining tartib-qoidalari qanday? Jamoaning jamiyatdagi o‘rni nimada?
16. Buddaviylikning tarqalishi: Nima uchun buddaviylik Hindistondan chiqib, Markaziy Osiyo, Xitoy va Janubi-sharqiy Osiyoda keng tarqaldi?
17. Ashoka davri: Imperator Ashokaning buddaviylikni dunyo diniga aylantirishdagi xizmatlari nimadan iborat?
18. O‘zbekiston hududida (masalan, Termizdagi Fayoztepa va Qoratepa) saqlanib qolgan buddaviylik yodgorliklari haqida nimalarni bilasiz?
19. Buddaviylik arxitekturasi: Stupa va Pagoda kabi inshootlarning diniy ahamiyati va vazifasi nimada?
20. Ahimsa tamoyili: Buddaviylikdagi «tirilikka ozor bermaslik» (Ahimsa) g‘oyasining bugungi kundagi insonparvarlik tamoyillari bilan bog‘liqligi qanday?

Mustaqil ish topshiriqlari

1. Budda haqida mavjud afsonalarni solishtiring.
2. Buddaviylikka Hindistonning boshqa dinlarining ta' - sirini tahlil qiling.
3. Buddaviylikning Markaziy Osiyoda egallagan mavqei haqida ma'lumot bering.
4. Xitoyda buddaviylikning paydo bo'lishi va taraqqiyoti haqida ilmiy ma'ruza tayyorlab kursdoshlaringizga taqdim qiling.
5. Mavzu bo'yicha ko'rgazmali slayd tayyorlang (MS Power Point).

4-MAVZU XRISTIANLIK DINI TARIXI VA G'OYALARI.

REJA:

1. **Xristianlik tarixi. Muqaddas manbalari.**
2. **Xristianlik ta'limoti. Xristianlik marosimlari.**
3. **Xristianlik yo'nalishlari.**
4. **Xristianlikning Markaziy Osiyoga kirib kelishi.**

Tayanch tushunchalar:

Missiya, Ota-Xudo, O'g'il-Xudo, Muqaddas ruh, xristianlikning oqimlarga ajralishi, Pravoslavlik, Katoliklik, sirli marosimlar, cho'qintirish (xristianlik diniga kiritish), prichastie (non bilan tamaddi qilish), cherkovda gunohlarga tavba qilish, nikoh ahdi, badanni yog' bilan ishqalash (soborovanie), cho'qinuvchining peshonasiga muqaddas yog' surkash, ruhoniylilik, Isoning tug'ilishi, Xudo- ning uch qiyofasi, Protestantlik, indulgensiya (pul evaziga gunohlarni kechirish), a'rof (chistiliye), anglikanlik, lyuteranlik, kalvinizm, Bibliya, «Havoriylar amallari», Injil, Qadimiy Ahd, Yangi Ahd.

Mavzu o'quv maqsadi:

Xristianlik dinining tarixi, Iso Masih va uning havoriylari faoliyatlari, ta'limoti, ko'zga ko'ringan namoyandalari, muqaddas kitoblari, yo'nalishlari, diniy urf-odatlar haqida talabalarga atroflicha ma'lumot berish.

Xristianlik (yunoncha christos – «muqaddas yog‘ surtilgan», «xaloskor») milodning I asrida Falastinda yuzaga kelgan jahon dinlaridan biri. Mazkur din izdoshlari soni bo‘yicha dunyoda birinchi o‘rinda turib, Er yuzi aholisining qariyb 2 milliardi unga e‘tiqod qiladi. Xristianlik ta‘limotining paydo bo‘lishi Iso Masih shaxsi bilan bog‘liq. Shuni alohida ta‘kidlash lozimki, Iso shaxsi haqidagi munozaralar fanda mifologik va tarixiy maktablarning paydo bo‘lishiga olib kelgan.

Birinchi maktab vakillari Isoning tarixiy shaxs ekanligi haqida fan ishonchli ma‘lumotga ega emas, deb hisoblaydilar. Ular xristianlikning Falastindan tashqarida vujudga kelgani, shuningdek xristianlikka doir rivoyatlarning sharq madaniyatidagi vafot etib, tiriladigan xudolar to‘g‘risidagi asotirlarga o‘xshash ekani, Injillarda ziddiyatlar va turlicha talqinlar mavjudligini buning isboti sifatida keltiradilar.

Tarixiy maktab vakillari esa Iso Masihni real shaxs deb hisoblab, u xristianlik ta‘limoti asoslarini shakllantirgan, yangi dinni targ‘ib qilgan, deb hisoblashadi. Uning qator shogirdlari va u bilan bevosita muloqot qilgan shaxslarning tarixiyliги Isoning haqiqatan mavjud bo‘lganligini isbotlaydi deb hisoblaydilar. Hozirgi kunda fan Iso mavjud bo‘lganligini isbotlovchi qator manbalarga ega. Xususan Iosif Flaviyning “Qadimiyotlar” asarining Rim prokuratori Pontiy Pilatga bag‘ishlangan bobida Iso yangi e‘tiqodni targ‘ib etgani va unga ko‘pchilik yahudiylar va yunonlar ergashgani qayd etilgan. Lekin shunga qaramay, Iso Masih hayoti, ilgari surgan ta‘limoti haqida to‘liq ma‘lumot beruvchi asosiy manba bo‘lib hanuz “Bibliya”ning “Yangi Ahd” qismi xizmat qiladi.

Xususan, unga ko‘ra Iso Falastinning Baytlahm (zam. Vifliem) shaharchasida, yahudiy oilasida tug‘ilgan. Uning onasi Maryam mo‘jizaviy suratda, ya‘ni bokira holida homilador bo‘ladi. Tug‘ilgan go‘dakka Iso (yahudiy tilida Yesu‘a, ya‘ni “Tangri najot berdi”) deb ism qo‘yishadi.

Isoning bolaligi haqida ma‘lumotlar juda kam, faqatgina Iso tug‘ilgach Maryam Yusuf ismli duradgorga turmushga chiqqani va ular podshoh Hirod zulmidan qochib Misrga ko‘chib ketishgani, bo‘lg‘usi payg‘ambar yahudiy an‘analariga mos ravishda ulg‘aygani qayd etiladi.

Iso o‘ttiz yoshga kirganda Xudoning amri bilan Yahyo payg‘ambar oldiga boradi. O‘sha paytlarda Yahyo isroilliklar orasida targ‘ibot olib borib, ularni oxiratdan ogohlantirar, tezroq tavba qilib gunohlardan poklanishga chaqirar, izdoshlarini Iordan daryosi suvida cho‘qintirar edi. Xristianlar ilk mo‘jizalar mazkur cho‘qintirish voqeasidan so‘ng boshlanganini ta‘kidlaydilar. Yahyo Isoni suvda cho‘qintirgach, birdan osmon yoriladi va yog‘du taratib, kabutardek uchib tushayotgan Ruh ko‘rinadi. Iso, dastlab, bir qancha vaqt shayton vasvasalarini yengish davrini o‘taydi, so‘ng da‘vat davriga o‘tadi. U o‘z da‘vatlarida o‘zining payg‘ambarligi va xalqni yaqinlashib kelayotgan “Oxirat”dan ogohlantirish uchun yuborilganini ta‘kidlaydi. Gunohlardan

tiyilib, tavba qilish va to'g'ri yo'lga kirishga chaqiradi. Yo'l–yo'lakay turli mo'jizalar ko'rsatib, odamlarni davolaydi.

Iso o'z sayohatlari davomida ko'plab shogirdlar, ya'ni “havoriylar” (yunoncha “apostol” – “yordamchi”) orttiradi, ular uni Masih (yunoncha Xristos, ibroniy tilida Moshiah – “moy surtilgan”) deb atay boshlaydilar. Injillarga ko'ra eng ishonchli havoriylar soni 12 ta bo'lgan, ular: Butrus (Petr yoki Simon), Idris (Andrey), Ya'qub (Iakov), Yuhanno (Ioann), Filip, Bartolomey, Matto (Matvey), To'ma (Timoti), Alfey o'g'li Ya'qub (Iakov Alfeev), Simon Vatanparvar, Ya'qub o'g'li Yahudo (Iuda), Kariotlik Yahudo (Iuda Iskariot)

Isoning da'vati aksariyat hukmdorlar, qabila sardorlari va yahudiy ruhoniylariga yoqmas edi. U va shogirdlari mahalliy zodagonlar biror chora ko'rishlari aniqligini sezar edilar. Bu xususida Injilda shunday keltiriladi: *“Bir necha kundan so'ng Iso pasxa dasturxonini birga baham ko'rish uchun shogirdlarini huzuriga taklif etadi. Ziyofat chog'ida Iso nonni sindirib: “buni yenglar, bu mening tanamdir”, dedi va kosadagi sharobni uzatib: “buni ichinglar, bu ko'plarning gunohlari kechirilishi uchun to'kiladigan mening qonimdir”, deydi va o'zining bir necha kundan so'ng qatl etilishiga ishora qiladi.*

Ertasigayoq, havoriylaridan biri bo'lgan Kariotlik Yahudo sotqinligi oqibatida, Iso hibsga olinadi va ruhoniylar talabiga binoan Golgofa tepaligida, xalq ko'zi o'ngida xochga mixlanadi. Iso jon bergach, shogirdlari uning jasadini so'rab oladilar. Uni xochdan olib, toza kafanga o'rab bir g'orga qo'yishadi. G'or og'zini katta xarsang tosh bilan yopib qo'yishadi. Ertasiga jasaddan xabar olgani kelgan ikki ayol qabr og'zidagi toshning surib qo'yilgani va tananing yo'qolganini ko'radi.

Ayollar shosha–pisha ketayotganlarida ularning ro'parasidan Isoning o'zi chiqadi va: “Jalilada meni kutinglar”, – deydi. Isoning 11 shogirdi – havoriylar (12–havoriy Yahudo xoinlik qilganligidan pushaymon bo'lib, o'zini osgan edi) aytilgan toqqa boradilar va o'sha yerda Isoni tirik ko'rib, unga sajda qiladilar. Iso ularga bir necha vasiyatlarini aytib osmonga ko'tarilib ketadi. Shundan so'ng yuz yillar davomida Rim hukumati tomonidan xristianlik izdoshlari ta'qib va tazyiq ostiga olinadilar.

III asr oxiri – IV asrning boshlarida imperator Diokletian va u bilan birga davlatni boshqargan Maksimilian davrida cherkovni ta'qib qilish siyosati avjiga chiqadi. E'tiqodi sababli jabrlanganlar avliyolarga aylanib, xotiralari qadrlandi, buning oqibatida xristianlikning jozibadorligi ortib u Rim shahrining o'zida ham tez suratlarda tarqaladi. IV asrning oxirida cherkovni xavfli raqib deb bilgan imperator Konstantin, kurashish o'rniga u bilan hamkorlik qilish va davlat manfaatlari maqsadida, u nufuzli ijtimoiy kuch bo'lganligi sababli, undan foydalanishga qaror qiladi. Chunonchi, 311 yilda xristianlik din sifatida rasmiy ravishda tan olindi. Shu asrning oxirida, imperator Konstantin davrida xristianlik davlat muhofazasini ado etuvchi va unga rahnamolik qiluvchi davlat diniga aylandi. Lekin G'arbiy Rim imperiyasining sekin–asta

kuchsizlanishi oxir oqibatda uning yemirilishiga olib keldi. Buning natijasida o‘z bo‘yniga hukmdor vazifalarini olgan Rim yepiskopining (Papa) qudrati yanada oshdi.

Xristianlikning muqaddas manbai “Qadimgi Ahd” va “Yangi Ahd” deb nomlanuvchi ikki bo‘limdan tarkib topgan **“Bibliya”** (yunoncha – “kitoblar”) kitobi hisoblanadi.

“*Qadimgi Ahd*” “Tavrot”, “Zabur” va boshqa bir necha kitob va gimnlarni o‘z ichiga olib, umumiy hisobda 39 kitob, ya’ni bo‘limlardan iborat.

“*Yangi Ahd*” to‘rt “Xushxabar” (“Injil”, “Evangeliye”), havoriylar faoliyati (bir kitob), havoriylarning maktublari (21 ta) va “Vahiynoma” ni o‘z ichiga olgan 27 kitob, ya’ni bo‘limlardan tashkil topgan. Mark, Matto (Matvey), Luqo (Luka) va Yuhanno(Ioan)lar xushxabarlarning mualliflari hisoblanib, barcha xristianlar tomonidan teng kuchli va qonuniy (kanonik) kuchga ega, deb tan olinadi. Injillar orasida eng qadimiysi Matto injili hisoblanib u Iso vafotidan 4 yil keyin ibroniy–yaxudiy tilida yozilgan. Mark, Matto va Luko injillari bir–biriga juda o‘xshash bo‘lgani sababli “sinoptik Injillar” deb ataladi. Muqaddas kitob Muqaddas rivoyatlar

(Papalar maktublari va xristian soborlarining qarorlari) bilan to‘ldiriladi, lekin Muqaddas rivoyatlar ba’zi xristianlik yo‘nalishlari tomonidan tan olinmaydi.

Imperator Konstantingacha Isoning o‘gitlari kitob holiga keltirilmagan edi. Konstantin yepiskoplardan yozma manbalarni to‘plashni va kitob holiga keltirishni buyuradi. Kitobni tayyorlash jarayoni ancha uzoq kechdi. Bu orada Konstantin vafot etib, kitob holiga keltirilgan manbalar tasdiqlanmasdan qolib ketdi. Faqat 419 yilga kelib, xristianlik tarixi yoritilgan Yangi Ahd Karfagen yig‘inida tasdiqlandi.

Milodning IV asridan boshlab xristianlik cherkovi oliy tabaqa ruhoniylarni vaqti–vaqti bilan Butun Olam Soborlarigayig‘ib turadi. Bunday yig‘ilishlarda diniy ta’limot tizimi ishlab chiqildi va tasdiqlandi, muqaddas qonunchilik me’yorlari va ibodatlarini olib borish qoidalari shakllandi, bid’atga (ereslar – xristianlik aqidalariga qarshi harakat, ta’limotlar) qarshi kurashish usullari aniqlandi. Ilk Butun Olam Sobori 325 yil Nikeya shahrida o‘tkazilib, unda e’tiqod timsoli deb nomlangan xristianlik ta’limoti asosini tashkil etuvchi bosh aqidalar majmuasi qabul qilindi.

Nikeya va Konstantinopolda o‘tkazilgan Butun Olam Soborlarida qabul qilingan “E’tiqod timsolidi” xristianlikning ta’limot asoslari 12 bandda belgilandi, bular:

1. Olamni yaratgan yagona Ota–Xudo – Muqaddas Uchlik- ning birinchi yuzi haqida;
2. O‘g‘il–Xudo, ya’ni Iso Masihga imon keltirish haqida;
3. Ilohiy mujassamlashuv, ya’ni Iso Xudo bo‘la turib, bokira Bibi Maryamdan tug‘ilgan va inson qiyofasiga kirganligi haqida;
4. Gunohlar kechirilishi – Isoning tortgan azoblari va o‘limi tufayli Xudo tomonidan insoniyatning barcha gunohlari kechirilishi haqida;
5. Isoning qayta tirilganligi haqida;

6. Isoning meroji haqida;
7. Isoning nuzuli (kelajakda ikkinchi marotaba yerga qaytishi) haqida;
8. Muqaddas Ruhga imon keltirmoq borasida;
9. Cherkovga yagona, muqaddas, havoriylar (apostollar) cherkovi sifatida munosabatda bo‘lish haqida;
10. Cho‘qintirish sirli marosimning gunohlardan forig‘ qilishi haqida;
11. O‘lganlarning ommaviy tirilishi haqida;
12. Abadiy hayot haqida.

Xristianlik aqidasi ko‘ra, xudo Iso Masih inson qiyofasida yerga tushib, odamlar gunohlarini yuvish maqsadida azob tortib, o‘ladi. Isoning odamlar gunohini yuvish maqsadida o‘zini ixtiyoriy tarzda qurbon qilganligi va odamzotning osiyligiga (gunohkor bandalar ekanligiga) ishonish – xristianlik ta’limotining asosiy aqidalaridan biri hisoblanadi. Xristianlik ta’limotining ikki markaziy aqidasi Xudoning uch qiyofasi va Xudoning mujassamlashishiga bag‘ishlangan. Birinchi aqidaga ko‘ra, Xudoning ichki hayoti uch qiyofasi yoki yuzlarining, ya’ni Ota (boshlanishi bo‘lmagan boshlang‘ich asos), O‘g‘il yoki Logos (mazmun va shakl beruvchi tamoyil) va Muqaddas Ruh (jonlantiruvchi tamoyil), munosabatidan iborat. O‘g‘il Otadan “tug‘iladi”, Muqaddas Ruh Otadan “kelib chiqadi” (“taraladi”). Bunda “tug‘ilish” va “kelib chiqish” (“taralish”) jarayonlarida vaqtning ahamiyati yo‘q, chunki xristianlikdagi Xudoning uchchala ko‘rinishi har doim mavjud bo‘lgan, ya’ni ular abadiy (mangu) va qadr–qimmatiga nisbatan tengdir. Xristianlik ta’limotiga ko‘ra, inson Xudoning timsoli sifatida yaralgan. Lekin ilk odamlar tomonidan sodir etilgan gunoh (“gunohi azim”) bu timsolni yemirib, insonlarni osiy bandalarga aylantiradi. Iso Masih barcha odamlar gunohlarini yuvish maqsadida xochda azob tortadi va vafot etadi. Shuning uchun xristianlik, umuman azobu–uqubat va jabrlanishni, dindorlar tomonidan o‘zlaridagi har qanday xohish va nafsning tiyilishini poklovchi ahamiyatga ega deb ta’kidlaydilar: “taqdirga tan bergan” (“o‘z xochini qabul qilgan”) inson voqelikdagi va ichki dunyosidagi yovuzlikni yengadi. Buning oqibatida inson din amrini bajaribgina qolmasdan, o‘zi ham kamol topadi, Xudoga yaqinlashadi. Bu, xristianlikka e’tiqod qiluvchilarning vazifasi hisoblanib, shu orqali u Iso Masih qilgan qurbonlikni oqlagan bo‘ladi.

Insonning bunday talqini faqat xristianlikka xos bo‘lgan “sirli marosimlar” (Din ta’limotiga binoan ushbu marosimlarda Muqaddas Ruh ishtirok etadi, va aynan shu sababli ular “sirli” deb ataladi) – inson hayotiga ilohiylikni kiritish maqsadida qilinadigan o‘ziga xos topinish (kult) harakati – tushunchasi bilan bog‘liqdir. Bular: *cho‘qintirish* (xristianlik diniga kiritish), *yevxaristiya* (non va vino tamaddi qilish), *ruhoniyluk unvonini berish*, *tavba qilish*, *miro surtish*, *yeley moyi surtish*, *nikoh*.

Cho‘qintirish (*kreçenie* – suvga botirish). Xristianlik ta’limotiga ko‘ra, cho‘qintirish orqali kishi dinga qabul qilinadi, ya’ni cherkov a’zosiga aylanadi.

Bu marosim insonni uch marotaba suvga botirish yoki boshidan suv quyish bilan birga, ruhoniylar tomonidan maxsus soʻzlarni aytish orqali amalga oshiriladi. Injilga koʻra, choʻqintirish va Muqaddas ruhning kelishi osmondan tugʻilishning maxsus shartlaridan biridir. Uning asosi sifatida Injildan misollar keltiriladi: “Iso javob berdi: “Senga toʻgʻrisini aytay, agar kim suvdan va Ruhdan tugʻilmas ekan, Xudo saltanatiga kirmaydi” (Ioann, 3:5). Suvga botirish marosimi birinchi boʻlib Ioann tomonidan amaliyotda qoʻllangan. Shu kabi amaliyot Tavrotda aytib oʻtilgan “prozema”, yaʼni “butparastlarni dinga kiritish marosimi”ga oʻxshab ketadi. Unda erkaklar dinga kirishi uchun xatna qilinishi kerak boʻlsa, ayollar uchun esa faqat diniy ritualni bajarish shart qilingan.

Xristianlikning har bir yoʻnalishida choʻqintirish marosimi turlicha talqin etiladi. Pravoslav va katolik cherkovlarida choʻqintirish sirli marosim sifatida eʼtirof etiladi. Bu hodisa Ioann choʻqintiruvchining faoliyati yaʼni Iordan daryosida uning oldiga keluvchi insonlarni suvda tozalanishi, yomon illatlarni qayta qilmasliklari, Masihni toza qalb bilan kutib olish maqsadida amalga oshirilgan. Masih kelishini Ioann targʻib qilgan, cherkov nuqtai nazaridan choʻqintirish paytida inson hayotda shahvoniy jihatdan oʻlib, Muqaddas Ruh tomonidan maʼnaviy hayotga qayta tiriltiriladi degan aqida mavjud. Marosim vaqtida inson nafaqat barcha qilgan gunohlaridan poklanadi, shu jumladan, gunohlaridan maʼnaviy forigʻ boʻladi. Suv yordamida “oʻldirish, jonsizlantirish” mavjud boʻlgan qusurlardan tozalanish hisoblanadi. Albatta u mutlaq poklanish boʻlmasada, toʻxtovsiz yovuzlikni, yomonlikni toʻxtatadi, deb taʼkidlanadi. Rim nomalarida bu haqda shunday yoziladi: “Choʻqintirilayotgan Iso bilan birga oʻlib, u bilan birga abadiy hayotda tiriladi. Shunday qilib biz choʻqintirilib u bilan birgalikda oʻlimga dafn qilindik, zeroiki Ota nomi bilan Iso oʻliklardan tirilgani kabi, biz ham yangilangan hayotda yashaymiz” (Rim, 6:4). Choʻqinishdan soʻng inson gunoh ishlarni qilsa u Xudoning marhamatidan voz kechgan boʻladi: “Agar Xudoni anglab, bizning xaloskorimiz Isoni tan olib turib, eski yillariga, eski xolatiga qaytsalar, buning oxiri avvalgidan ham ogʻirroqdir” (2 Petr, 2:20).

Choʻqintirish marosimi xristian dinining eng muhim va asosiy marosimlaridan biridir. Bu marosim asosan cherkovda oʻtkaziladi. Xristianlar eʼtiqodiga koʻra, inson tugʻma gunohkor boʻlib tugʻiladi va undan forigʻ boʻlish uchun muqaddas suv yordamida poklanadi. Shundan soʻng poklangan bola cherkov aʼzolidiga qabul qilinadi.

Choʻqintirishga oʻxshagan marosim qadimgi Hindiston, Rim, Misr, Kichik Osiyo va boshqa davlatlar hududlarida yashagan xalqlar orasida ham mavjud boʻlgan. Xristianlikda choʻqintirish marosimi milodning I asri oxirlarida paydo boʻlgan. IV asrda birinchi xristian jahon soborining qaroriga muvofiq, bu marosim har bir xristian uchun majburiy deb eʼtirof etilgan va “eʼtiqod ramzi” sifatida qabul qilingan. Shu vaqtdan boshlab “choʻqintirilgan” soʻzi “xristian” degan soʻz bilan teng maʼno kasb

eta boshlagan.

Xristianlar boshqa dindagi hamma kishilarni “cho‘qinmaganlar” (“Isoni tanimaganlar”) deb atay boshlaganlar. Cho‘qintirish marosimini tartibga solish maqsadida Qadimgi Karfagen cherkovi ishlab chiqqan 124 qoidadan birida ushbu normalar belgilangan: “Go‘daklar va yangi tug‘ilgan chaqaloqlarni cho‘qintirmaganlarga la‘nat bo‘lsin”.

Pravoslav yo‘nalishida cho‘qintirish marosimi asosan yangi tug‘ilgan chaqaloqqa o‘tkaziladi. Ota–ona o‘z farzandlarining diniy bilimiga mas‘ul bo‘lib, cho‘qintirilayotgan bola e‘tiqodiga kafil hisoblanadilar. Cho‘qintirilayotgan bola o‘g‘il bo‘lsa, uni erkak kishi ko‘taradi, agarda qiz bo‘lsa, ayol kishi tomonidan amalga oshiriladi. Bu holatda rohib ota–ona vazifasini bajara olmaydi. Qadimda cho‘qintirish marosimini voyaga yetganlar qalban his qilgandagina o‘tkazilgan.

Xristianlikning ilk davrida ba‘zilar go‘daklarni gunohsiz deb bilib, agar olamdan o‘tsa jannatga tushadi, shu sababli ularni go‘daklikda cho‘qintirish shart emas deb hisoblaganlar. Boshqalar esa bolani cho‘qintirish lozimligini takidlaganlar. Ko‘p insonlar cho‘qintirish marosimini juda ham ortga surganlar. Ba‘zilar o‘limi oldidan bu marosimni o‘tkazganlar. Toki ular umr mobaynida qilib o‘tgan gunohlaridan shu yo‘l bilan poklanib ketmoqchi bo‘lar edilar. Shuning uchun cherkov bu an‘anaga qarshi chiqib, go‘dak tug‘ilgan kundan boshlab sakkiz kun ichida bu marosimni bajarish lozimligini talab darajasiga ko‘targan.

Yevxaristiya (yun. non va sharob totish marosimi) xristianlikdagi eng muhim marosimlardan ikkinchisidir. Rus tilida bu marosim “Prichastie” deb nomlanadi. Yunon tilida “Evxaristiya” deb ataladigan mazkur marosim, xochga mixlanishdan oldin Isoning havoriylar bilan birga tanovul qilgan eng oxiri kechki ovqat xotirasi, sifatida e‘tiqod qilinadi. Bu kecha tanovul kechasi ham deb ataladi. Avliyo Pavel keyinchalik bu hodisani sharhlab bergan. Cherkov esa uni marosim holiga keltirgan. Dastlab yilda bir marta amalga oshirilgani holda, keyinchalik har xaftada qilinadigan bo‘lgan. Qadim xristianlar, “evxaristiya”ni qurbonlik sifatida bilganlar. Bugun ham cherkovlarda amalga oshiriluvchi yevxaristiya marosimida beriluvchi non va sharobni qurbonlik sifatida yeb–ichadilar.

Xristianlar non bilan sharobni tanovul qilar ekanlar, bu bilan ular Isoning tanasi va qonini tatib ko‘rdik, endi xudoga yaqinroq bo‘ldik, deb hisoblaydilar. Bu marosim ertalab yoki tushki ibodatda asosiy o‘rinni egallaydi.

Bugungi kunda yevxaristiya cherkovda yakshanba kuni amalga oshiriladi. Bu marosim borasida yo‘nalishlar orasida, mintaqa va madaniyatlardan kelib chiqib, ba‘zi bir farqli jihatlar mavjud. Jumladan, katoliklarda mazkur marosimda yaqin–yaqinlargacha faqat ruhoniylargina ham non, ham vino iste‘mol qilishgan. Oddiy insonlar (“miryane”) faqatgina non bilan poklanishgan. Pravoslav va protestant yo‘nalishlarida esa bu borada ruhoniylar va oddiy insonlar farqlanmaydi. Shuningdek,

yo‘nalishlar orasida non va vinoning tarkibi borasida ham farqlar kuzatiladi. Masalan, katolik va protestantlarda muqaddas non xamirturushsiz hamda vino suv qo‘shilmagan holda bo‘ladi. Pravoslavlarda esa, aksincha, non xamirturushli va vinoga suv qo‘shilgan bo‘ladi.

Miro moyi surtish marosimi (yun. Konfirmatsiya; ruschada – miropomazanie). Zaytun yog‘idan tayyorlangan muqaddas moy surtish sirli marosimlardan biri bo‘lib havoriylar davrida yo‘lga qo‘yilgan.

Miro moyi – (yun. – xushbo‘y moy) cherkov yepiskopi tomonidan oliy navli zaytun yog‘iga oq uzum vinosi, atirgul yaproqlari, binafsha, zanjabil ildizlari, muskat, atirgul, chinnigul va limon moylari kabi mahsulotlarni qo‘shib qaynatish orqali tayyorlanadi.

Cho‘qintirilgan bolaning, muqaddaslashtirilgan yog‘ (xushbo‘y miro moyi) bilan, vujudining turli joylariga surtish marosimi. U Sharq cherkovlarida cho‘qintirilgandan darhol keyin, G‘arb cherkovlarida esa keyinroq qilinadi. Pravoslavlarda cho‘qintirish bilan konfirmatsiya orasida yaqin bir bog‘liqlik bo‘lganligi uchun ularning ketma–ket qilinishi afzal, deb bilinadi. Katoliklarda esa, mazkur marosim bola sakkiz yoshga to‘lgachgina amalga oshiriladi. Bunda, miro surtilayotgan kishining peshona, yonoq, og‘iz qismi, yelkalari va qorniga xoch shaklida suriladi. Protestant yo‘nalishlari esa mazkur marosimni yo umuman rad etadilar, yo bo‘lmasa uni “sirli” deb tan olmaydilar.

Miro moyi tayyorlash cherkovning maxsus ichki marosimlaridan hisoblanib, uni tayyorlash huquqiga faqat yepiskoplar ega. Pravoslavlikda, miro tayyorlash imkoniyatiga ega bo‘lgan cherkovlarga avtokefallik maqomini olishi mumkin.

Miro surtilgan bola, cherkovning bu ish uchun ajratilgan joyiga olib boriladi. U yerda unga konfirmatsiya noni yediriladi. Yeya olmas darajada kichik bo‘lsa, lablariga tekkiziladi. Shunday qilib u, cherkovning bir a‘zosiga aylanadi.

Tavba–tazarru qilish marosimi. Bunda inson o‘zi qilgan gunohlariga iqror bo‘lishi, keyinchalik shu gunohlarni qilmaslik uchun mag‘firat so‘rashi lozim. Bu xristianlikda keng yoyilgan gunohlarni e‘tirof qilish marosimi hisoblanadi. Bu marosim, asosan gunoh qilish orqali yo‘qolgan cho‘qintirish inoyatini qayta qo‘lga kiritish uchun qilinadi. Buning asosi sifatida Bibliyada keltirilgan quyidagi matnlar olingandir: “Xoh ayol bo‘lsin, xoh erkak bo‘lsin qandaydir gunoh sodir etgan bo‘lsa, istig‘for aytib, gunohlariga tavba qilsin” (Sonlar, 5:5,6).

Bu marosimning asosiy mohiyati dindor cherkovga kelib, qilgan gunohlari uchun tavba qiladi, ya‘ni ruhoniya o‘zining hamma gunohlarini batafsil so‘zlab beradi, hattoki, qalbi tubidagi yashirin sirlarini ham ruhoniya “ota”ga so‘zlab beradi. Cherkov nomidan gunohlarni kechirish huquqiga ega bo‘lgan ruhoniya uning gunohlaridan o‘tadi va unga nasihat qilib, uni to‘g‘ri yo‘lga soladi va Muqaddas Ruhning kuchi bilan uni gunohlaridan pok qiladi.

Yeley surtish marosimi (rus. soborovanie). Muqaddaslashtirilgan zaytun yog'ining ham shifo, ham gunohlarning kechirilishi hamda bemalol o'lish uchun kasallarga surtish marosimidir. Bu bemorning peshona, yonoq, lab va qo'llariga muqaddas deb bilingan zaytun moyi surtish ko'rinishida kechadi. Mazkur marosim, cherkov ta'limotiga ko'ra, insonning jismoniy va ruhiy kasalliklarini davolaydi. "...qo'llariga ilon olib ko'tarsalar yoki zahri qotil biror narsa ichsalar ham ularga zarar yetmaydi. Bemorlarga qo'llarini qo'ysalar ular sog'ayib ketarlar" (Mark 16:18).

Bu marosim ayni paytda tavbasiga tayanib ulgurmagan bandalarning gunohlardan xalos etib, osongina jon topshirishlariga yordam beradi, deb hisoblanadi. Ruhoniy unvonini berish marosimi. Bu ruhoniyluk martabasiga ko'tarilish bilan bog'liq marosimdir. U "Xirotoniya" (yun. "xir" – qo'l va "tefimi" – qo'yaman) deb nomlanadi. Diniy ta'limotga ko'ra, ruhoniy bo'ladigan shaxsning boshiga yepiskop qo'l tekkizganidan keyin, u "Muqaddas Ruh" ning alohida marhamati bilan odamlar o'rtasidagi vositachilik qilish xususiyatiga ega bo'ladi. Shundan so'ng mazkur inson xuddi Isoga uning havoriylari xizmat qilganidek o'z zimmasiga Xudo va odamlar orasida vositachi bo'lib xizmat qilish majburiyatini oladi. Ma'lumki, xristianlik dinida ruhoniyluk unvonlari – dyakon, presviter, yepiskop kabi uch turli darajaga ega.

Dyakon (yunon. xizmatchi) – xristian cherkovidagi eng quyi ruhoniyluk darajasi. U marosimlarda yepiskop va presviterlarga yordamchilik qilish bilan shug'ullanadi.

Presviter (lot. oqsoqol) – xristian ruhoniylar ierarxiyasida yuqori darajaga ega ruhoniy. Qadimda yepiskoplar ham shunday nom bilan atalgan. Jamoa tarafidan saylab qo'yiluvchi ruhoniy bo'lib, dastavval, u pastor bilan birgalikda diniy marosimlarga rahbarlik qilgan.

Yepiskop (yunon. nazoratchi) – xristianlikdagi oliy darajadagi ruhoniyluk unvoni. Katolik e'tiqodiga ko'ra yepiskoplar havoriy Pavelning izdoshlari hisoblanadi. Shuningdek, yepiskop o'zi miro moyini tayyorlash, ruhoniyluk darajasini berish hamda diniy marosimlarni boshqarish huquqiga ega.

Nikoh marosimi. Xristianlikda kelin va kuyovlarning o'zaro xohishlari asosida kelgusi hayotlarida er-xotin bo'lib birga yashashlarini ta'minlash uchun amalga oshiriladigan sirli marosim. Nikohda ham sirlilik bor, erkin tarzda ruhoniy va cherkov huzurida er va ayol tarafidan oilaga sadoqatli bo'lishga va'da beriladi. Ularning oilalariga Isoning ruhi birlashib ketishiga oq fотиha beriladi va ulardan sof e'tiqodli xristian bolalar tug'ilishi va tarbiyalanishi Xudodan so'raladi.

Ushbu marosim XVI asrda paydo bo'lgan. Katolik yo'nalishiga ko'ra, nikoh Iso va cherkov orasidagi uzviy bog'liq ruhiy munosabatning bir ko'rinishidir va shuning uchun ham muqaddas marosim sanaladi. Bir marosim sifatida nikoh, ikki kishi orasidagi ahdlashuvning cherkov tomonidan muqaddas deb bilinishi va bu juftlikning cherkovda muqaddas bir bog'ich bilan bog'lanishidir. Nikoh Xudo tomonidan yuzaga keltirilgan bir jamlanish bo'lgani uchun, qadim-qadimdan muqaddas deb bilingan.

Xudoning o‘zi odamlarning nikoh ittifoqini himoya qiladi.

Cherkovning ta’kidlashicha, nikohda asosiy narsa huquqiy yoki iqtisodiy emas, balki axloqiy jihatdir. Ayni paytda, bu axloqiy jihat, diniy jihat bilan aynan bir narsadir. Shuning uchun ham nikoh marosimini o‘tkazmay turib, chinakam axloqiy, oilaviy munosabatlarning bo‘lishi mumkin emas. Cherkovda o‘tkazilgan nikoh xristian oilasining qonuniy asosi hisoblanadi. Shu bois, uni buzishlik mumkin emas deb uqtiriladi.

Mazkur marosimlarni bajarishda xristianlikning turli yo‘nalishlari orasida farqli jihatlar mavjud, ba’zi yo‘nalishlar esa ulardan ba’zilarini qabul qilib, ba’zilarini “sirli”ligini inkor etadi.

Milodning I asri o‘rtalarida qator diniy aqidalar bo‘yicha qizg‘in bahslar olib borilgan va ular xristianlikda turli yo‘nalishlarning shakllanishiga sababchi bo‘ldi. Buning ta’sirida cherkovda qator ajralishlar – sxizmalar – vujudga keldi. Natijada xristianlik tarkibida raqobat qiluvchi xristianlikning ko‘rinishlari bo‘lmish “e’tiqodlar” (diniy talimotlar) vujudga keldi. Milodning V – VII asrlardayoq, Iso Masih shaxsining ilohiylik va insoniylik jihatlari mutanosibligini aniqlashga bag‘ishlangan xristologik bahslar davomida, imperiya cherkovidan bir necha yo‘nalishlar paydo bo‘ladi, ular orasida monofizitlar va nestorianlar nisbatan keng hududlarga tarqalib xozirga qadar saqlanib qolishga erishdi.

1054 yilda xristianlik dini doirasida ilk yirik bo‘linish ro‘y berib, natijada pravoslav (Sharqiy xristianlik) va katolik (G‘arbiy xristianlik) cherkovlari yuzaga keldi.

Pravoslavlik tarixan xristianlikning sharqiy yo‘nalishi sifatida shakllandi. Asosan Sharqiy Yevropa, Yaqin Sharq va Bolqon yarim orolida joylashgan mamlakatlarda tarqalgan. Nomlanishi (yunoncha orthodoxia

–“to‘g‘ri e’tiqod” tushunchasining rus tiliga tarjimasida

–Pravoslavlik) ilk bor II asrda xristian mualliflari asarlarida uchraydi. Uning marosimlari, aqidalari va ta’limoti u hukmron davlat dini bo‘lgan Vizantiyada IV–XI asrlarda shakllandi.

Pravoslavlik ta’limoti asoslarini Muqaddas kitob (Bibliya) va Muqaddas rivoyatlar (IV–VIII asrlarda o‘tkazilgan Butun Olam Soborlari qarorlari va Aleksandriyalik Afanasiy, Buyuk Vasiliy, Grigoriy Bogoslov, Ioann Damaskin, Ioann Zlatoust kabi nufuzli cherkov ilohiyotchilari asarlari) tashkil etadi. Ushbu cherkov Otalari ta’limotning asosiy qoidalari va talablarini yaratishdi.

Pravoslavlikda sirli marosimlar muhim o‘rin egallaydi, cherkov ta’limotiga ko‘ra, ularning davomida Xudo tomonidan alohida savoblar nozil bo‘ladi. Cherkov yetti sirli marosimning barchasini tan oladi.

Pravoslavlik cherkovi bayramlar va ro‘za tutishlarga katta ahamiyat beradi. Odatda katta cherkov bayramlari arafasida ro‘za tutiladi. Uning mohiyati “inson

ruhining poklanishi va yangilanishi”, diniy hayotdagi muhim hodisaga tayyorlanishdan iborat. Rus pravoslavligida uzoq vaqt davom etadigan ro‘zalar soni to‘rtta bo‘lib, ular Pasxadan avval, Pyotr va Pavel kunlaridan avval, Bibi Maryamning vafoti kunidan avval va Isoning tug‘ilishi kunidan avval tutiladi.

Buyuk bayramlarning ichida Pasxa birinchi o‘rinni egallaydi. Undan so‘ng pravoslavlik dinining o‘n ikki kunlik – o‘n ikki muhim bayrami boshlanadi, ular quyidagilar: Isoning tug‘ilishi (Rojdestvo Xristovo), Olqishlash (Sretenie), Isoni cho‘qintirish (Kreshenie Gospodne), Iso qiyofasining o‘zgarishi (Preobrajenie), Isoning Quddusga kirishi (Vxod Gospoden v Ierusalim), Isoning me‘roji (Voznesenie Gospodne), Muqaddas Ruhning tushishi yoki Troitsa kuni (pyatidesyatnitsa), Isoning xochini tiklash (Vozdvijenie kresta Gospodnya), Hushxabarning nozil bo‘lishi (Blagovещenie), Bibi Maryamning tug‘ilishi (Rojdestvo Bogorodisy), Bibi Maryamning ibodatxonaga kirishi (Vvedenie vo xram Bogorodisy), Bibi Maryamning vafoti (Uspenie Bogorodisy).

Katoliklik xristianlik dinining eng yirik yo‘nalishi hisoblanadi. “Katolik” so‘zi butun jahon, butun dunyo (umumiy, dunyoviy) degan ma’noga ega. Bu yo‘nalish asosan G‘arbiy, Janubiy–G‘arbiy va Markaziy Yevropa, Pribaltika, Ukraina va Belorussiyaning g‘arbiy hududlarida, Lotin Amerikasi va AQShda tarqalgan.

Katoliklik tarixida Rim Papalarining yuksalishi va ag‘darilishi, cherkovning ijtimoiy–siyosiy hayotga bo‘lgan katta ta’siri o‘z aksini topadi. Bularga XI – XIII asrlardagi salb yurishlari, “Xudo tobuti” va “Muqaddas Yerni”, ya’ni Falastin hududini, “g‘ayridin”(kofir)lardan ozod qilishlar ham kiradi. Din, e’tiqod bayrog‘i ostida sodir etilgan bu harakatlar aslida Papalar ta’sirini mustahkamlash va kengaytirish hamda cherkov boyligini ko‘paytirish maqsadida uyushtirilgan.

Katoliklik xristian dinining yo‘nalishi sifatida uning asosiy aqidalari va marosimlarini tan olishi bilan birga, ta’limoti, marosimlarni amalga oshirish, tashkil topishida o‘ziga xos xususiyatlarga ega. Katolik ta’limotining asosini xristianlikda tan olingan Muqaddas kitob – Bibliya va Muqaddas rivoyatlar tashkil etadi. Lekin pravoslav cherkovidan farqli o‘laroq katolik cherkovi ilk yetti Butun Olam Soborlarining qarorlari bilan bir qatorda keyingi soborlarning qarorlarini, bundan tashqari Papalar yo‘llagan noma(maktub)lari va farmonlarini ham Muqaddas rivoyatlar deb tan oladi.

Katolik Cherkovi Tashkiloti jiddiy ravishda markazlashganligi bilan ajralib turadi. Rim Papasi bu

Cherkovning rahbari hisoblanadi. U din va axloq masalalari bo‘yicha qoidalarni belgilaydi. Uning hokimiyati Butun Olam Soborlaridan yuqori turadi. Katolik Cherkovining markazlashganligi rivojlanishning dogmatik (qotib kolgan) tamoyilini tug‘dirdi, xususan, bu tamoyil diniy ta’limotni noan’anaviy ravishda talqin etilishida ifodalanadi. Masalan, Pravoslavlik Cherkovi tomonidan tan olingan e’tiqod

timsolining Xudoning uch qiyofasiga bag‘ishlangan aqidasida Muqaddas Ruh Ota–Xudodan kelib chiqadi (taraladi) deyilgan. Katolik ta’limotidagi aqida esa Muqaddas Ruh ham Ota–Xudodan, ham O‘g‘il–Xudodan kelib chiqadi (taraladi) deyiladi. Shu bilan birga, Cherkovning najot ishidagi o‘rni haqida ham o‘ziga xos ta’limot vujudga keladi. Najot asosi imon va ezgu ishlar hisoblanadi.

Katoliklik ta’limotiga ko‘ra, Cherkov zaruriy ezgu, hayrli ishlar xazinasiga – Iso, Bibi Maryam, avliyolar, taqvodor xristianlar tomonidan yaratilgan ezgu ishlar “zaxirasiga” ega (Pravoslavlikda bunday tushuncha yo‘q). Cherkov bu xazinani tasarruf qilish, undan muhtojlarga ulashish, ya’ni gunohlarni avf etish, nadomat chekuvchilarga kechirim tuhfa qilish huquqiga ega. Bu huquq “indulgenziya”lar to‘g‘risidagi ta’limotning, ya’ni pul evaziga yoki cherkov oldidagi xizmatlari uchun gunohlarni kechirishning vujudga kelishiga sabab bo‘lgan. Bundan esa, o‘z navbatida, o‘lganlarga o‘qiladigan ibodatlar qoidalari va ruhning a‘rofdagi (do‘zax va jannat oralig‘idagi joy) turish muddatini qisqartirish bilan bog‘liq Papaning huquqi kelib chiqadi. A‘rof haqidagi aqida faqat katolik ta’limotida mavjud. Gunohi katta bo‘lmagan gunohkorlarning ruhi u yerda o‘tda kuyadi (ehtimol, vijdon va nadomat azobining ramziy in‘ikosidir), keyin jannatga yo‘l topadi. Ruhning a‘rofdagi bo‘lish muddati o‘lganning yaqinlari tomonidan qilinadigan ezgu ishlar tufayli qisqartirilishi (ibodat va cherkov foydasiga xayr–ehson qilish bilan) mumkin.

A‘rof haqidagi ta’limot I asrdayoq vujudga kelgan. Pravoslavlik va Protestant Cherkovlari uni rad etadilar.

Bulardan tashqari Pravoslavlik diniy ta’limotidan farqli o‘laroq Katoliklikda 1870 yilda Vatikanda o‘tkazilgan 1–soborda qabul qilingan Papaning begunohligi va 1854 yilda e‘lon qilingan Bibi Maryamning bokiraligi haqidagi aqidalar mavjud. G‘arb Cherkovining Bibi Maryamga bo‘lgan alohida e‘tibori 1950 yilda Papa Piy XII tomonidan Bibi Maryamning meroji haqidagi aqidaning e‘lon qilinishida o‘z aksini topadi.

Katolik ta’limoti Pravoslavlik ta’limoti singari yetti sirli marosimni tan oladi, ammo ularning talqinlarida farqlar mavjud. Masalan, “non va vino totish” marosimi katoliklarda xamirturush solinmagan non tamaddi qilish (Pravoslavlikda xamirturushli non bilan), ruhoniylar bo‘lmagan dunyoviy kishilarga non va vino bilan, ba’zida esa faqat non bilan amalga oshiriladi. Cho‘qintirish sirli marosimini o‘tash paytida cho‘qintiriluvchi suvga botirilmaydi unga suv sepiladi. Miro surtish (konfirmatsiya) marosimi go‘daklik yoshida emas, balki 7 – 8 yoshlik paytida amalga oshiriladi. Bu marosimda bolaga o‘zi tanlagan yana bir ism beriladi, bola ism bilan birga avliyoning timsoli, amallari va g‘oyalarini ongli ravishda qabul qiladi va ularga rioya qilishni niyat qiladi. Shunday qilib bu marosimning o‘tkazilishi imon mustahkamlanishiga xizmat qilishi lozim. Pravoslavlikda nikohsizlik rusumini faqat kora ruhoniylar (monaxlar) qabul qiladi. Katoliklarda esa oila qurmaslik (selibat), Papa Grigoriy VII tomonidan

o'rnatilgan bo'lib, barcha ruhoniylar uchun majburiydir.

Din markazi cherkovdir. O'rta asrlar oxirida

Yevropada tarqalgan arxitekturaning Gotika uslubi katolik cherkovining rivojlanishi va mustahkamlanishiga ko'maklashdi. Bayramlar va ro'za tutishlar (postlar) din- dorlar maishiy hayotini tartibga soluvchi marosimlarning muhim elementlaridir.

Rojdestvo katoliklarda "advent" deb ataladi. U avliyo Andrey kunidan keyingi birinchi yakshanbada – 30 noyabrda boshlanadi. Isoning tug'ilishi bayrami – eng tantanali bayramdir. Bayram yarim tundagi, ertalabki va kunduzgi uch ibodat bilan nishonlanadi va Iso Masihning Ota– Xudoning ko'ksidan, Bibi Maryamning qornidan, dindorning ko'nglida ramziy ma'noda tug'ilishini anglatadi. O'sha kuni ta'zim qilish uchun exromlarda go'dak Isoning haykalchasi qo'yilgan belanchaklar o'rnatiladi.

Katolik ierarxiyasida uch darajadagi ruhoniylar bor: diakon, ruhoni (kyure, pater, ksendz), yepiskop. Yepiskopni Papa tayinlaydi. Papani kardinallar yig'ilishi (kollegiyasi) saylaydi. II Vatikan soborida (1962–1965 yillar) cherkov hayotining barcha jabhalarini yangilash, zamonaviylashtirish jarayoni boshlandi. Bu jarayon birinchi navbatda ibodat an'anasini o'zgartirdi. Masalan, ibodatni faqat lotin tilida olib borishdan voz kechildi.

Protestantlik. Yevropa mamlakatlarida Katoliklikda kechayotgan jarayonlarga qarshi qaratilgan reformatsiya (lotincha reformatio – qayta tashkil qilish, o'zgartirish) harakati natijasida vujudga keladi. Reformatorlar Katoliklik amallarini Injil ideallaridan qaytish deb talqin qiladilar. Oksford universiteti professori J.Viklif (1320–1384) Rim Papalarining Angliyadan olinadigan soliqlariga qarshi chiqdi, ingliz cherkovining fuqarolar ishlari bo'yicha Angliya qiroliga bo'ysunishi lozimligi va Muqaddas kitobning cherkov rivoyatlaridan ustunligi to'g'risidagi g'oyalarini ilgari surdi. Bu g'oyalarni ingliz "lollardlari" – "kambag'al ruhoniylari" qo'llab-quvvatladilar. Praga universiteti professori Yan Gus (1369–1415), J.Viklif g'oyalaridan ta'sirlanib, cherkov boyliklaridan voz kechishi kerakligini targ'ib qildi, cherkovga katta daromad keltiradigan va, Yan Gus fikriga ko'ra, dindorlar ongini buzuvchi indulgensiyalarning sotilishiga qarshi chiqdi. Bu qarashlari uchun u 1415 yilda Konstans sobori qaroriga binoan gulxanda kuydirildi. Bu hodisadan norozi bo'lganlar gusitlar harakatiga qo'shildilar. Bu harakt rasmiy cherkov siquviga 11 yil davomida (1420–1431) bardosh berib, 1443 yilning noyabr oyida Bazel shahrida o'tkazilgan soborni gusitlarga yon berishga majbur qildi.

Protestantlik dunyoviy kishilarni ruhoniylardan ajratmaydi, bu ta'limotga ko'ra, barcha dindorlar ruhoniydir. Sirli marosimlardan faqat cho'qintirish va non bilan tamaddi qilishni tan oladi. Dindorlar Rim Papasiga bo'ysunmaydilar. Ibodat va'z o'qish, birgalashib ibodat qilish va diniy qo'shiqlar (psalomlar) aytishdan iborat. Protestantlar Bibi Maryamni, a'rofni tan olmaydilar, tarkidunyochilik, cho'qintirish,

ruhoniylar kiyadigan kiyimlarni, ikonalarini rad etadilar.

Yan Gus kuydirilgandan yuz yil keyin Germaniyada Vittenberg universiteti professori Martin Lyuter (1483– 1546) Protestantlar Cherkov asoslarini yaratadi. U ham indulgensiya sotilishini tanqid qiladi, shaxsiy e'tiqod bilan najot topish g'oyasini ilgari suradi, a'rof haqidagi aqida, o'lganlar uchun qilinadigan ibodatning kuchi hamda avliyolar xizmatlari evaziga najot topilishiga shubha keltiradi; monaxlar tarkidunyochiligini diniy hayotning namunasi deb tan olmadi, "diniy askeza" shiorini ilgari surdi. M.Lyuter diniy–axloqiy jihatdan mehnatni qadrlash lozimligi g'oyasini ilgari surdi. Lyuter reformatsiyasi erkin tadbirkorlik madaniyatining shakllanishiga asos solganligi, uning tarixiy ahamiyatini belgilaydi. Lyuterning fikricha, inson va Xudo o'rtasida bevosita aloqa bo'lishi mumkin.

1517 yilning 31 oktyabrida Lyuter Vittenberg cherkovi eshigiga gunohlarning kechirilishiga bag'ishlangan nomani qoqib qo'yadi, u 95 mulohazadan (tezisdan) iborat bo'lib, Katoliklikni isloh qilish g'oyalariidan tarkib topgan.

Lyuter ta'limoti Protestantlikdagi yo'nalishlardan biri – lyuteranlikka asos soldi. Bu ta'limotga ko'ra, odamlar vijdoni va tavba–tazarruni ongli ravishda va muntazam nazorat qilishlari lozim. Yuqorida qayd etilgan 95 mulohazalardan birida M.Lyuter tavba–tazarru faqatgina ruhoniylarga istig'for keltirishdan iborat emas deydi; boshqa mulohazalarida esa haqiqiy tavba–tazarru bir karra istig'for keltirish emas, balki uzoq davom etadigan jarayon ekanligini qayd etadi. Lyuteranlar Papa o'zi buyurgan yoki cherkov nizomida belgilangan jazolardan ozod qilishi mumkin, ammo cherkov insonni xudoning jazosidan ozod qilolmaydi. Papaning a'rof ustidan hokimlik qilishi quyidagi mulohazalarga ko'ra rad etiladi: "Istig'for keltirish qonunlari (ya'ni tavba keltiruvchilarga qanday jazo choralari ko'rilishi haqidagi qarorlar) tirik odamlar uchun belgilanadi", o'lganlar esa endi xudoning ixtiyoridadir. Indulgensiyalarni sotib olishning befoydaligini M.Lyuter shunday asoslaydi: "Xudo chin ko'ngildan tavba qiluvchilarning gunohidan kechadi, abadiy qiynoqlardan ozod qiladi, osiy bandalar Papaning yorlig'isiz ham bundan umid qilishlari mumkin". Dinsizlarga ham indulgensiyaning keragi yo'q, chunki ular u dunyoda jazolanishiga ishonmaydilar. Chin ko'ngildan tavba qiluvchi kishi, xudoning qahridan qochmaydi, deyдилar lyuteranlar.

Lyuteranlik Germaniya, Daniya, Norvegiya, AQShda

tarqalgan. Dunyodagi 408 mln. protestantlar ichida lyuteranlar 75 mln.ni tashkil etadi. Ularning faoliyati 1947 yili tashkil etilgan Jahon lyuteranlar ittifoqi tomonidan muvofiqlashtiriladi.

Kalvinizm (yoki puritanlik) asoschisi Fransiyadagi Reformatsiya harakatining yirik namoyandasi Jan Kalvindir (1509 – 1564). "Xristianlik diniga doir nasihatlar" deb nomlangan va M.Lyuter g'oyalari ta'sirida yozilgan o'zining asarini umrining oxirigacha to'ldirib, mukammallashtirgan. Reformatsiyaning avvalgi

namoyandalaridan farqli o'laroq Kalvinning diqqat markazida Injil emas, balki Qadimiy Ahd turgandi. Kalvin inson taqdirining (qismatning) oldindan mutlaq tarzda belgilab berilganligi haqidagi ta'limotni ishlab chiqdi. Unga ko'ra, Xudo bu dunyoni yaratishdan avval insonlarni tanlanganlar (imtiyozli kishilar) va jazoga hukm etilganlarga ajratib qo'ygan, lekin hayotligida insonlar qaysi tabaqaga mansubligini bilmaydilar. Taqdirning oldindan belgilab berilganligi haqidagi ta'limot asosini Iso Masihning odamlar gunohi uchun azobu-uqubat chekishini Xudo oldindan belgilab qo'yganligi g'oyasi tashkil qiladi. Taqdirning oldindan belgilab berilganligi haqidagi ta'limotni Kalvinizm nazariyotchilari "yumshatishga" harakat qildilar, shuning uchun hozirgi vaqtda u "hamma narsani bilguvchi Xudo inson taqdirini oldindan biladi" deb talqin qilinadi. Calvinistlar cho'qintirishni najotning sharti deb tan olmaydilar. Xoch rasmiy diniy ramz deb hisoblanmaydi, exromlarda ikonalar yo'q, devorlar rasmlar bilan bezatilmagan. Shuningdek lyuteranlardan farqli o'laroq Calvinistlar sham yoqish va musiqadan voz kechishdi, lyuteranlar ibodati davomida musiqa jo'r bo'lib turadi. Fransiya Calvinistlari – gugenotlar XVI asrda katoliklarga qarshi uzoq davom etgan qonli urush olib borishdi. Bu urush adabiyot, musiqa va tilda o'z aksini topgan. Masalan, Varfolomey tuni iborasi 1572 yilning 24 avgust tuni, ya'ni avliyo Varfolomey kuni emas, ommaviy qirg'in ma'nosini bildiradi.

Ortodoksal Calvinistlar uch turga bo'linadilar – reformatorlar (islohotchilar), presviterianlar, kongrega-sionistlar – bir-biridan cherkovlarining tuzilishi bilan farq qiladi. Kalvinizm yo'nalishidagi Protestant cherkovlari izdoshlari (Calvinistlar yoki reformatorlar (islohotchilar)) Shotlandiya, Niderland, Germaniyaning shimoli, Fransiya, Angliyada o'z ta'sirini o'tkazganlar.

Presviterianlar (yunoncha presbyteros – qariya) – mo'tadil puritanlar. 1592 yilda Shotlandiya parlamenti bu diniy ta'limotni davlat dini deb e'lon qildi. Cherkov jamoasi rahbari – presviter, jamoa a'zolari tomonidan saylanadi. Jamoalar mahalliy va davlat ittifoqlariga birlashadilar. Diniy marosimlar ibodat, presviter va'zi va psalomlar aytishdan iborat. Liturgiya (cherkovda o'tkaziladigan eng katta ibodat) bekor qilingan, "e'tiqod timsoli" va "Otche nash"lar o'qilmaydi. Dam olish kunlari bayram hisoblanadi. Dunyo bo'yicha 40 mln. presviterianlar mavjud.

Anglikan cherkovi. Angliyaning davlat dini, XVI asrda Reformatsiya harakati davomida paydo bo'ldi. 1534 yilda mahalliy katolik cherkovi Rim bilan aloqasini uzgandan so'ng, ingliz parlamenti qirol Genrix VIII-ni Cherkov rahbari etib e'lon qildi. Buning oqibatida Angliya Cherkovi qirol hokimiyatiga bo'ysundirildi. Angliyada monastirlar yopildi, cherkovning yer mulklari kamaytirildi, avliyolar, ikonalar, haykallar va tabarruk yodgorliklar soni qisqartirildi. Martin Tyudor qirolligi davrida katolik partiyaning g'alaba qozonishi oqibatida ko'pchilik protestantlar qatl qilindi. Qirolicha Yelizaveta I-chi (1559 – 1603) hokimiyati davomida Anglikan dinining ahvoli barqarorlashadi. XVI asrning o'rtalarida ibodatlarni ingliz tilida olib

borish kiritildi, ro‘zalar (postlar), selibat bekor qilindi, ikonalar musodara qilindi. 1571 yilda anglikanlik dini ramzi sifatida «39 modda» qabul qilindi. Unda cherkovning najot keltiruvchi kuchi haqidagi g‘oya qoldirildi, Katoliklikdagi singari ierarxiya saqlanib, lekin Muqaddas rivoyatlar ta’limot manbasi sifatida bekor qilindi va atigi ikki sirli marosim – cho‘qintirish hamda vino va non bilan tamaddi qilish saqlanib qoldirildi. Dunyoda 68 mln. yaqin anglikanlar mavjud bo‘lib, ular Angliya, Irlandiya, Shotlandiya, AQSh, Kanada, Yangi Zelandiya va boshqa mamlakatlarda tarqalgan.

Baptizm (yunoncha baptizō – suvga botiraman, cho‘qintiraman) – XVII asrning boshlarida J. Smit asos solgan, son jihatdan tarafdorlari eng ko‘p (75 mln. kishidan ortiq) bo‘lgan Protestantlikning yo‘nalishi. Bu ta’limot tarafdorlari cho‘qintirish marosimidan faqat kattalarni o‘tkazadilar va buni insonga o‘zidan boshqa hech kim, hatto ota–onasi ham, dinni tanlab berolmaydi, deb asoslaydilar. Inson dinga ongli ravishda kirishi kerak, deb hisoblaydilar. Dinning yagona manbasi sifatida Muqaddas kitobni tan olishadi. Ibodat marosimi diniy qo‘shik va mav‘izadan iborat. Baptistlar to‘rt marosimni saqlab qolishgan: cho‘qintirish (kattalar uchun), non sindirish ko‘rinishidagi prichamennie, nikoh, qo‘lni badanga tegizish orqali kishini ruhoniylashtirish. Baptistlar cherkovlari dunyoning 122 mamlakatida mavjud. Eng yirik tashkilotlari AQShda joylashgan. 1905 yilda Londonda o‘tkazilgan Birinchi kongressda Baptistlarning umumjahon ittifoqi tashkil etildi. Shu vaqtdan boshlab baptistlarning soni 5 marta ko‘paydi. Sobiq SSSR hududida 1917–1927-yillar baptistlarning “Oltin o‘n yilligi” hisoblanib, bu davrda kitoblari ochiq nashr etildi, kooperativlar, qishloq xo‘jalik jamoalari, yoshlar tashkilotlari va hokazolar tashkil etildi. Lekin sovet davlatining ateistik siyosati ularni sezilarli darajada kamayishiga olib keldi. 70–yillarning ikkinchi yarmidan boshlab mustaqil tashkilotlar sifatida Injil xristian–baptistlari ittifoqi (IXB ittifoqi), IXB cherkovlari ittifoqi va IXB avtonom (nisbatan mustaqil) cherkovlari tashkil etildi.

Anabaptizm (yunoncha anabaptizō – yangidan suvga botiraman, qayta cho‘qintiraman) ham XVI asrda Reformatsiya jarayonida G‘arbiy va Markaziy Yevropada paydo bo‘ladi. Anabaptistlar cho‘qintirish sirli marosimini inson ongli ravishda bunga rozi bo‘lganda amalga oshirish lozim, shuning uchun dindorlar qayta cho‘qintirilishi kerak deb hisoblaydilar. Cherkov ierarxiyasi, ikonalar, aksariyat xristianlik sirli marosimlarini rad etdilar, mulk va umumiy mulkni yo‘q qilishni talab etadilar.

Mennonitlar XVI asrning 30–yillarida anabaptizmdan ajralib chiqqan va o‘z nomlanishini rahbari gollandiyalik ruhoniylashtiruvchi Menno Simonsdan oldi. Mennonitlar har qanday zo‘rlashni gunoh deb hisoblaydilar, mo‘min bo‘lishni, yomonlikka zo‘rlashni qarshi qo‘ymaslikni targ‘ib qiladilar. Baptist va anabaptistlar singari cho‘qintirishni katta bo‘lganda o‘tkazishni to‘g‘ri deb biladilar, chunki ijodkor e’tiqod faqat katta kishilarda bo‘lishi mumkin deb hisoblaydilar. Xristianlikda qabul qilingan vino va non

bilan tamaddi qilish marosimidan tashqari o'ziga xos g'ururni tiyish timsoli bo'lgan bir– birining oyog'ini yuvish marosimi ham mavjud. Diniy jamoaning barcha cho'qintirilgan a'zolarining tengligiga qaramasdan menonitlar o'rtasida ruhoniylar ham bor.

Menonitlar Isonining yerga ikkinchi marta qaytib kelishi va kelajakdagi Xudoning Yerdagi saltanati haqidagi tasavvurlarga ega. Inson taqdirining oldindan belgilanganligi haqidagi g'oyani tan olmaydilar. Ularning fikriga ko'ra, inson erkin irodaga ega.

Unitarizm, (frans. unitarisme va lot. unitas birlik) XVI asrda paydo bo'lgan, xudoning uch qiyofasi to'g'risidagi ta'limotni rad etadi. Insoniyatning gunohkorligi, Isoning ilohiyligi, uning insonlar gunohlarini yuvish maqsadida qilgan qurbonligiga ham unitarlar ishonmaydilar. Xudoni dunyoviy aqli sifatida ko'rishadi. Xristianlikning ushbu shakli ba'zida din va falsafa o'rtasida turgan ta'limot deb hisoblanadi.

Metodistlar guruhi Angliyada XVIII asrdapaydobo'lib, anglikan cherkovining yo'nalishlaridan biri hisoblanadi. Uning tarafdorlari xristian axloqi me'yorlariga metodik ravishda rioya qilishni talab qilganlaridan nomlanishi kelib chiqadi. Ta'limotining asoslari anglikanlar ta'limotiga yaqin turadi. Angliyadan tashqari bu yo'nalish AQSh, Kanada, Avstraliya, Janubiy Koreya va boshqa mamlakatlarda tarqalgan. Metodizm tarafdorlari 31 mln. kishini tashkil qiladi. U.Buts asos solgan "Xaloskorlar Armiyasi" metodizmga yaqin turadi. Uning ta'limoti metodistlaridan farq qilmaydi. "Xaloskorlar Armiyasi" harbiy tashkilot singari tashkil etilgan. Bu tashkilot a'zolari ko'cha– ko'ylarda va'zxonlik qilish bilan mashhur.

Kvakerlar (ingliz. quake – silkinish, titrash, hayajonlanish) baptistlar yo'nalishi. Yo'nalishning rasmiy nomlanishi "Ichki yorug'lik do'stlari xristian jamoasi", Jorj Foks tomonidan XVII asrda tashkil etildi. Kvakerlar imon haqiqati "ichki yorug'lik" bilan yoritilish davomida namoyon bo'ladi, deb hisoblaydilar. Xudo deganda doim hayajonlanish va u bilan munosabatda bo'lganda ekstatik (qattiq hayajonlanish) usullardan foydalanganlari uchun kvakerlar degan nom olishgan. Sirli va sirli bo'lmagan diniy marosimlarning barchasini bekor qilishgan. Ruhoniylarni tan olmaydilar. Ibodatxonalari yo'q, ibodatlarni narsalardan bo'shatilgan xonalarda amalga oshiradilar. Kvakerlar har qanday zo'rlikni qoralaydilar, ular tinchlik (patsifizm) tarafdorlaridir. Jamoalarida 200 minggacha a'zo bor AQSh, Angliya, Kanada va ba'zi boshqa mamlakatlarda tarqalganlar. Kvakerlar tomonidan tashkil qilingan "Butun Jahon do'stlar maslahatchi komiteti" xalqaro tashkiloti faoliyatlarini muvofiqlashtiradi.

Amerikada vujudga kelgan ikki diniy ta'limot: Iso Masih shogirdlari va Iso Masih Cherkovi ham baptizmga yaqin turadi. Cho'qintirish marosimi kishi balog'atga yetgandan so'ng o'tkaziladi. Taqdirning oldindan belgilanganligi va Odam Atodan boshlab barcha insonlarning gunohkorligi to'g'risidagi ta'limotlarni tan olmaydilar. Bu

tashkilotlarning bir–biridan farqi kam.

Pyatidesyatniklar protestantlikdagi eng yirik yo‘nalishlardan biri hisoblanadi.

Hozirda pyatidesyatniklarning soni dunyo bo‘yicha taxminan 120 millionni tashkil etadi.

Pyatidesyatniklik tarixi rasman 1901 yilning 1 yanvariga borib taqaladi. Aynan shu kuni AQShning Kanzas shtati Topeke shahrida Ch.Parxem ismli ruhoniylar boshqarayotgan “Bibliya” maktabining talabalaridan biri Agnessa Ozman “uchinchi rahmat”ga erishib (ya’ni, Muqaddas Ruh bilan cho‘qintirilib), xitoy tilida gapira boshlaydi. Uning ketidan “xudo bilan notanish tilda gaplashish” “epidemiya”si butun maktabni qamrab oladi. Shundan so‘ng, Ch.Parxem o‘z o‘quvchilari bilan janubiy shtatlarda pyatidesyatniklikni targ‘ib qila boshlagan.

Xudo bilan notanish tilda gaplashishni boshidan o‘tkazgan ko‘pchilik keyinchalik o‘zlarining pyatidesyatniklik cherkovlariga asos soldilar. Bunday cherkovlar Skandinaviya, Angliya, Hindiston, Chili, Germaniya kabi davlatlarda ham paydo bo‘ldi.

Pyatidesyatniklik diniy hayotda “Muqaddas Ruh in’omlari” degan tushunchaga tayanadi. Ta’limotga ko‘ra, bu in’omlar faqatgina Muqaddas Ruh bilan cho‘qintirish orqali Iso Masihning asl izdoshlariga, unga xizmat qilish vositasi sifatida beriladi. Muqaddas Ruh bilan cho‘qintirilganlikning tashqi belgisi deb pyatidesyatniklar glossaliya, ya’ni “xudo bilan notanish tilda gaplashish”ni tushunishadi. Ularning bir–biridan asosiy farqi xudoning rahmatlari soni va suv bilan cho‘qintirishning uslublaridadir. Xususan, ba’zi pyatidesyatniklar 3 ta rahmatga – dinga kirgizish, nurlantirish ya’ni, xristian ta’limoti bilan chuqurroq tanishtirish va Muqaddas Ruh bilan cho‘qintirishga ishonishsa, ayrimlari faqat 2 ta rahmat – dinga kirgizish va Muqaddas Ruh bilan cho‘qintirishni tan olishadi. Shuning uchun ham, ularni «Ikki rahmat cherkovlari» deb atashadi.

Pyatidesyatniklikning diniy ta’limot manbai “Bibliya”dir. Unga ko‘ra, Muqaddas Ruh doimo cherkovda namoyon bo‘lib turadi. Pyatidesyatniklikda Isoning ikkinchi marta qaytishi, oxirzamon va mingyillik hukmronligi o‘rnatilishining yaqinligi targ‘ib qilinadi. Shuningdek, Xudoning “O‘ldirma” degan buyrug‘iga amal qilinishi sababli urush va harbiy xizmat qat’iyan rad etiladi.

Pyatidesyatniklarning yurtimizdagi ilk jamoalari o‘tgan asrning 20–yillarida “To‘liq injil xristianlari” nomi ostida paydo bo‘lgani qayd etilgan.

Adventistlik (lotincha – kelish, voqe bo‘lish) protestantlikdagi yo‘nalishlaridan bo‘lib, unga XIX asrning birinchi yarmida AQShda Uilyam Miller (1772– 1849) asos solgan.

“Bibliya”ni o‘rganib, “oxirzamon”ning yaqinlashayotgani hamda Iso Masihning ming yillik hukmronlik davri boshlanishi haqidagi fikrga kelgan U.Miller 1831 yilda Isoning 1843 yilda qaytishi haqida katta va’z qildi. Bu va’z hatto Yevropada ham aks–

sado berdi. 1843 yil kirib kelganida esa U.Miller o'z xulosasini biroz o'zgartirib, Isoning qaytish muddatini 1844 yilga ko'chirdi. Masih tushishi kerak bo'lgan oy va kunni, hatto joyini – Nyu– York shtatidagi tog'ni ham aniq ko'rsatdi. Belgilangan kunda Miller izdoshlari oq kiyimlarga o'ranib “qiyomat tog'i”da joylashdilar. Uzoq kutishdan so'ng “payg'ambar” izdoshlarining soni kamaya boshladi, lekin ko'plar unga sodiq qoldilar. Isoning 1843 yili kelmaganining sababi esa o'sha yili Iso yerga emas, balki “osmondagi poklanish joyi”(chistiliye) ni tozalash uchun kelgan, deb talqin qilindi.

1845 yilda U.Miller va uning izdoshlari baptistlar safidan chetlashtirilganlaridan so'ng o'zlarining “adventistlar” deb atalgan tashkilotini tuzdilar. Adventistlik ta'limoti Iso Masihning ikkinchi marotaba qaytishi g'oyasiga asoslanadi. Unga ko'ra ikkinchi qaytish davrida faqatgina taqvodorlar (birinchi tirilish) tiriladilar va Xudo bilan osmonda 1000 yil bo'ladilar. Bu davr mobaynida yerda insonlar bo'lmaydi, ular tomonidan yaratilgan jamiki narsa vayron bo'lib, yo'q bo'lib ketadi. Shayton kishanlanadi va uning jazosi vayronaga aylangan yerda bo'ladi. 1000 yildan so'ng Iso uchinchi bor yerga qaytadi, shunda jin, ajina, alvasti va shu kabilar tiriladilar (ikkinchi tirilish). Shayton esa xalqlarni yo'ldan ozdirib, ularni Isoga qarshi oxirgi jangga to'plash uchun vaqtincha ozodlikka chiqadi. Lekin osmon olovi ularni kulga aylantiradi. Shayton va insu-jinslar abadiy yo'q qilinadilar – bu ular uchun ikkinchi o'limdir. Olov bilan tozalangan Yer yangilanadi va uni taqvodorlar egallaydilar. Quddus qayta tiklanadi va odamlar abadiy rohatda baxtli hayot kechiradilar.

“Ettinchi kun adventistlari” adventistlik zamirida paydo bo'lgan eng yirik yo'nalish hisoblanadi. 1844 yilda AQShda yuzaga kelgan ushbu yo'nalishning asoschisi Elena Uayt (1827–1915) hisoblanadi. “Ettinchi kun adventistlari” yo'nalishi tarafdorlarining soni taxminan 16 million kishini tashkil etadi. Uning 206 davlatda 46 mingdan ortiq cherkov (jamoalari bor. Umumjahon Yettinchi kun adventistlari cherkovining Markazi – Bosh Konferensiyasi AQShning Vashington shahrida joylashgan. “Ettinchi kun adventistlari” ta'limotiga ko'ra, Xudo o'z irodasini xalqqa yetkazish uchun go'yoki, Elena Uaytni tanlagan va unda 2000 ga yaqin “ko'rinishlar” (videnie) bo'lgan. Uning bu “ko'rinishlar” asosida yozgan kitob va xatlari “Bibliya” bilan bir qatorda “Ettinchi kun adventistlari” diniy ta'limotining asosiy manbai hisoblanadi. Iso Masihning yaqin orada qaytishiga ishonish “Ettinchi kun adventistlari”ning asosiy aqidasi hisoblanadi. Yettinchi kun adventistligida:

–“Bibliya” buyruqlariga bo'ysunish qat'iy talab qilinadi;

–boshqa xristianlardan farqli ravishda, yakshanba kuni emas, haftaning yettinchi kuni – shanba ulug'lanadi. Shuning uchun ham, ularni “Ettinchi kun adventistlari” deb ataydilar. Shanba kuni ishlash, hatto ovqat tayyorlash ham mumkin emas. Butun kun ibodatga bag'ishlanadi. Ular Isoning tirilishi va “oxirzamonni” kutib yashaydilar.

Ayni paytda, Yettinchi kun adventistligida:

- ruhning abadiyligi, jannat va do‘zax tushunchalari inkor qilinadi;
- cho‘qintirish butun tanani suvga botirish orqali o‘tkaziladi;
- “nopok hayvonlar” go‘шти, xususan, cho‘chqa go‘štini yeyish, kofe, choy, vino ichish, tamaki chekish taqiqlanadi;
- turli xil ko‘ngilochar tadbirlar, badiiy kitob o‘qish esa qoralanadi.

O‘rta Osiyoda dastlabki adventistlar XIX asrning boshlarida paydo bo‘lgan. Ularning paydo bo‘lishi Rossiya adventistlari faoliyati bilan bog‘liq. 1910 yilda Toshkentda ilk adventistlar jamoasi tuziladi.

“Novoapostol cherkovi” XIX asrning o‘rtalarida Angliyada vujudga kelgan protestantlik yo‘nalishlaridan biri hisoblanadi.

Hozirgi vaqtda “Novoapostol cherkovi” dunyoning 180 ta davlatida 50 ga yaqin jamoa, 9 millionga yaqin a‘zolariga ega.

“Novoapostol cherkovi” diniy ta‘limotida 7 sirli marosimning uchta e‘tirof etiladi:

–suv bilan cho‘qintirish (yoshning farqi yo‘q); prichashenie – non va vino bilan totinish;

–Muqaddas Ruh bilan (zapechatlenie) insonning ichki olamini butunlay yangilash.

Cherkov ta‘limotiga ko‘ra, Xudo ruhoniylarning duo va fotihalari sababli bandalariga o‘zining mehru muruvvatini ato qiladi.

Marhumlar ruhiga bag‘ishlab bir yilda uch marotaba (mart, iyul va noyabr oylarining birinchi yakshanba kunlarida) o‘tkaziladigan diniy marosimlar ham “Novoapostol cherkovi”ning o‘ziga xos xususiyatlaridan hisoblanadi. Bu marosimlarda marhumlarning qarindoshlari va ruhoniylar ishtirok etib, xudodan ularning bu dunyoda qilgan gunohlarini avf etishini so‘rab, ibodat qiladilar.

Cherkovni birinchi apostol va apostollar boshqaradilar. O‘z navbatida ular xristianlikdagi mashhur 12 apostolning o‘rinbosarlari hisoblanadilar (“Novoapostol cherkovi” nomi shundan kelib chiqqan). Birinchi apostol, diniy qoidalarga asosan, Xudoning yerdagi vakili hisoblanadi. Cherkov xodimlari o‘z vazifalarini bepul va o‘zlarining asosiy kasblaridan tashqari bajaradilar

Har bir jamoa 150–170 kishilik katta oila kabi tashkil etiladi. Pastorlar kamida ikki oyda bir marotaba har bir uyni ziyorat qiladilar. Asosiy e‘tibor bolalar va o‘smirlar tarbiyasiga, nogiron va kambag‘allarga yordam qilishga qaratiladi.

“Novoapostol cherkovi” O‘zbekistondagi faoliyatini 1992 yildan boshlagan.

Pravoslavlik va Katoliklik umumiy va o‘ziga xos xususiyatlarga ega. Bu yo‘nalishlar ruhoniylar va dunyoviy kishilarni keskin tarzda ajratadilar. Ruhoniylarga mo‘ljallangan xulq-atvor qoidalari, dunyoviy kishilarnikidan butunlay farq qiladi. Insonlarning najot topishi, Pravoslavlik va Katoliklik ta‘limotlariga ko‘ra, faqat ruhoniylar vositasida amalga oshishi mumkin. Pravoslavlik tarafdorlari ham,

Katoliklik tarafdorlari ham Bibliya bilan bir qatorda Muqaddas rivoyatlarni tan olishadi. Ikkala yo‘nalish yetti sirli marosimni tan olishadi: cho‘qintirish, vino va non bilan tamaddi qilish, gunohlarga ruhoniylar oldida iqror bo‘lish, ruhoniylarni, nikohni va badanga yog‘ surtishni. Pravoslavlik va Katoliklik tarafdorlari Bibi Maryam, farishtalar, avliyolarni izzatlaydilar, muqaddas narsalarga sig‘inadilar, tarki dunyochilikka (monaxlar) amal qiladilar.

Protestantlikning Pravoslavlik bilan ham umumiy tomonlari ko‘p. Masalan, a‘rofga ishonmaslik, ruhoniylarga nikoh ruxsat etilganligi, dunyoviy kishilar ajrashishi mumkinligi, dindorlar ibodatlarini ona tilida amalga oshirishlari mumkinligi, mustaqil milliy cherkovlarning mavjudligi. Fanda xristianlik dinining Markaziy Osiyo hududiga kirib kelishi ikki yo‘l bilan amalga oshgani e‘tirof etiladi. Birinchisi, milodning III asrlaridan to bugungi kunga qadar xristianlikni targ‘ib etuvchi missionerlarning targ‘ibotchilik harakati bo‘lsa, ikkinchi yo‘l, mintaqaning Rossiya Imperiyasi tomonidan bosib olinishi va xristian diniga e‘tiqod qiluvchi aholining ushbu mintaqaga ko‘plab ko‘chib kelishi orqali amalga oshgan.

Zamonaviy O‘zbekiston va Qozog‘iston hududlarida apostol Andrey Pervozvannyning diniy faoliyati ilk xristianlik tarixi manbalarida qayd etilgani diqqatga sazovor. Buning dalili sifatida bugungi qadar saqlanib qolgan hind xristianlarining “Foma qaydnomalari” va milodiy II–asrda tashkil topgan Markaziy Osiyo cherkovi taraqqiyoti haqidagi tarixiy yozma manbalar xizmat qiladi. Hozirgi O‘zbekiston, Tojikiston, Turkmaniston, Qirg‘iziston, Qozog‘iston va Sinszyan–Uyg‘ur muxtoriyati (Xitoy) hududida arxeologik qazilmalar natijasida topilgan ko‘plab xristianlik yodgorliklari, jumladan ibodatxona va monastirlarning harobalari, freskali ikona yozuvlari, matolarga bitilgan ikonalar (zandanachi), Injil qissalari tasvirlangan keramiklar, bo‘yinga osiladigan xoch va medallar hamda xristianlik timsoli tushirilgan davlat tangalari ahamiyatga molik. Undan tashqari minglab xoch tushirilgan qabr toshlar yoki qabr ustiga qo‘yilgan xochlar topilgan. Yuqoridagilarning aksariyati IV – XIV asrlarga mansub deb topilgan. Missionerlar faoliyati natijasida 280 yilda Talos (Marke) cherkovlari qurilib bo‘lgan, Samarqandda (310 yildan), Marvda (334 yildan), Hirotida (430 yildan), Xorazmda va Markaziy Osiyoning boshqa shaharlarida yepiskoplik, missiyalar tuzilgan. Keyinchalik Samarqandda, Marvda (430 yillar), Hirotida (658 yillar) yepiskoplikdan iborat diniy hududiy jamoalar, birlashmalar bo‘lgan. IV asr boshlarida tashkil etilgan Marv yepiskopligi, V asr boshida mitropoliyaga aylangan. Xurosonliklar va sug‘diyonaliklar zardushtiylar, monaviylar, buddaviylar bilan bir qatorda xristianlar ham bo‘lgan. Ular qoraxitoylar va sosoniylarga qarashli yerlarda yashaganlar.

431 yilda Vizantiyadagi xristianlarning Efes soborida mojaro yuz berdi – Nestorean oqimining xristianlari, hukmron din aqidalariga xilof ish qilgan deb e‘lon qilindi. Shuni aytish joizki, Nestorianlar – Konstantinopol patriarxi Nestorning

izdoshlari bo‘lib, (5–asr boshlarida) – ular Xristosning ilohiy kelib chiqishi haqida gapirib, uning onasi Mariya Xudoni emas, balki insonni dunyoga keltirib, uning tanasiga Xudo kirib olgan va shuning uchun la’natlangan deb hisoblaydilar.

Markaziy Osiyoga ilk rus pravoslavlarining kirib kelishi XIX asrning 40–yillaridagi Chor Rossiyasining Turkistonning shimoliy hududlarini egallashi natijasida Turkistonga ruslarning ko‘chib kelishi bilan bog‘liq. Har bir polkda maxsus ruhoniylar bo‘lib, askarlarning diniy ehtiyojlarini qondirish maqsadida ko‘chma ibodatxonalar tashkil etilgan edi. 40–yillar oxiriga kelib doimiy ibodatxonalar mahalliy paxsa uslubida qurila boshlaydi va 1850 yili Kopalda birinchi muqim ibodatxona bunyod qilinadi.

Ruslar joylashgan hududlarda kichik diniy qarorgohlar vujudga keladi. Dastlabki qarorgohlar 1850–yillada Fort

№1 (Aralsk shahri, Koraqalpog‘iston), Perovsk (Qizil– O‘rda, Qozog‘iston), Katta Olma–Ota tumani (Olma–Ota, Qozog‘iston), Sergiopol (Ayaguz), Lepsin (Lepsinsk), 1860– yillarda Toshkent, Jizzax, Samarqand, Chimkent, Avliyoota (Jambul), To‘qmok, Katta–Qo‘rg‘onda rus pravoslavlarining diniy qarorgohlari mavjud edi. 1871 yilda Toshkent hospitali huzurida arxiepiskop Yermogen (Golubev) tomonidan pravoslav qarorgohi ta’sis etilgan. Bu ibodatxona xozirgi Uspenskiy kafedral sobori o‘rnida bo‘lgan. Dastlab Turkiston Orenburgning tarkibida bo‘lganligi bois Tomsk yeparxiyasiga bo‘ysingan. Ko‘p o‘tmay mustaqil arxierey kafedraga aylanadi.

1869 yil Turkiston mustaqil yeparxiyasini tashkil qilish to‘g‘risida qaror qabul qilingan. 1871 yil Toshkent va Turkiston yeparxiyasini tashkil etish to‘g‘risida imperator farmoni chiqadi. Biroq mahalliy imperator amaldorlari Toshkentdagi kafedra faoliyati diniy avtoritetni kuchaytirib asl siyosiy maqsaddan chalg‘itadi deb qarshilik ko‘rsatgan. General–gubernator fon Kaufman “Toshkentda na arxiereylik, na jandarmiyaga o‘rin yo‘q” deb ta’kidlagan. Uning ko‘rsatmasiga binoan yepiskop kafedrasini qarorgohi Vernyy (1854 yil asos solingan «Vernyy» shaharcha, zamonaviy Olma–Ota) shahriga ko‘chirilishi kerak edi. “Toshkent va Turkiston” nomini olgan yeparxiya yepiskoplari markazdan tashqariga chiqib boshqarish mantiqsizlik ekanligi va noqulay bo‘lganligi bois ko‘chishdan bosh tortadi. Imperatorlik davrida Toshkent arxiereyasi kafedraning Toshkentda bo‘lishi uchun kurashganlar. Nihoyat 1916 yil oxirida arxiepiskop Innokentiy (Pustynskiy) harakatlari tufayli bu masala butunlay ijobiy yakun topgan.

Dastlabki cherkovlarning ko‘pchiligi odmi bo‘lgan va qo‘ng‘iroqlari ham bo‘lmagan. Rus aholining ko‘payishi XIX asr oxirlaridan boshlab bir nechta Rossiya cherkovlaridan qolishmaydigan cherkovlarning bunyod bo‘lishiga olib keldi. Ular orasida Toshkent Svyato–Preobrajenskiy (1888 yili qurilgan, 1923 yili buzib tashlangan.), Vernyy (Olma ota)dagi Voznesenskiy (1907 yili qurilgan, 1995 qayta

tiklangan), Samarqanddagi Svyato–Aleksievskiy (1911 yili qurilgan, hozirda ochiq va qayta tiklanmoqda) soborlari alohida ajralib turgan.

Markaziy Osiyoda katolik va protestant yo‘nalishi vakillarining kirib kelishiga 1879 yil 27 martdagi Rossiya imperatorining maxsus qonuniga ko‘ra birinchi jahon urushida asrga olingan nemis, polyak, eston, shved, litva, latish va boshqa yevropalik askarlarning Turkiston o‘lkasiga surgun qilinishi turtki bo‘ldi. Bu o‘z navbatida, yevropalik asirlar orasida diniy jamoalar tuzish hamda cherkovlar paydo bo‘lishiga olib keldi. Xorijliklarning bunday faoliyati asrimizning taxminan 20–30 yillariga qadar davom etdi. XX asr boshlariga kelib Turkistonda 6,03 million musulmonga 391 ming pravoslav to‘g‘ri kelgan yoki 5340 masjidga 306 cherkov to‘g‘ri kelgan. Bundan tashqari, 10,1 ming pravoslaviega mansub bo‘lgan starobryadchilar, 8,2 ming lyuterchilar, 7,8 ming katoliklar, 17,1 mingga yaqin boshqa oqimlarga mansub dindorlar va 26 ming yahudiy diniga mansub kishilar tashkil etgan.

Ayrim ma’lumotlarga ko‘ra, XIX asr oxirlarida Toshkentda 2300 ga yaqin katoliklar bo‘lgan. O‘sha vaqtda rim katoliklari jamoalariga Yustin Pranaytis rahbarlik qilgan. Toshkentda birinchi katolik cherkovi 1912 yilda qurila boshlanib, 1917 yilda bitkazilgan. Hozirgi kunda bu bino tarixiy obida sifatida qayta ta’mirlandi.

Yurtimizda faoliyat olib borayotgan Arman apostol cherkovi eng qadimiy xristian cherkovlaridan biri bo‘lib, ma’lumotlarga ko‘ra, O‘rta Osiyoda armanlar taxminan III–IV asrlarda paydo bo‘lganligi qayd etilgan. 1890 yilga kelib ularning soni 3839 kishini tashkil etgan. XIX asr oxirlaridan boshlab Echmiadzin Sinodi Turkiston o‘lkalarida ibodatxonalar qurishga qaror qilgan. Samarqand cherkovi o‘z faoliyatini 1903 yildan e’tiboran boshlagan.

O‘zbekistonda tarqalgan xristianlikning uch asosiy yo‘nalishidan biri protestantizmdir. Keyingi o‘n yillikda mahalliy koreys millatiga mansub shaxslar orasida protestantizm yo‘nalishiga qiziqish ortdi. Bunga, bir tomondan koreyslarning o‘z qarindosh–urug‘lari bilan diydor ko‘rishish va boshqa maqsadlarda Janubiy Koreya, AQSh va boshqa rivojlangan davlatlarga borib kelishlari omil bo‘ldi. Xorijda ular ma’lum bir diniy oqim ta’siriga tushib, O‘zbekistondagi yaqinlariga ham mazkur oqim ta’limotlarini targ‘ib qila boshladilar. Shuningdek, Janubiy Koreya va AQShlik koreys millatiga mansub shaxslar ham katta moddiy mablag‘ga ega bo‘lgan protestantizm yo‘nalishi markazlari hisobiga mahalliy koreys millatlari ichida missionerlik faoliyatini olib bordilar.

O‘zbekistondagi koreys protestant cherkovlarining deyarli barchasini pyatidesyatniklik yo‘nalishidagilari tashkil etadi. Ibodat tarzlari protestantizmdagi yo‘nalishlarda bajariladigan amallar kabidir. Hozir O‘zbekistonda pyatidesyatniklik, baptistlik yo‘nalishidagi cherkovlar hamda birgina metodistlik yo‘nalishiga oid cherkov faoliyat ko‘rsatmoqda.

O‘rta Osiyoda dastlabki adventist missionerlar XIX asrning boshlarida paydo

bo'lganligi haqida ayrim manbalarda qayd etilgan. Mazkur oqimning Toshkentdagi birinchi jamoasi 1910 yilda tashkil etilib, bir yil ichida uning tarafdorlari 150 kishiga yetgan. Jamoa 1912 yilda yashirin yig'ilishlar uyushtirganligi sababli tarqatib yuborilgan. 1917 yildan so'ng umumiy soni 450 kishilik tarafdori bilan Toshkent shahri, Toshkent viloyati, Samarqand shahri va boshqa hududlarda faoliyat ko'rsata boshlagan. Shu davr ichida oqim tarafdorlari ko'payib, cherkov rahbarlari saylandi hamda tashkiliy ishlar yo'lga qo'yildi.

Adventistlarning Janubi-sharqiy ittifoqi tarkibida 1925 yili O'zbekistonda adventistlarning Markaziy Osiyo boshqaruvi tashkil etildi. Uning birinchi qurultoyi 1926 yilda o'tkazilib, unda Butunittifoq adventistlar ittifoqi tarkibining beshinchi ittifoqi sifatida qayd etildi. 1930–yillar oxiriga kelib dindorlar va ular qatorida adventistlar jamoalari tarqatib yuborildi hamda ta'qib ostiga olinadigan bo'ldi. Barcha yo'nalishdagi jamoalar yashirin faoliyatga o'tib ketdi.

1976 yil 26 avgust kuni Toshkentda ilk bor adventistlar jamoasi davlat ro'yxatidan o'tdi. Shuningdek, adventistlarning Toshkent, Farg'ona, Samarqand, Surxondaryo va boshqa viloyatlarda norasmiy jamoalari tuzila boshladi. Ayrim ma'lumotlarga ko'ra, 1967 yili Toshkentda V.A.Shelkov boshchiligidagi adventist–islohotchilar paydo bo'lgan va hozirgi davrga qadar faoliyati davom etmoqda. Turkiston o'lkalarida ilk baptistlar jamoasi 1891 yillarda paydo bo'ldi. Toshkent shahar boshqarmasi tomonidan 1909 yil 2 iyulda 60 kishilik baptist jamoalari uchun ibodat uyi ochishga ruxsat berildi. 1911 yil oktyabr oyida "Samarqand jamoasi" tuzildi. 1921 yildan e'tiboran Turkiston baptistlari orasida birlashish maqsadida boshqaruv organini saylash uchun harakat boshlandi. Ushbu boshqaruv organi 1922 yilda Toshkent baptistlar qurultoyida Markaziy Osiyo baptistlar ittifoqi, so'ng Umumrossiya ittifoqi tarkibida Turkiston bo'limi tuzildi.

1946 yildan O'zbekiston hududida Yevangelchi xristian–baptistlar (EXB) jamoasi sifatida qayd etildi, 1948 yil oktyabr oyidan esa T.Penkov Butunittifoq YeXB kengashining O'zbekistondagi vakili etib tayinlandi. 1930 yillarga kelib baptistlarning 6 jamoasi rasman qayd etildi. 1958 yilga kelib O'zbekistonda baptistlar soni ikki ming kishini tashkil etdi. Shu davr ichida norasmiy 32 ta jamoa faoliyat ko'rsatgan.

1964 yilda bu jamoalar norasmiy Markaziy Osiyo Yevangelchi xristian–baptistlar cherkovlari kengashi markazini tuzdilar, keyinchalik «Osiyo janubi bo'yicha baptist birodarlar kengashi» deb nomlandi. 1992 yil noyabr oyida Moskvada bo'lib o'tgan baptistlarning 1–qurultoyida Evangelchi xristian–baptistlar ittifoqi federatsiyasi Yevro–Osiyo YeXB ittifoqi nomiga o'zgartirildi.

O'zbekistonda faoliyat ko'rsatayotgan To'liq Injil xristianlarining (pyatidesyatniklik) asrimiz 20–yillari oxirlarida Toshkent shahrida birinchi jamoalari tuzildi. 30–yillarga kelib ularning soni 950 kishiga yetdi. Ular tashkilot sifatida qayd etilmagan bo'lsalar–da, Toshkent jamoasi markaziy o'rin tutdi. 1945 yilga kelib

baptistlar va pyatidesyatniklar birlashishga qaror qildilar, lekin bu ish to‘liq amalga oshmay qoldi. Mazkur tashkilot 1992 yildan e’tiboran rasmiy faoliyat ko‘rsatib kelmoqda. Respublikamizda mavjud bo‘lgan lyuteranchilik – lyuteranlar cherkovlari tomonidan e’tirof qilingan ta’limotdir. Yevangelchi–lyuteranlar O‘zbekiston hududida 1877 yildan buyon faoliyat ko‘rsatib kelmoqda. 1884 yildan lyuteranlar ibodatlarini rasman amalga oshirganlar. 1890 yilda arxitektor A.L.Benua rahbarligida boshlangan cherkov qurilishi 1896 yilning dekabr oyiga kelib nihoyalandi.

Ayrim manbalar O‘rta Osiyoda Iegova shohidlarining XX asrning 40–yillapida paydo bo‘lganligini bildiradi. O‘sha davrda ular o‘zlarini «kanalistlar» deb atab kelganlar.

Nazorat savollari

1. Xristianlik cherkovining Pravoslavlik va Katoliklikka ajralishining sabablari.
2. Rim–katolik cherkovi diniy guruhlar (sektalar). Ta’li- motining o‘ziga xususiyatlari.
3. Pravoslavlik ta’limoti va marosimlarining o‘ziga xos- ligi.
4. Pravoslavlik va Katoliklikdagi sirli marosimlar. O‘xshashligi va farqlari.
5. Yahudiylik va xristianlikning bevosita bog‘liqligi
6. Markaziy Osiyo hududidagi xristianlik bilan bog‘liq yodgorliklar
7. Xristianlikning paydo bo‘lishi: Xristianlik qachon va qayerda vujudga keldi? Uning paydo bo‘lishiga Rim imperiyasidagi qanday ijtimoiy-siyosiy sharoitlar sabab bo‘lgan?
8. Isoning shaxsi va ta’limoti: Injil manbalariga ko‘ra, Iso Masihning (Jesus Christ) dunyoga kelishi va uning asosiy diniy-axloqiy da’vatlari nimalardan iborat?
9. Bibliya (Muqaddas Kitob): Bibliyaning tarkibiy qismlari — Eski Ahd va Yangi Ahd o‘rtasidagi farq nima? Yangi Ahd tarkibiga qaysi kitoblar kiradi?
10. Havoriylar (Apostollar) faoliyati: Isoning shogirdlari (havoriylar) xristianlikni dunyo bo‘ylab tarqalishida qanday rol o‘ynagan? Ayniqsa, havoriy Pavelning xizmatlari nimada?
11. Muqaddas Trinity (Uchlik) aqidasi: Xristianlikdagi «Ota, O‘g‘il va Muqaddas Ruh» tushunchasining mohiyatini tushuntirib bering.
12. Xristianlikning davlat dini darajasiga ko‘tarilishi: Imperator Konstantinning 313-yildagi «Milan edikti» xristianlik tarixida qanday burilish yasadi?
13. Ekumenik (Butun jahon) soborlari: Nikeya (325-y.) va Konstantinopol soborlarida qanday muhim diniy aqidalar (dogmalar) qabul qilingan?
14. Buyuk ajralish (Sxizma): 1054-yilda xristianlikning Pravoslaviye va Katolitsizmga bo‘linib ketishiga qanday diniy va siyosiy sabablar bor edi?

15. Katolitsizmning o'ziga xos xususiyatlari: Katolik cherkovining markazlashgan boshqaruvi (Vatikan, Rim Papasi) va uning diniy ta'limotidagi o'ziga xosliklar nimada?

16. Pravoslaviye (Sharqiy xristianlik): Pravoslaviye cherkovining boshqaruv tizimi va undagi ibodat, ikonalar (tasvirlar)ga bo'lgan munosabatni tushuntiring.

17. Reformatsiya va Protestantizm: XVI asrda Martin Lyuter boshlagan harakat natijasida xristianlikda qanday yangi yo'nalishlar (Lyuteranlik, Calvinizm, Anglikanlik) paydo bo'ldi?

18. Xristianlikdagi muqaddas sirlar (Sirotlar): Cho'qintirish (krestlash), prichastiye (evxaristiya) kabi marosimlarning ramziy ma'nosi nima?

19. Xristianlik va madaniyat: Xristian dini Yevropa va jahon madaniyati, san'ati hamda me'morchiligiga qanday ta'sir ko'rsatgan?

20. Zamonaviy xristianlik: Bugungi kunda xristianlikning eng yirik markazlari qayerda joylashgan va xalqaro maydondagi ijtimoiy-gumanitar faoliyati qanday?

21. «Kanonik Injillar» (Matto, Mark, Luqo, Yuhanno) va «Apokrifik Injillar» o'rtasidagi farq nimada? Nima uchun cherkov hamma yozilgan Injillarni ham tan olmagan?

22. Isoning xochga mixlanishi va uning insoniyat gunohlari uchun «qurbon bo'lishi» haqidagi ta'limotning mohiyati nima?

23. Xristianlikda monastirlarning vujudga kelishi tarixi va ularning o'rta asrlarda ilm-fan hamda ta'limni saqlab qolishdagi roli qanday bo'lgan?

24. O'rta asrlarda katolik cherkovi tomonidan sotilgan «Indulgentsiya» (gunohlarni kechirish yorlig'i) nima edi va u qanday qilib protestantizmning paydo bo'lishiga turtki berdi?

25 «Pasxa» (Isoning tirilishi) va «Rojdestvo» (Isoning tug'ilishi) bayramlarining diniy ahamiyati hamda «Xoch» ramzining xristianlikdagi muqaddaslik darajasini izohlang.

Mustaqil ish topshiriqlari

1. Xristianlikdagi bo'linish sabablarini tarixiy tahlil qiling.
2. Pravoslavlik tarixi va ta'limotining o'ziga xos jihatlari haqida ilmiy ish tayyorlang.
3. Katoliklik va pravoslavlik ta'limotlaridagi mushtarak va farqli jihatlar haqida qiyosiy ko'rgazmali slayd tay- yorlang (MS Power Point).
4. O'zbekistondagi xristian diniy tashkilotlari va ular- ning jamiyat hayotidagi o'rni o'rganing.

5-MAVZU. ISLOM DINI TARIXI VA MOHIYATI. REJA

- 1. Islomgacha Arabistondagi ijtimoiy–siyosiy holat.**
- 2. Muhammad ibn Abdulloh (s.a.v.) ning tavalludlari.**
- 3. Hijrat va Madina davri.**

Tayanch tushunchalar:

Johiliya, Butparastlik, Mus’haf, al–Vasaniya, Makka va Madina, Hiro g’ori, Vahiy, Ansor, Hijrat, Rasul, Nabiy, mazhab, sunniylik, shialik, xorijiylik, hanafiylik, sho-fe’iylik, molikiylik, xanbaliylik, aqida, tasavvuf.

Mavzu o’quv maqsadi:

Islom dini tarixi, ta’limoti, muqaddas manbalari, ibodat va marosimlari, Islom dinidagi ilk bo’linishlar, ularni keltirib chiqargan sabab va omillar, xavorijlar va ularning firqalari, shialik va uning oqimlari, sunniylik va uning mazhablari, aqidaviy ta’limotlar, tasavvuf haqida haqida talabalarda atroflicha tasavvur hosil qilish.

1. Islomgacha Arabistondagi ijtimoiy–siyosiy holat.

Hozirgi Saudiya Arabistoni hududining G’arbiy qismi Hijoz deb ataladi. Qadimdan Hijozning asosiy markazi Suriya va Yaman savdo yo’llarini bir–biri bilan bog’lab turuvchi shahar Makka bo’lib kelgan. Bu yerning ham diniy, ham iqtisodiy markaz sifatida shakllanishida Ka’ba (Baytulloh – Allohning uyi) katta ahamiyat kasb etgan. Mintaqada istiqomat qiluvchi arablar Ibrohim (a.s.) dini ta’limotiga e’tiqod qilganlar. Ular o’zlarini “hanif”lar (arabcha, “to’g’ri yo’l”) deb ataganlar. Yillar o’tishi bilan makkaliklar yakkaxudolik ta’limotini unutishib, yulduz va farishta hamda turli sanamlarga sig’ina boshlaganlar. Farishtalar Xudoning qizlari sifatida e’tirof etilgan. Ayni shu jarayon islom tarixida “johiliya davri” deb ataladi.

Makkada Hubal bosh iloh hisoblangan. Shuningdek, Manot, Lot, Uzzo kabi ilohlarga ham sig’inilgan. Makkaga keluvchi ziyoratchilar shakllangan diniy urf–odatlarini ko’r–ko’rona qabul qilishlari natijasida turli joylarga butlar o’rnatilgan. Turli qabilalar o’z obro’–e’tiborini boshqalarga ko’rsatish maqsadida Ka’baga but o’rnata boshlaganlar. Natijada, Ka’ba ichidagi butlar soni 360 taga yetgan.

Bundan tashqari zodagon arablar o'z xonadonlarida butlar uchun alohida xona va xizmatchilar ajratib, ular nomiga atab turli xil marosimlar o'tkazishni joriy qila boshladilar. Johiliyat davri arablari butlarni shafatchi deb bilib, ular oldida hokisorlik bilan turar, qurbonliklar qilar va ular sharafiga qasidalar to'qib, iltijo qilar edilar. Tijorat va ekinzorlardan olingan ma'lum daromaddan butlarga ajratilar, oilada qiz farzand tug'lsa, tirikligicha ko'milar edi. Johiliyat davrida arabiston Yarim orolida yahudiylarning ham kichik jamoalari mavjud edi. Bu din mazkur mintaqaga ikki bosqichda kirib kelgan. Birinchi bosqich, miloddan avval 587 yilda Buxtunnasr qo'shini yahudiylar ustiga bostirib, ularni ta'qib ostiga olishi natijasida o'z yurtlarini tashlab Madinaga ko'chishgan. Ikkinchi marotaba esa, milodiy 70 yilda rimliklarni Falastinga bostirib kirishi natijasida yahudiy qabilalar Madina, Xaybar, Tayma kabi shaharlarga kelib joylashishgan. Yahudiylik milliy din bo'lgani bois arablar orasida tarqalmagan. Arabiston yarim oroliga Habashiston va Rim bosqini orqali xristianlik ham kirib kelgan. Manbalarda qayd etilishicha, Habashiston shohi Abraha Ka'ba ziyoratchilaridan tushayotgan daromadni Yamanga burish va xristian diniga e'tiqod qiluvchilar sonini o'ttirish maqsadida "Yamoniyy" nomli katta cherkov qurdirgan. Turli tazyiqlar natijasida G'asson, Tag'lib, Toy va bir qancha boshqa qabilalar nasroniylilikni qabul qilgan.

Yuqoridagi dinlar bilan bir qatorda, otashparastlik ta'limotiga e'tiqod qiluvchi arablar ham mavjud bo'lgan. Lekin ular Fors davlatiga chegaradosh bo'lgan hududlardagina faoliyat olib borganlar.

Muhammad ibn Abdulloh ibn Abdul-Muttalib a layhis-salom Arabiston tarixida "Fil voqeasi" nomi bilan mashhur jangdan 50 kun keyin tavallud topgan. Ko'pchilik tarixchilar fikriga ko'ra bu sana milodiy 571 yilga to'g'ri keladi. Otasi Abdulloh o'z o'g'li Muhammad tug'ilmasidan oldin savdo ishi bilan Shomdan qaytayotib Yasribda (hozirgi Madina shahrida) vafot etgan. Onasining ismi Omina bint Vahb edi.

Manbalarda Payg'ambar alayhis-salomning tavalludi bilan bog'liq turli mo'jizalar ro'y bergani qayd etiladi. Jumladan, u kishining onasi homilador bo'lganida tushida "Sen butun insonlarning ulug'iga homilador bo'lding, u dunyoga kelgach, ismini Muhammad qo'ygin" degan ovoz eshitadi. Shunga ko'ra tug'ilgan paytida bobosi "Muhammad", ya'ni "g'oyat maqtoqli" degan ismni qo'ydi. Islom ta'limotiga ko'ra, Muhammad payg'ambar nomi zikr etilganda "sollallohu alayhi vasallam" (qisqacha: s.a.v.: "unga Allohning rahmat va salomi bo'lsin") yoki "alayhis-salom" (qisqacha: a.s.: "unga salom bo'lsin") iborasini aytish zarur. Bo'lajak payg'ambar tavallud topgach arablarning odatiga ko'ra, Muhammad alayhis-salom Bakriy qabilasidan bo'lgan Halima ismli ayolga emizish uchun beriladilar. Xalima xonadonida Rasululloh 4 yil yashaydi. Muhammad alayhis-salom besh yoshga to'lganida onasi Omina bilan birgalikda Yasribga, otasi qabrini ziyorat qilish uchun

boradilar. Mazkur safardan qaytishda, Abvo degan joyda onasi Omina ham vafot etadi. Shundan so'ng uni sakkiz yoshgacha bobosi Abdulmuttalib o'z qo'lida tarbiyaladi. Abdulmuttalib vafotidan so'ng Muhammad alayhis-salomni amakisi Abu Tolib o'z qaramog'iga oladi. Payg'ambar (a.s.) yoshlik chog'larida Abu Tolib bilan birga bir necha bor tijorat safarlariga chiqqanlar. Shomga birinchi marta 12 yoshga to'lganda, ikkinchi marta 25 yoshga, Yamanga 17 yoshga to'lganda safar qildi. 12 yoshga yetganda amakisi Abu Tolib Shomga safarga otlandi va yosh Muhammadni ham birga olib ketishga qaror qiladi. Safar davomida karvon Busra nomli mavzeda to'xtaydi. Mana shu joyda Abu Tolib Buhayro ismli rohibni uchratadi. Mazkur uchrashuv islom tarixida juda mashhur bo'lib, rohib yosh Muhammadda bo'lajak payg'ambar alomatlarini ko'radi. Shundan so'ng, u Abu Tolibga jiyanining porloq kelajak egasi ekanini bashorat qiladi va uni ehtiyot qilishni uqtiradi. Rasululloh (a.s.) 25 yoshga to'lganida Banu Asad urug'idan bo'lgan Xadicha bint Xuvaylid u kishidan o'zining savdo karvoni bilan birga Shomga safar qilishni so'radi. Muhammad alayhis-salomning to'g'riso'z, halol, sadoqatli ekanini ko'rgan Xadicha yoshi ancha katta bo'lishiga qaramay, taomilga zid ravishda ularga sovchi qo'yadi. Bir tomondan amakilari Abu Tolib, ikkinchi tomondan Xadichaning amakivachchasi Varaqa rozilik berib nikoh o'qildi. Xadicha bintu Xuvaylid (r.a.)dan Rasulullohning yetti farzandlaridan oltitasi, ya'ni Zaynab, Ummu Kulsum, Ruqiya, Fotima, Qosim, Abdullohlar dunyoga kelgan. Faqat bitta o'g'il – Ibrohim Moriya Qibtiyya (r.a.)dan tug'ilgan edi.

Manbalarda Muhammad (a.s.) ning qirq yoshga yaqinlashib qolganida yolg'izlikni xohlab qolgani qayd etiladi. Ular, asosan, Makkadan ikki chaqirim uzoqlikda joylashgan Nur tog'idagi Hiro g'origa chiqib ketib, Ramazon oyini taxannus ibodati bilan o'tkazardi. Qirq yoshga kirganida Qur'oni Karmining "Alaq" surasining dastlabki besh oyati ilk vahiy sifatida nozil qilindi. Tarixchilarning ta'kidlashicha, bu voqea 610 yil 10 avgust, yigirma birinchi Ramazon dushanba kuniga to'g'ri kelgan. Hadislarda keltirilishicha, vahiyning dastlabki ko'rinishlari o'ngidan keluvchi tushlar bo'lgan. Muhammad (a.s.) tushlarida biror narsa ko'rsalar o'ngidan kelar edi. Ilk vahiydan qo'rqib ketgan Muhammad (a.s.) ayollari Xadichaning amakivachchasi Varaqa ibn Navfal oldiga borib bu haqda so'raydi. Navfal bu Muso(a.s.)ga tushgan "Nomus" (Jabroil) deb javob berdi.

Muhammad (a.s.)ning Makkadagi faoliyati tarixchilar tomonidan ikki qismga, ya'ni maxfiy va oshkora da'vatga bo'lib o'rganiladi. Ilk vahiydan so'ng ilk islomdagi "yashirin da'vat davri" boshlangan. Birinchi bo'lib Rasululloh chaqiriqlarini qabul qilgan, ya'ni "ilk imon keltirganlar" – bu ayollari Xadicha bint Xuvaylid va Ali ibn Abi Tolib edi. Ulardan so'ng qullari Zayd ibn Horisa va do'stlari Abu Bakr Siddiq bo'ldilar. Ular jamiyatning turli tabaqalaridan ekanliklari islom dinining barcha uchun ochiq din ekanini ko'rsatardi. Vaqt o'tishi bilan musulmonlarning soni 30 kishiga

yetdi. Ular qurayshliklarning yangi dinga qarshi ekanliklarini bilganliklari uchun o‘z e’tiqodlarini yashirin saqladilar. Bu holat uch yil davom etdi. Shundan so‘ng “oshkora da’vat” davri boshlanadi. Rasululloh shu sababli Abdulmuttalib oilasini, amakisi Abu Tolib, Abbos, Hamza, Abu Lahablarning barchasini uylariga taklif etdi. Ziyofatdan so‘ng Allohdan yangi din vahiy qilinganini bildirib, unga barchani chaqirish Alloh tomonidan o‘z vazifalari etib belgilanganini aytdi. Abu Lahab bu so‘zlarni qat’iy inkor etib, yig‘ilganlarni tarqatishga tushdi. Quraysh musulmonlarga tazyiq berib, Qur’oni karim Muhammad (a.s.)ning so‘zlari deb, jar solayotgan bir paytda Isro (Makkadan Quddusga sayr) va Me’roj (Quddusdan osmonga ko‘tarilish) voqealari sodir bo‘ldi. Bu voqea qurayshliklarga juda qo‘l keldi. Chunki, bir kechada Makka- dan Quddusga borib, u yerdan osmonga ko‘tarilib, so‘ng yana Makkaga qaytib kelish hech qanday aqlga to‘g‘ri kelmas edi. Mazkur voqea haqida Qur’oni karimning Isro surasida to‘xtalib o‘tilgan. Isro va Me’roj voqeasi Makkadan Madinaga hijrat qilishdan o‘n olti oy oldin sodir bo‘lgan deb ta’kidlanadi. O‘sha paytlarda Yasrib deb nomlanadigan Madina shahri ahlidan bir guruhi Makkaga, Rasululloh huzuriga kelib islomni qabul qiladilar. Ular bilan makkalik musulmonlar o‘rtasida do‘stlik aloqalari o‘rnatildi. Makka mushriklarining musulmonlar ustidan tazyiqlari kuchaygach, Payg‘ambar ko‘rsatmasiga binoan avval musulmonlar undan so‘ng o‘zlari Yasribga hijrat qildilar.

Madinalik “ansor” (“yordamchi”)lar makkalik “muhojir” (hijrat qilgan)larni do‘stona va samimiy kutib oldilar. Payg‘ambarning hijrati Rabi’ ul-avvalning 8– kuni – milodiy 622 yil 20 sentyabrda bo‘ldi. Shu yildan boshlab hijriy yil hisobi boshlandi. Ushbu yili birinchi musulmonlar masjidi qurildi.

Madina Arabiston yarim orolining yirik shaharlaridan bo‘lib, unda Avs va Xazraj deb ataluvchi arab hamda Banu Qurayza, Banu Qaynuqo, Banu Nadir kabi yahudiy qabilalari yashar edilar.

Makkalik mushriklar musulmonlarni Madinada ham tinch qo‘ymaydilar. Natijada, ikki orada “Badr” va “Uhud” kabi bir necha janglar bo‘lib o‘tadi. Hijratning oltinchi yilida Makka qurayshiylari bilan tuzilgan Hudaybiya shartnomasi eng muhim tarixiy hujjatlardan biri bo‘ldi. Bu sulh bitimi tuzilishi arafasida musulmonlardan 1500 jangchi o‘q-yoy va nayzalar olmasdan, faqat qilich taqib, Ka’ba ziyorati vaqtida qurbonlikka so‘yiladigan 70 tuyani haydab, Makka shahriga yaqin keldi. Bu kichik qo‘shin Makka mushriklariga ko‘p ko‘rinib, ular musulmonlarni jang qilishga, urushga kelgan deb gumon qilib, shaharga kiritmadilar. Har ikki taraf bir necha bor elchilar almashib, vaziyatni tushuntirdilar. Musulmonlarning tinch maqsadda kelganiga ishonmasdan, Makka mushriklari urushga tayyorlanib turdilar. Ammo johiliya zamonlarida ham Baytu-l-haramda, ya’ni Ka’ba va uning atrofida jang qilish, qon to‘kish man qilingan edi. Shuning uchun ham bu qoidaga amal qilgan holda musulmonlardan Usmon ibn Affon yetakchiligida navbatdagi elchilar yuborildi. Makka mushriklari ularni garovga, asir olganday qaytarib jo‘natmadilar.

Musulmonlar ham Makka vakillarini vaqtincha ushlab turdilar. Oradagi keskin vaziyatni yumshatish uchun Makka rais lari Hudaybiya degan joyda 10 yillik sulh shartnomasi tuzishni taklif etdilar. Hudaybiya shartnomasi musulmonlar uchun murakkab vaziyatda tuzildi.

Unda asosan quyidagi shartlar belgilangan edi:

1. Ikki o'rtadagi dushmanlik tugatiladi, talonchilik va makr–hiylalarga yo'l qo'yilmaydi;

2. Istagan odamlar Muhammad alayhis–salom bilan shartnoma tuzib, ittifoqqa qo'shilaveradi, istagan odamlar qurayshiylar bilan shartnoma tuzib, ittifoqqa qo'shilaveradi.

3. Muhammad (a.s.) o'sha yili Makkaga kirmay qaytib ketadi va kelasi yili Haj qiladi. Mazkur mavsumda, makkaliklar shahardan chiqib turadi va musulmonlar uch kun Makkada bo'shatib beriladi.

Shartnomaga musulmonlar jamoasi tarafidan Rasululloh, Abu Bakr Siddiq, Umar ibn Xattob, Abdurrahmon ibn Avf, Abdulloh ibn Suhayl, Sa'd ibn Abi Vaqqos, Muhammad ibn Maslama Quraysh mushrikleri tarafidan Suhayl ibn Amr, Miqroz ibn Hafs, Xuvaylid ibn Abdul Uzzo imzo chekdilar. Hijratning sakkizinchi yili, Ramazon oyining 17– kunida Makka shahri musulmonlar tomonidan fath etiladi. Muhammad (a.s.) Haj ibodatini bajarib, Madinaga qaytgach, ko'p o'tmay, 632 yilning 8 iyun kuni vafot etdilar va o'z uylariga, ya'ni Masjidu–n–nabaviy (Payg'ambar masjidi)ga dafn qilindilar. Muhammad (a.s.) 632 yilda Madinada vafot etganlaridan so'ng u kishining to'rtta safdoshi – Abu Bakr Siddiq, Umar ibn Xattob, Usmon ibn Affon, Ali ibn Abi Toliblar musulmonlarga rahbarlik qilishda payg'ambarga vorislik qildilar. Ular “Xalifat Rasulillah” (“Payg'ambarning o'rinbosari”) ma'nosida “Xalifa” deya ataldilar. Keyingi davr manbalarida mazkur to'rt xalifa “al–Xulafo ar– roshidun” («To'g'ri yo'ldan boruvchi xalifalar») deb nomlanadi. Xulafoi roshidin, ya'ni «chahoryor» (yoki «choriyor» – Payg'ambarning to'rt hamrohi, do'sti, sahobasi) ning xalifalik davrlari quyidagi tartibda bo'lgan: 1) Abu Bakr Siddiq – 632–634; 2) Umar ibn Xattob – 634–644; 3) Usmon ibn Affon – 644–656; 4) Ali ibn Abi Tolib – 656–661.

Qur'oni karim – Alloh tarafidan 23 yilga yaqin muddat mobaynida Muhammad payg'ambarga (a.s.) Jabroil farishta (a.s.) orqali ba'zan oyat–oyat, ba'zan esa to'liq sura tarzida nozil qilingan ilohiy kitobdir. Bu kitob islom dinining muqaddas manbasi hisoblanadi. Mazkur ilohiy kitobning bir necha nomlari bo'lib, ulardan “Qur'on” (arabcha – o'qish), “Furqon” (farqlovchi), “al–Kitob” nomlari mashhur. Qur'on 114 ta sura, 6236 oyatdan iborat. Sura Qur'ondan bir bo'lak bo'lib, eng kami uchta, eng ko'pi 286 oyatni o'z ichiga oladi. Qur'ondagi suralar o'z mazmuniga yoki nozil bo'lgan vaqtiga, ya'ni xronologik tartibiga qarab emas, balki Muhammad (a.s.) belgilab bergan tartib asosida payg'ambar vafotlaridan keyin jamlab yozilgan. U ilk

bor Muhammad alayhis-salomga Hiro g'orida nozil bo'lgan. Yuqorida qayd etilganidek, Muhammad (a.s.) qirq yoshga to'lganlarida asosiy vaqtlarini Hiro g'orida ibodat bilan o'tkazar edilar. Mana shunday ibodat bilan mashg'ul bo'lib turgan paytlarida Jabroil farishta kelib "O'qing!" deydi. U kishi "Men o'qishni bilmayman" deydilar. U farishta bellaridan shunday siqadi—ki, hatto Rasululloh qiyinalib ketadilar. So'ng qo'yib yuborib yana: "O'qing" deydi. "Men o'qishni bilmayman" deydilar. U yana siqadi, yana qiynaladilar. So'ng qo'yib yuborib yana bir bor: "O'qing!" deydi. "Men o'qishni bilmayman" deb uchunchi marotaba javob qaytaradilar. U yana ushlab siqadi, so'ng qo'yib yuborib Alaq surasining quyidagi besh oyatini o'qiydi: "(Ey, Muhammad, butun borliqni) yaratgan zot bo'lmish Rabbingiz nomi bilan o'qing! U insonni laxta qondan yaratdi. O'qing! Rabbingiz esa karamli zotdir. U insonga qalam bilan (yozishni) o'rgatgan zotdir. U insonga bilmagan narsalarini o'rgatdi". Qur'ondan eng birinchi nozil bo'lgan oyat "Alaq" surasining boshidagi besh oyat bo'lsa, eng birinchi nozil bo'lgan to'liq sura "Muddassir" surasidir. Muhammad (a.s.) Qur'on oyatlarini Jabroildan qabul qilar, boshqa musulmonlar u kishidan eshitib, yodlab olardilar. Yozishni biladigan odamlar, jumladan, Abu Bakr Siddiq, Umar ibn Xattob, Usmon ibn Affon, Ali ibn Abi Tolib, Zayd ibn Sobit, Ubay ibn Ka'b xurmoning po'stlog'i, yapaloq tosh, katta suyak, teri va shunga o'xshash narsalarga Qur'onni yozib borganlar. Nozil bo'lgan Qur'on oyatlarini yozib boruvchilar "Kuttabu-l-vahy"(Vahiyi yozib oluvchi kotiblar) deb nomlangan. Shu tariqa Qur'on 13 yil Makkada va 10 yil Madinada nozil bo'ldi. Sura va oyatlar nozil bo'lish vaqti va joyiga ko'ra ikkiga bo'linadi: Makkiy (payg'ambarlikning Makka davrida nozil qilingan) suralar va Madaniy (Madina davrida nozil qilingan) suralar. Makkiy sura va oyatlar qisqa, lekin keng ma'noni o'zida qamrab olgan, eshitgan kishini larzaga keltiruvchi balog'atli va jarangdor lafzlar bilan yozilgan bo'lib, mazmun jihatdan yakkaxudolikka va Allohning o'zigagina ibodat qilishga targ'ib, risolat (payg'ambarlik)ni, qayta tirilish va hisob-kitobni tasdiqlash, qiyomat va undagi holatlar, do'zax va uning azobi, jannat va undagi ne'matlar, borliqdagi mo'jizalar haqidagi oyatlar. Madaniy sura va oyatlar esa uzunroq bo'lib, mazmunan shariatning umumiy asoslarini o'rnatish, jamiyat amal qilishi lozim bo'lgan ahloq normalari, yetimlarning molini zulm bilan yeyish, qizlarni tiriklayin ko'mish kabi johiliyatni yomon illatlarini o'z ichiga olgan. Shuningdek, ibodat va muomalot (tijorat), had, oilaviy munosabatlar, meros taqsimoti, jihad, jamoat namozining fazilatlar, xalqaro aloqalar, shariat masalalarini yortishga qaratilgan. Yuqorida ta'kidlanganidek, Payg'ambar alayhis-salom davrlarida Qur'on jamlanmagan edi. Bunga sabab, birinchidan, Payg'ambar hayot bo'lgan ilk davrda Qur'on oyatlari vaqti—vaqti bilan doimiy ravishda nozil bo'lib, uni jamlab kitob holiga keltirish hali dolzarb masala darajasiga ko'tarilmagan edi. Ikkinchidan, bu davrda odamlar orasida «hali vahiy tushishi uzoq davom etadi», degan kayfiyat hukmron edi. Bu boradagi ishlar Abu Bakr Siddiq va Usmon ibn Affon davrlarida amalga oshirildi.

Payg‘ambarning (a.s.) vafotlaridan so‘ng ba‘zi arab qabilalari dindan qayta boshladilar. Abu Bakr Siddiq tomonidan ularga qarshi olib borilgan “ridda” urushlarida musulmonlardan bir ming ikki yuz kishi, shu jumladan yetmishga yaqin murattab (Qur‘onni to‘lib, tartib bilan yod olgan) qorilar shahid bo‘ldilar. Buning xabari Madinaga yetib kelgach, Umar ibn Xattobning tashabbusi va tavsiyasi bilan Abu Bakr Siddiq Rasulullohning vahiy kotiblaridan bo‘lgan Zayd ibn Sobitni chaqiradilar va Qur‘on oyatlarini sahifalarga jamlashni buyuradilar. Shu tariqa xalifa Abu Bakr Siddiq davrlarida Qur‘on ilk bor sahifalarda jamlandi. Uchinchi xalifa Usmon ibn Affon davrida Qur‘on ikkinchi marta jamlanib, kitob holatiga keltirildi. Qur‘oni karimning Usmon roziyallohu anhu tomonidan jamlanishidagi eng ahamiyatli jihati uning qiroatini yagona shaklga keltirilgani edi.

Bundan «Ilk Qur‘on oyatlari yozilgan nusxalar orasida har xillik mavjud bo‘lganmi?» degan savol tug‘ilishi tabiiy. Bu savolga javoban Qur‘on ilmlariga oid «etti xil qiroat» haqidagi ma‘lumotni keltirib o‘tish joizdir. «Etti qiroat» deganda Qur‘onning yetti xil lahjaga xos qiroat bilan o‘qish nazarda tutiladi. Bunda oyatdagi bir so‘z o‘rniga o‘sha ma‘noni anglatuvchi boshqa so‘z (sinonim) qo‘yilgan edi. Shu tariqa oyatlar Arabiston yarim orolidagi Quraysh, Huzayl, Havozin, Yaman kabi eng yirik qabilalarning lahjalarida nozil bo‘lgani rivoyat qilinadi. Bu turli qabila vakillariga Qur‘on tilovati va uni tushunish oson bo‘lishi uchun berilgan yengillik edi. Ilk davrdagi hazrat Abu Bakr tomonidan jam qilingan Qur‘on to‘plami shu yetti qiroatni o‘z ichiga olgan edi. Ammo ushbu «etti qiroat» keyinchalik musulmonlar orasida ba‘zi ixtiloflarning paydo bo‘lishiga sabab bo‘ldi. Usmon ibn Affon davrida islom dini Arabiston yarim orolidan tashqariga chiqib, turli xalqlar orasida tarqaldi, musulmonlar soni ko‘paydi. Yangi islomga kirgan aholi o‘sha yerga borgan qori sahobalardan Qur‘on qiroatini o‘rganar edilar. Mazkur sahobalar esa o‘z lahjalariga xos qiroatni o‘rgatardilar. Ikki xil qiroat sohibi bir joyda jam bo‘lib qolsa, har bir tomon o‘zining qiroati to‘g‘ri va afzal deb, da‘vo qilar, natijada tortishuv yuzaga kelardi.

Mazkur Mus‘hafni jamlash ham Abu Bakr Siddiq davridan tajribaga ega bo‘lgan sahoba – Zayd ibn Sobitga yuklandi. Mazkur ish amalga oshirilgach, Qur‘ondan yozilgan boshqa har xil lahjalardagi sahifalar kuydirib yuborildi. Yagona mus‘hafdan bir necha nusxa ko‘chirildi va har bir mintaqaga bittadan yubordilar.

Usmon ibn Affon turli yurtlarga yuborgan Mus‘haflarning soni oltita bo‘lib, ular Makkiy, Shomiy, Basriy, Kufiy, Madina ahli uchun umumiy bo‘lgan Madaniy va xalifaning o‘zi uchun xos bo‘lgan Madina Mus‘haflaridir.

Hadis – Islom dinining Qur‘oni karimdan keying o‘rinda turuvchi muqaddas manbasidir. U Muhammad payg‘ambarning (a.s.) aytgan so‘zlari, qilgan ishlari, taqrirlari (ko‘rib yoki eshitib qaytarmagan ishlari) yoki u kishiga berilgan sifatlarni o‘zida mujassam qilgan xabar va rivoyatlardir. «Hadis» so‘zining lug‘aviy ma‘nosi – «so‘z, xabar, hikoya; yangi narsa». Sunnat hadis so‘zidan kengroq ma‘noni bildiradi.

Sunnat Rasululloh (a.s.)ning pokiza sayratlari, turmush tarzlari, diniy yo'llariga nisbatan ishlatilgan. Sunnat qavliy, fe'liy va taqririyga bo'linadi. Qavliy sunnat – Rasululloh (a.s.)ning turli holat va munosabatlarda aytgan so'zlari. Fe'liy sunnat – Rasululloh (a.s.)dan sodir bo'lgan shar'iy ishlar. Taqririy sunnat – sahobiylar tomonidan qilingan biror hatti–harakat yoki gap–so'zga Payg'ambar (a.s.)ning indamasliklari yoki ma'qullashlari. Shuningdek, Payg'ambarning (a.s.) xalqiy (tana ko'rinishlari), xuluqiy (axloqlari), va tarjimai hollariga oid ma'lumotlar ham sunnat deyiladi. Hadislar tarkib jihatidan ikki qismdan: aynan xabar beruvchi matn va uni rivoyat qilgan roviylar zanjiri – isnod yoki sanaddan iborat. Isnod hadisning tarkibiy qismi bo'lib, uni uning aytuvchisiga bog'lash, ya'ni matnga olib boradigan kishilar (roviylar) zanjiri. Hadisning boshlanishida uni birinchi aytgan va eshitgan kishidan hadis yozayotgan musannifga qadar barcha roviylarning nomlari birma–bir ko'rsatib chiqiladi, mana shu hadisning tayanadigan asosi isnodi bo'ladi. Isnod kuchli

deb topilsa matn ham ishonchli hisoblangan. Shuning uchun muhaddislarning asosiy vazifalaridan biri hadislarning isnodini kuchli yoki kuchsiz ekanini ko'rsatib berish bo'lgan.

Hadislar o'zidagi ma'lumot xarakteriga qarab ikkiga bo'linadi:

–al–hadis al–qudsiy. Ma'nosi Alloh taolodan bo'lib, aytilishi, ya'ni lafzi Rasululloh (a.s.)dan bo'lgan hadislar. Shuningdek, u «Hadisi Rabboniy», «Hadisi ilohiy» deb ham aytiladi. Uni Alloh taolo o'z nabiyyiga ilhom berish, tushida ko'rsatib bildirish orqali xabar beradi, qudsiy hadisning martabasi Qur'oni karim bilan hadisi nabaviy o'rtasidadir;

–al–hadis an–nabaviy (bunda ma'no ham, lafz ham Payg'ambarniki deb hisoblanadi).

Ilk islom davrida hadislarning Qur'oni karim oyatlariga aralashib ketishi oldini olish uchun ularni yozish ta'qiqlangan edi. Qur'on oyatlarining aksar qismi nozil bo'lgandan so'ng hadislarni yozma qayd qilib borishga ijozat berilgan va ba'zi sahobalar tomonidan yozib borilgan. Ilk hadis to'plami xalifa Umar ibn Abdulaziz ko'rsatmasiga binoan muhaddis Muhammad ibn Shihob Zuhriy (670–721) tomonidan yozilgan. Shu davrdan e'tiboran hadis to'plamlarini yozish odat tusiga kirib, boshqa olimlar ham bu ishni davom ettirdilar. Milodiy IX asr hadis ilmi tarixida oltin davr hisoblanadi. Bu davrda hadislarni ishonchli manbalarga asoslanib, maromiga yetkazib, ilmiy ravishda tartibga solish olimlar orasida eng sevimli hamda zaruriy mashg'ulot darajasigacha yetgan. Shuningdek, bu asrda to'plangan hadislar ilmiy nuqtai nazardan muayyan qonun–qoidalarga tayangan holda tartibga tushirilgan.

IX asr mavjud hadis to'plamlari qayta ishlangan holda ularni boblar bo'yicha tasnif qilib, musannaflar yozish davri bo'ldi. Musannaflar tuzilishi mobaynida hadislar, asosan ularning isnodlari tanqidiy o'rganilib, sahih (ishonchli)lari hasan va zaif (ishonchsiz)laridan ajratildi. Islom olamida shunday musannaflardan oltitasi XII – XIII

asrlardan boshlab alohida e'tiborga molik deb sanala boshlandi. Faqat sahih hadislarini birinchi to'plagan kishi muhaddislar imomi nomi bilan mashhur bo'lgan Imom Muhammad ibn Ismoil Buxoriy (vaf. 870 y.) edi. U faqat sahih hadislarini jamlab, mavzularni boblarga ajratdi va o'z asarini «al-Jome' al-musnad as-sahih al-muxtasar min umur Rasululloh (a.s.) va sunanihi va ayyamihi» (qisqacha «al-Jome' as-sahih») deb nomladi. Imom Buxoriydan keyin bu ishni uning shogirdi Imom Muslim ibn Hajjoj Qushayriy (vaf. 875 y.) davom ettirdi. Mazkur muhaddislardan tashqari Imom Abu Dovud (vaf. 888 y.), Imom Abu Iso Termiziy (vaf. 892 y.), Imom Nasoiy (vaf. 916 y.), Imom Ibn Moja (vaf. 887 y.) kabi olimlar ham faoliyat yuritib, o'zlarining «Sunan» asarlarini yozib hadis ilmida o'chmas iz qoldirdilar.

2. Muhammad ibn Abdulloh (s.a.v.) ning tavalludlari.

Hadis ilmi taraqqiyotida ayollarning ham o'ziga xos o'рни bor. Hadislarni rivoyat qilgan roviylar haqida xabar beruvchi ilm ar-rijol (roviylar haqidagi ilm) asarlarida bu sohada zikr etilgan hadis rivoyatchilari orasida ko'plab ayollar uchraydi.

Islom so'zining arab tilidagi lug'aviy ma'nosi – taslim bo'lish, bo'ysunish, istilohda esa yagona Allohga bo'ysunish ma'nolarini beradi. Islom dini ta'limoti bo'yicha Muhammad payg'ambar (a.s.) avvalgi payg'ambarlar ishini davom ettirgan, ular dinini qayta tiklagan, qiyomat oldidan yuborilgan oxirgi payg'ambar (Xotam al-anbiyo) – nabiy va rasul deb tan olinadilar.

Imon, namoz, zakot, ro'za, haj islomning besh asosiy sharti – rukni hisoblanadi.

“Imon” so'zining lug'aviy ma'nosi ishonmoq, tasdiqlamoq bo'lib, istilohda esa “La ilaha illallohu Muhammadun rasululloh” (“Allohdan o'zga iloh yo'q va Muhammad – Allohning payg'ambari”) kalimasini til bilan aytib, dil bilan tasdiqlash demakdir. Hadislarda imonning yetti sharti borligi ta'kidlanadi. Ular:

–Allohning borligi va birligiga, Qur'on va hadislarda bayon qilingan barcha ismlari va sifatlariga imon keltirish, uning barcha buyruqlarini qabul qilish va barcha qaytargan narsalaridan qaytish.

–farishtalarning borligiga imon keltirish. Farishtalar (malo'ika) Allohning nurdan yaratgan, uning buyruqlarini so'zsiz bajaruvchi, uning amridan tashqari chiqmaydigan xos bandalaridir. Ulardan Jabroil, Mikoil kabi buyuk farishtalarning nomlari Qur'onda zikr etilgan;

–ilohiy kitoblarga imon keltirish. Alloh Muhammad payg'ambarga (a.s.) Qur'onni nozil qilganidek, boshqa payg'ambarlarga ham kitoblar tushirgan. Ulardan bizga ma'lum bo'lganlari: Ibrohim payg'ambarga “Sahifalar”, Muso payg'ambarga “Tavrot”, Dovud payg'ambarga “Zabur” va Iso payg'ambarga berilgan “Injil” kitoblaridir. Islom ta'limotiga ko'ra, oldingi ilohiy kitoblar buzilib ketganligi sababli Qur'on ularning ta'limotini tiklab kelgan;

–payg‘ambarlarning haqligiga imon keltirish. Alloh insonlarga to‘g‘ri yo‘lni ko‘rsatish uchun payg‘ambarlar yuborgan. Barcha payg‘ambarlar bir zanjirning bo‘g‘inlari kabi dirlar. Qur’onda 25 payg‘ambarning nomlari zikr etilgan. Hadislarda payg‘ambarlarning umumiy soni 124 ming ekani bayon qilingan;

–oxirat kuniga ishonish. Islom ta’limotiga ko‘ra, bu dunyo bir sinov maydonidir. Bu dunyoda qilingan savob ishlar uchun mukofot, gunoh ishlar uchun jazo beriladigan oxirat hayoti mavjud;

–taqdirga – inson boshiga tushgan yaxshiligi yomonlik Allohdan ekaniga e’tiqod qilish;

– o‘limdan keyin qayta tirilishga ishonish. Islom ta’limotiga ko‘ra, qiyomat kuni bo‘lganda barcha insonlar qabrdan turadilar va mahshargoh maydoniga yig‘iladilar. U yerda barcha odamlar dunyodagi amallariga qarab mukofot (jannat) yoki jazo (do‘zax)ga mahkum etiladilar. Namoz islomda imondan keyin musulmonlarga farz qilingan ikkinchi amal hisoblanadi. Qur’oni karimda namozga qat’iy buyruqlar kelgan bo‘lib, uning ba’zi shartlari bayon etilgan. Namozning vaqti, miqdori hamda ado etish tartiblari hadislar bilan joriy etilgan. Bu masalada turli mazhablarda ba’zi farqlar bor. Har kuni besh vaqt namoz: bomdod, peshin, asr, shom va xufton ado etiladi.

Zakat (arabcha – poklash) ehtiyojdan tashqari bo‘lgan boylikning qirqdan bir qismini (2,5 %) sadaqa qilish. Zakot moli zakot miqdoriga yetgan badavlat kishilar uchun farz etilgan. Zakot yetim–esir, beva–bechoralar, musofirlar, qarzдорlar kabi muhtoj kishilarga beriladi. Zakot hijriy hisob bilan bir yil davomida ishlatilmay turgan yoki shaxsiy ehtiyojdan tashqari xususiy mulk sifatida foydalanilayotgan mablag‘dan beriladi. Zakot islomdagi ijtimoiy himoyalashning o‘ziga xos ko‘rinishidir. Bu jamiyat taraqqiyoti, tinch va osudaligi yo‘lida katta ahamiyat kasb etadi.

Ro‘za yilda bir oy – hijriy qamariy kalendarning Ramazon oyi davomida kunduz kunlari yeyish–ichish va jinsiy aloqada bo‘lishdan tiyilish. Ro‘za hijratning ikkinchi yili farz bo‘lgan. Bu ibodat kasal yo safarda bo‘lgan kishilardan boshqa kunlarda tutib berish sharti bilan soqit qilinadi. Haj – qodir bo‘lgan kishi uchun umrida bir marta Makka shahridagi Ka’bani ziyorat qilish va ushbu ibodat o‘z ichiga oladigan arkonlarni ado etishdan iborat. Haj zulhijja oyining sakkizinchi kunidan boshlanadi. Haj qilishning uch turi mavjud: “ifrod” – faqat haj amallari bajariladi, “qiron” – haj va umra amallari oldinma–ketin bajariladi, “tamattu” – avval umra qilinib, ehromdan chiqiladi va zulhijja oyining sakkizinchi kuni ehromga kirib, haj ruknlari ado qilinadi. Hajning farzi uchta: ehrom bog‘lab niyat qilmoq, Arafotda turmoq, Ka’bani tavof qilish.

Islom ta’limotiga ko‘ra, har bir inson vafot etadi. Bunga Qur’ondagi Oli Imron surasining 185–oyati dalil bo‘la oladi: “Har bir jon o‘lim (achchig‘i)ni totuvchidir”.

Qiyomat (arabcha–tik turish, o‘rindan turish) o‘liklarning qayta tirilishi va o‘rnidan turishi ma’nosida ishlatiladi.

Islom dinida qiyomatning yaqin qolganligi masalasi juda dolzarb bo‘lsada, uning

aniq qachon sodir bo'lishini faqatgina Alloh bilishi, hatto farishtalar ham bu haqda hech qanday ilmga ega emasligi, payg'ambarlar ham uning aniq vaqtini bilmaganlari, ularga faqatgina uning alomatlari bildirilganligiga e'tiqod qilinadi.

Islom ta'limotiga ko'ra, qiyomat kuni har bir odamning bu dunyoda qilgan amallari tarozuda o'lchanadi. U mutlaq adolat tarozusi bo'lib, hammaga bir xil munosabat qilinadi. Hech bir kishining foydasidan kamaytirilmaydi, zarariga qo'shilmaydi.

Islom e'tiqodiga ko'ra, do'zax ustiga sirot nomli ko'prik qurilgan bo'lib, mahshar (qiyomat kuni bandalar yig'iladigan va savol-javob bo'lib o'tadigan joy)da turish tamom bo'lganidan keyin odamlarga o'sha ko'prikdan o'tishga amr qilinadi.

Jannat (arabcha – bog', bo'ston) taqvodor dindorlar narigi dunyoda rohat va farog'atda yashaydigan joy. Jannat vasfi Qur'oni karimning ko'pgina suralarida, jumladan, Oli Imron, Hadid, Qof, Najm, Rahmon, Voqea, Muhammad, G'oshiya, Inson va boshqa suralarda keltirilgan.

Diniy aqida bo'yicha, bu dunyodagi hayoti davrida imonli holida ezgu ishlar bilan shug'ullangan kishilarga Alloh tomonidan jannatdan joy beriladi. Qur'onda jannat daraxtzorlari ostidagi ariqlarda zilol suvlar oqib turadi, deb ta'riflanadi. U yerda insonlar qarimaydi va kasal ham bo'lmaydi. Jannatda eng oliy ne'mat – Allohning diydorini ko'rishlik hisoblanadi.

Do'zax – din talablarini bajarmagan gunohkorlar oxiratda jazolanadigan joy. Islom dinidagi asosiy tushunchalardan biri. Do'zaxni Alloh kofirlarga va gunohkor bandalarga jazo berish uchun yaratgan. Diniy tasavvurga ko'ra, do'zax dahshatli chuqurlik, ichida olov yonib turadi. Do'zaxga mahkum qilingan bandalar shu olovga tashlanadi, ular qaynoq suv ichadi, u yerda o'sadigan Zaqqum daraxtining mevasi bilan ovqatlanadi, cheksiz azob chekadi, terilari kuyadi. Do'zax azoblaridan yana biri achishtiruvchi sovuqdir. Do'zax bir necha tabaqadan iborat bo'lib, har bir gunohkor o'z gunohiga qarab tabaqalarda azoblanadi. Islom diniga ko'ra, do'zaxning Hoviya, Jahim, Saqar, Lazo, Xutama, Sair, Jahannam kabi yetti darvozasi bor. Do'zax ham jannat kabi yaratilgan bo'lib, uning azob-uqubatlari jism va ruhga oid hamda abadiy boqiy qoluvchidir. Islom dinida diniy amallar ahamiyatiga ko'ra bir necha kategoriyalarga bo'linadi. Ulardan asosiylari quyidagilardir. Farz deb islom dini ta'limotiga ko'ra, inkor qilib bo'lmaydigan darajada qat'iy dalil bilan bajarilishi talab qilingan amalga aytiladi. Masalan, besh vaqt namoz o'qish, Ramazon oyida ro'za tutish, zakot berish, ilm o'rganish kabi amallar farz hisoblanadi. Farzni bajarish shart hisoblanadi. Vojib atamasi hanafiy mazhabi ta'limotiga ko'ra, Qur'oni karimda to'g'ridan-to'g'ri buyruq kelmagan holda bajarilishi shart bo'lgan amallarga nisbatan ishlatiladi. Masalan, vitr, hayit namozlarini ado etish. Vojibning darajasi farz bilan deyarli barobar.

Sunnat – islom shariatiga ko'ra, Rasululloh (a.s.) buyurgan zimmaga

yuklanmagan, lekin bajarilishi talab qilingan amal. Sunnatga amal qilish vojibga amal qilish kabi talab etiladi.

Mazhab ulamolari sunnatni, ikkiga bo'lishgan:

1. Sunnati muakkada (ta'kidlangan sunnat) – vojibdan keyingi darajada turadi, masalan, farzga qo'shib o'qiladigan sunnat namozlarni o'qish. Bunga amal qilgan kishi savobga ega bo'ladi, amal qilmagan kishi esa muayyan darajada gunohkor hisoblanadi.

2. Sunnati zoida (qo'shimcha sunnat) – yeb–ichish, yurish–turish kabi ishlarda Payg'ambar alayhissalomga ergashish. Bunga amal qilgan kishi savobga erishadi, amal qilmagan kishiga gunoh bo'lmaydi. Mandub – bajarilishi afzal bo'lgan amal. Masalan, Fitr (Ramazon hayiti) kuni taom yeyish, misvok va g'usl qilish, xushbo'y surtish va eng yaxshi kiyimlarni kiyish mandub hisoblanadi. Bu ishlarni amalga oshirgan kishi savobga erishadi, lekin uni tark qilgan kishi gunohkor hisoblanmaydi.

Muboh islom shariati qilish yoki qilmaslikni kishilar ixtiyoriga qo'ygan amallar. Masalan, Ramazon oyida kechasi yeb–ichish kabi. Bunda shariat belgilagan chegaradan chiqmay tasarruf etish muboh sanaladi. Mubohda uni qilgan ham, qilmagan ham – barobar, savob ham, gunoh ham bo'lmaydi. Makruh bajarilishi yomon sanalgan amaldir. U ikki xil bo'ladi: makruhi tahrimiy (harom hisoblangan makruh) va makruhi tanzihiy (pok hisoblangan makruh). Makruhi tahrimiy deb e'tiroz bildirilishi mumkin bo'lgan dalil bilan bajarilishi taqiqlangan amalga aytiladi. Masalan, birovning sovchiligi ustiga sovchi yuborish, erkaklarning tilla taqishi va ipak kiyim kiyishi makruhi tahrimiy hisoblanadi.

Makruhi tanzihiy bajarilishi qat'iy hujjatlar bilan taqiqlanmagan, ammo qilinmasligi qilinishidan afzal bo'lgan amaldir. Mushuk, yirtqich qushlar tekkan suvda tahorat olish bunga misol bo'ladi. Harom atamasi islom ta'limotiga ko'ra, inkor qilib bo'lmaydigan darajada qat'iy dalillar bilan bajarilishi taqiqlangan amal. Masalan, odam o'ldirish, zino qilish, o'g'rilik kabi amallar harom hisoblanadi. Boshqa dinlarda bo'lgani kabi, islom dinida ham o'ziga xos marosim va tantanalar mavjud. Shulardan biri "Iyd al–fitr" yoki "Iyd Ramazon" deb nomlanuvchi musulmonlar bayrami hijriy oyi hisobida ramazon oyi tugashi bilan nishonlanadi. "Iyd al–adho" – Qurbon hayiti deb nomlanuvchi ushbu bayram iyd al–fitrdan taxminan 70 kun keyin nishonlanadi. Ushbu bayram Ibrohim payg'ambar nomi bilan bevosita bog'liqdir. Ushbu bayram qo'y, mol va tuya so'yilib nishonlaniladi. "Iyd al–adho" kuni hojilar islom dinining besh ruknidan biri bo'lgan haj ibodatini amalga oshiradilar. Juma kuni – hafta kunlari orasida ajralib turadigan, "kunlarning sayyidi" deb nom olgan kun. Bu kunda musulmonlar chiroyli kiyimlarni kiyib, xushbo'y atirlarni sepib masjidga boradilar va juma namozini o'qiydilar. Shuningdek, yaqinlarining hollaridan xabar oladilar, kasallarni ziyorat qiladilar va shu kabi savob ishlarni ko'proq bajarishga harakat qiladilar.

3. Hijrat va Madina davri.

Muhammad (a.s.) vafotlaridan so'ng musulmonlar jamoasi orasida ilk bo'linishlar yuzaga kela boshladi. Chunki musulmon jamoasiga endi kim boshchilik qiladi, degan masalada barchaning fikri bir xil emasdi. Bunga sabab Rasululloh tomonlaridan jamoaga keyingi rahbar kim bo'lishi ochiq-oydin aytilmaganida edi. Ammo Payg'ambarga «xalifa» (o'rinbosar) bo'lishga sahobiy Abu Bakr Siddiq uchun alohida «ishora» berilgani manbalarda qayd etilgan. Jumladan, Payg'ambar alayhis-salom vafotlari arafasida faqat Abu Bakr Siddiqning orqasida turib namoz o'qiganlari, o'zlari betob bo'lganlarida aynan Abu Bakrni musulmonlarga imom qilib tayinlaganlari mazkur «ishora» sifatida qabul qilingan edi.

Xalifa Abu Bakr (632–634) va Umar ibn Xattob (634– 644) rahbarligi davrida ixtiloflarga birmuncha barham berildi. 644 yilda xalifa Umar (r.a.) suiqasd natijasida halok bo'ladilar. Shundan so'ng, Usmon ibn Affon (r.a.) uchinchi xalifa etib saylanadilar. Usmon (r.a.) davrlarida xalifalikning turli yerlarida yangi musulmonlar orasida fitnalar qo'zg'ala boshlaydi. Fitnachilar hazrati Usmonni yuqori lavozimlarga o'z qarindoshlarini qo'yganda ayblab bosh ko'tarishadi.

656 yili Basra, Kufa va Misrlik bir necha ming fitnachilar Madina atrofini o'rab olib bir qator talablarni qo'yadilar. Xalifa Usmon (r.a.) ularning barcha talablarini qondiradilar. Shunga qaramay, qo'zg'olonchilar “Usmon bizni o'ldirmoqchi bo'ldi”, deb yolg'on xabar tarqatadilar va halifaning uyiga bostirib kirib, uni qatl etadilar. Aynan Usmon ibn Affonning (r.a.) o'ldirilishi keyingi bo'linishlar, ixtiloflar va fitnalarning boshlanishi bo'ldi. Musulmon davlatining to'rtinchi rahbari etib Rasululloh (a.s.)ning jiyani va kuyovi bo'lgan Ali ibn Abu Tolib (r.a.) saylandi. O'sha davrdagi qoidaga binoan xalifa Madinada saylanar, keyin esa boshqa hududlarning barchasi o'sha xalifaga bay'at berishi lozim edi. Xalifa Aliga Misr va Shom (Suriya) voliyolari (hokimlari)dan tashqari barcha hudud ahli bay'at qiladi. Misr voliysi Amr ibn Oss (r.a.) va Shom amiri Muoviya ibn Abu Sufyon (r.a.)lar qarindoshi Usmon ibn Affonning o'ldirilishidan qattiq qayg'uga tushdi va uning qotillaridan qasos olinmaguncha yangi xalifaga bay'at qilmaslikka qaror qiladi.

Xalifa Ali (r.a.) esa davlat ichidagi nozik ijtimoiy– siyosiy vaziyatni inobatga olgan holda fitnachilarga nisbatan chora ko'rishni kechiktiradi. Shu payt, Makkada Oisha (r.a.), Zubayr ibn Avvom (r.a.), Talxa ibn Ubaydulloh (r.a.)lar boshchiligida bir qator sahobalar qo'shin to'plab **Usmon (r.a.)ning** qotillaridan o'zlari qasos olishga qaror qilib, xalifa ruxsatisiz Basra va Kufaga yo'l oladilar. Bundan xabar topgan Xalifa Ali ularni bu ishdan qaytarish uchun yo'lga chiqadi va Kufa shahri yaqinida ularga yetib olib muzokaralar o'tkazadi. Natijada, ikki tomon kelishuvga erishib makkaliklar ortga qaytishga va bundan buyon xalifaning izmidan chiqmaslikka kelishadilar. Biroq, o'sha tuni bir guruh odamlar ikki tomonga ham hujum qilib hazrat Ali va makkaliklar

qo'shinini urishtirib qo'yadi. Mazkur voqea tarix kitoblarida "Jamal voqeasi", yoki "Jamal jangi" deb ataladi.

657 yilda Xalifa Ali va bay'at qilishni istamagan Shom (Suriya) hokimi Muoviya o'rtasida «Siffin» deb ataluvchi joyda jang bo'lib o'tadi. Bu voqea, islomdagi ilk bo'linishlarning boshlanishiga sabab bo'ldi. Musulmonlarning qoni to'kilishini istamagan ikkala taraf sulh tuzishga va xalifalik saylovini qaytadan o'tkazishga kelishib oldilar. Xorijiylik. Hazrat Alining yon berganidan norozi bo'lgan uning 12 ming askari bo'ysunishdan bosh tortib, Harura nomli qishloqqa ketdilar. Bu guruh keyinchalik «Xorijiylik» (yoki al-xavorij, xorijiy) deb ataldi. Ba'zi manbalarda ularning nomi ilk to'plangan joylariga nisbat berilib, «Haruriya» deb ham ataladi. Xavorijlar o'zlariga Abdulloh ibn Vahb Rosibiyni amir etib saylab, Ali va Mu'oviyani yo'q qilish payiga tushdilar. Xalifa Alini 660 yilda xorijiy Abdurrahmon ibn Muljam o'ldirgach, xavorijlar ikki firqaga bo'linib, biri Iroqda qoldi, ikkinchisi Arabiston yarim oroliga ketdi. Umaviylar davrida xavorijlarga qarshi keskin kurash olib borildi. Chunki ular Umaviylar davlatiga katta xavf solardilar. Bu davrda xavorijlar kuchayib, Kirmon, Fors, Yamoma, Hadramavt, Toif va Yaman kabi shahar va o'lkalarni egalladilar.

Hokimiyat Umaviylardan Abbosiylar sulolasi (749– 1258) qo'liga o'tganidan keyin ham bu toifa bir muddat o'z kuchini yo'qotmadi. Biroq Abbosiylar uzoq vaqt ularga qarshi uzluksiz olib borgan kurashlaridan so'nggina xavorijlar inqirozga yuz tutdi. Xavorijlar ta'limotlari asosi quyidagilardan iborat:

– ular gunohkorni «kofir» deb e'lon qildilar. Shunga ko'ra xalifa Usmonni Abu Bakr va Umar yo'lidan yurmagan uchun kofir deyishadi. Ali, Muoviya, Abu Muso Ash'ariy, Amr ibn Oslar muxolif guruhlarda qatnashganlari uchun ular nazdida kofirlar;

– «zolim» podshohga qo'lda qilich bilan qarshi chiqishni diniy vazifa (vojib) deb biladilar. O'z e'tiqodini yashirish tamoyili (taqiya) rad etadilar. O'zlari harbiy jihatdan zaif bo'lsalar ham, qudratli «zolim» podshohga qarshi chiqish vojib bo'laveradi, deb hisobladilar;

– xalifalikka har qanday odam, Quraysh qabilasidan yoki arab bo'lishligidan qat'i nazar, musulmonlar tomonidan saylanishi mumkin. Xalifalik, shialar aytganidek, ma'lum jamoat (sulola) ichida cheklanmagan;

– namoz, ro'za, zakot va boshqa amallarni imonning bir bo'lagi, deb hisoblaydilar. Kishi to barcha amallarni bajarmaguncha, dili bilan tasdiqlab, tili bilan aytishi musulmon deb tan olinishi uchun kifoya emas.

VII asr ikkinchi yarmida xavorijlar orasida yigirmaga yaqin turli guruhlar paydo bo'ldi. Ular ichida eng yiriklari – ibodiylar, azoriqalar hamda sufriylar bo'lib, o'z yo'l boshchilari nomi bilan shunday atalganlar. Shialik. Siffin jangi natijasida haruriylar bilan deyarli bir paytda o'zini "shiatu Ali" (Alining guruhi) deb atagan

aliparast oqim ham yuzaga keldi. VII asr oxirlariga kelib Shialik, Iroq va Eronda keng tarqalgan va islomdagi mustaqil diniy yo‘nalishga aylangan. Shialik boshda har qanday ixtilof va aqidaviy farqlardan xoli holda, faqat siyosiy harakat sifatida namoyon bo‘lgan edi. Keyinroq diniy ixtiloflar, aqidaviy farqlar vujudga kelgan.

Shia so‘zining to‘liq shakli “ash–Shia” (tarafdorlar, guruh, partiya) yoki “Shiatu Ali” (Ali tarafdorlari) bo‘lib, bu nom hazrat Aliga ergashganlar va ularning avlodlariga nisbatan berilgan. Shialikda imomat asosiy diniy ruknlardan hisoblanib, u jamiyat manfaatlaridan emas, balki din ruknlaridan kelib chiqadi deb e‘tiqod qilinadi. Ularning ta‘limotiga ko‘ra, rahbar xalq tomonidan saylanmay, balki rahbarlik meros sifatida o‘tadi. Rasululloh Alini xalifa etib tayinlagan, undan keyin esa xalifalik uning avlodlarida qonuniy meros sifatida vasiyat yo‘li bilan uzatiladi. Ular Alining xalifalikka haqli ekanligini ilohiy deb biladilar, imomlik ularda payg‘ambarlik kabi ilohiy mansab hisoblanib, Alloh bandalari orasidan payg‘ambarlarini tanlab, ularni gunohlardan saqlagani va ularga “ilmi ladun” (Alloh huzuridan berilgan ilm) bergani kabi, xalifalarni ham shunday tanlaydi deyдилar. Abu Bakr, Umar va Usmonlar esa bu huquqni Alidan zo‘rlilik bilan tortib olishgan, Ali o‘sha davrda xalifalikni boshqarganmi yoki yo‘qmi bundan qat‘i nazar, Alining xalifaligi Rasululloh vafotlarining birinchi kunidan boshlangan, deb da‘vo qiladilar.

Shialik imomiylar va ismoiliylar kabi ikki yirik oqimga bo‘linib ketgan. Imomiylar yoki “Isno ashariya”. Ushbu firqa e‘tiqodicha, imomlik Ali ibn Abu Tolibdan boshlanadi, so‘ng uning Fotimadan bo‘lgan o‘g‘lilari Hasan va Husaynga o‘tadi va nihoyat o‘n ikkinchi imom Muhammad Mahdiyga borib tugaydi. Shuning uchun bu firqa Isno ashariylar – o‘n ikki imomga e‘tiqod qiluvchilar deb ham nomlangan.

Imomiylar e‘tiqodiga ko‘ra, so‘nggi – o‘n ikkinchi imom Muhammad Mahdiy hali o‘lmagan, balki u 873–874 sanada g‘oyib bo‘lgan va oxir zamonda paydo bo‘lib, zulm va fasodga to‘lgan Yer yuzini tinchlik va adolatga to‘ldiradi. Zaydiylar. Mazkur firqa asoschisi Zayd ibn Ali Madinada tug‘ilgan (698–740). Zayd ibn Ali ilm yo‘lida Basraga borib mo‘tazila, qadariya, jahmiya va boshqa turli firqalar aqidalari asoslarini o‘rgandi. Zaydiylar e‘tiqodiga ko‘ra:

- bir vaqtning o‘zida ikki o‘lkada ikki imomga bay‘at qilish joiz;
- imomlar begunoh emas;
- taqiya (sharoit og‘irlashgan paytda e‘tiqodni sir tutish) nojoiz;
- sahobalar haqida noloyiq so‘zlarni aytish mumkin emas;
- Abu Bakr, Umar va Usmon (r.a.)lar ham xalifalikka loyiq bo‘lganlar.

Imom Zayd ibn Alining “Majmu” nomli kitobidagi qarashlari zaydiya fiqhining asosini tashkil qiladi. U ham boshqa faqihlar kabi birinchi o‘rinda Qur‘onni, keyin esa sunna, ijmo, qiyos, istihson, so‘ngra aqlni shariat asoslaridan deb hisoblaydi.

Ja‘fariya. Shialikning imomiya firqasidagi imomlardan biri Abu Abdulloh

Ja'far as-Sodiq 699 yil Madinada tug'ilgan. U Imom Muhammad ibn al-Boqirning o'g'li bo'lib, ota tarafidan nasabi Ali ibn Abi Tolibga, ona tarafidan nasabi Abu Bakr as-Siddiqqa boradi. U Islomda birinchilardan bo'lib falsafa yo'nalishiga asos solgan. Bundan tashqari u fiqh, hadis, kalom ilmlarida ham peshqadamlardan bo'lgan.

Ja'fariya mazhabining sunniylik mazhablaridan farqli tomoni shundaki, ularda qiyos bilan fatvo chiqarish usuli tan olinmaydi, hadislardan faqat payg'ambar xonadonidan bo'lgan ahli bayt rivoyat qilganlarinigina qabul qiladilar. Bundan tashqari ularda vaqtinchalik nikoh – “mut'a” va taqiya halol deb hisoblanadi.

Ismoiliya. Islomdagi shia oqimining asosiy shahobchalaridan biri bo'lib, Islom tarixida juda muhim o'rin tutgan. Ushbu firqa vakillari turli mamlakatlarda “botiniya”, “sab'iya”, “qarmatiya”, “ta'limiya”, “mulhidiya” va hokazo nomlar bilan atalganlar. Ismoiliyaning paydo bo'lishi VIII asrda shialar orasidagi bo'linishdan boshlandi. Shialarning keyinchalik “imomiylar” deb atalgan bir guruhi Ja'far as-Sodiqning kichik o'g'li Muso al-Kozimni yettinchi imom deb tan oldilar. Chunki Imom Ja'far ichkilik va maishatga berilgan katta o'g'li Ismoilni vorislikdan mahrum etib, imomlikni kichik o'g'liga vasiyat qilgan edi. Ammo, shunga qaramay, boshqa bir guruh Ja'far as-Sodiqning katta o'g'li Ismoilni imomlikning merosxo'ri sifatida tan oldilar. Ismoil otasi tirikligida vafot etganligi sababli, keyinchalik uning o'g'li Muhammad ibn Ismoilni yettinchi imom sifatida qabul kildilar. Imomiya shialaridan farqli ravishda imomatning davomchisi Ismoildir deb da'vo qiluvchi ushbu firqa o'zlarini “ismoiliylar” deb atadilar. Ismoiliya mafkurasi shakllanishining ilk davridayoq uning ikki qirradi “tashqi” – ekzoterik (az-zohir) va “ichki” – ezoterik (al-batin) namoyon bo'ldi. “Tashqi” ta'limot o'z ichiga barcha urf-odat va jamoaning oddiy a'zolariga majburiy bo'lgan shariatning huquqiy qonunlarini olgan edi. “Ismoiliya” ta'limotining bu jihati imomiylar ta'limotidan kam farq kiladi. “Ismoiliya”ning “Ichki” ezoterik aqidasi ikki qismdan iborat:

1. “At-Ta'vil” – Qur'on va shariatni allegorik tarzda sharhlash;
2. “Al-Haqoiq” – “maxfiy”, “oliy” haqiqatlarni tafsir qilishga asoslangan falsafiy va ilohiy bilimlar tizimi.

Bu firqa vakillari Hindiston, Pokiston, Arabiston yarim orolining janubi va boshqa joylarda mavjud.

Sunniylik (Ahli sunna val-jamoa) yo'nalishi 657 yilgi voqealar va ularning natijasida kelib chiqqan firqabozlik sharoitida ham o'rta yo'lni tutgan, davlat rahbarlariga qarshi bormagan, o'zlarini sunnatga amal qiladigan va jamoatdan ajralmaydiganlar guruhi sunniylar yoki “ahli sunna val jamoa” deb ataldi. Bugungi kunda sunniylar dunyo musulmonlarining 92,5 foizini tashkil etadi.

Sunniylik doirasida to'rt fiqhiy mazhab (arab. yo'l) va ikki aqidaviy ta'limot mavjud bo'lib, xavorij va shia firqalaridan farqli ravishda ular bir-birlarini rad etmaydilar. Bugungi kunga qadar ham, sunniy ulamolar to'rttala fiqhiy va ikkala

aqidaviy mazhablarning to‘g‘ri ekani, ularning bir–birini to‘ldirishi, bunday farqlilik tarixiy, ijtimoiy omillar mahsuli ekani va bu musulmonlar uchun osonlik yaratishiga ittifoq qilishgan.

“Ahli sunna val–jamo‘a” tarkibiga kiruvchi fiqhiy mazhablar quyidagilardir:

Hanafiy mazhabi asoschisi Abu Hanifa kunyasi bilan mashhur an–Nu‘mon ibn Sobit al–Kufiy (699–767)dir. U kishi o‘zlarining aql zakovati bilan ajralib turgan bo‘lib, ustozlarining alohida e‘tiboriga noil bo‘lgan. Ustozlari Abu Ismoil Hammod ibn Abi Sulaymon (vaf. 738) vafotidan so‘ng uning o‘rniga dars bera boshlaganlar. Abu Hanifa Abbosiylar davrida o‘z mazhablariga asos soladilar. Bunda turli sohalarda mutaxassis bo‘lgan shogirdlari yordam bergan. Shu sababli ham hanafiy mazhabi jamoaviy mazhab sifatida baholanadi.

Movarounnahrda hanafiy mazhabi Muhammad ibn al–Hasanning buxorolik shogirdi Abu Hafs al–Kabir al–Buxoriy olib kelgan. Keyinchalik Abu Sulaymon al–Jo‘zjoniy Xurosonda hanafiy mazhabini tarqatgach, uning shogirdi Abu Bakr al–Jo‘zjoniy Samarqandga kelib joylashadi va bu yerda “Dor al–Jo‘zjoniya” nomli ilm markazini tashkil etadi. Buxoro olimlari asosiy e‘tiborni fiqhga qaratishgan bo‘lsa, Samarqand olimlari aqoid va kalom ilmiga moyil bo‘lishadi.

Hanafiy mazhabi “nass”lardan (ya‘ni Qur‘on va hadis) tashqari hadislarni qabul qilishda alohida shartlarni belgilaganligi, qiyos (analogiya), istehson prinsiplaridan foydalanishi, Movarounnahr maktabi mahalliy urf–odatlarini huquq manbai sifatida qabul qilishi bilan ajralib turadi. Boshqa mazhablardan farqli jihatlar mazkur xususiyatlar negizida yuzaga keladi.

Molikiy mazhabi asoschisi, imom Abu Abdulloh Molik ibn Anas ibn Molik ibn Abi Omir al–Asbahiy 711 yilda tavallud topganlar. Imom Molik onasi ta‘siri ostida yoshlik davridanoq ilmga qattiq berilgan. Imom Molik mazhabining asosi u kishi yaratgan “Muvatto” asarida o‘z ifodasini topgan. Mazkur mazhabda birinchi manba Qur‘oni karim, ikkinchi manba Sunnati nabaviyadir. Ba‘zi olimlar, imom Molik fiqhining uchinchi manbasi sahobalarning gapi bo‘lgan, degan fikrlarni ham berishadi. Chunki, u kishi Muhammad (a.s.) yashagan shaharda bir umr yashaganlar. Payg‘abar tarbiya qilgan insonlarni tarbiyasini topgan. Shuning uchun, Molikiyya mazhabida shar‘iy masalalarda madina hayoti va odatlari ko‘p narsalarda ayniqsa Hanafiylarning fikriy qarashlaridan ham ustun turgan. Shofe‘iy mazhabi. Abu Abdulloh Muhammad ibn Idris ibn Abbos ibn Usmon ibn Shofe‘ al–Qurayshiy al–Hoshimiy al–Muttalibiy (150/767–204/804) Abu Hanifa vafot etgan yili Falastinning G‘azza shahrida tug‘ilib, 29–rajab/19–yanvar juma kuni tunda Misrda vafot etgan buyuk olim.

Imom Shofe‘iyning fiqh bo‘yicha “Al–Hujja”, “Kitobul–Umm” (ona kitob, ya‘ni asosiy kitob) va usulul–fiqh bo‘yicha “Ar–Risola” kabi asarlari mavjud. Bu asarlar islom olamida mashhur va shofe‘iy mazhabi va ulamolarining eng zarur asosiy manbasi hisoblanadi.

Shofe'iylik mazhabi fiqhiy hukm chiqarishda Qur'on, sunnat, ijmo va qiyosga suyanadi. Ular hanafiylar va molikiylarda mavjud bo'lgan «istehson»ni rad qiladilar. Ayni damda, bu mazhabda "Masolihul Mursala" va madinaliklarning amali ham dalil sifatida qabul qilinmaydi.

Uchinchi-to'rtinchi hijriy asrlarda Markaziy Osiyoda Shofe'iy mazhabi Hanafiy mazhabi bilan raqobat qilardi. Uning yirik vakili toshkentlik buyuk olim Muhammad ibn Ali ibn Ismoil al-Qaffol ash-Shoshiy (291–365 h.y) edi. U kishi fiqh, hadis, lug'at va adabiyot bo'yicha o'z davrlarining mashxur olimlaridan edilar. Usulul fiqh bo'yicha ularning asarlari mashhurdir. Toshkentda vafot etib, qabrlari Hastimom (Hazrati Imom) madrasasi yonida joylashgan.

Hanbaliy mazhabi asoschisi imom Abu Abdulloh Ahmad ibn Muhammad ibn Hanbalning onasi O'rta Osiyoning Marv shahridan va otasi Saraxsdan bo'lib, hijriy 164 (780 m) yil Bag'dod shahrida tug'ilgan va hijriy 241 (855 m) yil Bag'dod shahrida hayotdan ko'z yumgan. Ahli sunna va jamoaning fiqhiy mazhabboshilaridan to'rtinchisi Ahmad ibn Hanbaldir.

Imom Ahmad Abu Hanifaning bosh shogirdlaridan bo'lgan Abu Yusufdan dars olgan. Keyinchalik, Bag'dodda katta muhaddis Hushayt ibn Bashir al-Vositiyda to'rt yil muntazam o'qib, u kishidan uch mingta hadis yozib olgan. Ilm talabida Yaman, Kufa, Basra, Madina, Makka va boshqa joylarga safar qilgan. Makkai Mukarramada imom Shofe'iydan dars olgan.

Ahmad ibn Hanbal hadis ilmida juda ham ilgari ketgan alloma bo'lgan. Ko'pchilik ulamolar u kishining hadisidagi "Musnad" kitobini eng mo'tabar oltita hadis kitobi jumlasiga kiritadilar. Imom Ahmad ibn Hanbal mazhabida Qur'on va sunnat asosiy manba hisoblanadi. Keyingi o'rinlarda ijmo' va sahobalarning gaplari o'rin oladi. Qiyosni boshqa iloj qolmagandagina ishlatishga ruxsat beriladi. Fiqhiy mazhablar diniy firqalardan farq qiladi. Sunniylikdagi to'rttala mazhab ham teng hisoblanadi, yirik musulmon universitetlarida to'rt mazhab bo'yicha alohida dars o'qitiladi. Mazhablar umuman an'anaviy diniy hukuq doirasidan chiqmagani holda, shariat masalalarida yengilroq yoki qattiqroq hukm chiqarishlari bilan bir-biridan farq qiladi.

Hozir islom mamlakatlarida hanafiylik (Turkiya, Pokiston, Hindiston va h.k.), molikiylik (Tunis, Jazoir, Marokash, Liviya), shofe'iylik (Misr, Indoneziya va h.k.), hanbaliylik (Saudiya Arabistoni) mazhablari, shuningdek, shialik tarqalgan mamlakatlar (Eron, Iroq, Yaman va h.k.) ning huquqiy hayotida ja'fariylik mazhabi o'z mavqeini ma'lum darajada saqlab kelmoqda. O'rta Osiyoda, xususan, O'zbekistonda hanafiylik mazhabi keng yoyilgan. Keyingi davrda paydo bo'lgan «vahhobiylilik», «hizbut tahrir» kabi yo'nalishlarni fiqhiy mazhablarga tenglashtirib bo'lmaydi. Chunki ular shar'iy masalalarda o'z mustaqil yechimlarini bergan tizimga ega emas. Ularga diniy-siyosiy harakat va noqonuniy siyosiy partiyalar sifatida qarash

mumkin.

Nazorat savollari

1. “Johiliya” deb qaysi davrga aytiladi?
2. Makkadan Madinaga hijratning sabablari nimada edi?
3. Qur’oni karim nechta sura va oyatlardan iborat?
4. “Hadis” so‘zining mazmun–mohiyati nimada?
5. Islomdagi ilk bo‘linishlar nimalar bilan bog‘liq bo‘ldi?
6. Islomdagi qanday siyosiy firqalarni bilasiz?
7. Xorijiylik ta’limoti qanday bo‘lgan?
8. Shialikda qanday mazhablar mavjud?
9. Sunniylikda qanday mazhablar mavjud?
10. Moturidiya ta’limoti asosan qaerda rivojlangan?
11. Ash’ariya ta’limoti asosan qaerda rivojlangan?
12. “Mo‘taziliy” so‘zining ma’nosi qanday?
13. Islom dini qachon va qayerda vujudga keldi? VII asr boshlarida Arabiston yarim orolidagi ijtimoiy-ma’naviy muhit qanday edi?
14. Payg‘ambarimizning Makka (vahiyning boshlanishi) va Madina (ilk islom davlati qurilishi) davrlari orasidagi asosiy farqlar nimada?
15. Qur’onning tarkibiy tuzilishi (sura va oyatlar) hamda uning jamiyat hayotidagi huquqiy va axloqiy ahamiyati qanday?
16. Islom dinining ustunlari hisoblangan beshta amalni sanab bering va ularning ma’naviy mohiyatini tushuntiring.
17. Islomda imon keltirilishi shart bo‘lgan yetti aqida (Allohga, farishtalarga, kitoblarga va h.k.) nimalardan iborat?
18. Sunnat nima? Imom Buxoriy kabi muhaddislarning hadislarni saralash va islom huquqini shakllantirishdagi xizmatlarini izohlang.
19. Birinchi to‘rt xalifa davrida islom dinining tarqalishi va davlat boshqaruvining shakllanishi qanday kechgan?
20. Sunniylik va Shialik yo‘nalishlarining kelib chiqishiga sabab bo‘lgan tarixiy-siyosiy omillar nima edi?
21. Islomdagi to‘rt yirik mazhab (Hanafiy, Shofe’iy, Molikiy, Hanbaliy) va ularning asoschilari haqida nimalarni bilasiz?
22. Tasavvufning mohiyati va «Komil inson» g‘oyasi nima? Markaziy Osiyoda mashhur bo‘lgan naqshbandiya va yassaviya tariqatlari haqida so‘zlab bering.
23. Islom dinining ilm-fan rivojiga (astronomiya, tibbiyot, matematika) ta’siri qanday bo‘lgan? Musulmon olimlarining jahon sivilizatsiyasiga qo‘shgan hissasini misollar bilan ko‘rsating.
24. Islom dini inson sha’ni, mulki va huquqlarini himoya qilishda qanday

prinsiplarni ilgari suradi?

25. Qur'on va Sunnatda «Ahli kitob»ga (xristian va yahudiylarga) nisbatan qanday munosabatda bo'lish buyurilgan?

Mustaqil ish topshiriqlari

1. Islom dini yuzaga kelishi arafasida Arabiston yarim orolidagi ijtimoiy–ma'naviy vaziyat haqida ma'lumot to'plab, referat tayyorlang.
2. Islom dinining manbalari haqida gapirib bering.
3. Markaziy Osiyo allomalarining Islom dini rivojiga qo'shgan hissalar haqida ko'rgazmali slayd tayyorlang (MS Power Point).
4. Xavorijlarning siyosiy va aqidaviy qarashlari haqida referat tayyorlanga va kursdoshlaringizga taqdim eting.
5. Shialik, uning firqalari va zamonaviy tarqalishi haqida ilmiy ma'ruza tayyorlang .
6. Sunniylik fiqhiy mazhablarining mushtarak va farqli jihatlarini tahlil qiling.
7. Mavzu bo'yicha ko'rgazmali slayd tayyorlang (MS Power Point).

ULARNING HOZIRGI DAVRDAGI AHAMIYATI REJA:

1. Qur’oni Karim va Sunnatning o’rni hamda ularning o‘zaro bog‘liqligi.

2. Aqidaviy maktablarning hozirgi davrdagi ahamiyati.

1. Qur’oni Karim va Sunnatning o’rni hamda ularning o‘zaro bog‘liqligi.

Qur’on — Alloh taolo tomonidan Payg‘ambarimiz Muhammad (s.a.v.)ga vahy orqali tushirilgan, o‘qilishi ibodat hisoblangan muqaddas kitobdir. Uning asosiy xususiyatlari: Qur’on ko‘p hollarda umumiy tamoyillarni belgilab beradi (masalan: “Namoz o‘qing”, “Zakot bering”). U Islom shariatining birinchi darajali manbasi bo‘lib, undagi hukmlar mutlaqdir. Islom aqidasi (Allohga, farishtalarga, oxiratga iymon) asosi Qur’onda bayon etilgan.

Sunnat — ikkinchi va to‘ldiruvchi manba. Sunnat — Payg‘ambarimiz (s.a.v.)ning aytgan so‘zlari, qilgan amallari va ma’qullagan ishlaridir. Sunnatning dindagi o‘rni quyidagicha: Qur’ondagi umumiy buyruqlarni amalda qanday bajarishni ko‘rsatib beradi. Qur’ondagi keng ma’noli hukmlarni xoslaydi. Qur’onda kelmagan ba’zi juz’iy masalalarda (masalan, tillo taqinchoq taqish yoki ayrim hayvonlar go’shtining haromligi) hukm chiqaradi.

Qur’on va Sunnatning o‘zaro bog‘liqligi

Ushbu ikki manba o‘rtasidagi bog‘liqlikni quyidagi jadval orqali ko‘rish mumkin:

Bog‘liqlik turi	Ma’nosi va misoli
Tasdiqlovchi	Sunnat Qur’ondagi hukmni quvvatlaydi. (Masalan: Ota-onaga yaxshilik qilish)
Sharhlovchi	Qur’onda namoz o‘qish buyurilgan, lekin necha rakaat va qanday o‘qish Sunnatda ko‘rsatilgan.
To‘ldiruvchi	Qur’onda zikr qilinmagan huquqiy va axloqiy masalalarni Sunnat tartibga soladi.

VIII–IX asrlarga kelib Islom dini doirasida aqidaviy ixtiloflar ham yuzaga keldi. Islom dinida Alloh taolo, uning sifatleri, insonlarning taqdiri, qiyomat, jannat va

do‘zax, gunoh va savob kabi mavzular aqidaviy masalalar sirasiga kiradi. Zikr etilgan unsurlarni o‘rganuvchi fan yana kalom ilmi deb ham ataladi. Qur’onda ham hadislarda ham bu borada tortishish, o‘zicha hukm chiqarish qoralangandir. Shu sababli ham avval boshida ulamolar kalom ilmi bilan shug‘ullanishni qattiq qoralaganlar.

“Mo‘tazila”, “jabariyya”, “qadariyya”, “mushabbiha” kabi bir qator adashgan oqimlar yuzaga kelgach oddiy musulmonlarga sof aqidani tushuntirib berish ehtiyoji tug‘igan edi. Shundan so‘ng kalom ilmi bilan shug‘ullanishga ruxsat beriladi.

Kalom borasida bahs yuritgan ilk oqim “mo‘tazila” hisoblanadi. Ushbu ta‘limot islom tarixidagi adashgan firqalardan bo‘lib, Hasan al-Basriyning (v. 728 y.) sobiq shogirdlari bo‘lgan Vosil ibn Ato (v. 748 y.) va Amr ibn Ubaydga (v. 761 y.) borib taqaladi. Umaviy xalifa Hishom ibn Abdimalik davrida ushbu ikki shogird Hasan al-Basriy davrasidan o‘zlarining “manzila baynal manzilatayn” (arosat) mavzuidagi aqidalari bilan ajralib chiqada va «mo‘tazila» (ajralganlar) nomini oladi. Mo‘taziliylar abbosiylar xalifaligi davrida muhim o‘rin tutgan. Mo‘taziliylar abbosiy xalifa Xorun ar-Rashid davrida ta‘qib ostiga olingan bo‘lsa, Ma‘mun, al-Mo‘tasim va al-Vosiq davrlarida (813–847) suyuqli peshvolarga aylanadi va yirik davlat mansablariga ham sazovor bo‘ladi. Ma‘mun davrida mo‘taziliylar “mihna” degan jamoa tuzib, o‘zlarining aqidaviy qarashlarini mahalliy ulamolarga majburlab sindirishga harakat qilgan. Mo‘taziliylar ta‘limoti “al-adl” (Allohning adolati), “tavhid” (Allohning yagonaligi), “al-va’d val va’iyd” (va’da va jazolash), “manzila baynal manzilatayn” (Oraliq holatda qolish), “al-amr bil ma’ruf van nahiy anil munkar” (Yaxshilikka chaqirish va yomonlikdan qaytarish) deb nomlanuvchi besh tamoyilga tayanadi.

Xalifa Mutavakkil davriga kelib mo‘taziliylar yana siquvga olindi va bora-bora butunlay yo‘q bo‘lib ketdi.

Mo‘taziliylar bilan deyarli bir davrda yuzaga kelgan aqidaviy oqimlardan biri “qadariya”dir. Qadariylar iroda erkinligini mutlaqlashtirib, inson barcha amallarini o‘z ixtiyori bilan qiladi, avvaldan taqdir belgilab qo‘yilmaydi, degan aqidani ilgari surdilar. Mo‘taziliylar mazkur fikrni qo‘llab quvvatlagani bois, ular ham taqdir masalasida qadariylar deya ataldi. Ularga nisbatan ulamolar tomonidan: «Qadariylar ushbu ummatning majusiylaridir», degan hadis keltiriladi. Zero, taqdirga ishonish imonning yettita shartidan biri hisoblanadi.

Keyinroq shakllangan jabariylar esa insonning barcha qiladigan ishlari Alloh tomonidan avvaldan belgilab qo‘yiladi degan aqidani mutlaqlashtirdilar. Bu insoniyatni taraqqiyotga intilishdan to‘xtatib qo‘yadigan aqida bo‘lgani sababli ulamolar bu fikrni qo‘llab-quvvatlamadilar.

Allohning zoti va sifatleri masalasida esa “mushabbiha” (o‘xshatuvchilar) yoxud “ahlu-t-tashbih” (o‘xshatish ahli) yuzaga keldi. Ular Allohning Qur’oni karimda kelgan sifatlarini to‘g‘ridan-to‘g‘ri o‘z aqlari bilan talqin qila boshladilar. «Allohning «qo‘li» ularning qo‘llari uzradir» (Fath surasi, 10), «Uning Kursiysi osmonlar va Yerni (ham) o‘z ichiga sig‘dira olur» (Baqra surasi, 255) kabi oyatlardagi «qo‘li», «kursiysi» so‘zlaridan Allohning ham inson kabi badan va a‘zolari bor ekan, u ham inson kabi o‘tirish uchun kursiyga muhtoj ekan, deya xulosa chiqardilar. Ismlari zikr etilgan oqimlarning buzg‘unchi g‘oyalariga bir qator ahli sunna ulamolari raddiyalar berganlar. Natijada, moturidiya va ash‘ariya ta‘limotlari yuzaga keldi. Mazkur ikki yo‘nalish ham sunniylik doirasida to‘g‘ri hisoblanib, ular o‘rtasidagi farqliliklar lafziy

xarakter kasb etadi xolos.

Moturidiya ta'limotiga movarounnahrlik olim Abu Mansur al-Moturidiy asos solgan. Aksariyat manbalarda Moturidiy 870 yili Samarqandning "Moturid" qishlog'ida tug'ilgani va Samarqandda 944 yili vafot etgani haqida ma'lumotlar uchraydi. Ba'zi manbalarda uning 100 yilga yaqin umr ko'rgani haqida ham ma'lumotlar bor. Manbalarda Imom Moturidiyning o'ndan ortiq asarlari bo'lgani haqida ma'lumotlar keltiriladi. "Kitob at-tavhid", "Kitob al-maqolot", "Kitob radd avoil al-adilla lil-Ka'biy", "Kitob bayon vahm al-mo'tazila", "Kitob radd tahzibi al-jadal lil-Ka'biy", "Radd kitob al-Ka'biy fi vaiyd al-fussoq", "Radd usul al-xamsa li-Abi Umar al-Boxiliy", "Radd kitob al-imoma li ba'zi ar-ravofiz", "Kitob radd ala al-qaromita" hamda usul al-fiqhga oid "Ma'haz ash-sharoi", "al-Jadal" kabi asarlar shular jumlasidandir. Moturidiyning aqidaviy qarashlari va kalom ilmidagi o'ziga xos uslubi XI asrga kelib Movarounnahrda alohida maktab sifatida tan olingan va "moturidiya" deb atalgan. Mazkur maktab o'zining yarim-ratsionalistik qarashlari bilan boshqa aqidaviy ta'limotlardan ajralib turadi. Unda, masalalarning yechimini topishda faqat Qur'on va sunnatga tayanibgina qolmasdan, mantiqiy tafakkur orqali ham yondoshilgan. Moturidiya ta'limotida asosan mo'taziliya, shia, xorijiya, jabariya, qadariya kabi ta'limotlarga raddiyalar berilgan.

Moturidiya ta'limoti XI-XII asrlarda keng miqyosda rivojlangan. Ushbu davrlarda endi ta'limot nafaqat Movarounnahrda, balki Xuroson, Iroq, Misr va Shom o'lkalariga ham tarqala boshlangan. Bunda moturidiya ta'limoti vakillaridan Abul Mu'in an-Nasafiy, Abu Hafs an-Nasafiy, Alouddin as-Samarqandiy, Nuriddin as-Sobuniy, Ibrohim as-Saffor, Alouddin al-Asmandiy kabi movarounnahrlik olimlarning katta bo'lgan. Ash'ariya. Ushbu ta'limotga basralik Abul Hasan al-Ash'ariy (873-936) asos solgan. Ash'ariy umrining yarmini asosan mo'taziliyaga qarshi kurashishga bag'ishlagan bo'lsada, dastlab uning o'zi mazkur ta'limot vakili bo'lgan. Mo'taziliya ta'limotida Ash'ariyning ustozlari Abu Ali al-Jubboiy bo'lgan. Qirq yoshida u mo'taziliya ta'limotidan voz kechadi va Bag'dodga ko'chib umrining oxirigacha o'sha yerda yashagan.

Ash'ariy Muhammad ibn Jarir at-Tabariy, Ibrohim ibn Ahmad al-Marvaziy, Mahmud ibn Dovud al-Isbahoniy, Abdulloh ibn Ahmad ibn Hanbal (v. 290/903 y.), Abu Mansur al-Moturidiy kabi olimlar bilan bir davrda yashagan. Ash'ariya ta'limoti ham ahli sunna val jamoa aqidasi muvofiq ta'limot hisoblangan. Ushbu ta'limot ham asosan mo'taziliya, qadariya, jabariya kabi ta'limotlarning aqidaviy g'oyalariga qarshi turgan. Ash'ariya ta'limoti asosan Iroqda, so'ngra saljuqiylar hukmronligi davrida Xurosonda rivojlangan. Ash'ariya ta'limotiga oid Abul Hasan al-Ash'ariyning "al-Ibona an usul ad-diyana", "Maqolat al-islomiyin" kabi asarlarni misol keltirish mumkin. Ash'ariya ta'limoti moturidiya ta'limoti bilan bir davrda shakllanib rivojlangan. Tasavvuf va unga o'zakdosh bo'lgan sufiy, mutasavvif atamalarining kelib chiqishi haqida xilma-xil qarashlar mavjud. Hozirgi paytga kelib ko'proq tasdiqlangan va ko'pchilik (Sharq va G'arb olimlari) tomonidan qabul qilingan fikr shuki, ushbu atama «jun, yung» ma'nosini bildiruvchi suf (o'zak harflari – svf) so'zidan olingan. Bundan tashqari mazkur atamaning kelib chiqishi ilk islom davrida zohidlik guruhlariga ko'rinishida shakllangan «ahl as-suffa» (Payg'ambarning Madinadagi uyi yaqinidagi suffaga yig'iluvchi zohid kishilar)ga tegishli degan fikrlar

ham mavjud.

Gʻarbiy Yevropa tadqiqotchilari esa to XX asrga qadar uni yunoncha – «sophia» (hikmat) soʻzidan kelib chiqqan degan fikrga moyil boʻlganlar. Sufiylik amaliyotining asosini zikr tashkil etadi. Tariqat hayotini tashkil etishda tasavvufda ustoz–shogird sifatida qabul qilingan murshid–murid aloqalari muhim rol oʻynaydi. Aynan shu aloqa jamiyat ichida oʻzaro manfaatlarni birgalashib himoya qiluvchi tashkilot tuzilishi uchun asos boʻlib xizmat etdi. Movarounnahr hayotida muhim rol oʻynagan mutasavvif- lardan Sayf ad–din Boharziy, Termiz sayyidlari, Sayyid Baraka, Xoja Ahror, Maxdum–i Aʼzam, Mir–i Arab, Lutfulloh Chustiy, Juybor xoʻjalarini aytib oʻtish mumkin. Siyosiy tarqoqlik yillarida oʻz tashkilotlari madadiga suyangan bu shayxlarning mamlakat siyosiy hayotiga taʼsiri yuqori boʻlgan.

Tasavvuf taʼlimotiga koʻra, tanlangan insonlar (al–xossa) Alloh bilan hissiy bogʻlanishi mumkin. Natijada ular Allohni tanishga erishadilar. Qator sufiy mualliflarga koʻra, tasavvufda inson chuqur mushohada va maxsus ruhiy–maʼnaviy mashgʻulotlar natijasida Allohning birligi ichida maʼnan «yoʻqolib ketishi» (fano) yoki u bilan «abadiylikka erishishi» (baqo) mumkin. Tasavvuf adabiyotining yozma manbalariga koʻra, sahobalardan toʻrt roshid xalifa, Abu–d–Dardo, Abu Zarr, Huzayfa kabilar birinchi sufiylar edi. Koʻpgina sufiy tariqatlari oʻzlarining silsilalarini Paygʻambar sahobalaridan biriga va ilk toʻrt xalifaga, koʻpincha Abu Bakr (r.a.)ga qadar yetkazadilar. Tasavvufning mafkuraviy–diniy asosi, shubhasiz, Qurʼoni karim maʼnolari ustida chuqur mulohaza yuritish, Buyuk kitobning botiniy maʼnolarini qidirish anʼanasini yuzaga keltirdi. Hissiy yoʻl bilan Haqiqatni izlash sufiylarni inson ruhining eng nozik harakatlari, ichki iztiroblar, diniy haqiqatlarni anglash va chuqur tahlil qilishga undagan. Bu maʼnoda tasavvufning ilk asoschilari va namoyondalaridan boʻlgan «Qalblar va fikrlar» ilmi (ilm al–qulub va–l– xavotir)ga asos solgan Hasan al–Basriy (642–728) ni esga olish oʻrinli. Keyinchalik, Hasan al–Basriyning izdoshlaridan boʻlgan va Basrada yashagan (VIII–IX asrlar) Raboh ibn Amr, birinchi sufiy ayol Robiʼa al–Adaviya, Molik ibn Dinor va boshqalar daʼvatlarida asta–sekin Allohga boʻlgan sof haqiqiy muhabbat, unga ruhan yaqinlashishga intilish haqida fikr va gʻoyalar paydo boʻla boshladi. Movarounnahrda tasavvuf yoʻnalishining vujudga kelishi va rivoji shayx Abu Yaʼqub Yusuf al–Hamadoniy (vaf. 1140–41 y.) shaxsi bilan bogʻliq.

Hamadoniy 1048 yilda Eronning Hamadon shahri yaqinidagi Buzanjird qishlogʻida tavallud topgan. U 17 yoshligida ilm istab Bagʻdodga keladi va u yerdagi mashhur “Nizomiya” madrasasida oʻqiydi. Hamadoniy hadislar toʻplash maqsadida Isfahon, Balh, Hirot, Marv, Buxoro va Samarqand shaharlariga bir necha bor safar qiladi. Hamadoniy Bagʻdodda yashagan kezlari as–Samʼoniy, Ahmad al–Gʻazzoliy (Abu Homid al–Gʻazzoliyning akasi)lardan ham tasavvufga oid ilmlarni oʻrgangan. Yusuf Hamadoniy umrining ikkinchi yarmini koʻproq Hirot, Marv, Samarqand va Buxoro shaharlarida oʻtkazadi. Marv va Buxoroda xonaqo hamda madrasa qurdiradi va koʻpdan koʻp shogirdlarni tarbiyalaydi. Ular orasida koʻplab turkiy va forsiy millatga mansub shaxslar bor edi, jumladan, Hasan Andoqiy, Abdullo Baraqqiy, Ahmad Yassaviy va Abduholiq Gʻijduvoniylar alohida ajralib turar edilar.

XII asrda Markaziy Osiyoda paydo boʻlgan ilk tasavvufiy tariqatning asoschisi

Xoja Ahmad Yassaviydir. Yassaviya g'oyalari bir necha marotaba turli tahrirda nashr etilgan «Devoni hikmat»da jamlangan. Uning fikricha, dunyoning noz–ne'matlarini so'ragan kishi sufiy emas, balki zuhd va taqvon ixtiyor etib, umrini toat– ibodatda hamda yig'i bilan o'tkazgan kishi asl sufiydir. Uning «hikmatlar»i xalq orasida keng tarqalgan. Xoja Ahmad Yassaviy bugungi Qozog'istonning janubidagi Chimkent viloyati Sayram qishlog'ida dunyoga kelgan. Ba'zi manbalarga qaraganda, u Yasida (hozirgi Turkiston) tavallud topgan. Rivoyatlarga ko'ra, bu yerda u Arslon–bob ismli mashhur shayxning xayrli duosiga erishgan. Oddiy xalq ommasi anglaydigan uslubda sufiyona hikmatlari, she'rlari bilan atrofdagi odamlarni xaq yo'lga chaqiradi, ularning ma'naviyatiga kuchli ta'sir ko'rsatadi. Ahmad Yassaviy hayotligidayoq uzoq o'lkalarga muridlarini jo'natib, o'z tariqatini keng tarqatishga harakat qildi. Yassaviy riyozat, chilla, zikr va mujohadaga kuchli ahamiyat berib, hayotining aksari qismini chillaxonada o'tkazdi. Uning hayoti va karomatlari haqida ko'plab manoqiblar saqlanib qolgan. Bu tariqatda muhim o'rin tutgan asoslar quyidagilardan iborat: Allohni tanish (ma'rifatulloh), mutlaq jo'mardlik, rostgo'ylik, o'zini Allohga topshirish (tavakkul) va teran tafakkur. Yassaviya tariqati xususiyatlari keyinchalik yuzaga kelgan ko'plab tariqatlarda aks etgan. Hatto Naqshbandiyani Yassaviyaning bir shahobchasi deb biluvchilar ham bor. Ahmad Yassaviyning eng mashhur xalifalaridan Sulaymon Hakim ota Boqirg'oniy (vaf. 1186 y.), Sufiy Muhammad Donishmand az–Zarnuqi va boshqalar ma'lum.

Yassaviylik bilan bir asrda yuzaga kelgan tariqatlardan biri bu Kubraviyadir. Bu tariqatning asoschisi – Shayx Najmiddin Kubro al–Xivaqiy bo'lib, tasavvuf tarixidagi eng yorqin siymolardan biri hisoblanadi.

U 1145–1146 yillarda Xorazmdagi Xivak shahrida dunyoga kelgan. Misrda Ruzbehon Vazzon al–Misriy (vaf. 1188 y.)dan, keyinchalik Tabrizga kelib, shayx Ismoil Kasriydan ta'lim oladi. So'ngra Xorazmga qaytib kelib, xonaqoh quradi va ko'plab shogirdlar tarbiyasiga kirishadi hamda “kubraviya” yoki “zahobiya” deb ataluvchi tariqatiga asos soladi. Mazkur tariqat soliklari (a'zolari) orasida zikrning ovoz chiqarmasdan “hufiya” ijro qilish usuli keng qo'llangan.

1221 yilning iyulida Chingizxonning lashkarboshi- laridan biri Xulaguxonga qarshi 76 yoshlik Shayx Najmiddin Kubro xalq orasidan lashkar to'playdi va Urganch qal'asini bir necha kun dushmandan saqlab turadi. Mazkur jang paytida shayx Najmiddin Kubro mo'g'ul bosqinchilari tomonidan vahshiyona o'ldiriladi. Yozgan asarlari orasida eng mashhuri «Usuli ashara» risolasi bo'lib, bu asar barcha tariqatlarga o'z ta'sirini ko'rsatgan. Kubroning asarlari Eron, Kichik Osiyo va Hindistondagi tariqat muhitlariga kuchli ta'sir qilgan. Chunonchi, bu tariqat naqshbandiya va mavlaviya tariqatlariga ham ta'sir ko'rsatgan. Kubraviyaning mashhur shahobchalari quyidagilar: bahoiya xilvatiya, firdavsiya, nuriya, rukniya, hamadoniya, nurbaxshiya, barzanjiya. Kubraviyada bajariladigan amallarga muvofiq tarzda Sulukni o'tash chog'ida sufiy bo'ysunishi shart bo'lgan 10 qoida ishlab chiqilgan:

- 1) at–tavba – dunyoviy hayoti davomida o'z «Men»ligidan xalos bo'lish;
- 2) az–zuhd fi–d–dunya – dunyodan va molu mulkdan voz kechish;
- 3) at–tavakkul ala–lloh – barcha ishda Allohga tayanish va dunyoviy ishlardan yuz o'girish;
- 4) qanoat – oz, faqat tiriklik uchun yetarli narsalar bilan qanoatlanish;

- 5) uzlat – to‘g‘ri va ruhiy ma‘noda yolg‘izlik; faqatgina shayx bilan muloqot qilishga ruxsat berilgan;
- 6) mulozamat az–zikr – Alloh nomini doimiy ravishda ixlos bilan yod etish (zikr), bu zikr qalbni poklaydi;
- 7) at–tavajjuh ila–lloh – butun borliq bilan to Allohning yagonaligini qalb bilan his etmagunicha Unga yuzlanish;
- 8) Sabr – tasavvuf yo‘lining qiyinchiliklarini sabr bilan ado etish;
- 9) Muroqaba – dunyoviy istaklardan poklangan qalbga mutlaq osoyishtalik yetmagunicha o‘z o‘zini nazorat qilish;
- 10) Rido – barcha jismoniy hissiyotlardan, hatto o‘zining Allohga bo‘lgan sevgisidan qanoatlanishdan ham xalos bo‘lish, bundan jismoniy yoki shaxsiy tuyg‘ular yo‘qolib, Allohning alohida marhamatiga aylanadi.

Kubraviya ta‘limoti mo‘g‘ullar istilosiga bardosh bergan kam sonli ta‘limotlardan biridir. Qolaversa, Sayf ad–Din Boxarziy (vaf. 1363 y., Buxoro) kabi kubraviya shayxlari boshqa ko‘plab shayxlar qatori mo‘g‘ul qabilalari va ular hukmdorlarining islomlashuviga katta ta’sir ko‘rsatganlar. XIV asrda Markaziy Osiyoda paydo bo‘lgan yana bir yirik tasavvufiy tariqat naqshbandiyadir. Uning ikkinchi nomi Xojagon yo‘nalishi bo‘lib, Xoja Yusuf al–Hamadoniyning mashhur shogirdi Xoja Abdulxoliq G‘ijduvoni (vaf. 1179 yoki 1220 y.)ga nisbat berilib shunday nomlangan. Keyinchalik bu oqimga Xoja Bahouddin Naqshband (1318–1389) murshidlik qilgan va shu davrdan e’tiboran naqshbandiya tariqati butun islom olamiga tarqala boshlagan. Bahouddin Naqshband Buxoro yaqinidagi Qasri Orifon qishlog‘ida dunyoga kelgan. Yoshligida xojagon tariqati shayxlaridan Muhammad Bobo–yi Samosiy uni ma’naviy farzandlikka qabul qildi. Bir muddatdan keyin Samosiy uning tarbiyasini Amir Kulolga topshirdi. Ma’lum muddat Samarqandda yashab, u yerdagi shayxlarning suhbat va tavajjuhlariga musharraf bo‘ldi. Amir Kuloldan xalifalikni olgach, Qosim shayx, Xalil ota va Mavlono Orif kabi Yassaviya shayxlarining huzurida ko‘p yillar qolib, ulardan ilmu fayz olishga muyassar bo‘ldi. Ikki marotaba hajga borib kelgan Bahouddin Naqshband hayotining oxirgi yillarini Buxoroda o‘tkazdi. Islom olamida juda katta obro‘–e’tiborga ega bo‘lgan Naqshbandning hayoti manoviyatlarga to‘la bo‘lib, bugungacha uning hayoti va tariqatini ifodalovchi juda ko‘plab asarlar bitilgan. Shulardan, Faxruddin Ali ibn Husayn Vo‘iz Koshifiyning «Rashahot ayn al–hayot» risolasi Naqshbandiya tariqati shayxlari haqida keng ma’lumot beradi. Naqshbandiya ahli sunna e’tiqodiga muvofiq xafiy (maxfiy) zikrga asoslangan.

Zohiran ko‘zga tashlanadigan xatti–harakatlardan yiroq suhbat va aloqaga kuchli e’tibor beradi. Ko‘pchilik bilan qilinadigan naqshbandiy zikrga «Xatmi xojagon» deyiladi. Bu zikrda tariqatga kirmaganlar qatnashishlari mumkin emas. Naqshbandiyada tariqatga kirgan darvesh ushbu shartlarga amal qilishi shart: doimo tavbada bo‘lish, sunnatga qat’iy amal qilish, bid’atlardan qochish, hayotiy qulayliklardan voz kechib, taqvonni kuchaytirish, zulm va nohaqlik qilmaslik, qarzdor bo‘lmaslik, birovni norozi qilmaslik, qazo namozlarini ado etish, Allohni har lahzada zikr qilish. Naqshbandiya tariqati quyidagi to‘rt tamoyil asosiga qurilgan: 1) shariat bilan zohirni poklash; 2) tariqat bilan botinni poklash; 3) haqiqat bilan qurbi ilohiyga erishmoq; 4) ma’rifat bilan Allohga erishmoq. Naqshbandiya tariqatining eng mashhur

shahobchalari: ahroriya, mazhariya, mujaddidiya va xolidiya.

Ayni vaqtda musulmon dunyosining deyarli barcha mamlakatlarida turli tasavvufiy tariqatlar vakillari faoliyat yuritayotganini ko'rish mumkin. Turkiya, Misr, Jazoir, Tunis, Liviya, Indoneziya, Malayziya, Iordaniya, Pokiston kabi mamlakatlarda mavjud tariqatlarning sanog'iga yetish ham qiyin. Shu bilan birga ushbu suluklarning ko'pchiligi tasavvuf ta'limotining ilk g'oyalaridan ancha uzoqlashib ketgan. Shayxlik maqomi mablag' to'plash manbai bo'lib qolgan holatlar ham yo'q emas. Turkiyadagi ko'plab tariqat vakillari tomonidan shayxlarini o'ta mubolag'a bilan ulug'lanishi, ularning tavof qilinishi, shayxlarning o'z tarafdorlari va muassasalari mavjudligi ushbu fikrning isbotidir. Pokiston va Hindiston hududlarida tarqalgan tariqatlarning urf-odatlarida yoga, buddaviylik, hinduiylik va qadimgi hind falsafasining ta'siri kattaligini ko'rish mumkin. Barlaviya, Mehmandiya va boshqa qator tariqatlarda qadimgi hind falsafasidagi tanosux, ya'ni ruhning ko'chib yurishi g'oyasi keng o'rin olgan. Ular namoz yoki zikr vaqtida yuqoridan bir joyni bo'sh qo'yadilar va unga Muhammad Payg'ambar ruhi kelib o'rinishadi, deb hisoblaydilar. Masjidlarining qibla tarafida esa o'z tariqatlarining asoschisi yoki pirlarining qabri joylashgan bo'lib, namozdan avval va keyin uni tavof qiladilar.

Hozirgi paytda dunyoning ko'p mamlakatlarida, Amerika Qo'shma Shtatlaridan to Avstraliya arxipelagigacha bo'lgan hududda Bahouddin Naqshband va Naqshbandiya tariqati ma'lum va hurmatli maqomga ega. Chunki Bahouddin Naqshband, avvalo, islom dini shariati mezonlarini mahkam ushlagan va ularning buzilishiga yo'l qo'ymagan. Ikkinchidan, u chin insoniy g'oyalar va fazilatlarni ilgari surgan, jamiyatning turli vakillari o'rtasida futuvvat – javonmardlik rishtalari paydo bo'lishiga turtki bo'lgan. Mustaqillik yillarida diniy qadriyatlarni qayta tiklashga e'tibor qaratilishi masjidlar, madrasalar va boshqa diniy tashkilotlar bilan bir qatorda tariqat vakillarining ham faoliyatiga keskin turtki bo'ldi. Natijada hozirgi paytda ham Markaziy Osiyoda, xususan, O'zbekistonning turli hududlarida tariqatchilar faoliyati jadallashdi. Hozirgi kundagi bunday tariqat rahnamolarining tarafdorlari soni katta miqdorni tashkil etadi. Hozirgi kundagi «pir»larning o'ziga xos jihatlaridan biri shundaki, ular o'z izdoshlarining muntazam ko'payib borishi va o'z yetakchilarini ideal shaxs sifatida ko'rsatishga intiladilar. Shuningdek, zikr qilishni o'rgatadigan qo'llanmalarni hali dinni yaxshi bilmaydigan aholi orasida tarqatmokdalar. Ushbu qo'llanmaga doimiy amal qilinsa, kishining jannatga tushishi aniqligi uqtiriladi.

Uchinchi talqinga ko‘ra, “dunyovilik” tushunchasi aksil diniy yondoshuv sifatida ifodalanmaydi. Dunyoviylik tamoyilining bu turdagi talqini nisbatan keng va mafkuraviy jihatdan neytral, biroq falsafiy nuqtai nazardan keskinligi bilan farqlanadi. Mazkur talqinga muvofiq dunyoviy ibtido diniylikka bog‘liq bo‘lmagan voqelik sanaladi. Shuning bilan birga, masala diniylikning subyekt tomonidan rad etish yoki obyektiv jihatdan inkor etish bilan emas, dunyoviylik jihatdan nechog‘lik ijobiy mazmunga ega ekani bilan ahamiyatlidir. Ushbu ta’rif dunyoviylik va diniylik masalasida alohida obyektiv falsafiy-ilmiy yondoshuvni yuzaga keltirdi.

Dunyoviylikning keng va tor ma’nolardagi talqinini ilgari surish, maqsadga muvofiq. Keng ma’noda, dunyoviylik – bu real jamiyat borlig‘iga xos bo‘lgan barcha narsa, hodisa, jarayonlar va ularning mavjudlik xususiyatlarini aks ettirsa, tor ma’noda esa, mazkur tushuncha jamiyat hayotining din va diniy qarashlar ta’siridan xoli ravishda mavjud bo‘lgan, o‘z ichki qonuniyatlari asosida shakllangan va rivojlanib boradigan barcha jihatlarini aks ettiradi.

Keng ma’nodagi talqinga muvofiq diniylik ham dunyoviylikning tarkibiy qismi sifatida tushuniladi va bu dinning ijtimoiy institut sifatidagi mohiyatiga ham mosdir. Zero, diniy dunyoqarashga tayangan kishilar hayot tarzi aynan shunday talqindagi dunyoviylik sharoitidagina o‘z mazmun va shakliga ega. Sodaroq aytganda, dunyodan xoli ravishda dinning ahamiyatini tasavvur qilib bo‘lmaydi.

Ayni paytda, “dunyoviylik” tushuncha sifatida siyosiy-huquqiy mazmunga ega bo‘lib, muayyan diniy ta’limotlarga alohida imtiyoz bermagan holda davlat tomonidan plyuralistik dunyoqarashning himoyalanihini nazarda tutadi. Hurfikrlilikka asoslangan tamoyiliga ko‘ra, g‘oya va qarashlar mohiyatan ratsional yoki irratsional ekani dunyoviylikni belgilovchi mezoni bo‘lib xizmat qilmaydi.

Yangi davrda “dindor shaxs” atmasi ma’lum bir shaxsning dunyoqarashida muayyan diniy aqidalar belgilovchi ahamiyat kasb etishi natijasida uning axloqi va xatti-harakatlarida diniy motivlarni yaqqol namoyon bo‘lishini anglatadi. Mazkur

atamaning avvalgisidan farqli jihati, uning amaliyot bilan uzviy bog'liqligi emas, aksincha o'z-o'zini qaysi e'tiqodga mansub ekanligini belgilash bilan aniqlanmoq. Mazkur atama "diniylik" tushunchasidan farqli ravishda tor mazmunda qo'llanilib, ma'lum shaxs yoki guruhning ruhiy-ma'naviy qiyofasini aks ettiradi.

"Dunyoviy shaxs" atamasi esa diniy muassasa va ruhoniylikka qarshi bo'lgan antiklerikal insonni ifodalagan bo'lsa, hozirda u shaklan o'zgarib, mazmunan esa umuminsoniy axloq, ma'rifiy hayot g'oyalari bilan boyitildi. Natijada dunyoviylik bosh tamoyili sanalgan fuqarolik jamiyati sharoitida qator boshqa tashkilotlar bilan birgalikda turli diniy muassasa va tashkilotlar ham o'z faoliyatini yuritish imkoniyati taqdim etildi. Ayni paytda diniy tashkilotlarning axloq, ta'lim va tarbiya borasida yakka hokimlik o'rnatishga yo'l qo'yilmaslik ham e'tibor qaratildi. Zotan, dunyoviylik aynan liberal-demokratik tamoyillar asosidagi sekulyarlashuv bilan yondosh tushuncha sifatida baholanmoqda. Shuning bilan birga dunyoviylik nafaqat barcha dinlarni, balki konstitusion tuzimning yetakchilik maqomini ikkinchi darajaga tushuruvchi har qanday mafkura yakka hokimligiga ham yo'l qo'yilmasligini ifodalaydi.

3. Diniylik va dunyoviylik uyg'unligining jamiyat hayotida aks etishi

Diniylik va dunyoviylik tushunchalari uzoq vaqt qarama-qarshi tamoyillar sifatida talqin qilingani bois mazkur masalada aksariyat holda ikki qarash kuzatiladi. Bir tomondan, ruhoniylar diniy e'tiqod yuksak axloqni rag'batlantirishi, gunoh uchun jazoning mavjud ekanligi borasidagi g'oyalar jinoyatchilik va korrupsiyani kamaytirish, iqtisodiy rivojlanish kabi jamiyat farovonligini ta'minlovchi mexanizm bo'ladi, deb ta'kidlaydilar. Boshqa tomondan, aksariyat tadqiqotchilar dunyoviy hokimiyatning oqilona siyosati jamiyat ravnaq topishida aholining ommaviy ravishda diniylik darajasini ortishidan muhimroq ekanini ta'kidlaydilar.

Izlanishlardan ma'lum bo'ladiki, dinning zamonaviy yuksak taraqqiy etgan jamiyatdagi ijobiy yoki salbiy ahamiyati borasida jamiyatshunoslar o'rtasida yakdil fikr mavjud emas. Qayd etish joizki, mazkur masalani keng ko'lamda tadqiq etishga ba'zi siyosiy va axloqiy omillar to'sqinlik qilib keldi. Qayd etish joizki, mazkur masalani keng ko'lamli tadqiq etishga ba'zi siyosiy va axloqiy qarashlar to'sqinlik qilib keldi. 2009 yil G.Polning "Evolutionary Psychology" jurnalida nashr etilgan maqolasi mazkur bo'shliqni qisman to'ldirdi. U o'z tadqiqotida jamiyat faravonligiga ommaviy diniylikning ta'siri borasidagi ikki muqobil gipotezalarni tekshirish maqsadida amalga oshirilgan keng qamrovli xalqaro tahlil natijalarini taqdim etdi. Birinchi gipoteza, "axloqiy-ijodiy, ijtimoiy-iqtisodiy faraz" (the moral-creator socioeconomic hypothesis), deb nomlanib, unda xudo yoki xudolarga ommaviy ravishda e'tiqod qilish, axloq masalasiga befarq munosabatda bo'lmaslik jamiyat faravonligiga ijobiy ta'sir o'tkazishi ta'kidlanadi. "Sekulyar-demokratik ijtimoiy-iktisodiy faraz" (the secular-democratic socioeconomic hypothesis), deb nomlangan ikkinchi gipoteza aksincha, zamonaviy taraqqiy etgan jamiyatlarda diniylik ijtimoiy faravonlik ortishiga to'sqinlik qiluvchi salbiy omil sifatida baholanadi.

G.Pol xalqaro ma'lumotlar bazasi va hisobotlari nisbatan to'liq qayd etilgan 17 ta rivojlangan demokratik davlatlarning bir qator ko'rsatkichlarini tahlil etish asosida o'z tadqiqotini amalga oshirdi. Tadqiqotda yuqori darajadagi diniylikka ega bo'lgan

mamlakatlardan past ko'rsatkichli davlatlar ketma-ketligi asosidagi quyidagicha ro'yxat shakllantirilgan: AQSH, Irlandiya, Italiya, Avstriya, Shveysariya, Ispaniya, Kanada, Yangi Zelandiya, Avstraliya, Niderlandiya, Norvegiya, Angliya, Germaniya, Fransiya, Daniya, Yaponiya, Shvetsiya.

U jamiyat farovonligini quyidagi 25 ta ijtimoiy-iqtisodiy ko'rsatkichlar asosida baholadi: qotillik, o'z joniga qasd qilish(yoshlar o'rtasidagi suidsid alohida o'rganilgan), bolalar o'limi soni, umr ko'rish davomiyligi, so'zak va zaxm kasalliklariga uchrash holatlari (o'spirinlar orasida mazkur kasalikka chalinish alohida o'rganilgan), voyaga yetmaganlar orasidagi abortlar miqdori, 15-17 yosh o'rtasida ayollari tug'rug'i, nikoh va ajrimlar soni, spirtli ichimliklarni istyemol qilish, hayotdan qoniqish hosil qilish darajasi, aholi jon boshiga daromad miqdori, mol-mulk ko'rsatkichlardagi nomutanosiblik, qashshoqlik, korrupsiya, ishsizlik, jamiyatning getrogenlik darajasi, muhojirlar adadi va ekologik holat va boshqa ko'rsatkichlar(Paul G., 2009:441). Maqolada tadqiqot olib borilgan mamlakatlarda mazkur ko'rsatkichlar o'rtasidagi munosabatlar batafsil tahlil qilinadi. Tadqiqot xulosasiga ko'ra, aholi o'rtasida dindorlik ko'rsatkichlari qanchalik yuqori bo'lsa, ijtimoiy farovonlik darajasi shu qadar past bo'lishini ko'rsatdi. Uning fikricha, diniylik – nisbatan yuzaki, moslashuvchan va o'zgaruvchan psixologik mexanizm bo'lib, u ijtimoiy-iqtisodiy barqarorligi va himoyalaniishi past ko'rsatkichga ega bo'lgan jamiyatlarda stress va xavotirni yengishga yordam beradi. Shuningdek, uommaviy ravishda “Yaratuvchi-Xudo”dan voz kechishni insonlarning hayotiy sharoitlarni yaxshilashga qaratilgan tabiiy munosabati deb baholaydi.

Mazkur ikki kategoriyalarni o'zaro qiyoslash maqsadga muvofiq emas. Birinchidan, din inson va jamiyat ma'naviy hayotining muhim qismi bo'lsa-da, bevosita moddiy farovonlikni belgilovchi omili bo'la olmaydi va diniylik xalq madaniy taraqqiyotining yagona sababi va manbai emas. Ikkinchidan, sekulyarlashuv aniqlanishi kerak bo'lgan faraz emas, balki ijtimoiy-madaniy sohada yaqqol namoyon bo'lgan hamda o'z tasdig'ini topgan jarayondir.

Dunyoviylikning bosh mezonlari erkinlik bo'lsa-da, mazkur masalada asosiy e'tibor inson huquq va erkinliklarining umume'tirof etilgan xalqaro standartlari, demokratik tamoyillar hamda dunyoviy ta'limga qaratiladi. Turli dunyoqarashlarga nisbatan neytral yondoshuv va yuridik asosga ega dunyoviy jamiyat institutlari va diniy tashkilotlarning mustaqil faoliyati garovidir. Shu ma'noda, sekulyar jamiyat muayyan dinga oid yoki ateistik xarakterdagi va yana boshqa turdagi mafkuralarni mutloqlashtirishga yo'l qo'ymaydi. Bunda diniylik dunyoviylikning ajralmas qismi sifatida uning mezonlariga moslashishni taqazo etadi.

Shu bois dunyoda sodir bo'layotgan demokratik jarayonlarda turli diniy tashkilotlarning ijtimoiy-siyosiy faolligi ortib, insoniyatning mushtarak manfaatlarini ifodalovchi qadriyatlar tizimi sifati namoyon bo'lishga intilmoqda. Xususan XX asr o'rtalaridan boshlab jahon dinlari hisoblangan xristianlik, islom va buddaviylik ta'limotlarining yetakchilari demokratiya, konstitusion davlat, dunyoviy ta'lim, inson xuquqlari, vijdon erkinligi masalalari ularning e'tiqodlariga zid emasligi borasida qator hujjatlar imzoladi. Bu esa, diniy ta'limotlarning dunyoviylik tamoyillariga muvofiqlashtirish natijasida o'zro uyg'unlikka erishishga intilayotganidan darak beradi.

Xulosa sifatida shuni ta'kidlash joizki, birinchidan, dunyoviylik va diniylik bir-

biriga zid tushunchalar emas. Shu ma'noda, har ikki tushunchalarni o'zaro taqqoslash va ulardan birini mutloqlashtirish noo'rin. Zotan ular inson hayotining mohiyatiga turlicha qarash usuli bo'lib, har ikkisining obyekti bitta – inson hayotidir.

Plyuralizm, inson qadr-qimmatini ta'minlashga qaratilgan inson huquqlari dunyoviylik tamoyilining bosh mezoni sifatida inson dunyoqarashida mujassamlanib, uni o'z-o'zini erkin mustaqil subyekt sifatida anglashida muhim ahamiyat kasb etdi. Mazkur tamoyillarni harakatga keltiruvchi ikki mexanizm mavjud bo'lib, birinchisi, davlatni diniy tashkilotdan ajratish, ikkinchisi, davlatning dinlarga nisbatan betarafligi ta'minlashdir.

Tom ma'nodagi dunyoviylik bahs-munozara uchun ochiqlikda davom etsa, turfa axloqiy qadriyatlarni hurmat qilish asosida rivojlansa, universal ijtimoiy mafkuraga aylanadi. Shuningdek, ma'rifat tomonga yo'nalgan, ilm-fanga muvofiq umuminsoniy axloqiy meyorlariga rioya qiluvchi dunyoviy yondoshuvni eng ilg'or va kreativ ong sifatida baholash mumkin.

Diniylik va dunyoviylikning murakkab dialektikasi har ikki tomon uchun alohida ahamiyatlidir. Mazkur ikki qarash o'zining obyektiv va subyektiv omillari hamda makon va zamon xususiyatlariga ega. Diniy ta'limotlarda ulkan ijtimoiy-madaniy salohiyat mavjud. Bu salohiyatdan dunyoviy jamiyat tartib va meyorlariga qat'iy amal qilgan holda ma'naviy axloqiy sohani isloh etishda samarali va ijodiy foydalanish orqali ularning uyg'unligiga intilish zarur.

Nazorat savollari

1. Diniylik atamasiga o'zbek tilida yozilgan adabiyotlarda qandayta'rif berilgan?
2. Dunyovilik va daxrilik o'rtasida qanday bog'liqlik mavjud?
3. Sekulyarizasiya qanday ma'noni anglatadi?
4. Din va ilm qarama-qarshiligi qanday hollarda namoyon bo'di?
5. Jamiyat farovonligi uchun qanday g'oyalar katta ahamiyat kasb etadi?
6. Diniy manbalarda diniylik va dunyoviylik masalalari qanday talqin etilgan?
7. Diniylik va dunyoviylik kategoriyalarining uyg'unligi jamiyat uchun qanday manfaatlar taqdim etadi?
8. Xalqaro diniy tashkilotlar tushunchasiga ta'rif bering va ularning vujudga kelishiga turtki bo'lgan tarixiy omillarni sanab o'ting.
9. Islom hamkorlik tashkiloti (IHT) qachon tashkil etilgan va uning xalqaro maydondagi asosiy vazifalari nimalardan iborat?
10. Butunjahon cherkovlar kengashi kabi xristian tashkilotlarining global ijtimoiy masalalardagi ishtiroki qanday namoyon bo'ladi?
11. **Musulmon olami ligasi (Rabita al-Alam al-Islomiy)** tashkilotining diniy bag'rikenglikni targ'ib qilishdagi roli nimadan iborat?

12. Xalqaro diniy tashkilotlarning xalqaro huquq normalari va BMT hujjatlariga muvofiqligi qanday ta'minlanadi?
13. Diniy qadriyatlar va **Barqaror rivojlanish maqsadlari** o'rtasidagi umumiy nuqtalar (masalan, kambag'allikka qarshi kurash, adolat) qaysilar?
14. Diniy tashkilotlar BRMning 4-maqsadi (Sifatli ta'lim) ga erishishda qanday moddiy va ma'naviy hissa qo'shishi mumkin?
15. Atrof-muhitni muhofaza qilishda (Ekologiya) xalqaro diniy tashkilotlarning «**Yashil din**» konsepsiyalari qanday ahamiyatga ega?
16. BRMning 16-maqsadi — tinchlik va adolatni qaror toptirishda dinlararo muloqotning (Interfaith dialogue) ta'siri qanday?
17. Gumanitar inqirozlar va tabiiy ofatlar paytida xalqaro diniy xayriya tashkilotlarining faoliyati qanday muvofiqlashtiriladi?
18. **Dunyoviy va diniy bilimlar mutanosibligi** tushunchasini qanday izohlaysiz? Nima uchun bu ikki sohani bir-biriga qarama-qarshi qo'yish xato hisoblanadi?
19. O'rta asr Sharq renessansi namoyandalari (Xorazmiy, Beruniy, Ibn Sino) misolida diniy va dunyoviy ilmlarning **uyg'unligini** tushuntirib bering.
20. Jamiyatda «**ma'rifatli islom**» g'oyasini shakllantirishda dunyoviy ta'limning o'rni nimada?
21. Radikalizm va yot g'oyalarga qarshi kurashda diniy savodxonlik va tanqidiy fikrlash (dunyoviy bilim) qanday qalqon bo'ladi?
22. O'zbekistonda dunyoviy davlat qurish jarayonida diniy qadriyatlardan qanday foydalanilmoqda?

Mustaqil ish topshiriqlari

1. Dunyoviy standartlarni jamiyat hayotiga kirib borishi haqida so'zlab bering.
2. O'zbekistonda diniylik va dunyovilikka qanday e'tibor qaratilishini so'zlab bering.
3. Turli olimlar tomonidan diniylik va dunyoviylikka berilgan ta'riflar haqida ko'rgazmali slayd tayyorlang (MS Power Point).

MUSTAQIL TA'LIM MASHG'ULOTLARINING MAVZULARI

Har bir talabaga qiyinchilik darajasi uning shaxsiy imkoniyatlari, qobiliyati va bilim darajasiga muvofiq bogan quyidagi mavzular buyicha mustaqil ish tayyorlash topshiriladi:

Mustaqil ish uchun quyidagi esse mavzular tavsiya etiladi:

1. Dinshunoslik fanining yuzaga kelish tarixi va taraqqiyoti
2. Dunyoviylik - dahriylik emas.
3. Komil inson tarbiyasida Xusayn Voiz Koshifiy ilmiy merosining ahamiyati
4. Globallashuv va sekulyarizatsiya jarayonlari
5. Pravoslav cherkovlari diniy atributlar

6. Beruniy asarlarida diniy marosimlarning yoritilishi
7. Diniy ramzlarning zamonaviy talqinlari
8. Jahon dinlari ibodatxonalari arxitekturasini
9. Yurtimiz allomalarining islom ilmlariga qo'shgan xissalari
10. O'rta Osiyoga pravoslavlilikning kirib kelishi
11. O'zbekistonda shomonlikning zamonaviy ko'rinishlari
12. Ibtidoiy din elementlarining zamonaviy jamiyatlarda o'ziga xos tarzda aks etishi
13. Tangrichilik dinining teologik tizimi
14. Buxoro yahudiylarining diniy marosimlari va bayramlari
15. Xristian dinini yuzaga kelish tarixi va teologik tizimi
16. Xristian dinining yirik yo'nalishlari va oqimlari
17. O'zbekistonda konfessiyalararo diniy bag'rikenglikning tarixiy tajribasi
18. Universalizm va kosmopolitizm g'oyalarining yoshlar ma'naviyatiga ta'siri
19. Fuqarolik jamiyati sharoitida davlat va din munosabatlari.
20. Vijdon erkinligining xalqaro meyoriy-huquqiy asoslari.
21. Dinning ijtimoiy-ma'naviy hayotdagi o'rni.
22. Sharq va G'arbda madaniyatida dinlarning o'rni va ahamiyati
23. Dunyoning konfessional manzarasi.
24. Dunyo xalqlari madaniyatida dinning roli.
25. Markaziy Osiyo xalqlari dinlari.
26. Dinlardagi muqaddas manbalar.
27. Islom ta'limoti asoslari.
28. Islomdagi mazhablar va yo'nalishlar.
29. Tasavvuf: tarix va voqelik.
30. Islom manbalarida diniy aqidaparastlikka munosabat.
31. Mustaqillik yillarida Qur'onning o'zbek tiliga amalga oshirilgan tarjima va tafsirlari
32. O'zbekistondagi diniy tashkilotlar va konfessiyalararo muloqot.
33. Missionerlik va prozelitizm: tarix va bugun, targ'ibot usullari.
34. Diniy ekstremizm va terrorizm: mafkura va amaliyot, qarshi kurash strategiyasi.
35. Yangi diniy harakatlar va sektalar.
36. Vertual makonda din omili.

37. O'zbekistonda mustaqillik yillarida din sohasida amalga oshirilgan islohotlar.
38. Yangi diniy harakatlarning zamonaviy faoliyat uslublari 39. O'zbekistonda mustaqillik yillarida buyulc allomalarning ilmiy-ma'naviy merosiga e'tibor
40. O'zbekistondagi muqaddas ziyoratgohlar: Hakim at-Termiziy majmuasi
41. O'zbekistondagi muqaddas ziyoratgohlar: Qaffol ash-Shoshiy maqbarasi
42. O'zbekistonda mustaqillik yillarda diniy ta'lim tizimida amalga oshirilgan islohotlar.
43. O'zbekiston Respublikasining Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning diniy bag'rikenglik sohasida olib borgan oqilona siyosati.
44. Usmon Qur'onining 0'rta Osiyoga kirib kelish tarixi
45. Imom Buxoriy va Imom Termiziylarning hadis ilmiga qo'shgan hissalari.
46. Hanafiylik mazhabi va uning Markaziy Osiyoga keng tarqalishi tarixi
47. Mamlakatimiz hududida faoliyati kuzatilgan diniy radikal guruhlarining ijtimoiy havfli jihatlari
48. Yetti pir majmuasi tarixi va uning ziyorat turizimidagi ahamiyati.
49. O'zbekiston islom sivilizatsiyasi markazi, Imom Buxoriy nomidagi xalqaro hadisshunoslik markazi va O'zbekiston xalqaro islom akademiyasining ijtimoiy-ma'naviy soha taraqqiyotidagi ahamiyati.
50. Sekulyarlashuv jarayonida davlat va diniy tashlcilotlar o'rtasidagi yangi shakldagi munosabatlar.

Xulosa

Muhtaram tinglovchilar!

Ushbu o'quv qo'llanma doirasida o'rganilgan mavzular tizimi shuni ko'rsatadiki, bugungi murakkab globallashuv davrida diniy va dunyoviy bilimlarning integratsiyasi shunchaki ilmiy ehtiyoj emas, balki milliy xavfsizlik va ijtimoiy taraqqiyotning hayotiy zarurati hisoblanadi. Ma'ruzamizda o'quv kursining eng dolzarb xulosalarini uchta asosiy yo'nalishda ko'rib chiqamiz.

Qo'llanmaning ilk boblaridan boshlab milliy va jahon dinlari (Buddaviylik, Xristianlik, Islom) tarixi hamda g'oyalarining o'rganilishi bizga bir haqiqatni ochib

beradi: din insoniyat tarixida doimo axloqiy o'lchov va madaniy yuksalish asosi bo'lib kelgan. Xususan, Islom dini, uning manbalari va tasavvuf ta'limoti (6-8-mavzular) nafaqat e'tiqod tizimi, balki Sharq renessansining intellektual poydevori bo'lib xizmat qilganini ko'ramiz. Dinni ilmiy o'rganish — o'zlikni anglash demakdir. O'z tarixini va dinining asl mohiyatini bilgan inson har qanday tashqi ma'naviy xurujlarga nisbatan mustahkam qalqonga ega bo'ladi.

Qo'llanmaning 9-mavzusida keltirilgan kiber-makondagi diniy xavflar, fanatizm va ekstremizm masalalari bugungi kunning eng og'riqli nuqtalaridir. Biz shuni anglashimiz kerakki, jaholatga qarshi faqat ma'rifat bilan kurashish mumkin. Missionerlik va prozelitizm — bu nafaqat diniy, balki ijtimoiy barqarorlikka raxna soluvchi siyosiy vositadir. Fundamentalizm va terrorizm esa muqaddas dinimiz nomidan qilinayotgan eng katta jinoyatdir.

Ushbu qo'llanma bizga «qalb va ong uchun kurash» ketayotgan bir paytda, haqiqiy diniy qadriyatlarni soxtasidan ajratish imkonini beruvchi ilmiy filtrni taqdim etadi.

Kursning yakuniy xulosasi (10-11-mavzular) O'zbekistondagi diniy manzara va xalqaro tashkilotlar faoliyatiga bag'ishlangan. Bugungi kunda O'zbekiston o'z taraqqiyot yo'lida dunyoviy davlat qurish tamoyiliga sodiq qolgan holda, diniy qadriyatlarga yuksak ehtirom ko'rsatmoqda. Dunyoviy bilim bizga zamonaviy texnologiyalarni egallash va iqtisodiy farovonlikka erishish uchun kerak. Diniy bilim esa bu texnologiyalarni yovuzlikka emas, balki insoniyat manfaatiga ishlatishni o'rgatuvchi axloqiy tarozidir.

Ushbu o'quv qo'llanmani o'rganishdan ko'zlangan eng oliy maqsad — «Jaholatga qarshi ma'rifat» tamoyili asosida fikrlaydigan, o'z e'tiqodini chuqur biladigan va ayni paytda zamonaviy dunyoqarashga ega bo'lgan «Komil inson»ni tarbiyalashdir.

Ma'rifatli jamiyat hech qachon radikalizm domiga tushmaydi, ma'rifatli yoshlar esa Vatan ravnaqi va xalqaro barqaror rivojlanish maqsadlarining eng ishonchli tayanchidir. Ushbu qo'llanma talaba va kitobxonda «Jaholatga qarshi ma'rifat» tamoyili asosida fikrlashni shakllantiradi. Undagi ma'lumotlar jamiyatimizda dinlararo bag'rikenglik (tolerantlik) madaniyatini yuksaltirishga, milliy va umuminsoniy qadriyatlar uyg'unligini asrashga hamda O'zbekistonning Barqaror rivojlanish maqsadlariga (BRM) erishishiga xizmat qiladi.

Xulosa qilib aytganda, Ma'rifatli inson — yot g'oyalarga berilmaydigan, o'z dinini chuqur hurmat qiladigan va dunyoviy ilm-fan yutuqlari orqali Vatani ravnaqiga hissa qo'shadigan komil shaxsdir.

GLOSSARIY

AVESTO – (qad. eron-pahlaviy. «oʻrnatilgan, qatʻiy qilib belgilangan qonun-qoidalar») zardushtiylikning muqaddas kitobi.

ALTAR – (lot. «baland») xristian cherkovida ibodatxonaning mehrob va minbar oʻrnatilgan eng baland qismi.

ANSORLAR – (arab. «yordam beruvchilar») ilk islom tarixida Makkadan hijrat qilgan Paygʻambar va muhojirlarga yordam bergan madinalik musulmonlar.

APOKALIPSIS (Vahiyнома) – “Yangi Ahd”ning tarkibiy qismi boʻlib, uni “Injil” mualliflaridan biri Ioann ilohiy ilhom orqali yozgan, deb eʼtiqod qilinadi. Ushbu kitobda qiyomat va Isoning ikkinchi qaytishi bilan bogʻliq hodisalar bayon qilingan.

APOSTOL (yunoncha — “elchi”) – xristian taʼlimotiga binoan Isoning eng yaqin yordamchilarining unvoni. Ularning asosiylari 12 ta: Pyotr (Simon Ionin), Andrey, Ioann, Iakov Zevedeyev, Filipp, Varfolomey, Matfey, Foma, Iakov Alfeyev, Faddey, Simon Kananit, Iuda Iskariot (Isoni sotgan havoriy), Matfiy (Iudadan soʻng uning oʻrnini egallagan). Bulardan tashqari yana 70 nafar havoriyalar mavjud boʻlgani xristian adabiyotlarida qayd etiladi.

ATARXURRA (Ozarxurra) – zardushtiylikning muqaddas olovi.

BIBLIYA (yunoncha, «kitoblar») – yahudiylar va xristianlik dinlaridagi asosiy muqaddas manbaning nomlanishi. Yahudiylar «Bibliya»si «Kitve kadesh» va «Tanax» ham deb nomlanadi. Xristianlar tomonidan tan olinadigan «Bibliya» «Qadimgi Ahd» va «Yangi Ahd»dan iborat boʻlib, umumiy hisobda 66 kitobdan iborat.

BIBLIYA JAMIYATI – «Bibliya»ning alohida qismlarini yoki toʻlaligicha dunyo tillariga tarjima qilish bilan shugʻullanadigan jamiyatlar nomi. Bunday jamiyatlar biror bir diniy konfessiyaga qarashli boʻlmay, buyurtma asosida ishlaydi. Ilk

«Bibliya» jamiyati 1804 yilda Britaniyada tuzilgan. Hozirda dunyo boʻyicha 140 dan ortiq shunday jamiyatlar mavjud.

BODDHISATTVA – xudoning nuri, oliy kamolotga erishgan va nirvanaga koʻtarilish huquqiga ega boʻlgan inson.

BOZKURT – Qadimiy turkiy tilda «Kulrang bo‘ri» ma’nosida kelib, tangrichilarning totemi bo‘lgan.

BRAXMAN – sanskrit tilidan olingan bo‘lib «Braxmaga atalgan, o‘zini bag‘ishlagan», degan ma’nolarni bildiradi.

BUTUNJAHON SOBORLARI – xristian cherkovi yepiskoplarining ma’lum diniy masalalarni hal qilish maqsadida o‘tkaziladigan yig‘ilishi. Ilk sobor milodiy 325 yilda Nikeya shahrida bo‘lib o‘tgan. Hozirgacha 21 marta Butunjahon soborlari o‘tkazilgan.

VARANA – Tridandinalarning markazi bo‘lib, unda tarkidunyochilikda hayot kechiradilar.

VAHIYNOMA – rus va boshqa tillarda Apokalipsis. «Yangi Ahd»ning tarkibiy qismi bo‘lib, uni «Injil» mualliflaridan biri Ioann ilohiy ilhom orqali yozgan, deb e’tiqod qilinadi. Ushbu kitobda qiyomat va Isoning ikkinchi qaytishi bilan bog‘liq hodisalar bayon qilingan.

VEDALAR – oriylar o‘zlari bilan olib kelgan muqaddas yozuvlari, sanskrit tilidan tarjima qilinganda «muqaddas, ilohiy bilim» ma’nolarini anglatuvchi Hindistonning asosiy muqaddas manbai.

VIDEVDAT – 22 bobdan tashkil topgan «Avesto»ning saqlanib qolgan eng mukammal bo‘limi.

VOJIB – Qur’oni karimda to‘g‘ridan-to‘g‘ri buyruq kelmagan holda bajarilishi shart bo‘lgan amallar.

GALAXA – yahudiylik shariati.

G‘ARIB – birgina ishonchli odamdan rivoyat qilingan sahih hadis.

GEGIG – tangrichilikda Yer olami.

GOVMARD (forscha, ho‘kiz–odam) – zardushtiylik ta’limotiga ko‘ra, birinchi inson.

GOHI – zardushtiylikda kunning muayyan qismida bajariladigan (Xavan goh – tongdan peshingacha, Raptvin goh – peshindan so‘ng, Uzarin goh – kun botishdan oldin, Aivisrutrim goh – kun botgandan so‘ng, Ushaxin goh – yarim kechadan tongacha ibodatları.

DAXMA – zardushtiylikda yerdan 4–5 metr balandlikda silindr shaklida bo‘lgan maxsus joy bo‘lib, unga o‘liklar ustma–ust tartib bilan yotqiziladi.

DEV VIZARESH – zardushtiylikda inson vafotidan so‘ng uning qilmishi yovuzlik bo‘lsa, jazo beruvchi, do‘zaxga tashlovchi ma’bud.

DENKART («Imon faoliyati») – IX asrda Sosoniylar hukmronligi davrida yozilgan qomusiy lug‘at bo‘lib, u o‘z ichiga badiiy va tarixiy ma’lumotlarni olgan. Dastavval 9 bo‘limdan iborat bo‘lgan, keyinchalik uning 2 qismi yo‘qotilgan.

DIAKON (yunoncha, xizmatchi) – xristian cherkovlaridagi eng quyi ruhoniylilik darajasi.

DINIY MUTAASIBLIK – o‘z aqida va g‘oyalarining shak–shubhasiz to‘g‘riligiga qattiq ishonish, ularga mukkasidan berilganlikni, boshqa firqa va mazhablarga murosasiz munosabatni ifodalovchi qarashlar va xatti–harakatlar majmui.

DINIY SEKTA – ma’lum bir dindagi rasmiy aqidalarga zid ravishda ajralib chiqqan yoki mavjud dinlar va konfessiyalarga umuman aloqasi bo‘lmagan holda din bayrog‘i ostida faoliyat ko‘rsatadigan guruh.

DODGOH – zardushtiylikda hamma uchun ochiq bo‘lgan muqaddas olov yoniq turadigan xona.

DRUDJ – zardushtiylik dinida yolg‘on so‘z.

DUJVARTSHTA – zardushtiylik dinida yovuz fikr.

DUJMATADAN – zardushtiylik dinida yovuz amal.

DUJUXTA – zardushtiylik dinida yovuz so‘z.

YEPISKOP (yunoncha, «nazoratchi») – xristian cherkovidagi ruhoniylar unvoni.

Yepiskoplar havoriylarning izdoshlari, deb hisoblanadi.

JABROIL – Alloh bilan payg‘ambarlar o‘rtasida elchi vazifasini bajaruvchi farishta.

ZAKOT – (arabcha, poklash) ehtiyojdan tashqari bo‘lgan boylikning qirقدan bir qismini (2,5 %) sadaqa qilish. Zakot moli zakot miqdoriga yetgan badavlat kishilar uchun farz etilgan.

IMON – ishonmoq, tasdiqlamoq bo‘lib, istilohda esa «La ilaha illallohu Muhammadun rasululloh» («Allohdan o‘zga iloh yo‘q va Muhammad – Allohning payg‘ambari») kalimasini til bilan aytib (al–iqrор bi–l–lison), dil bilan tasdiqlash (at–tasdiq bi–l–qalb) demakdir.

INJIL – (yunoncha, «Yevangeliye») «Yangi Ahd»dagi Mark, Matto, Luqo va Yuhannolardan rivoyat qilingan kitoblar nazarda tutiladi. Ularda Iso Masihning hayot yo‘li va mo‘jizalari bayon qilingan.

QADIMGI AHD – «Bibliya»ning qismlaridan biri. «Tavrot» (Musoning 5 kitobi),

«Zabur» va boshqa kitoblardan iborat, jami 39 kitobni o‘z ichiga oladi.

KARDINALLAR KOLLEGIYASI – Rim katolik cherkovidagi oliy kengash. Papa o‘rni bo‘shab qolganda uning vazifasini bajarish va yangi Papani saylash vazifalarini bajaradi.

KASTA – hinduiylikda ayni ish bilan shug‘ullanuvchi, otalardan meros qolgan haq, vazifa va odatlar bilan qattiq bog‘langan shaxslar toifasidir. Kasta insonlar tomonidan saylanmaydi va tanlanmaydi, uning ichida faqatgina dunyoga kelish mumkin. Bu tizim 4 sinfdan tashkil topadi.

KIROMUN KOTIBUN – islomda har bir insonning hayoti davomida bajargan har bir amal va so‘zlarini yozib boradigan farishtalar.

KIRXA (nemischa, «cherkov») – lyuteran cherkovlarining nomi.

KOSTEL (polyakcha, chexcha, «cherkov») – Rim katolik cherkoviga qarashli ibodatxonalarga nisbatan ishlatiladigan atama. Ushbu atama pravoslav yoki protestant cherkovlariga nisbatan qo‘llanilmaydi.

KRISHNA – «qora» ma‘nosini anglatadi, o‘zining tabiiy kelib chiqishiga ko‘ra juda murakkab obraz. U haqda olov, chaqmoq, momaqaldirоq, osmon, quyosh bilan bog‘liq afsonalar mavjud. Krishna jangovar, yengilmas qahramon sifatida ta‘riflanadi. U urushda ham, sevgida ham yengilmas bahodir, ammo juda ayyor tabiatga ega.

QUR‘ONI KARIM – Islom dinining birlamchi muqaddas manbasi bo‘lib, 23 yil mobaynida Muhammad payg‘ambar (a.s.)ga Jabroil farishta (a.s.) orqali ba‘zan oyat–oyat, ba‘zan esa to‘liq sura tarzida nozil qilingan ilohiy kitob.

QUT – Quvvat, kuch, energiya manbai. Tangrichilik e‘tiqodiga ko‘ra, u insonning moddiy tirikligi sababidir.

LUQO (Luka) – «Yangshi Ahd» tarkibiga kiruvchi to‘rt Injil mualliflaridan biri. Xristianlik tarixida Bibi Maryamning suratini chizgan birinchi inson sifatida tanilgan. Iso Masihning 70 havoriylari qatoriga kiradi.

MAVZU’ – Rasululloh (a.s.)ga nisbat berilib to‘qilgan yolg‘on hadis.

MAGEN DAVID – Yahudiylik dinining ramzlaridan biri bo‘lmish olti burchakli «Dovud yulduzi».

MAKRUH – bajarilishi yomon sanalgan amal.

MANDUB – bajarilishi tark qilinishidan afzal bo‘lgan amal.

MAHSHAR – qiyomat kuni bandalar yig‘iladigan va savol–javob bo‘lib o‘tadigan joy

MASHHUR – isnod yo‘llarining har birida uchta va undan ortiq shaxslar tomonidan rivoyat qilingan va mutavotir darajasiga yetmagan hadislar.

MEDITASIYA – «fikrlash, o‘ylash», shaxsning o‘z ruhiy faoliyatiga chuqur berilish holati, muroqaba, hikmat va haqiqat haqidagi ilm.

MIRO MOYI (yunoncha, «xushbo‘y moy») – xristianlikning yetti sirli marosimlaridan birida tanaga suriladigan xushbo‘y moy. Ushbu moy cherkov yepiskopi tomonidan oliy navli zaytun moyiga oq uzum vinosi, atirgul yaproqlari, binafsha, zanjabil ildizlari, muskat, atirgul, chinnigul va limon moylari kabi mahsulotlarni qo‘shib qaynatish orqali tayyorlanadi.

MITRA (avesto, do‘stlik, kelishuv) – inson vafotidan so‘ng uning ruhini himoya qiluvchi ezgulik yazatlaridan biri.

MONASTIR – xristianlikda ruhoniylar jamiyatdan ajralib, faqat ibodat bilan shug‘ullanadigan joy, muassasa. Ayollar va erkaklar uchun mo‘ljallangan monastirlar mavjud.

MUQADDAS RUH – xristianlikda Xudoning uch ko‘rinishidan biri. Muqaddas Ruh dunyoning yaralishida ishtirok etgan, Bibi Maryam ham u orqali Isoga xomilador bo‘lgan.

NAQLIY DALIL – aqliy dalildan farqli ravishda naqliy dalil faqat Qur‘on va sunnatga asoslangan.

NIRVANA – inson ichki dunyosining mukammalligi, orzu–istaklari, yashash hissi, qanoat, tarki dunyochilik kabi ruhiy holatni o‘z ichiga olgan oliy intilish.

NOUS – inson vafotidan so‘ng undan qolgan suyaklar saqlanadigan maxsus quticha bo‘lib, u daxmaga qo‘yilgan.

OQ VA QORA RUHONIYLAR – pravoslav ruhoniylari qatlami. «Oq» ruhoniylar oila qurish huquqiga ega, «qora» ruhoniylarga esa oila qurishi mumkin emas.

ORIYLAR – oq tanli qavm hisoblanib, Hazar, ya‘ni, hozirgi Kaspiy dengizining shimoliy, Yevropaning shimoli yoki Turkmaniston mintaqasida miloddan avvalgi XVII – XVI asrdan XII asrgacha turli qabila va guruhlar shaklida yashaganlar.

OTA XUDO – Xristianlikda Xudoning uch ko‘rinishidan biri va asosiysi. Ota Xudo dunyoni yaratgan bo‘lib, uchlikning qolgan ko‘rinishlari (O‘g‘il Xudo va Muqaddas Ruh) undan kelib chiqqan.

OXIRAT KUNI – odamlar qayta tirilib, hayoti davomida bajargan har bir amali uchun hisob–kitob qilinadigan kun. U Qiyomat kuni deb ham ataladi.

OYAT – (arabcha, «belgi, mo‘‘jiza») Qur‘on suralarini tashkil etuvchi qism, «jummlalar».

PASXA (yunoncha, ivritcha – «yonidan o‘tish») – xristianlikdagi asosiy diniy bayramlardan biri. Iso Masihning qayta tirilgan kuni sharafiga nishonlanadi. Hozirgi kunda Pasxa kuni Oy–Quyosh kalendari asosida hisoblanib, har yili o‘zgarib turadi.

PRESVITER (lotincha, «oqsoqol, jamoa boshlig'i») – xristian ruhoniylilik iyerarxiyasida yuqori o'rinni egallovchi diniy lavozim. Qadimda yepiskoplar ham presviter deb atalishgan.

RIM PAPASINING QARORLARI – turli davrlarda Papa tomonidan chiqarilgan din sohasidagi qarorlar. Rim katolik cherkovi aqidasi binoan Papaning qarorlari ham muqaddas ahamiyatga ega.

ROHIB (yunoncha, monax – «zohid») – xristianlikda dunyoviy lazzatlardan tarkidunyochilik qilib, faqat ibodat bilan shug'ullanuvchi shaxs.

SANGHA – «oliy haqiqat»ga yetishgan avliyolar, Budda asos solgan va hozirgacha faoliyat ko'rsatib kelayotgan rohiblar jamoasi.

SAOSHYNTA – xaloskor, zardushtiylikka ko'ra, dunyoga 3 nafar saoshyanta kelishi lozim. Ular Zardusht ta'limotini qayta tiklaydi, Qiyomatga yaqin ularning oxirgisi Anxra–Maynyu bilan jang qilib, barcha yovuzlik kuchlarini mag'lub etadi.

SINAGOGA (yunoncha, «sinagoge» – «yig'ilish», ibroniycha «beyt kneset» «yig'ilish uyi») – yahudiylilikda asosiy ibodat va marosimlar o'tkaziladigan joy.

SUNNAT – islom shariatiga ko'ra, zimmaga yuklanmagan, lekin bajarilishi talab qilingan amal. U Payg'ambar (a.s.)ning pokiza sayratlari, turmush tarzlari, diniy yo'llaridir. Uchga bo'linadi: qavliy, fe'liy va taqririy.

TIRTXAKAR – jayniylikda yo'l tuzuvchi, ruhlarni ozod qiluvchi.

TO'LIQ INJIL KRISTIANLARI – protestantlikdagi eng yirik yo'nalishlardan biri bo'lgan pyatidestyaniklikning ikkinchi nomi. «Injil»ga haqiqatan amal qiluvchi sof e'tiqod vakillari deb bilganlari uchun ham o'zlariga nisbatan shunday nomni ishlatadilar.

UMAY (Jumay) – tangrichilik e'tiqodiga ko'ra, ayol jinsidagi Yerdagi hayotning sababchisi va makoni Yer yuzida bo'lgan ma'buda, «Hayot onasi» deb e'tiqod qilingan.

FARZ – islom dini ta'limotiga ko'ra, inkor qilib bo'lmaydigan darajada qat'iy dalil bilan bajarilishi talab qilingan amal.

XALOSKOR – yahudiy va xristian atamasida Messiya (ivritcha, mashiax; qadimgi yunoncha, xristos). Yahudiylar aqidasi ko'ra, Xaloskor qiyomatga yaqin kelib yahudiylarni najot sari yetaklaydi. Yahudiy «messiyasi» Dovud avlodidan bo'lishi shart. Xristian aqidasi ko'ra esa, xaloskor bu Iso Masihdir.

HAROM – atamasi islom ta'limotiga ko'ra, inkor qilib bo'lmaydigan darajada qat'iy dalillar bilan bajarilishi taqiqlangan amal.

CHINVAD (ajratish ko'prigi) – inson vafotidan so'ng uning ruhi ezgulik va yovuzlikni ajratuvchi ko'prikdan o'tishi lozim. Chinvad ko'prigida inson ruhi ezgulik yazatlari Sraosha, Mitra va Rashnu himoyasiga o'tsa, abadiy rohat va farog'at makoni Qo'shiqlar uyiga boradi.

SHYEOL (ibr., «ostki, quyi») – yahudiylilik mifalogiyasiga ko'ra, o'liklar dunyosi.

ERLIK – Tangrichilik e'tiqodiga ko'ra, erkak jinsidagi o'lim sababchisi va makoni Yer ostida bo'lgan ma'bud

ADABIYOTLAR

1. O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi. – T.: O'zbekiston, 2007. – 40 b.
2. Vijdon erkinligi va diniy tashkilotlar to'g'risida (yangi tahriri). // O'zbekistonning yangi Qonunlari. 19-son. – T.: Adolat, 1998.
3. Mirziyoyev Sh.M. Tanqidiy tahlil, qat'iy tartib-intizom va shaxsiy javobgarlik – har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo'lishi kerak. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2016 yil yakunlari va 2017 yil istiqbollariga bag'ishlangan majlisidagi O'zbekiston Respublikasi Prezidentining nutqi. // Xalq so'zi gazetasi. 2017 yil 16 yanvar, №11.
4. 2017 – 2021 yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha harakatlar strategiyasi. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 7 fevraldagi PF-4947-sonli Farmoniga 1-ilova // <http://www.lex.uz>.
5. Karimov I.A. Alloh qalbimizda, yuragimizda. «Turkiston press» axborot agentligi muxbirining savollariga javoblar // Karimov I.A. Biz kelajagimizni o'z qo'limiz bilan quramiz. – T. 7. – T.: O'zbekiston, 1999. – B. 349-355.
6. Karimov I.A. Inson, uning huquq va erkinliklari – oliy qadriyat. –T. 14. – T.: O'zbekiston, 2006. – 280 b.
7. Karimov I.A. O'zbekiston XXI asr bo'sag'asida: xavfsizlikka tahdid, barqarorlik shartlari va taraqqiyot kafolatlari // Karimov I.A. O'zbekiston buyuk kelajak sari. – T.: O'zbekiston, 1998. – B. 415-683.
8. Karimov I.A. O'zbekistonning o'z istiqlool va taraqqiyot yo'li // Karimov I.A. O'zbekiston buyuk kelajak sari. – T.: O'zbekiston, 1998. – B. 3-66.
9. Karimov I.A. Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch. – T.: Ma'naviyat, 2008. – 176 b.
10. Alimova M. Dinshunoslikni o'qitishda interfaol uslublardan foydalanishning ahamiyati // Dinshunoslikning dolzarb muammolari. III-to'plam. Ilmiy- amaliy anjuman materiallari. – T.: TIU, 2011. – B.44-47.
11. Alimova M. «Yangi dinlar» – modernizatsiya fenomeni sifatida // Dinshunoslikning dolzarb muammolari. Respublika ilmiy amaliy konferensiya materiallari to'plami. –T.: TIU, 2012. – B.41-43.
12. Alimova M. Millatlararo va dinlararo totuvlikni ta'minlashda O'zbekistonning tarixiy tajribasi // Konfessiyalararo muloqot va diniy bag'rikenglik – jamiyat barqarorligi garovi. Xalqaro konferensiya materiallari to'plami. –Toshkent 2014 yil, 12 noyabr. – B.264-267.
13. Beruniy Abu Rayhon. Qonuni Mas'udiy // Beruniy A.R. Tanlangan asarlar. V tom. Birinchi kitob. – T., 1973. – 590 b.
14. Beruniy, Abu Rayhon. Qadimgi xalqlardan qolgan yodgorliklar // Beruniy A.R. Tanlangan asarlar. I tom. – T., 1968. – 486 b.
15. Васильев Л.С. История религий Востока. Учебное пособие для вузов. – 4-е изд. – М.: «Книжный дом «Университет», 1999. – 432 с.
16. Введение в общее религиоведение: учебник / Под ред. проф. И.Н.Яблокова. – М.: Книжный дом «Университет», 2001. – 576 с.

17. Голиш Л.В., Файзуллаева Д.М. Педагогик технологияларни лойиҳалаштириш ва режалаштириш: Ўқув услубий қўлланма/ Таълимда инноватсион технология серияси. – Т.:ТДИУ, 2010. – 149 б.
18. Горелов А.А. История мировых религий: учебное пособие / А.А.Горелов. 2-изд., испр. – М.: Флинта: МПСИ, 2006. 360 с.
19. Дервиш Р.А., Лавтеева Л.Г., Мусакаева А. Памятники истории религии и культуры в Узбекистане. Пособие для факультатива по истории религии. – Т.: Укитувчи, 1994. – 80 с.
20. Diniy ekstremizm va terrorizmga qarshi kurashning ma'naviy-ma'rifiy asoslari: o'quv qo'llanma / Mas'ul muharrir A.S.Ochildiyev; – Т.: «Toshkent islom universiteti» nashriyot-matbaa birlashmasi, 2008. – В. 246.
21. Dinshunoslik asoslari. O'quv qo'llanma/ mas'ul muharrir: I.Usmonov. – Т.: TIU, 2013. – 319 б.
22. Dinshunoslikning dolzarb muammolari. Ilmiy-amaliy konferensiya materiallari to'plami. – Т. : «Toshkent islom universiteti» nashriyot-matbaa birlashmasi, 2011.
23. Dunyo dinlari tarixi. O'quv qo'llanma / Tuzuvchilar: S. Agzamxodjayev, D.Rahimjonov, N.Muhamedov va b. – Т.: ToshDSHI, 2011. – 262 б.
24. Yovkochev Sh.A. Politizatsiya religii i problema islamskogo ekstremizma v sovremennom mire: uchebnoye posobiye. – Т.:TashGIV, 2003.
25. Зеленков М.Ю. Мировые религии: история и современность: учебное пособие. – Ростов на Дону: Феникс, 2008. – 364 с.
26. Ziyomammedov B. Ta'lim texologiyalari. Metodik qo'llanma. – Т., 2012. – 60 б.
27. Ibragimov E.F. va b. Jahon dinlari tarixi : Mutaxassislik fanidan o'quv - uslubiy qo'llanma. – Т.: TIU, 2007. - 48 б.
28. Ильин В.В., Кармин А.С., Носович Н.В. Религиоведение. – Сп-б.: Питер, 2007. – 240 с.
29. Islom va dunyoviy ma'rifiy davlat (o'zb. va nemis tillarida). / Z.I.Munavvarov va V.Shnayder-Detersning Umumiy tahriri ostida. – Т.: Imom Buxoriy xalqaro jamg'armasi-Fridrix Ebert jamg'armasi, 2003. – 291 б.
30. Islom va hozirgi zamon / O'quv qo'llanma. Mas'ul muharrir SH.Yovqochev. – Т.: «Toshkent islom universiyeti» nashriyot-matbaa birlashmasi, 2010. – 207 б.
31. Islom ma'rifati: asliyat va talqin: o'quv-uslubiy qo'llanma / Mas'ul muharrir Usmonxon Alimov. – Т.: «Toshkent islom universiteti» nashriyot-matbaa birlashmasi, 2011. – В. 158.
32. Islom ma'rifatida dunyoviy va diniy qadriyatlar uyg'unligi / mas'ul muharrir O.Yusupov. – Т.: «Toshkent islom universiteti» nashriyot-matbaa birlashmasi, 2011. – В. 271.
33. Islom. Ensiklopediya: A-H /Z.Husniddinov tahriri ostida. – Т.: «O'zbekiston milliy ensiklopediyasi» Davlat ilmiy nashriyoti. 2004. – 320 б.
34. Islomda sog'lom bola tarbiyasi. / Mas'ul muharrir: I.Usmonov. –Toshkent. «Movarounnahr», 2014.
35. Islomshunoslik qomusiy lug'ati / Mas'ul muharrir Z.M.Islomov. – Т. I. –Т.: Movarounnahr, 2013. – 272 б.

36. Islomshunoslik qomusiy lug‘ati / Mas’ul muharrir Z.M.Islomov. – T. II. –T.: Movarounnahr, 2014. – 432 b.
37. Karomatov H.S. O‘zbekistonda moziy e’tiqodlar tarixi. – T.: JIDU nashriyoti, 2008. – 663 s.
38. Komilov N. Tasavvuf yoki komil inson axloqi. K. 1. – T.: Yozuvchi, 1996. – 272 b.
39. Круглов А.А. Основы религиоведения. – Минск: ТетраСистемс, 2002. – 192 с.
40. Лукашов В.А., Омурова Т.О., Трофимова З.П. Религиоведение. Методика преподавания вузовского курса по 40-часовой программе. – Москва-Воронеж. 2000. – 128 с.
41. Markaziy Osiyo dinlari tarixi / mas’ul muharrir SH.Yovqochev. – T.: Toshkent davlat sharqshunoslik instituti, 2006. – 207 b.
42. Ma’naviyat yulduzlari: (Markaziy Osiyolik mashhur siymoalr, allomalar, adiblar)//Mas’ul muharrir: M.M. Xayrullayev/. – To‘ldirilgan qayta nashri. – T.: A.Qodiriy nomidagi xalq merosi nashr., 1999. – 400 b.
43. Murodov D. Diniy manbalarni o‘rganishning o‘ziga xos xususiyatlari // Dinshunoslikning dolzarb muammolari. 4-to‘plam. – T.: «TIU» nashriyot-matbaa birlashmasi, 2012. – B. 44-47.
44. Muhamedov N. Dinshunoslik fanini o‘qitishda zamonaviy pedagogik texnologiyalarning ahamiyati // Nazariy va amaliy mashg‘ulotlarni o‘tkazishda ilg‘or pedagogik uslublardan foydalanish. Ilmiy-uslubiy materiallar to‘plami. -Toshkent, 2009. -B. 34-37.
45. Muhamedov N. Dinning jamiyatdagi ijtimoiy, ma’naviy va ma’rifiy vazifalari // Ma’naviy va diniy yetuklik - davr talabi. To‘plam. -T.: «Toshkent islom universiteti» nashriyot-matbaa birlashmasi, 2009. -B. 128-135.
46. Muhamedov N. Dinshunoslik fanlarini o‘qitishda uzviylikni ta’minlash // Dinshunoslikning dolzarb muammolari. Ilmiy-amaliy konferensiya materiallari to‘plami. – T. : TIU, 2011. – B. 41-44.
47. Mo‘minov A., Yo‘ldoshxo‘jayev H., Rahimjonov D., Komilov M., Abdusattorov A., Oripov A. Dinshunoslik. // O‘zbekiston Respublikasi Oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirligi tomonidan darslik sifatida tavsiya etilgan. – T.: Mehnat, 2004. – 315 b.
48. Ochildiyev A., Najmiddinov J. Missionerlik: mohiyat, maqsadlar, oqibatlar va oldini olish yo‘llari (yuz savolga yuz javob). – T.: «Toshkent islom universiteti» nashriyot-matbaa birlashmasi, 2009. – B. 200.

Mundarija

Kirish	4
1- mavzu. Dinshunoslik fanining predmeti, maqsadi va vazifalari.....	6-15
2- mavzu. Milliy dinlar.	15-36
3- mavzu. Buddaviylik dini tarixi va g'oyalari.	38-49
4- mavzu. Xristianlik dini tarixi va g'oyalari	50-73
5- mavzu. Islom dini tarixi va mohiyati	74-90
6- mavzu. Islom dini manbalari, aqidaviy maktablari va ularning hozirgi davrdagi ahamiyati	91-107
7- mavzu. Islom fiqhiy maktablari.	108-120
8- mavzu. Tasavvuf ta'limotlarining Sharq madaniyatiga ta'siri. Yangi diniy ta'limotlar va sektalar.....	121-132
9- mavzu. Islom qadriyatlari va ma'rifatining hozirgi davrdagi ahamiyati. Kiber makonda din. Missionerlik va prozelitizmning ijtimoiy- siyosiy xavfi. Diniy fanatizm, ekstremizm, fundamentalizm va terrorizmning tarixi va hozirgi davrda xavfsizlikga tahdidi.	133-141
10- mavzu. O'zbekistonda faoliyat yurituvchi diniy tashkilotlar. Xalqaro diniy tashkilotlar faoliyatining tarixi va ularning barqaror rivojlanish maqsadlariga erishishdagi ahamiyati. Dunyoviy va diniy bilimlar mutanosibligini ta'minlashning ahamiyati.....	142-154
11- mavzu. Xalqaro diniy tashkilotlar faoliyatining tarixi va ularning barqaror rivojlanish maqsadlariga erishishdagi ahamiyati. Dunyoviy va diniy bilimlar mutanosibligini ta'minlashning ahamiyati.....	155-163
Mustaqil ta'lim mashg'ulotlarining mavzulari	164-165
Xulosa	166
Glossariy	167-171
Adabiyotlar	172-174

**TOSHBKOVA MOHIRA XASANOVNA
ORZIQULOV BAXROM XOLMURADOVICH
ORZIQULOVA GULBAHOR USMONOVNA**

DINSHUNOSLIK

O'quv qo'llanma

**Muharrir: Musayev Odil Raxmatovich
Texnik muharrir va sahifalovchi: Toshbekova Mohira
Xasanovna**

**Nashrga ruhsat etildi 2026 y.
Qog'oz bichimi 60×84/16. Hajmi —5.6 b.t.
Adadi — nusxa. Buyurtma №**